

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

FUQAROLIK HUQUQI

DARSLIK

I QISM

Toshkent-2017

67.404 (5Ў)

КБК 67.404 (5Ў)

Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.

Sarlavhada: Toshkent davlat yuridik universiteti.

Darslik mualliflari: Yuldashev J.I. – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – 1-5-mavzular; Borotov M.X. – yuridik fanlar doktori, dotsent – 6-7-mavzular; Topildiyev B.R. – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – 8-mavzu; Imomov N.F. – yuridik fanlar doktori, dotsent – 9-10-mavzular; Ergashev V.Y. – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – 11-15-mavzular; Babaev J.I. – yuridik fanlar nomzodi, dotsent – 16-17-mavzular; Ro‘zinazarov Sh.N. – yuridik fanlar doktori, professor – 18-mavzu; Oqyulov O. – yuridik fanlar doktori, professor – 19-22-mavzular.

Mas’ul muharrirlar:

O. Oqyulov – yuridik fanlar doktori, professor;

Sh. Ro‘zinazarov – yuridik fanlar doktori, professor;

N. Imomov – yuridik fanlar doktori, dosent.

Taqrizchilar:

B.Samarxodjayev – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Fuqarolik huquqi” kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

V.Topildiyev – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti “Fuqarolik huquqi” kafedrasini dotsenti.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyunda qabul qilingan 1990-son qarorida TDYU oldiga qo‘yilgan talablar asosida yozilgan. Darslik Toshkent davlat yuridik universiteti, universitetlarning yuridik fakultetlari, huquq asoslari o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlari talabalariga darslik sifatida tavsiya etiladi. Ushbu darslikdan sud, prokuratura, advokatura, notariat va boshqa organ xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Darslik 2013 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tomonidan tasdiqlangan **“Huquqiy fanlar va predmetlar bo‘yicha yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash kompleks dasturi”** doirasida tayyorlangan.

© **Mualliflar jamoasi.**

© **Toshkent davlat yuridik universiteti, 2017.**

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
GLOSSARIY.....	6
1-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI VA TIZIMI.....	14
2-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQINING MANBALARI.....	33
3-MAVZU. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT.....	45
4-MAVZU. FUQAROLAR – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA.....	60
5-MAVZU. YURIDIK SHAXSLAR.....	76
6-MAVZU. DAVLAT – FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR ISHTIROKCHISI SIFATIDA.....	87
7-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTLARI.....	98
8-MAVZU. BITIMLAR.....	113
9-MAVZU. VAKILLIK VA ISHONCHNOMA.....	125
10-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQIDA MUDDATLAR. DA’VO MUDDATI.....	138
11-MAVZU. MULK HUQUQI.....	154
12-MAVZU. XUSUSIY MULK HUQUQI.....	168
13-MAVZU. OMMAVIY (DAVLAT) MULK HUQUQI.....	177
14-MAVZU. UMUMIY MULK HUQUQI.....	185
15-MAVZU. MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIY HUQUQLARNI HIMOYA QILISH.....	198
16-MAVZU. MAJBURIYAT HUQUQI TUSHUNCHASI, TIZIMI, VUJUDGA KELISH ASOSLARI.....	209
17-MAVZU. MAJBURIYATLARNI BAJARISH.....	224
18-MAVZU. MAJBURIYATLARNING BAJARISHINI TA’MINLASH.....	234
19-MAVZU. FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK.....	248
20-MAVZU. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK.....	261
21-MAVZU. MAJBURIYATLARNING BEKOR BO’LISHI.....	273
22-MAVZU. SHARTNOMA TO’G’RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR.....	285

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bilan bogʻliq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bevosita bogʻliqdir. Bozor munosabatlariga oʻtish, iqtisodiyotda xususiy mulkning mavqeini oshirish, xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng yoʻl ochib berish, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish, raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish ayni kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot liberallashtirib, islohotlar chuqurlashmoqda va kishilarning tafakkuri, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksalmoqda, oʻz mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish borasida amaliy koʻnikmalarga ega boʻlmoqda.

Buning natijasida mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib boʻlmas darajada oʻzgarib bormoqda, ishlab chiqarish va sanoat jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda, uning tarkibi tubdan yangilanmoqda, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligi oshmoqda¹.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar fuqarolik huquqi fani oldiga gʻoyatda muhim vazifalarni qoʻymoqda. Maʼlumki, fuqarolik huquqi yurisprudensiyaning asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Huquqiy munosabatlar tarkibida esa fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosiy mavqeni egallaydi. U mulkiy va shaxsiy huquqlar bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligiga asoslangan mulkiy, shaxsiy va tashkiliy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda, shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni shartnomaviy usulda tartibga solishda, ijodiy faoliyatni huquqiy muhofaza qilishda fuqarolik huquqi muhim oʻrin tutadi. Zero, u kundalik amalga oshiradigan faoliyatimiz, oʻzaro muloqotlar, tashkiliy-xoʻjalik aloqalari, moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarimizni qondirish kabi koʻplab hayotiy munosabatlarni tartibga soladigan, oʻrganadigan huquq sohasi sanaladi. Zero, fuqarolik huquqi alohida huquq sohasi, ilm-fan sohasi va oʻquv predmeti

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сўзи, 2015 йил 6 декабрь.

hisoblanadi. Huquq sohasi ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni tartibga solsa va mustahkamlasa, ilm-fan esa uni o'rganadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlar va tub o'zgarishlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar hamda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va xorijiy rezidentlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni dinamik karakteri huquqshunos kadrlarga nisbatan yangidan-yangi qat'i talablar qo'ymoqda. Bu esa yuridik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyunda qabul qilingan "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1990-son qarori g'oyatda muhim ahamiyatga molik huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu Qaror o'z mohiyatiga ko'ra bu sohada tub ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun huquqiy negiz sifatida baholanishi mumkin. Ushbu qarorning mazmun-mohiyati, unda huquqshunos pedagoglar oldiga qo'yilgan vazifalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari, tadbirlari nihoyatda keng ko'lamli, shuningdek zalvorli hisoblanadi.

Qarorda o'quv jarayonining sifatini tubdan yaxshilash choralari ham e'tibor qaratilgan bo'lib, jumladan, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar shakllarini qo'llagan holda amaliy mashg'ulotlar sifatini ("keys-stadi", ilmiy prezentatsiyalar, jamoada ishlash va boshq.) oshirish zaruriyati ko'rsatib o'tildi.

Butun dunyo huquq tizimlarida sivilistika deb ataluvchi mazkur huquq sohasi tartibga soluvchi munosabatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borgan. Shu sababli, zamonaviy yurist fuqarolik huquqi fanini puxta o'zlashtirgan taqdirda yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi mumkin.

Yangi avlod huquqshunos kadrlarni tayyorlashda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarni hisobga olgan holda darslik va qo'llanmalar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikni yozishda sivilistika ilmi erishgan eng so'nggi yutuqlardan ijodiy foydalanildi hamda amaldagi qonun hujjatlari va ularga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar e'tiborga olindi.

Darslik fuqarolik qonun hujjatlariga 2017-yil 1-yanvargacha kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar asosida yozilgan.

GLOSSARIY

Abstrakt bitim – haqiqiyliги muayyan asos - maqsad bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan bitim.

Ashyolar – muayyan moddiy qiymatga ega bo‘lgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo‘la oladigan narsalar.

Ashyoviy huquq – ashyoni egallash, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq huquq.

Birgalikdagi mulk – mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo‘yilmagan mol-mulk.

Bitim – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar.

Cheklangan javobgarlik – majburiyatlarning ayrim turlari bo‘yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qonunda zararni to‘la qoplashga bo‘lgan huquqning cheklanishi.

Da‘vo muddati – shaxs o‘zining buzilgan huquqini da‘vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir.

Davlat korxonasi – davlat mulkidagi, o‘ziga operativ boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir.

Fidustiar bitim – taraflarning o‘zaro ishonchiga asoslanadigan bitimlar.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) – O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Fuqarolik huquq layoqati – fuqarolarga o‘zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati.

Fuqarolik huquqi – yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir.

Fuqarolik huquqi (o‘quv kurs sifatida) – fuqarolik huquqi predmeti va metodlariga nisbatan fuqarolik huquqi fanining xulosalari va qonunlari, fuqarolik qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning mazmuni, ijtimoiy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy boshqaruvi mexanizmi, fuqarolik qonunchiligining paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganadi.

Fuqarolik huquqi fani – fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liq tushunchalar, kategoriyalar, qarashlar, xulosalar,

mulohazalar, fikrlar, konsepsiyalar va nazariyalar tizimini o‘zida ifoda etgan yurisprudensiyaning asosiy tarmog‘i.

Fuqarolik huquqi funksiyalari – mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.

Fuqarolik huquqi metodi – bu mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar bilan bog‘liq ijtimoiy sohada yuridik usullar yig‘indisi, yuridik ta’sir vositalarini qo‘llashni ifoda etuvchi tartib va qoidalar yig‘indisidir.

Fuqarolik huquqida muddat – aniq belgilangan, o‘tishining boshlanishi va tamom bo‘lishi muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishga qaratilgan paytlar va vaqt davrlari.

Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari (prinsiplari) – bu barcha fuqarolik qonunlari mazmuniga singdirilgan asosiy, boshlang‘ich qoidalardir.

Fuqarolik qonun hujjatlari – fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladigan FK va boshqa qonun hujjatlari yig‘indisi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat – yuridik jihatdan teng bo‘lgan shaxslar o‘rtasida bo‘ladigan va fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.

Fuqarolik-huquqiy munosabat elementlari – ushbu huquqiy munosabatning subyektlari, mazmuni va obyektlari.

Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari – fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari - fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatdir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatning mazmuni – shu munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va burchlari.

Fuqarolik-huquqiy munosabatning obyeksi – fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari qaratilgan hamda subyektiv huquqlari va majburiyatlari belgilangan moddiy va nomoddiy ne’matlar.

Garov – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta’minlash uchun berishi.

Garov turlari – zakalat, ipoteka, huquqlar garovi.

Harakatlar – fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxs (yoki shaxslar)ning erki bo'yicha qilinadigan huquq yo'l qo'ygan va huquq yo'l qo'ymagan xatti-harakati (yuridik faktlar).

Homiylik – o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shaklidir.

Huquq manbasi – huquqni ifoda etilishining yuridik shakli.

Huquqiy odat – uzoq davr mobaynida amalda bo'lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasi.

Insofli egallovchi – mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan haq to'lab olgan, buni bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan shaxs.

Insofsiz egallovchi – o'z egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan shaxs.

Ish muomala odati – biror-bir hujjatda yozilgan-yozilmaganidan qat'i nazar tadbirkorlik faoliyatining biror-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan xulq-atvor qoidasi.

Ishlab chiqarish kooperativi – fuqarolarning shaxsiy ishtiroki a'zolarining (ishtirokchilarning) mulki bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi.

Ishonchnoma – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat.

Jamoat birlashmalari – ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari.

Jamoat fondi – yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Kafillik – bir shaxs - kafilning boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olishi.

Kafolat – bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga

olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat berishi.

Kazual bitim – mazmun jihatidan muayyan maqsadga erishishga qaratilgan va haqiqiy deb hisoblanishi uchun mavjud asosga bevosita bog'liq bo'lgan bitimi.

Konsensual bitim - huquq va majburiyatlarni o'zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keladigan bitimga aytiladi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitim hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati.

Matlubot kooperativi – ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'ziligiga asoslangan, uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladigan ixtiyoriy birlashma.

Mayda maishiy bitim – fuqarolarning kundalik maishiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va summasi yuqori bo'lmagan bitimlar.

Mol-mulk – ma'lum shaxsga (fuqaro yoki yuridik shaxsga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashyolar yoki ashyolarning yig'indisi.

Muassasa – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

Muddatli bitimlar - taraflar huquq va majburiyatlarining vujudga kelish yoki bekor bo'lish vaqti ko'rsatilgan bitimlarga aytiladi.

Mulk – mulkdorning o'z mol-mulkiga nisbatan, uchinchi shaxsning o'zganing mol-mulkiga hamda mulkdor va ashyo o'rtasidagi aloqadorlikka nisbatan munosabati.

Mulk huquqi – shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi.

Mulkiy munosabatlar – ishtirokchilarning tengligiga, qiymat harakteriga, tekinga yoki haq evaziga amalga oshirilishiga, munosabat ishtirokchilarining xatti-harakatlari bevosita ularning o'zlari tomonidan baholanishiga asoslanadigan vujudga kelish asosida mol-mulk va moddiy ne'matlar yotadigan munosabatlardir.

Mulkiy harakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlar – shaxsning o‘zi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va undan begonalashtirilmaydigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar.

Munitsipal mulk – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budjet mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta‘limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk.

Muomala layoqati – fuqarolarning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o‘zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir.

Navbatdagi garov – garovga qo‘yilgan mol-mulk boshqa talablarni ta‘minlash uchun yana bir garov narsasiga aylanishi.

Negator da‘vo – mulkdor o‘z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi.

Neustoyka – qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi.

Neustoyka shakllari – jarima yoki penya.

Nomoddiy ne‘matlar – qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan hamda egasining shaxsidan ajratish mumkin bo‘lmagan ne‘matlar va erkinliklar.

Oilaviy korxonona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizastiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Ommaviy mulk huquqi – Respublika mulki va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulk shakli.

Ommaviy shartnoma – tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o‘z faoliyati xususiyatiga ko‘ra o‘ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo‘lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo‘lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta‘minlash, tibbiy xizmat, mehmonxonona xizmati va sh.k.) belgilab qo‘yadigan shartnoma.

Operativ boshqarish huquqi – davlat korxonasi, shuningdek muassasasining o‘zlariga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan

qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi.

Pul – iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti.

Qaram jamiyat – xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan xo'jalik jamiyati.

Qimmatli qog'oz – mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjat.

Qo'shilish shartnomasi – shartlarini taraflardan biri formulalar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnoma.

Real bitim – o'zaro kelishuvga muvofiq, ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimlardir.

Respublika mulki – yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budjetining mablag'lari, oltin zahirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budjet yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulk.

Servitut (lotincha "servire" – xizmat ko'rsatish) – o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi.

Shartli bitim – taraflar o'rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo'lishi, biror-bir shartga bog'lab qo'yilishidir.

Shartnoma – ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi.

Sho'ba xo'jalik jamiyati – bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lgan xo'jalik jamiyati.

Subyektiv huquq – muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli huquqdir.

Subsidiar javobgarlik – qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘shimcha ravishda javobgarlik.

Tijorat vakilligi – bir shaxsning tadbirkorlar shartnomalar tuzayotganida ikkinchi shaxs nomidan doimo va mustaqil suratda vakillik qilishi.

Turar joy – fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar deb hisoblanadi.

Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma – taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmagan, qarzdordan majburiyatni o‘z foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘lgan uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qo‘ygan shartnoma.

Ulushli mulk – mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo‘yilgan mol-mulk.

Umumiy mulk – ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo‘lgan mol-mulk.

Vakillik – bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlarni amalga oshirishi.

Vakolat – vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq.

Vasiylik – o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yetim bolalarni va otanasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli hisoblanadi.

Vindikatsiya – mulkdor o‘z mol-mulkinini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishi.

Xo‘jalik shirkati – muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo‘lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo‘lgan tijorat tashkiloti.

Xo‘jalik yuritish huquqi – bu unitar korxonasiga o‘z tijorat faoliyatini yuritish maqsadida, mulkdor tomonidan birlashtirilgan mol-mulkdan foydalanishi bo‘yicha cheklangan ashyoviy huquq.

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot.

Xususiy mulk huquqi – shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Xususiy mulk huquqining obyektlari – qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk.

Xususiy mulk huquqining subyektlari – fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar.

Yashash joyi – fuqaroning doimiy yoki muqim istiqomat qilib turgan joyi.

Yuridik faktlar – fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor bo‘lishi bilan bog‘liq harakatlar.

Yuridik shaxslar smetasi – muassasaga uning xarajatlarini qoplash maqsadida mulkdor tomonidan birlashtirilgan mol-mulklar yig‘indisini o‘zida ifodalovchi vositalar.

Zakalat – shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta‘minlash yuzasidan beradigan pul summasi.

1-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI VA TIZIMI

Fuqarolik huquqi tushunchasi, xususiyatlari va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi. Fuqarolik huquqi tamoyillari. Fuqarolik huquqining funksiyalari. Fuqarolik huquqi tizimi.

Fuqarolik huquqi tushunchasi, xususiyatlari va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi

Huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, kishilar muayyan jamiyatda, muayyan mamlakatda, muayyan davlatda bir-birlari bilan o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishgan holda yashaydilar. Ushbu ijtimoiy munosabatlar orqali ular o'zlarining moddiy, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qanoatlantiradilar, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradilar. Bunday o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor va xatti harakat qoidalarining turlicha modellari o'tmishda mavjud bo'lgan. Masalan, bularning eng ibtidoiy shakli "o'rmon qonuni" deb ataladi. Bunda kuchli shaxs boshqalar uchun xatti-harakat qoidalarini belgilaydi. Boshqalar kuchli shaxsga xizmat qiladilar, kuchli shaxs erk-irodasi ushbu munosabatlar karakterini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Zo'ravonlikka asoslangan bunday modelda manfaatlar uyg'unligi bo'lmasligi o'z o'zidan ma'lum. Ikkinchi bir holatda esa, har bir shaxs o'zi uchun va boshqalar uchun xatti-harakat qoidalarini belgilashga urinadi. Natijada manfaatlar to'qnashuvi vujudga keladi. Bu esa o'z o'zidan tartibsizlikka, anarxiyaga, xaosga olib keladi.

Kishilik jamiyati yuqoridagi modellar samarasizligini boshidan kechirib, eng maqbul uchinchi model – madaniy sivilizatsiya jamiyati modelini yaratgan. Bunga ko'ra kishilar o'zlarining odatdagi, doimiy, kundalik munosabatlarida asrlar davomida sinovdan o'tgan, sayqallangan adolat, oqilonalik, manfaatlar uyg'unligiga xizmat qiladigan xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqishgan, o'rnatishgan va bu davlatning tegishli yuridik kuchi vositasi bilan ta'minlanadi. Bunday munosabatlarning keng doirasi fuqarolik huquqiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz milliy huquq tizimidagi etakchi huquq tarmoqlaridan biri bo'lib fuqarolik huquqi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi

mamlakatimizda bozor munosabatlari keng rivojlanayotgan, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan, kishilarni imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash maqsadlarida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy harakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

Boshqacha qilib aytganda, fuqarolik huquqi – huquqiy jihatdan tenglikka, mulkiy jihatdan mustaqillikka va erk muhtoriyatiga asoslangan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir.

Jamiyatda barcha huquq sohalari yagona huquq tizimini tashkil etadi. Ushbu huquq sohalari odatda ikki asosiy huquq tizimlariga ajratiladi: ommaviy huquq va xususiy huquq tizimlari. Ommaviy huquq tarkibiga kirgan huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar tikka chiziq (vertikal) ahamiyatga ega bo‘lgan, ya‘ni bir tarafning ikkinchi tarafga ma‘muriy bo‘ysunishiga asoslangan munosabatlardan iborat.

Xususiy huquq ham muayyan huquq sohalaridan tashkil topgan huquq tizimidan iborat. Ushbu tizimga kirgan huquq sohalari vositasida jamiyat a‘zolari, davlat tashkilotlarining xususiy manfaatlari ifodalangan, mustaqillik va yakka mulkdorlarning (jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar) tashabbuskorligiga asoslangan munosabatlar tartibga solinadi. Bunday munosabatlar yoyiq chiziq (gorizontal) ahamiyatga ega bo‘lgan, ya‘ni bir tarafning ikkinchi tarafga huquqiy jihatdan bo‘ysunishiga asoslanmagan, mustaqillik va teng huquqqa ega bo‘lgan ishtirokchilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlardan iborat¹.


Mamlakatimizda va xorijiy yuridik adabiyotlarda «xususiy huquq» iborasi ham ishlatiladi. Tor ma‘noda xususiy huquq aynan fuqarolik huquqini anglatadi. Keng ma‘noda xususiy huquq tarkibiga fuqarolik huquqi bilan birga oila huquqi, mehnat huquqi va tadbirkorlik huquqi sohalari kiradi.

Fuqarolik huquqining mohiyati u tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmunida o‘z ifodasini topadi. Yuqorida bunday

¹ Раҳмонкулов Х.Р. Ўзбекистон Республикасининг миллий ҳуқуқ тизими. Ўқув қўлланма. Т.: 2004. -6-7 б.

ijtimoiy munosabat g'oyatda keng doirani qamrab olishi qayd etib o'tilgan edi. Bunday munosabatlar, eng avvalo, kishilar va boshqa subyektlar o'rtasidagi moddiy va nomoddiy ne'matlarga nisbatan odatdagi kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan doimiy, takrorlanib turuvchi harakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilashga bag'ishlangan. Unga ko'ra fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bunday munosabatlarning asosiy qismini mulkiy munosabatlar tashkil qiladi.




Mulkiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra mol-mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar, u mohiyatan moddiy-iqtisodiy munosabat hisoblanadi. Ya'ni, turli moddiy ashyolar, ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, umuman kishilarning fuqarolik huquqining boshqa subyektlarini xuddi shunday mahsulotlarni yaratish, egallash, foydalanish,

tasarruf etish, fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Albatta, moddiy-iqtisodiy, mulkiy munosabatlarning barchasi ham fuqarolik huquqiy normalar ta’siri ostida emas. Ularning ba’zilari huquqning boshqa tarmoqlari bilan ham tartibga solinadi. Jumladan, bir subyektning ikkinchi subyektga ma’muriy bo‘ysunishi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy munosabatlar ma’muriy huquq normalari bilan, turli subyektlardan soliqlarni undirish va ularni to‘plash bilan bog‘liq munosabatlar soliq huquqi bilan, to‘plangan pul mablag‘larini budjet orqali taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar moliya huquqi bilan, yer, o‘rmon bilan bog‘liq munosabatlar yer huquqi normalari bilan, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqiy normalar asosan muayyan ekvivalentlik (barobarlik, teng qiymatlik) bo‘yicha belgilanadigan qiymat, baho, hajm, miqdor bilan ifodalanadigan va ishtirokchilari teng darajada ko‘riladigan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Mulkiy munosabatlardagi ekvivalentlik subyektlarni manfaatdorligini va adolatni ta’minlovchi mezon hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy normalar orqali moddiy-iqtisodiy munosabatlar maxsus yuridik shaklda ya’ni, mulkiy huquqiy munosabatlar shaklida rasmiylashtiriladi va mustahkamlanadi.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar ham ishlab chiqarish munosabatlarining ham iste’mol munosabatlarining huquqiy shakli sifatida ko‘riladi. Bunday munosabatlarga subyektlar o‘z erki irodasi bilan, o‘z manfaatlarini ko‘zlab kirishadilar. Bu holat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning eng muhim belgisi hisoblanadi.



Mulkiy munosabatlarning katta guruhini mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan mulkiy huquqlarning vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish tartibi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tashkil etadi. Jumladan, xususiy mulkdor va uning vakolatlari, ommaviy mol-mulkning huquqiy rejimi,

ixtirolar, fan, adabiyot, san'at asarlarini tijorat muomalasida bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar shular jumlasidandir.

Shartnoma majburiyatlarining ko'pchiligi ham mulkiy harakterga ega bo'ladi. Bular jumlasiga oldi-sotdi, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish, turar-joylarni ijaraga berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, yuk va yo'lovchilar tashish bilan bog'liq shartnomalarini kiritish mumkin.

Fuqarolik kodeksining 2-moddasida shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlar bilan bog'liq majburiyatlar haqida ham so'z yuritiladi. O'zga munosabatlar bunday boshqa majburiyatlar zarar yetkazish (delikt) bilan bog'liq munosabatlar, qonuniy vorislik bilan bog'liq munosabatlar, asossiz boylik orttirish (kondikt) bilan bog'liq munosabatlar bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy normalar ta'siri ostida bo'lgan mulkiy harakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi. Mulkiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan sof shaxsiy munosabatlar (shaxsiy nomulkiy munosabatlar)ga bo'linadi. Mulkiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarda mulkiy munosabat shaxsiy munosabatlarni keltirib chiqaradi yoxud aksincha shaxsiy munosabat mulkiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, ijodkor ijodiy asarini yozishi natijasida uni o'z asariga nisbatan mualliflik huquqi ya'ni, muallif sifatida e'tirof etilish shaxsiy huquqi vujudga keladi va ushbu huquq negizida asar tijorat muomalasiga kiritilsa, asardan foydalanganlik uchun haq olish huquqiy vujudga keladi. Bundan tashqari xizmat tartibida berilgan topshiriq natijasida haq olgan xodim tomonidan intellektual mulk obyektini yaratiladi hamda ushbu obyektga nisbatan unda mualliflik huquqi vujudga keladi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan sof shaxsiy munosabatlar baho, qiymat bilan ifodalanmaydigan, subyektdan begonalashtirilishi mumkin bo'lmagan, uning muayyan xususiyatlari ya'ni, sha'ni, qadr-qimmatini, o'z tasviriga bo'lgan huquq, xususiy hayot sirlari, oilaviy sirlari, shaxsni individuallashtirish xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlardir. Masalan, har qanday fuqaro jamiyatda kishilar o'rtasida o'zining ismi-sharifi bilan taniladi (FKning 19-moddasi). Bunday shaxsiy huquqlar qonunda belgilangan yoki belgilanmaganidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin. so'nggi vaqtlarda shaxsiy huquqlarni amalga oshirish va huquqiy muhofaza qilish sohasida fuqarolik qonun hujjatlari doirasi kengayib borayotganligini ta'kidlash lozim. Masalan, personal ma'lumotlar, diffamatsiya va h.k.

Binobarin fuqarolik huquqiy munosabatlar quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

1) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari (fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat)ning huquqiy holatini vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar. Fuqaroning huquq va muomala layoqati mazmuni, yuridik shaxslarni tashkil etish va boshqarish tartibi, davlatning fuqarolik huquqiy munosabatda ishtirok etishining o‘ziga xos xususiyatlari;

2) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar;

3) intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlar, ularni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar;

4) shartnoma majburiyatlari bilan bog‘liq munosabatlar;

5) boshqa majburiyatlar bilan bog‘liq munosabatlar;

6) boshqa mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlar. Fuqarolik kodeksi 2-moddasi to‘rtinchi bandiga asosan mulkiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy nomulkiy munosabatlar agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki bu munosabatlar mohiyatidan o‘zgacha hol anglashilmasa fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Masalan, oilaviy huquqiy munosabatlarda ixtiyoriy aliment to‘lash fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadi. Alimentni majburiy tartibda undirish esa oila huquqi bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni uchinchi turini korporativ munosabatlar tashkil etadi. Korporativ munosabatlar uni tashkiliy-huquqiy munosabatlar deb ham atashadi. Yaqqol namoyon bo‘ladigan mulkiy ham, shaxsiy ham harakterga ega bo‘lmay, balki ko‘proq tijorat yuridik shaxslarini tashkil etish, ularni faoliyatini amalga oshirish, boshqarish, qayta tashkil etish, tugatish bo‘yicha uning muassislari, mulkdorlari, ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bo‘lib hisoblanadi. Masalan, tijorat yuridik shaxsni tashkil etish bo‘yicha umumiy yig‘ilishni chaqirish, uning ta‘sis hujjatlarini ishlab chiqish, tijorat yuridik shaxsi faoliyati to‘g‘risida, tijorat yuridik shaxs boshqaruv organlarining ishtirokchilarga axborot berishi kabilar.

Korporativ munosabatlar Fuqarolik kodeksining 2-moddasida o‘z ifodasini topmagan. Biroq, ularning mavjudligi, o‘ziga xos xususiyatlari xo‘jalik protsessual qonunchiligida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, korporativ munosabatlar harakteri tijorat yuridik shaxslar huquqiy maqomini belgilovchi qator qonunlar, jumladan “Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, “Xo‘jalik

shirkatlari to'g'risida"gi qonun va shu kabi qonunlarda o'z ifodasini topgan¹.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik huquqi ushbu munosabatlarni tartibga solish uslubi va bunday munosabatlarni doirasi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolik huquqi bilan yondosh, turdosh bo'lgan huquq sohalari –oila huquqi, mehnat huquqi, xalqaro xususiy huquq hisoblanadi. Ular bilan umumiylik shundan iboratki, fuqarolik huquqining ko'pgina kategoriyalari, institutlari ushbu turdosh huquq sohalarida ham qo'llaniladi. Shuningdek, fuqarolik huquqiy normalar ushbu huquq tarmoqlari uchun subsidiar huquqiy tartibga solish funksiyasini bajaradi. Lekin ular o'rtasida alohida o'ziga xosliklar ham mavjud. Masalan, oila huquqi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni o'rgansa ham, undagi ishtirokchi subyektlar doirasi cheklangan. Oila huquqi er-xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi, yaqin qarindoshlar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi, farzandlikka olish, davlat organlarining oilani mustahkamlash, oilaga, voyaga yetmagan bolalarga moddiy yordam ko'rsatishga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Nikoh va oilaga oid munosabatlar maxsus huquqiy manba – O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Oila huquqida shaxsiy huquqiy munosabatlar ustunlik qiladi va uning hosilasi sifatida mulkiy munosabatlar vujudga keladi. Ushbu holat oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabat mohiyatini aks ettiradi. Masalan, mulkiy harakterdagi aliment majburiyatlari boshqa mulkiy majburiyatlardan emas balki, shaxsiy, oilaviy (nikoh asosida er-xotinlik, bobo va nabira o'rtasidagi qarindoshlik) munosabatidan kelib chiqadi.

Oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar doirasi qonun bilan qat'i belgilab qo'yilgan. Jumladan, ota-onaning o'z voyaga yetmagan farzandarini boqish va tarbiyalash majburiyati, voyaga etgan bolalarning mehnatga layoqatsiz ota-onalariga ta'minot berish majburiyati. Bu o'rinda shuni ham unutmash lozimki, ba'zi mulkiy munosabatlar garchi ular oila a'zolari o'rtasida amalga oshirilsa ham masalan, oldi-sotdi, hadya, ijara, ayirboshlash shartnomasi oila huquqi normalari bilan emas, balki fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar mehnat munosabatlari hisoblanadi va alohida huquq tarmog'i bo'lgan mehnat huquqi bilan tartibga solinadi. Mehnat shartnomasi, mehnat muhofazasi, mehnat intizomi, ta'tillar, ish haqi va mukofotlar, ish vaqti va dam olish

¹ Раҳмонкулов Х.Р., Гуломов С.С. Корпоратив ҳуқуқ. Дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2006. 474 б.

vaqti, ijtimoiy sug'urta va mehnat bilan bog'liq boshqa huquqiy munosabatlar garchi xususiy munosabatlarga o'xshab ketsa ham mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari tizimini shakllanishi va rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish va tadbirkorlik subyektlari huquqiy maqomini belgilash bo'yicha munosabatlar sohasiga alohida yondashuv bo'lishini taqazo etmoqda. Bugungi kunda bu sohada juda ulkan normativ-huquqiy negiz mavjud. Shu munosabat bilan tadbirkorlik huquqi (biznes huquqi, xo'jalik huquqi) alohida huquq tarmog'i mavjud degan nuqtayi nazarlar ham ilgari surilgan. Bu o'rinda shuni qayd etish o'rinliki, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normalar ko'lami fuqarolik-huquqiy harakterga ega (tijorat yuridik shaxslari maqomi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni rasmiylashtiruvchi xo'jalik shartnomalari va shu kabilar). Shu sababli ham ba'zi olimlar tadbirkorlik huquqi mustaqil huquq tarmog'i emas, balki kompleks huquq tarmog'i (ya'ni, o'zida ham fuqarolik-huquqiy ham ma'muriy-huquqiy normalarni birlashtiruvchi) deb hisoblaydi. Boshqa olimlar esa, tadbirkorlik huquqini alohida huquq tarmog'i sifatida tan oladilar. Ushbu masalalar bo'yicha ilmiy muammolar tahliliga chuqur kirishmagan holda shuni e'tirof etish lozimki, tadbirkorlik huquqi mutaxassislik o'quv fani, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi, normativ-huquqiy materiallar tizimi sifatida mavjud bo'lgan hollarda ham u fuqarolik-huquqiy normalar ta'siri doirasida bo'ladi deb hisoblash mumkin.

Tadbirkorlik huquqidan farqli ravishda xalqaro xususiy huquq milliy huquq tizimida alohida huquq tarmog'i hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquq fuqarolik huquqidan farqli ravishda chet el elementi ishtirok etadigan mulkiy va shaxsiy nomulkiy fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlarining, turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni avj olishi xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar doirasini va ko'lamini tobora kengaytirib bormoqda.

Turli yuridik shaxslar va fuqarolarni yer, suv, o'rmon va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi munosabatlar yer huquqi, ekologiya huquqi, o'rmon huquqi, tog'-kon huquqi bilan tartibga solinadi. FKning 2-moddasi beshinchi qismiga ko'ra mulkiy, shartnomaviy munosabatlarga, oilaviy munosabatlarga, mehnat munosabatlariga va tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish munosabatlariga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari bu munosabatlar maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Fuqarolik huquqi ommaviy huquq tarmoqlari bo'lgan ma'muriy huquq, soliq va bojxona huquqi, moliya huquqi, Konstitutsiyaviy huquq bilan ham o'zaro bog'liqlik va o'ziga xoslik xususiyatlariga ega. Mulkiy munosabatlar ommaviy huquqiy normalar bilan ham tartibga solinishi mumkin. Masalan, muayyan davlat idorasini o'z vakolati doirasida qabul qilgan huquqni qo'llash aktiga muvofiq muayyan mol-mulk, binolar, inshootlar bir davlat tuzilmasidan boshqa davlat tuzilmasi balansiga o'tkazilishi mumkin.

Bunda davlat idoralari bir-birlariga nisbatan bo'ysunish munosabatida bo'ladi va u ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi va ma'muriy huquq bilan tartibga solinadi. Agarda bunday mulkiy munosabatlarda davlat idoralari va davlatga qarashli yuridik shaxslar fuqarolik muomalasini ishtirokchisi sifatida bir-birlariga nisbatan teng huquqqa ega bo'lsa, o'z erk-irodalari bilan ishtirok etsa va shu munosabat doirasida bir subyekt ikkinchi subyektga o'z erkini buyruq sifatida o'tkazish imkoniyatiga ega bo'la olmasa, bunday munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

FK 2-moddasi oltinchi qismiga ko'ra bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan soliq, moliyaviy va boshqa ma'muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari qo'llanilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik huquqi mustaqil huquq tarmog'i sifatida nafaqat o'z predmetiga balki o'zini tartibga solish uslubiga ega. Fuqarolik huquqi o'zini tartibga solish uslubi orqali fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilariga, ularning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi, ularni yo'naltiradi. Bunda qo'llaniladigan maxsus vositalar va usullar yig'indisi fuqarolik huquqini tartibga solish uslubi hisoblanadi.

Ma'lumki, muayyan huquq tarmoqlari masalan, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq normalarida qo'riqlash funksiyasi ustuvor namoyon bo'ladi. Ya'ni, ular huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan sanksiyalar ko'inishida bu holat mujassamlanadi. Bundan farqli ravishda fuqarolik huquqi normal fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu esa bunday huquqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish xususiyatlaridagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. Bunday xususiyatlar quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

birinchidan, fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida ishtirok etuvchi subyektlar ularni ma'muriy, davlat huquqiy maqomi qanday bo'lishidan qat'i nazar teng huquqqa ega subyektlar sifatida ko'riladi;

ikkinchidan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda subyektlarga imkon boricha erkinlik, mustaqillik, tashabbuskorlik taqdim etiladi. Ular o'zlari uchun maqbul xatti-harakat modellarini tanlash, belgilash imkoniyatlariga egadirlar;

uchinchidan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy normalar bilan birgalikda nohuquqiy manbalar, masalan, ish muomalasi odatlari keng qo'llanishga yo'l qo'yiladi. Fuqarolik qonun hujjatlarida imperativ me'yorlardan ko'ra dispozitiv me'yorlar kengroq doirada belgilab qo'yilgan. Fuqarolik-huquqiy me'yorlarni buzganlik uchun belgilanadigan javobgarlik ko'proq mulkiy harakterdagi choralar ko'rinishida namoyon bo'ladi;

to'rtinchidan, buzilgan fuqarolik huquqlarini o'zini o'zi himoya qilish, hakamlik sudlari orqali himoya qilish va fuqarolik sudlari orqali da'vo qo'zg'atish orqali himoya qilish imkoniyatlari ham fuqarolik-huquqiy tartibga solish va himoya qilish uslubining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi;

beshinchidan, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari ham juda keng. Masalan, fuqarolik huquqini tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash, huquqbuzarlik harakatlariga chek qo'yish, yetkazilgan zararlarni qoplash, ma'naviy zararni undirish va shu kabi choralar qo'llanishda namoyon bo'ladi.

Fuqarolik huquqi tamoyillari

Fuqarolik kodeksining 1-moddasida fuqarolik qonun hujjatlarining asosiy negizlari belgilab qo'yilgan. Asosiy negizlar yoki boshqacha aytganda fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari bu barcha fuqarolik qonun hujjatlari mazmuniga singdirilgan rahbariy, asosiy qoidalar hisoblanadi. Ushbu asosiy tamoyillar fuqarolik qonun hujjatlarini ishlab chiqilishida, huquqni qo'llash amaliyotida xususan, sud amaliyotida o'ziga xos yo'naltiruvchi ta'sir kuchiga ega. Odatda, umumiy qoida bo'yicha fuqarolik-huquqiy normalar uning asosiy tamoyillari mazmuniga zid bo'lmasligi lozim. Muayyan ijtimoiy munosabatlar bo'yicha fuqarolik qonun hujjatlari sohasida bo'shliqlar bo'lgan taqdirda masalalar fuqarolik huquqi tamoyillari asosida hal qilinishi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik huquqi tamoyillari tizimiga quyidagilar kiradi:

1) Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarini tengligi tamoyili. Ushbu tamoyil nafaqat FKning 1-moddasida, balki muayyan ma'noda O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 18-moddasida ham o'z mujassamini topgan. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari kimligidan qat'i nazar, qanday ijtimoiy-siyosiy maqomga ega bo'lishidan qat'i nazar o'zlari ishtirok etayotgan fuqarolik huquqiy munosabatlarda bir birlariga nisbatan teng huquqqa egadirlar. Albatta fuqarolarning huquq layoqati mazmuni, huquq va muomala layoqatini cheklanish asoslari, yuridik shaxslar huquq layoqati mazmuni, davlatning fuqarolik huquqiy maqomi, qonunlarda belgilab qo'yilgan o'ziga xosliklarga ega. Biroq, bu o'ziga xosliklar ularni fuqarolik huquqiy munosabatlardagi ishtiroki tengligini istisno etmaydi.

2) Mulk dahlsizligi tamoyili. Ushbu tamoyil mazmuni Konstitutsiyamizning 53-moddasi, FKning 166-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra mulk dahlsizdir va u qonun bilan qo'riqlanadi. Mulkdor bo'lmagan barcha shaxslar mulkdorni huquqini hurmat qilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Mulkdorni mol-mulkini olib qo'yishga, shuningdek, uning huquqlarini cheklashga faqat qonunlarda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

3) Shartnomalar erkinligi tamoyili. Ushbu tamoyilni mazmuni FKning 354-moddasida belgilab qo'yilgan. Fuqarolik huquqi subyektlari o'z manfaatlarini turli shartnomalar orqali ro'yobga chiqaradilar. Masalan, oldi-sotdi, haq evaziga xizmat ko'rsatish, hadya va h.k. Qonunda fuqarolik huquqi subyektlarini shartnoma tuzishda erkinligi belgilab qo'yilgan. Shartnoma tuzishga majbur tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma tuzish burchi Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda yoki ushbu subyektning o'zi tomonidan olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalarni ham tuzishlari mumkin.

4) Xususiy ishlarga biron bir kishini o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi tamoyili. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir subyekt o'zi bilan bog'liq bo'lgan barcha xususiy masalalarni shaxsan o'zi o'z erki irodasi bilan hal etishga haqli. Bir subyekt boshqa bir subyektning ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan o'zboshimchalik bilan shartnoma tuzishga majbur qilish, o'zboshimchalik bilan shartnomani bekor qilishga majbur qilish, o'zboshimchalik bilan biron faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qilish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ta'qiqlash va h.k. O'zboshimchalik bilan xususiy ishlarga aralashgan taqdirda qonunda belgilangan oqibatlar vujudga keladi. Masalan, aldash, qo'rqitish ta'sirida tuzilgan bitim haqiqiy emasligi. Ayni paytda shuni unutmash lozimki, qonunda xususiy ishlarga qonuniy aralashish ham belgilab qo'yilgan.

Masalan, muomalaga layoqatsiz shaxs nomidan uning vasiyi vakillik qilishi, voyaga yetmagan bolalarga ularning ota-onalarining qonuniy vakillik qilishi, tadbirkorlik faoliyati subyektlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi idoralarning vakolatlari va h.k.

Xususiyl ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l quyilmasligi tamoyili fuqarolik huquqining xususiyl huquq sifatidagi mohiyatidan kelib chiqadi. Bu tamoyil eng avvalo ommaviyl xokimiyat va uning organlariga qaratilgan bo'lib, bozor munosabatlari tizimida mulkiyl munosabatlar qatnashchilari, tovar egalari mulkdorlari xususiyl ishlariga, shu jumladan xo'jalik ishlariga aralashish faqat qonunda nazarda tutilgan xollardagina yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 19 noyabdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarini tekshirishini tashkil qilishini tartibga solish to'g'risida"gi Farmonida ushbu tamoyilni amalga oshirish kafolatlari belgilab qo'yilgan. Shaxsiyl nomulkiyl munosabatlar sohasida ushbu tamoyil erkinlik va shaxsiyl daxlsizlik huquqi, shaxsiyl hayotdagi aralashishdan himoyalalanish va turar joy daxlsizligi to'g'risidagi normalarda (Konstitutsiyaning 25, 27-modda) yanada konkretlashgan holda o'z ifodasini topgan.

FKning qator normalarida ommaviyl xokimiyat organlarining xususiyl ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashmasligi uchun preventiv normalar belgilab qo'yilgan. Masalan, sud davlat organining hujjatini xaqiqiy emas deb topish, davlat organining qonunga zid hujjatini sudning qullamasligi, davlat organlari tomonidan yetkazilgan zararni undirilishi bo'yicha normalar (FKning 11, 15-modda) shular jumlasidandir.

5) Fuqarolik huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyili. Uning mohiyati shundaki, hech kim boshqa subyektlarni fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilishga haqli emas. Bordiyu shunday bo'lgan taqdirda huquq sohibi bunday to'sqinliklarni bartaraf etilishini so'rab sudga murojaat qilishi mumkin. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish jamiyatdagi mavjud shart sharoitlar bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarni barcha mulkiyl, shaxsiyl huquqlarini amalga oshirish uchun real imkoniyatlar mavjud. Bunday imkoniyatlar yuridik jihatdan kafolatlanibgina qolmasdan mamlakatimizdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiyl tizim tomonidan ham to'liq ta'minlangan. Masalan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning soddalashtirilgan tartibi amal qiladi. Bu boradagi har qanday byurokratik

to'sqinliklar va qonunda belgilangan tartibning buzilishi tegishli mansabdor shaxslar uchun muayyan javobgarlik choralari belgilanishiga asos bo'ladi.

6) Buzilgan fuqarolik huquqlarini tiklanishi tamoyili. Ko'p hollarda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarni muayyan mulkiy yoki shaxsiy huquqlarni buzilishi bu huquqlarni mutlaqo bekor bo'lishiga, tugatilishiga olib kelmaydi. Bunday huquqlar huquq sohibining sa'y-harakatlari tegishli vakolatli davlat, jamoat organlarini ko'magi yoxud sud qarori asosida qaytadan avvalgi holatiga tiklanishi mumkin. Masalan, g'ayriqonuniy ravishda mulkdordan olingan mol-mulknini asl holida qaytarib berilishi. Ushbu tamoyil g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib fuqarolik muomalasini normal, uzluksiz, barqaror davom etishiga va huquq egalari uchun huquqbuzarlik natijasida vujudga kelgan barcha oqibatlarni to'liq bartaraf etilishiga asos va sabab bo'ladi.

7) Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilinishini ta'minlash tamoyili. Mamlakatimizda buzilgan fuqarolik huquqlarini ishonchli himoya qilishni mustahkam tizimi yaratilgan. Bu tizimning markazida odil sudlov orqali huquqlarni va qonuniy manfaatlarni himoya qilish tartibi yotadi. Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb belgilangan. Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish tartibi muayyan taomillar asosida ishlarni har tomonlama puxta ko'rib chiqib, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan sud'yalar tomonidan adolatli, qonuniy qaror chiqarilishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda odil sudlov tizimi tadbirkorlarni huquqlarini himoya qiluvchi xo'jalik sudlari, oilaviy, fuqarolik, mehnat nizolari bo'yicha fuqarolik sudlari, shuningdek, jinoyat sudlari faoliyat yuritmoqda. Odil sudlov tizimi mustaqil hokimiyat tarmog'i bo'lib u qonun va adolatga asoslanadi. Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilinishini ta'minlash fuqarolik huquqi subyektlarida ishonch, barqarorlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

8) Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarni o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ushbu tamoyilni mohiyati erk muhtoriyatida namoyon bo'ladi. Bu fuqarolik huquqini o'ziga xos maxsus tamoyili bo'lib hisoblanadi. Fuqarolik huquqini subyektlari erk irodasining har qanday tajovuzlardan himoya qilinishi, ularni o'z xohishlari, o'z maqsadlari, manfaatlarini ko'zlab fuqarolik huquqiy munosabatlarga

kirishishlari o'zlari uchun maqbul shartnoma va bitimlar tuzishlari, ularni oqibatlaridan bahramand bo'lishlari qonun bilan kafolatlangan. Nafaqat ularning erk irodasiga tazyiq o'tkazishdan himoyalani, shuningdek, bunday erk-irodani har xil yanglishishlar ta'siri ostida bo'lishi holatlari, ularni oqibatlarini bartaraf etish ham fuqarolik qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

9) Tovar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larni O'zbekiston Respublikasi butun hududida erkin harakatlanish tamoyili. Mamlakatimiz hududi yaxlit iqtisodiy-huquqiy maydon hisoblanadi. Ushbu hududda fuqarolik huquqi subyektlari turli tovarlar, ishlar, xizmatlar, moliyaviy mablag'larni erkin muomalasidan bahramand bo'lish huquqiga egadirlar. Xavfsizlikni ta'minlash, insonlarni hayoti va sog'lig'ini himoya qilishni ta'minlash, tabiiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan hollarda tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonun hujjatlarida joriy etilishi mumkin.

Bundan tashqari mamlakatimizda barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab baravar muhofaza qilinishi, mulkiy munosabatlarning mafkuraviy munosabatlardan ajratilganligi, qonunda nimaiki ta'qiqlanmagan bo'lsa ruxsat berilishi, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyili asosida harakat qilishi kabi tamoyillar ham mavjudligi to'g'risida adabiyotlarda fikr-mulohazalar mavjud. Fuqarolik huquqining ayrim kichik sohalari va institutlari jumladan, majburiyat huquqi, mulk huquqi, intellektual mulk huquqi, mualliflik huquqi, vorislik huquqi ham o'zining alohida tamoyillariga ega.

Fuqarolik huquqi tamoyillaridan yana biri bu dispozitivlik tamoyili hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bu munosabatlarda mustaqil, o'z xoxishiga ko'ra qatnashadilar va manfaatlariga muvofiq tegishli xatti harakat qoidalarini tanlab oladilar. Masalan, ular aksariyat hollarda u yoki bu fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishish yoki kirishmaslik, o'z kontragentlaridan majburiyatlar ijrosini talab qilishi yoki qilmaslik, o'z huquqlarini himoya qilishni so'rab sudga murojaat qilish yoki qilmaslikni masalalarini o'zlari mustaqil hal qiladilar.

Fuqarolik huquqining funksiyalari

Fuqarolik huquqi yagona huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos funksiyalarni, vazifalarni amalga oshiradi. Huquq tarmog'ining

funksiyalari uning huquq tizimidagi joyini, o'rnini belgilab beradi, chunki aslini olganda aloxida tarmoqlar o'z funksiyalari va o'z mazmuni bo'yicha bir biridan farqlanadilar.

Fuqarolik huquqining asosiy funksiyalarini bo'lib tartibga solish va muhofaza qilish hisoblanadi. Fuqarolik huquqining o'ziga xos funksiyasi shundaki unda tartibga solish vazifalari ustuvor ahamiyatga ega, jinoyat huquqida esa qo'riqlash, muhofaza qilish vazifalari ustuvor ahamiyatga ega.

Fuqarolik huquqining asosiy vazifasi eng avvalo jamiyatdagi normal iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Boshqacha aytganda fuqarolik huquqi huquqbuzarliklarni jazolashdan ko'ra ko'proq odatdagi o'zaro mulkiy munosabatlarni tashkil etish bilan shug'ullanadi. Xuddi shu sababli ham fuqarolik huquqida ta'qiqlar nihoyatda kam va yo'l qo'yilgan harakatlar benihoyat ko'pdir. Fuqarolik-huquqiy qurilmalar va ta'sir vositalari orqali mulkiy munosabatlar ishtirokchilari o'zlari mustaqil tashkil etadilar. Shunday qilib, fuqarolik huquqining tartibga soluvchi (regulyativ) funksiyasi tartibga solinayotgan munosabatlar ishtirokchilariga o'z o'zini tashkil etish, o'z o'zini tartibga solish imkoniyatlarini berishda ifodalanadi. Bunga fuqarolik munosabatlari ishtirokchilari turli tijorat va notijorat yuridik shaxslari tuzish, o'zaro shartnomaviy munosabatlarga kirishish imkoniyatlari fuqarolik huquqiy normalar orqali belgilab qo'yilganini misol keltirish mumkin.

O'z o'zidan yoki ushbu funksiyani mazmuni va yo'naltirilganligi fuqarolik huquqi tarkibiga kiruvchi munosabatlarning xususiy harakteridan kelib chiqadi. Bu esa ommaviy huquq oldida turgan regulyativ (tartibga solish) munosabatlaridan tubdan farq qiladi. Ommaviy huquqda tegishli munosabatlarni tartibga solish qat'i belgilangan harakterga ega bo'lib, ishtirokchilarning erkin ravishda o'z xohish irodasi bilan ish ko'rishlariga imkon qolmaydi.

Fuqarolik huquqining muhofaza, qo'riqlash funksiyasi birinchi navbatda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadini ko'zlaydi. U fuqarolik muomalasining insofli ishtirokchilari mulkiy holatini ularning huquq va manfaatlarini buzilishidan ilgarigi, avvalgi holatiga qaytarishga yo'naltiriladi. Shu sababli xam u umumiy qoidaga ko'ra buzilgan huquqlarni tiklash yoki jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni qoplanishi, tovon to'lashining yo'llari bilan amalga oshiriladi. Aniqki uning qayta tiklash, tovon to'lashiga yo'naltirilganligi tovar-pul mulkiy munosabatlarni ekvivalentli to'lov, qiymatga asoslangan tabiyatidan kelib chiqadi.

Qo'riqlash, muhofaza qilish funksiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib huquqbuzarlikni oldini olish, huquqbuzarlarga tarbiyaviy ta'sir etish (preventiv) vazifalari hisoblanadi. Buning uchun fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarning muayyan xulq-atvori rag'batlantiriladi, xuddi shunday xulq-atvorga ular yo'naltiriladilar. Bu esa o'zgalarni manfaatini asossiz kamsitish yoxud buzilgan istisno etadi. Ushbu funktsiya delikt (zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda) va boshqa huquqni qo'riqlovchi majburiyatlarda, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlarni tartibga solishda yaqqol namoyon bo'ladi. Mulkiy munosabatlar bilan bog'lanmagan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni rasmiylashtirishda esa fuqarolik huquqi umuman olganda mutlaqo himoya vazifalari bilan cheklanadi.

Fuqarolik huquqi tizimi

Fuqarolik huquqi o'quv fani, huquq tarmog'i sifatida o'zining muayyan tizimiga ega. Bunda tizim muayyan tarkibiy qismlardan, normalar majmuidan iborat bo'ladi. Fuqarolik huquqi tizimi tarkibiy qismlari o'rtasida muayyan uzviy bog'lanish, ketma-ketlik, tartib mavjud. Bunday uzviy bog'lanish tasodifiylik harakteriga ega emas, balki biri muqarrar ravishda ikkinchisini keltirib chiqaruvchi, ikkinchisi shartligini, mavjudligini taqazo etuvchi uzviy bog'lanish hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi o'quv fani tizimi ham Fuqarolik kodeksi tizimi kabi qism va ikkinchi qismlarga bo'lingan. Fuqarolik huquqini birinchi qismida umumiy qoidalar ya'ni, fuqarolik huquqining tamoyillari, fuqarolik huquqiy munosabat doirasi, ularni vujudga kelish, amalga oshirish, himoya qilish usullari, fuqarolik huquqi munosabat ishtirokchilari (subyektlari) huquqiy maqomi, fuqarolik huquqi obyektlari huquqiy rejimi, muddatlar, da'vo muddatlari to'g'risidagi asosiy qoidalar va kategoriyalarni shuningdek, fuqarolik huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan boshqa umumiy qoidalarni o'z ichiga oladi.

Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi ba'zi hollarda maxsus qism deb ham yuritish qabul qilingan. Fuqarolik huquqi o'quv fanida ham bunday tabaqalanish qo'llaniladi. Ba'zi adabiyotlarda fuqarolik huquqining ikkinchi qismini fuqarolik huquqining kichik tarmoqlariga, kichik sohalariga ham bo'lish qabul qilingan. Kichik sohalar bu bir turdagi munosabatlar majmuini tartibga soluvchi o'zining umumiy qoidalariga ega bo'lgan normalar va kategoriyalarni muayyan guruhi bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksi tizimidan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqida quyidagi beshta kichik tarmoqlar – sohalar mavjudligi e'tirof etiladi:

a) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar. Mazmunan olganda mulk huquqi ashyoviy huquqlar tizimiga kirishini e'tiborga olib, ba'zi maxsus adabiyotlarda ushbu kichik soha ashyoviy huquq deb ham ataladi. Ushbu kichik soha moddiy obyektlar, mulkiy huquqlarni muayyan shaxslarga tegishlilikini, mansubligini va ularni amalga oshirish tartibi, asoslarini yuridik rasmiylashtiradi.

b) majburiyat huquqi. Ma'lumki, fuqarolik huquqiy munosabatlarda taraflar o'zaro bir-birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar va bir tarafni huquqini amalga oshirishi ikkinchi tarafni majburiyatni bajarishi bilan bog'liq bo'ladi. Agarda mulk huquqi o'ziga xos turg'un, statik holat bo'lsa, majburiyat huquqi dinamik, faol jarayondir. Ushbu jarayon orqali taraflar fuqarolik huquqiy munosabatga kirishishdan o'zlari umid qilgan manfaatga erishadilar. Majburiyat huquqi o'z navbatida shartnoma majburiyatlari, delikt majburiyatlari va kondikt majburiyatlari institutlariga bo'linadi. Ularning uchchalasi uchun ham yagona, umumiy bo'lgan qoidalar mavjud. Shartnoma majburiyatlari shartnomalar asosida, delikt majburiyatlari bir subyektning ikkinchi subyektga zarar yetkazishi, yetkazgan zararni to'lash asosida, kondikt majburiyatlar esa, bir subyektning ikkinchi subyekt mol-mulki yoki mulkiy huquqlarini asossiz ravishda qo'lga kiritishdan, boyishdan kelib chiqadi.

v) Intellektual mulk huquqi. Intellektual mulk huquqi ijodiy faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan vositalar ya'ni, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish (individuallashtirish) vositalariga nisbatan huquqlarni vujudga kelishi, amal qilishi, bekor bo'lishi va huquqiy muhofaza qilish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqiy me'yorlar majmui.

g) Vafot etgan fuqaroni mol-mulkiga, boshqa mulkiy huquqlariga, shuningdek, majburiyatlarni boshqa shaxslarga (vasiyat, qonun bo'yicha uning merosxo'rlariga yoxud qonunda belgilab qo'yilgan boshqa subyektlarga) o'tishini tartibga soluvchi fuqarolik huquqi normalari tizimidan iborat bo'lgan vorislik huquqi.

Fuqarolik huquqi o'quv fani tizimida kichik tarmoqlar, kichik sohalar o'z navbatida huquq institutlariga bo'linadi. Huquq instituti deganda muayyan turdagi bir biri bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi. Har bir kichik soha o'z navbatida huquq institutlariga bo'linadi. Masalan, intellektual mulk huquqi

patent huquqi, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar institutlariga va boshqa institutlarga bo‘linadi. Majburiyat huquqi majburiyatlarni alohida turlariga masalan, oldi-sotdi, ijara, pudrat, haq evaziga xizmat ko‘rsatish va shu kabilarga bo‘linadi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar kichik sohasi o‘z navbatida xususiy mulk huquqi, ommaviy mulk huquqi, cheklangan ashyoviy huquqlar tizimi, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilishni ashyoviy huquqiy usullari kabi institutlarga bo‘linadi. Mantiqan olganda fuqarolik huquqi institutlari ham muayyan tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ushbu tarkibiy qismlar subinstitutlar, kichik institutlar deb nomlanadi. Kichik insitutlar doirasidagi huquqiy munosabatlar ham bir xilligi va uzviy bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Bu esa ularni kichik institut doirasida maqsadli va aniq huquqiy tartibga solish imkonini beradi. Masalan, shartnomaviy majburiyat institutlari ularning alohida turlari bo‘yicha quyidagi subinsitutlarga bo‘linishi mumkin:

- oldi sotdi – umumiy qoidalar, chakana oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, korxonani sotish, ko‘chmas mulkni sotish va h.k.;

Ijara shartnomasi instituti esa, quyidagi kichik insitutlarga bo‘linadi:

- umumiy qoidlar, prokat, lizing, korxonalar ijarasi, turar joy ijarasi va h.k.

Ayni paytda kvazinstitutlar kategoriyasi ham mavjud. Bunda muayyan fuqarolik huquqiy normalar majmui bir xilligi nuqtayi nazaridan tartibga soluvchi munosabatlarni mohiyatan bir xilligi nuqtayi nazaridan muayyan normalar guruhi bilan tartibga solinishi mumkin. Biroq, u institut sifatida e’tirof etilmagan. Bu holda bunday normalar guruhi kvazinstitut ya’ni, institutga o‘xshash huquqiy tuzilma hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, garchi Fuqarolik kodeksining xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq qilish deb nomlanuvchi oltinchi bo‘limi milliy huquq tizimida alohida huquq tarmog‘i hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xususiy va ommaviy huquq o‘rtasidagi nisbatni fuqarolik huquqi misolida tushuntirib bering. Aynan qanday xususiyatlari bilan fuqarolik huquqi xususiy huquq tizimiga mansub sanaladi?

2. Mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqini predmetini tashkil etadi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering?

3. Reklama agentligi jismoniy va yuridik shaxslardan reklama buyurtmalarini qabul qilish uchun ommaviy oferta e'lon qildi. Bu e'longa asosan "Baraka" MChJ va xususiy tadbirkor Akramov agentlikka o'zlarining turdosh mahsulotlarini reklama qilish uchun murojaat qildi. Agentlik "Baraka" MChJdan ko'p foyda kelishini hisobga olib, xususiy tadbirkor Akramov bilan shartnoma tuzishni rad etdi.

Agentlikning harakatlari qonuniy asosga egami? Fuqarolik huquqida taraflarning tengligi deganda nimani tushunasiz?

4. Fuqaro Aliyev o'zining yer uchastkasida yetishtirgan qo'ziqorin mahsulotini sotish uchun "Yerqo'rg'on" bozoriga olib keladi. Shu hududda aholi o'rtasida qo'ziqorindan zaharlanish hodisasi ro'y berganligi sababli sanitariya epidemiologiya markazi xodimlari insonlarni hayoti va sog'lig'ini himoya qilish maqsadida bu mahsulotni sotishni ta'qiqladi. Fuqaro Aliyev o'z mahsulotlarini respublika hududida erkin sotish huquqi borligini vaj qilib sudga murojaat qildi.

Fuqaro Aliyevning e'tirozi qonuniy asosga egami? Tovarlarining erkin harakatda bo'lishi tamoyilining mohiyati nima?

2-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK HUQUQINING MANBALARI

Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari. Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amalda bo‘lishi. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi. Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash va ularning turlari.

Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va turlari

Har bir huquq tarmog‘i muayyan ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solar ekan bunda qo‘llaniladigan qoidalar, me‘yorlar muayyan shaklda ifodalanadi. Ushbu manbalar o‘zining turli xususiyatlari bilan ya‘ni rasmiylashtirish shakli bo‘yicha (qonun, qonun osti hujjati), yuridik kuchi bo‘yicha (Konstitutsiya, qonun, qonun osti hujjatlari), ta‘sir doirasi bo‘yicha (qonun osti hujjati, lokal normativ hujjat) farq qiladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatni tartibga soluvchi manbalar boshqa huquq tarmoqlaridan farqli ravishda huquqiy va nohuquqiy manbalar tizimiga bo‘linadi. Huquqiy manbalar davlat tomonidan yoxud muayyan korporativ tuzilma tomonidan qabul qilinib, belgilangan tartibda amal qiladi. Huquqiy manbalarning keng doirasini qonunlar, qonun osti hujjatlari tashkil etadi. Har qanday huquqiy hujjatlar fuqarolik huquqining manbasi bo‘lib hisoblanavermaydi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida e‘tirof etilish uchun u muayyan talablarga javob berishi lozim.

Birinchidan, huquq manbasi huquqni qo‘llovchi akt emas balki, normativ huquqiy hujjat xususiyatiga ega bo‘lishi shart. Ikkinchidan, ushbu normativ-huquqiy hujjat muayyan vakolatli davlat organi tomonidan yoxud vakolatli tuzilma tomonidan qabul qilingan yoki chiqarilgan bo‘lishi shart. Ushbu normativ huquqiy hujjat muayyan shaklda yuridik texnika qoidalariga asoslanib ishlab chiqilgan bo‘lishi shart. Ushbu normativ huquqiy hujjatning asosiy qismi adliya idoralarida tegishli ravishda ro‘yxatga olingan bo‘lishi va e‘lon qilingan yoxud ijrochilarga yetkazilishi shart.

Demak, fuqarolik huquqi manbalari deganda, fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy harakterdagi normativ huquqiy hujjatlar yoxud nohuquqiy harakterdagi ijtimoiy normalar tizimi

tushuniladi. Ish muomalasi odatlari, mahalla urf-odat va an'analar odatda, ijtimoiy normalar hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 3-moddasida fuqarolik qonun hujjatlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki bu munosabatlarning mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shuni ham qayd etish kerakki, FK 2-modda birinchi qismida ko'rsatilgan belgilarga javob beradigan oilaviy munosabatlarga, mehnat munosabatlariga va tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof muhitni muhofaza qilish munosabatlariga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari bu munosabatlar maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydigan hollarda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining 5-moddasiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

1) Fuqarolik huquqi manbalari tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida o'rin egallaydi. Konstitutsiyaning ahamiyati birinchi galda uni bevosita fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ta'sir kuchida namoyon bo'lsa, boshqa jihatdan olganda asosiy qonunimiz boshqa fuqarolik qonunlari va qonun hujjatlarini ishlab chiqilishi va mohiyatini belgilashda o'ziga xos qo'llanma, o'ziga xos doira, metodologik negiz vazifasini o'taydi. Ya'ni, boshqa qonunlar va

qonun osti hujjatlari Konstitutsiya asosida qabul qilinishi, unga zid bo‘lmasligi shart. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasi shaxsiy huquqlarni va erkinliklarni tartibga soluvchi o‘zak, g‘oya vazifasini o‘taydi va unda belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Konstitutsiyaning 27-moddasiga ko‘ra har kim o‘z sha‘ni va obro‘sigacha qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

Konstitutsiyaning 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqliligi, bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilangan. Konstitutsiyaning 54-moddasida mulkdorning vakolatlari va mulk huquqini amalga oshirish shartlari belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 42-moddasi, ijod erkinligiga bag‘ishlangan. Konstitutsiyaning 53-moddasi esa, barcha mulk shakllarining tengligi va iste‘molchilar huquqlarining ustuvorligi belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning ushbu normalari juda ko‘plab qonunlar va qonun osti hujjatlarida batafsil, chuqurlashtirilgan holda belgilab qo‘yilgan.

2) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar tizimida yetakchi o‘rin egallaydi. Fuqarolik kodeksining 1-qismi 1995 yil 21 dekabrda, 2-qismi esa 1996 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan va har ikkala qismi ham 1997 yil 1 martdan boshlab amalga kiritilgan. FK 6 bo‘lim, 71 bob, 1199-moddadan iborat. U

hajmi bo'yicha beqiyos bo'lib, hech qaysi boshqa qonun unga tenglasha olmaydi.

Albatta mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar Fuqarolik kodeksini muayyan darajada takomillashtirish zaruriyatini qo'yishi tabiiy va bundan kelib chiqqan holda Fuqarolik kodeksining amal qilish jarayonida unga o'nlab o'zgarish va qo'shimchalar, yangi normalar kiritilgan. Ayrim normalar esa chiqarib tashlangan.

O'zbekiston Respublikasining ko'plab joriy qonunlari ham fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba hisoblanadi. Bunday qonunlar jumlasiga tijorat va notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonun, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun va boshqalar kiradi. Bir guruh qonunlar intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni tartibga soladi. Masalan, "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar.

Bir guruh qonunlar muayyan faoliyatlar sohasini tartibga solishga qaratilgan. Masalan, "Qimmatbaho qog'ozlar to'g'risida"gi, "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi, "Reklama faoliyati to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunlar.

Shuningdek, muayyan qonunlar fuqarolik huquqlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha kafolatlar belgilashga xizmat qiladi. Masalan, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborot olish erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar.

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solsa, fuqarolik huquqining manbasi hisoblanadi.

4) Fuqarolik huquqi manbalari tizimi ierarxiyasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar ya'ni, farmonlar, qarorlar va farmoyishlar muhim

ahamiyatga ega. Prezident tomonidan chiqariladigan mazkur normativ-huquqiy hujjatlar iqtisodiyotda, ijtimoiy turmushda vujudga kelgan normativ-huquqiy ta'sir ko'rsatish talab etiladigan masalalarni tezlik bilan maqsadli tartibga solishni eng qulay va ta'sirchan yuridik vositasi hisoblanadi. Ko'p hollarda Prezident tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar qonunlarni amalga oshirish ijro mexanizmini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti turli hokimiyat tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatiga ega. Shu munosabat bilan ba'zi holatlarda Prezident farmonlari va qarorlari kelgusi qonunlar uchun, qonun osti hujjatlar uchun o'ziga xos konseptual negiz vazifani bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4725-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va h.k.

O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasi ijro hokimiyatining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 fevraldagi 75-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi 1-son Qarori bilan tasdiqlangan Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom va h.k.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari fuqarolik huquqining manbai sifatida alohida o'rin egallaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2007 yil 13 martdagi 30, 288-V-son qarori (2007 yil 14 aprel, ro'yxat raqami 1675) bilan tasdiqlangan Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2009 yil 4 yanvardagi 2-son buyrug'i bilan tasdiqlangan

Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish Qoidalari (2009 yil 6 fevral, ro'yxat raqami 1900) qabul qilingan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar amalga kiritilishining asosiy sharti ushbu hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etilishi hisoblanadi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas va huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari o'zlariga berilgan vakolat doirasida O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.


Masalan, Toshkent shahar hokimining 2015 yil 18 avgustdagi "Toshkent shahri dehqon bozorlarida yoz mavsumida tez buziladigan go'sht va go'sht mahsulotlarining savdosini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 752-son qarori, Surxondaryo viloyati hokimining 2014 yil 1 fevraldagi "Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imga, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatining minimal miqdorlarini belgilash to'g'risida" 22-son qarori va h.k.

Lokal (korporativ) normativ hujjatlar keyingi paytlarda ko'p qo'llanilmoqda. Bunday hujjatlar ko'proq tijorat yoki notijorat yuridik shaxslar tomonidan qabul qilinadi va o'zaro ichki munosabatlari, uning a'zolari, ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, "Korporativ boshqaruv kodeksi", "Aksiyadorlik jamiyati umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Mas'uliyati cheklangan jamiyati kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom kabilar.

Bozor munosabatlar tizimida nohuquqiy manbalar qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Fuqarolik kodeksining 6-moddasida ushbu nohuquqiy manbalar belgilab qo'yilgan. Tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi.

Masalan, Korporativ boshqaruv kodeksi qabul qilingan bo‘lib, ushbu kodeksni ish muomalasi odatlarini o‘ziga xos tizimlashtirilgan namunasi deb hisoblash mumkin. Ko‘plab kasb-korlarning o‘zining qoidalari, odatlari mavjud. Masalan, tadbirkorlikda, dehqonchilikda, avtotransportda qo‘llaniladigan ish muomalasi odatlari. Ish muomalasi odatlarida shuni unutmaslik kerakki, bular texnik qoidalar emas, balki u kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda qo‘llaniladigan qoidalar hisoblanadi. Butun dunyo bo‘yicha Inkoterms qoidalari e‘tirof etilgan va savdo munosabatlarida mulk huquqini sotuvchidan sotib oluvchiga o‘tish, tavakkalchilik xavf-xatarini kimga tegishli ekanligini belgilaydi. Shuningdek, fors-major holatlari bo‘yicha ko‘pgina qoidalar ham ish muomalasi odatlari hisoblanadi.

Mahalliy urf-odat va ana’analar ham ijtimoiy munosabatlarni tartibda solishda alohida o‘rin egallaydi. Masalan, chorva mollari sotilganda arqonini qaytarib berish, bitim tuzilish faktini belgilash bo‘yicha “bor-baraka qilinishi” kabilar. Shuni unutmaslik lozimki, fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an’analar qo‘llaniladi. Shuningdek, tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo‘lgan qonun hujjatlari normalariga yoki shartnomaga zid bo‘lgan ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar qo‘llanilmaydi.



Fuqarolik qonunlarining vaqt, hudud va shaxslar bo'yicha amalda bo'lishi. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi

Ma'lumki, fuqarolik qonun hujjatlari muayyan makon va zamonda amal qiladi. Agar makon muayyan hududiy yaxlitlik sifatida mavjud bo'lsa, zamon esa fuqarolik kodeksining kuchga kiritilgandan to bekor bo'lgunga qadar bo'lgan davr hisoblanadi. Fuqarolik qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi. Qonun u amalga kiritilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlarga qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina tatbiq etiladi. Fuqarolik qonun hujjati amalga kiritilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlar bo'yicha bu qonun hujjati u amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan huquq va burchlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar shartnoma tuzilganidan keyin taraflar uchun majburiy bo'lgan, shartnoma tuzilayotgan paytdagidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan qonun qabul qilingan bo'lsa, tuzilgan shartnomaning shartlari o'z kuchini saqlab qoladi, qonunning avval tuzilgan shartnomalardan kelib chiqqan munosabatlarga tatbiq etilishi ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik qonun hujjatlarining amalga kiritilishi bevosita ushbu qonun hujjatida belgilab qo'yiladi. Fuqarolik qonun hujjatlari hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Fuqarolik qonun hujjatlarni e'lon qilishga doir talablar "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 5-bobida belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy hayot, fan texnika taraqqiyoti yangidan yangi voqeliklar, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmoqda. Ularning ba'zilar mutlaqo yangi mazmunga ega bo'lganligi sababli ularni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari mavjud bo'lmasligi mumkin. Biroq bu ular mutlaqo qonun bilan tartibga solinmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Chunki fuqarolik huquqida analogiya, qiyosiy o'xshatishga yo'l qo'yiladi. Uning huquqiy asoslari FKning 5-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra fuqarolik huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonun hujjatlarining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xshashligi). Masalan, intellektual mulkning yangi obyektini yaratilgan bo'lib, uni huquqiy rejimiga doir qoida belgilanmagan

bo'lsa u holda mavjud unga o'xshash obyektning huquqiy rejimini belgilovchi qonun hujjati qo'llaniladi.

Agar ko'rsatib o'tilgan hollarda qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, u holda fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuni ya'ni, huquq o'xshashligiga amal qilinadi. Qonun hujjatlarining umumiy negizlari FKning 1-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib halollik, oqillik va adolat talablariga rioya qilgan holda tartibga solinadi¹.

Fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilariga tashabbus ko'rsatish, qonunda ta'qiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat beriladi. Fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarni o'xshashlik bo'yicha qo'llanishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik-huquqiy normalarni sharhlash va ularning turlari

Fuqarolik-huquqiy normalarni qo'llash va sharhlash to'g'risida to'xtalib shuni aytish kerakki, huquqiy normalarni tatbiq etish deganda, konkret fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tegishli huquq normasiga muvofiq holda tashkil qilinishi va bu munosabat yuzasidan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qaror qabul qilinishi tushuniladi. Fuqarolik huquqi normalarni qo'llash vakolatli davlat organlari tomonidan, chunonchi, sud, prokuratura, xo'jalik sudi va boshqa organlar, shuningdek, ba'zi hollarda jamoat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qo'llaniladi.

Huquq normalarni qo'llash mazmunan ularga rioya qilishdan faqr qiladi. Yuqorida ko'rsatilganidek, faqat muayyan vakolatli organlarga tatbiq etishlari mumkin bo'lsa, huquqiy normalarga rioya qilishga har bir shaxs (fuqaro va tashkilot) majburdir.

Ba'zi holatlarda huquq normasini tegishli huquqiy munosabatga qo'llashda uning aniq mazmunini, mohiyatini, ma'nosini aniqlash zaruriyati vujudga keladi. Huquq normasi ma'nosini aniqlash va tushuntirishga qonunni sharhlash, deyiladi.

Fuqarolik huquqi normalarni sharhlash sharhlovchi subyektlar, sharhlash usullari, shuningdek, uning hajmiga qarab farqlanadi.

Normani sharhlovchi subyektlar huquq normalariga rasmiy va norasmiy sharh beruvchilarga bo'linadi. Rasmiy sharh vakolatli bo'lgan hokimiyat organlari tomonidan berilib, ma'lum darajada majburiy kuchga ega bo'ladi. Bunday sharh Oliy Majlis tomonidan beriladi. Ular Respublika doirasida barcha fuqarolar va tashkilotlar uchun majburiy

¹ Мухаммадиев А.А. Фуқаролик кодекси таъйинларининг амал қилиши. Монография. Т.: ТДЮИ, 2007.

hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy Kengashlar tomonidan beriladigan sharhlar ham rasmiy ayni paytda majburiy hisoblanadi.

Rasmiy sharhning turlaridan biri sud sharhlashidir. Ma'lum bir ishni hal qilishda sud tomonidan berilgan sharh chiqarilgan qarorning qonuniy kuchga kirganidan so'ng mazkur ish bo'yicha majburiy hisoblanadi. Ammo kelajakda shunga o'xshash boshqa ishni hal qilishda, boshqa sudlar, jumladan, shu sudning o'zi ham avvalgi ishning hal qilinishiga qarab masalani yecha olmaydi. Chunki, umumiy harakterda bo'lgan ba'zi sharhlar Oliy sud Plenumi tomonidan beriladi. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda Oliy sud Plenumi rahbariy tushuntirishlar berishligi ko'rsatildi. Shu tartibda qabul qilinadigan qarorlar sudlarda ishlarning bir xilda ko'rilishini ta'minlashga qaratilganligi sababli sudlar uchun majburiydir.

Norasmiy sharh deb, majburiy kuchga ega bo'lmagan sharhga, masalan, ilmiy asarlarda, darsliklarda, ma'ruzalarda beriladigan sharhlarga aytiladi. Bunday sharhlar yuridik kuchga ega bo'lmasa ham qonunning ma'nosini aniqlashga yordam beradi. Ular imloviy, mantiqiy, tizimli va tarixiy sharhlashga bo'linadi.

Grammatik sharhlashda grammatik qoidalaridan foydalanib qonunda ishlatilgan ayrim so'zlar, jumlar, ifodalarning ma'nosini aniqlash yo'li bilan huquqiy normalarning mazmuni belgilanadi. Masalan, FKning 30-moddasida "Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqarolarni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin", deyiladi. Bu erda qonun chiqaruvchi "yoki" so'zini ishlatishi natijasida fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish uchun ikkita asosdan bittasi, ya'ni o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaslik yoki ularni boshqara olmaslikning mavjud bo'lishi yetarli ekanligini ifodalaydi.

Mantiqiy sharhlashda qonunda ishlatilgan ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki, uzviy, mantiqiy bog'langanligini aniqlab, huquqiy normaning mazmuni belgilanadi. Masalan, FKning ushbu 30-moddasida "Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin", deb aytiladi. Demak, voyaga etgan fuqaro ruhiy kasal bo'lsa ham, to sud tomonidan "muomalaga layoqatsiz" deb tanilguniga qadar muomalaga layoqatli deb faraz qilinadi.

Tizimli sharhlashda huquq normasining mazmuni, uning huquq tizimida egallagan o'rnini belgilash, uni boshqa huquqiy normalar bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, 1963 yilda qabul qilingan

Fuqarolik kodeksining 321-moddasida mulkning ijaraga oluvchi tomonidan yomonlashtirilgan holda yetkazilgan zararlarning ijaraga beruvchi tomonidan qoplanishiga aytiladi. Bu yerda zarar yetkazilishi shartnoma bo'yicha olingan majburiyatni buzish bilan bog'liq bo'lgani uchun nizo GKning 479-moddasi bilan emas, 321-moddasi bilan hal qilinadi.

Tarixiy sharhlashda huquq normasi qanday tarixiy vaziyatlarda qabul qilinganligini belgilash yo'li bilan aniqlanadi. Sharhlash o'zining hajmi bo'yicha tub ma'nodagi sharhda qonunning ma'nosi uning ifodalanishi ya'ni, yozilish shakliga aynan to'g'ri kelishi kerak. Cheklangan sharhda qonunning ma'nosi uning ifodalanishiga qaraganda birmuncha torroq ko'rinadi. Kengaytirilgan sharhda qonunning mazmuni uning tub tahririga qaraganda birmuncha kengroq tushuniladi. Masalan, FKning 115-moddasida: "Bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya qilmaslik qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holdagina uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi", deb yozilgan.

Bunda "qonun" so'zi faqat Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan normativ hujjatnigina bildirmay, balki huquqning boshqa normalarini o'zining ta'siriy kuchiga qarab **imperativ va dispozitiv** normalarga bo'linadi. **Imperativ normalar**, deb ma'lum bir huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning erklari bilan o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan, qat'i harakterda bo'lgan, qat'i buyruq beradigan normalarga aytiladi. Imperativ normalarga misol qilib "Fuqarolarning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir" (FKning 23-moddasi, 3-bandi) - deb aytilgan normani ko'rsatish mumkin. **Dispozitiv normalar**, deb taraflarning o'z ixtiyorlari bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan va shartnomalarda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha tartibga solinishi mumkinligini ko'rsatadigan normalarga aytiladi. Masalan, FKning 223-moddasi 1-bandida ulushli mulkdagi mol-mulk ishtirokchilar o'rtasida ularning kelishuviga muvofiq taqsimlanishi mumkin deb yozilgan. Demak, bu huquqiy normaning mazmuniga ko'ra umumiy mulk ishtirokchilari o'ziga tegishli bo'lgan ulushini o'zlarining kelishuviga muvofiq taqsimlashlari mumkin ekan.

Nazorat uchun savollar

1. Ma'lumki huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar doirasi turli huquq oilalari tizimida turlicha harakterga ega. Sizningcha fuqarolik huquqining manbalari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

2. Sud amaliyoti mamlakatimizda sudlar tomonidan ishlarni ko'rishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik qonun hujjatlari va sud amaliyoti o'rtasidagi nisbatga baho bering. Qanday doiradagi normativ hujjatlar fuqarolik qonun hujjatlari hisoblanadi?

3. Da'vogar X.X.Alimov javobgar Yu.S.Maxmudova ustidan sudga murojaat etib, 2008 yil 03 iyun kunidagi hadya shartnomasiga asosan Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Muqimiy ko'chasi, 27-uy unga tegishli ekanligini, hozirgi kunda javobgar Yu.S.Maxmudova nizoli uyda doimiy ro'yxatda tursada, lekin 2012 yilning 12 dekabr kundan buyon yashamasligini, da'vogar esa javobgar uchun ham kommunal to'lovlarni to'lash og'irlik qilayotganligini, shu sababli sudga mazkur da'vo arizasi bilan murojaat qilishga majbur bo'lganligini, bu kabi ishlar bundan oldin fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudida ko'rilganligini ta'kidlab, mazkur sudning hal qiluv qarorini na'muna qilib, yuqoridagilarni inobatga olgan holda suddan javobgarni nizoli xonadondan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topishini so'ragan.

Ushbu vaziyatga huquqiy baho bering? Bir sudning qarori O'zbekiston hududida ikkinchisi uchun manba bo'ladimi? Sud pretsedenti manba bo'ladigan davlatlar qaysi huquq tizimiga mansub?

4. Rassom Azizov bilan rasmlar savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor Aliyev Azizovning o'zi chizgan rasmlarini yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi. Dastlab Azizov o'zi chizgan rasmlarni yetkazib beradi. Keyinchalik bu rasmlar bilan birga shogirdlari chizgan rasmlarni ham o'tkaza boshlaydi. Bundan xabar topgan haridorlar tadbirkordan rasm harid qilmay qo'yishadi. Bu Aliyevga zarar yetkazadi. Aliev zararni undirishni talab qiladi. Azizov shartnomada rasmlar savdosi haqidagi ma'lumot borligini va u shartnomani adolatli, oqilonalik tamoyillariga amal qilgan holda bajarganini bildiradi.

Azizovning talabi to'g'rimi? Huquq o'xshashligi nima, uning qonun o'xshashligidan farqini ayting?

3-MAVZU. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT

Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi va mohiyati. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlari (tasnifi). Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Yuridik faktlar. Fuqarolik huquqlarining amalga oshirilishi va burchlarining bajarilishi. Fuqarolik huquqlarining himoya qilinishi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish

Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi va mohiyati

Fuqarolik-huquqiy munosabat deb fuqarolik turli subyektlar o'rtasida vujudga keladigan va fuqarolik huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabat ijtimoiy munosabat sifatida eng avvallo, turli subyektlar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'lganligi sababli, normal munosabat bo'lganligi sababli ushbu munosabatlar unda ishtirok etuvchi shaxslarning erk-irodasi, xohishida vujudga keladi. Fuqarolik munosabatida qatnashuvchi kishilarning e'klari garchi ularning xatti-harakatlarida ifodalansa ham biroq uning mohiyati va doirasi fuqarolik qonun hujjatlarida o'z mujassamini topadi.

Fuqarolik huquqining turli subyektlari o'rtasida ro'y beradigan munosabatlar huquq ta'siri ostidagi normal munosabatlar hisoblanadi va bular ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Ammo muayyan hollarda huquqiy munosabat mazmunida yotuvchi majburiyatlar ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmaganda yoki bir subyekt tomonidan boshqa subyektga zarar yetkazish hollarda davlat tomonidan belgilangan majburiy huquqiy choralar qo'llanilishi mumkin. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni boshqa ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan farq qildiruvchi muayyan xususiyatlari mavjud:

1. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar muayyan mulkiy mustaqillikka ega bo'lishi shart;

2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchilar teng huquqli shaxslar hisoblanadi;

3. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchilar subyektlarini huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda odatda da'vo qo'zg'atish orqali sudlar tomonidan himoya qilinib muhofaza qilinadi.

Har qanday boshqa ijtimoiy munosabatlar singari fuqarolik munosabatlar uchta mustaqil elementdan iborat – huquqiy munosabat sub'yeti, obykti va mazmunidan iborat. Fuqarolik munosabatlarining subyektlari bo'lib ushbu huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi sha'slar – fuqarolar va boshqa tashkilotlar (yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan yoki yuridik shaxs huquqidan foydalanuvchi tuzilmalar) shuningdek, davlat bo'lishi mumkin.

Fuqarolik munosabatida ishtirok etuvchi shaxslar fuqarolik huquq layoqotiga, ya'ni fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'lishlari, shuningdek, fuqarolik muomala layoqatiga, ya'ni o'z xatti-harakatlari bilan o'zlari uchun fuqarolik huquqlari majburiyatlarini vujudga keltirish layoqatiga molik bo'lishlari shart.

Fuqarolik huquqiy munosabatning mazmunini ushbu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlarini va majburiyatlari subyektiv huquq, burch va mazmunini tashkil etadi.

Ayni paytda fuqarolik munosabatning mazmunini bunday munosabat ishtirokchilarini o'z subyektiv huquq va majburiyatlariga muvofiq amalga oshiriladigan o'zaro harakatlari, hulq-atvori faoliyati tashkil etadi degan nuqtayi-nazar mavjud. Bunda subyektiv huquq va burchlar huquqiy munosabatning yuridik shakli deb ko'rsatiladi¹.

Subyektiv huquq har doim muayyan, konkret subyektga tegishli bo'ladi. Biroq subyektiv huquqlar obyektiv huquq asosida ya'ni davlat tomonidan belgilab qo'yilgan huquq normalari asosida vujudga keladi va ularga muvofiq amalga oshiriladi.

Subyektiv huquq iborasining mohiyati shundan iboratki, bu huquq har doim muayyan subyektga tegishli bo'ladi va uni amalga oshirish ushbu huquq subyektining erki irodasi va xohishiga bog'liq bo'ladi. Chunki amalda subyektiv huquq sohibi o'zining bu huquqlarini amalga oshirishi yoki amalga oshirmasligi yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda ushbu huquqdan voz kechishi ham mumkin.

Subyektiv huquq sohibi o'zi bilan huquqiy munosabatga kirishgan boshqa tarafdin o'z huquqini buzilmasligini, unga rioya qilinishini qat'i talab qilishga haqli. Masalan, badiiy asar muallifi ushbu asarga nisbatan o'zining shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzilmasligini har kimdan talab qila oladi. Shuningdek, subyektiv huquqlar o'z harakteriga ko'ra mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolarga va boshqa subyektlarga tegishli subyektiv huquqlar davlat tomonidan kafolatlangan huquqlardir. Davlat


¹ Гражданское право. Учебник Част 1. -Москва: Проспект. 1996, 78-77-бетлар.

bu huquqlarni amalga oshirishni ta'minlash uchun nafaqat yuridik balki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ham yaratib beradi.

Huquqiy munosabatlar mazmunini subyektiv huquqlar bilan birgalikda fuqarolik majburiyatlar ham tashkil etadi. Majburiyatning mohiyati shundaki, unda huquq normasini talab bo'yicha yoxud shaxsni o'z ixtiyori asosida zimmasiga olgan burchi bo'yicha u muayyan xatti harakatlarni qilishga yoki muayyan xatti harakatlarni qilishdan o'zini tiyib turishga majbur bo'ladi. Odatda, har qanday majburiyat burchli qarzdor shaxsning erkini muayyan darajada cheklaydi. Uni huquq egasini manfaatlari bilan bog'laydi va ushbu manfaatlarga rioya qilinishiga majburlaydi. Masalan, qurilish tashkiloti tuzilgan shartnomaga muvofiq buyurtmachiga turar joy qurib berishga yoki turar joyni ta'mirlashga majbur. Buyurtmachi esa buning uchun muayyan summadagi haqni to'lashi lozim. Subyektdan muayyan xatti harakatni amalga oshirishni talab etadigan majburiyatlar ijobiy pozitiv majburiyatlar hisoblanadi. Muayyan xatti harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyib turish, saqlanishni talab etadigan majburiyatlar esa salbiy – negativ majburiyatlar deb ataladi. Ba'zi mualliflar esa buni aktiv va passiv majburiyatlar deb ham atashadi.

Fuqarolik huquqiy munosabat doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar bir biridan ayro holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Boshqacha aytganda subyektiv huquq va majburiyatlar yagona huquqiy munosabatning tarkibiy elementlari bo'lib ular o'zaro bir birlari bilan o'zaro uzviy bog'langandirlar. Muayyan subyektlar subyektiv huquqning mavjud bo'lishi boshqa subyektda ushbu huquqqa yarasha majburiyat bo'lishini anglatadi va aksincha har qanday majburiyat uni qarshisida uni bajarishni talab qilishga haqli bo'lgan huquq egasi bo'lishini anglatadi. Masalan ijarachi o'zi ijaraga olgan uydan foydalanish huquqiga ega va bunda ushbu huquqni amalga oshirishga nisbatan barcha to'sqinliklarni kim tomonidan sodir etilmasin, hatto turar joy egasi tomonidan sodir etilsa ham bartaraf etilishini talab qilishga haqli.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyekt bo'lib fuqarolik munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari qaratilgan ijtimoiy munosabat negizida yotuvchi moddiy va nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Ular jumlasiga ashyolar, mol-mulklar mulkiy huquqlar, pullar, qimmatli qog'ozlar ishlar va xizmatlar intellektual faoliyat turli shaxsiy huquqlar hisoblanadi.



Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlari (tasnifi)

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmunan bir necha turga bo'linadi:

1) Mulkiy harakterdagi va mulkiy harakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar. Mulkiy harakterdagi munosabatlar deganda, muayyan moddiy-iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, masalan, mol-mulk bo'yicha belgilanadigan, oldi-sotdi, ijaraga qo'yish va boshqacha shaklda bir subyektdan boshqasiga o'tkazish, umuman mulkiy muomala bilan bog'liq huquqiy munosabatlar anglashiladi.

Mulkiy harakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar shaxs (fuqarolar va yuridik shaxslar)ning o'zi bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lgan, o'z sohibidan, egasidan begonalashtirilishi va birovga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan shaxsiy huquqlar, chunonchi, shaxsning o'z asariga nisbatan mualliflik nomiga bo'lgan huquq, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqlardan iborat.

2) Mutlaq (absolyut) va nisbiy huquqiy munosabatlar. Mutlaq huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o'z huquqlarining buzilmasligini, ularga rioya qilinishini har kimdan va hammadan talab qila oladilar. Mutlaq huquqlar¹ nomuayyan doiradagi shaxslar tomonidan buzilishi mumkin bo'lgani sababli har kimdan qo'riqlanadi. Bunday huquqlarga mulk, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquqlar va shu kabilar kiradi.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda esa faqat bir subyekt (yoki subyektlar)gina huquq yoki majburiyat oladi. Nisbiy huquqlar zimmasida majburiyat yuklangan ma'lum shaxs (yoki shaxslar)ga nisbatangina kuchda bo'ladi. Shartnomalarga asoslangan barcha fuqarolik huquqlari nisbiy huquqlar hisoblanadi. Nisbiy huquqlarga asoslangan talablarga rioya qilishi, majburiyatlarning bajarilishi, qarzga olingan pulning to'lanishi bo'yicha o'z zimmasiga shartnoma asosida majburiyat olgan subyektlardangina talab qilish mumkin bo'ladi.

3) Mulkiy huquqiy munosabatlar. Mulkiy huquqiy munosabatlar moddiy harakterga ega hamda ashyolarni, mol mulklarni egallash, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga shuningdek, ular bilan bog'liq mulkiy huquqlarni amalga oshirishga qaratiladi. Mulkiy huquqiy munosabatlarda ushbu huquq sohibi bo'lgan subyektlar boshqalarni

¹ Мутлоқ (абсолют) ҳуқуқ ва ФЖнинг 1034-моддасида назарда тутилган мутлоқ (исключительные права) ҳуқуқларни чалкаштирмаклик лозим.

qo'llab-quvvatlashi va ruxsat berishlariga yoki boshqacha ijobiy harakatlarga muhtoj bo'lmay o'z huquqlarini o'zlari bevosita amalga oshirish va ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga egadirlar. Demak, bunday huquqiy munosabatlar mutloq (absolyut) huquqiy munosabatlardir.

Ulardan farqli ravishda majburiyat munosabatlari nisbiy harakterga ega bo'lib zohiran olganda majburiyat munosabatlarining aksariyat ko'pchiligi mulkiy harakterga ega (ba'zi hollarda majburiyat munosabatlari shaxsiy harakterga ega bo'lishi istisno etilmaydi). Odatda, majburiyat munosabatlari fuqarolik huquqi subyektlari tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladi. Masalan, fuqaro tomonidan oldi-sotdi shartnomasi asosida kiyim-kechak harid qilish, mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan kapital qurilish shartnomasi asosida o'z ofisini qurish to'g'risida qurilish tashkiloti bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi.

Majburiyat munosabatlarining ba'zilari shartnoma bilan bog'liq bo'lmasdan balki, zarar yetkazish (delikt) yoxud mol-mulkni asossiz olish yoki tejash bilan bog'liq munosabatlar (kondikt) bo'lib hisoblanishi mumkin.

4) **Korporativ munosabatlar.** Bozor munosabatlari tizimida fuqarolik huquqiy munosabatlarni o'ziga xos turi korporativ huquqiy munosabatlar paydo bo'ldi. Korporativ huquqiy munosabatlar o'z harakteriga ko'ra tashkiliy, mulkiy va majburiyat huquqiy harakterga ega bo'lishi mumkin. Korporativ munosabatlar deganda – tijorat yuridik shaxslari, ishtirokchilari, muassislari, mulkdorlarini tijorat yuridik shaxsni tashkil etish, ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, mol-mulkini shakllantirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, faoliyatini yo'lga qo'yish, amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etish bo'yicha o'zaro bir-birlari bilan, tijorat yuridik shaxsi bilan, tijorat yuridik shaxsi tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligini amalga oshirish bo'yicha tarkib topadigan munosabatlar majmui hisoblanadi.

Korporativ huquqiy munosabatlar odatda ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tijorat yuridik shaxsi tashkil etilganda vujudga keladi. Tijorat yuridik shaxsi ishtirokchilarini turli yig'ilishlar o'tkazish, bir birlari bilan individual va guruh uchrashuvlarini tashkil etish bo'yicha sa'y-harakatlari, tashkiliy-huquqiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Tijorat yuridik shaxsi ishtirokchilarini ustav fondini shakllantirish, molm mulk qo'shish bo'yicha munosabatlari mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Tijorat yuridik shaxslari foydasidan ulush, daromad olish munosabatlari majburiyat huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi.

5) Bundan tashqari ba'zi mualliflar "imtiyozli fuqarolik huquqiy munosabatlar" mavjudligi to'g'risida fikr bildiradilar. Bunda fuqarolik huquqiy munosabatning muayyan ishtirokchisi boshqa subyektlarga nisbatan muayyan manfaat ko'rish bo'yicha imtiyozga, afzallikka egaligi qonun yoki shartnomada belgilab qo'yiladi. Masalan, garov bilan ta'minlangan asosiy majburiyat ijro etilmagan taqdirda garovga oluvchi tomonidan garov predmetiga nisbatan o'z talablarini imtiyozli qanoatlantirish huquqi yoxud umumiy ulushli mulkdagi ulush sotilganda sherik mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqiga ega (FKning 224-moddasi).

Fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Yuridik faktlar

Real hayotda fuqarolik huquqi me'yorlari o'z-o'zidan avtomatik ravishda fuqarolik huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi har doim muayyan holatlar asosida sodir bo'ladi. Demak, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan holatlar yuridik fakt hisoblanadi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar kelib chiqishi uchun huquqiy normalarda to'g'ridan to'g'ri bu haqda belgilab qo'yilgan, shuningdek, belgilab qo'yilmagan bo'lsada fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy asoslari va mazmuniga muvofiq keladigan muayyan holatlar mavjud bo'lishi kerak. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida qabul qilinadigan yuridik faktlar turli tuman bo'lib subyektlar erk irodasi mazmuniga ko'ra hodisalar va harakatlar guruhlariga bo'linishi mumkin.

FKning 8-moddasi 1-qismida ko'rsatilishicha, fuqarolik huquqlari va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lmasada, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda burchlarini keltirib chiqaradigan harakatlardan vujudga keladi.

FKning 8-moddasi 2-qismida fuqarolik huquqlari va burchlari vujudga kelish asoslari sanab chiqilgan. Ulardan quyidagilardan iborat:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilmagan bo'lsada, unga zid bo'lmagan shartnoma va boshqa bitimlardan;

2) davlat organlari hamda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining fuqarolik huquqlari va majburiyatlari vujudga kelishining asosi sifatida qonunda nazarda tutilgan hujjatlaridan;

3) sudning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilagan qarorlaridan;

4) qonun yo'l qo'ygan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7) asossiz boyib ketish natijasida;

8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9) qonun hujjatlari fuqarolik-huquqiy oqibatlar natijasida.

Ba'zi holatlarda muayyan mol-mulk yoki mulkiy huquqlarga nisbatan huquqlarni vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi ular vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin vujudga keladi. Masalan, ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Turmushda ro'y beradigan turli hodisalar, voqealar kishilarning erki irodasidan tashqari sodir bo'ladigan faktlar hisoblanadi va ular qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolik huquqi va majburiyatlarni vujudga kelishi uchun asos sifatida ko'riladi. *Masalan, fuqaroning 18 yoshga to'lishi uni to'liq muomala layoqatiga ega bo'lish faktini vujudga keltiradi va u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi shu jumladan tijorat yuridik shaxsi muassisi bo'lishi mumkin. Do'l yog'ishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari zarar ko'rsa agarda ular bunday xavf xatardan sug'urta qilingan bo'lsa, sug'urta tashkilotlari yetkazilgan zararni sug'urta shartnomasi asosida qoplashlari lozim bo'ladi. Fuqaroning vafoti uning mol mulkiga nisbatan meros huquqini vujudga keltiradi.*

Fuqarolik huquqi subyektlarini harakatlari ularni o'z erki irodasi bo'yicha amalga oshiriladi va ular ham yuridik faktlar sifatida qaraladi. Bu o'rinda mexanik harakat bilan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatni farqlash lozim. Mexanik harakat masalan, shaxsning o'tirishi, turishi, yotishi, qo'lini qo'tarishi, pastga tushirishi o'z-o'zidan yuridik oqibat vujudga keltirmaydi. Mexanik harakat bilan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakat o'rtasida aniq chegara o'rnatish qiyin. Masalan, shaxsning o'z ruchkasini sherigiga berishi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakat bo'lib mol-mulkdan tekin foydalanish asosi sifatida ko'rilishi mumkin. Subyektlar harakatlar orqali masalan, oldi-sotdi, xizmat ko'rsatish va shu kabilar orqali o'zlari uchun maqbul yuridik faktlar oqibatida vujudga keltiriladilar. Harakatlar (ko'p holatlarda harakat faol bo'lsada, ba'zida

muayyan xulq-atvorda bo'lish ham harakatni to'g'rirog'i harakatsizlikni anglatadi va bu ham yuridik fakt sifatida qaraladi) o'z navbatida ikki turga: huquq yo'l qo'ygan va huquq yo'l qo'ymagan xatti harakatlarga bo'linadi.

Huquq yo'l qo'ygan harakatlar qonun hujjatlari bilan qat'i ta'qiqlanmagan harakatlar va harakatsizlikdan iborat. Boshqacha aytganda muayyan xulq-atvor bo'lib hisoblanadi. Bunday xulq-atvor yoki harakatlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilish orqali o'zlari uchun maqbul bo'lgan muayyan fuqarolik huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratiladi. Huquq yo'l qo'ymagan harakatlar boshqa subyektlarga zarar yetkazish va asossiz boyish va tejash holatlari hisoblanadi.

Fuqarolik huquqlarining amalga oshirilishi va burchlarining bajarilishi. Fuqarolik huquqlarining himoya qilinishi

Fuqarolik huquqining subyektlari o'zlarining huquqiy maqomidan kelib chiqib, xilma xil fuqarolik huquqlarini olish, ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga egadirlar. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish tartibi FKning 9-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra fuqarolar va yuridik shaxslar fuqarolik huquqlarini o'z xohishlariga ko'ra o'z erki irodasi bilan o'z manfaatlarini ko'zlab qo'lga kiritadilar hamda amalga oshiradilar. Ular o'zlariga tegishli fuqarolik huquqlarini shu jumladan, bunday fuqarolik huquqlarini himoya qilishni ham o'z xohishlariga ko'ra belgilaydilar, tasarruf etadilar. Bunda ular bu huquqlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslikni o'z xohishlariga ko'ra hal etadilar. Ularni o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi agar qonunda boshqacha holat belgilanmagan bo'lsa, huquqlarni kelgusida bekor bo'lishiga olib kelmaydi. Bir subyekt tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarni huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

Qonun fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarini insofli, oqilona va adolat bilan harakat qilishini nazarda tutadi. Buning ma'nosi shundan iboratki, toki aksi isbotlanmaguncha subyekt insofli, oqilona va adolat bilan harakat qilgan deb hisoblanadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishda jamiyatning ma'naviy tamoyillari, ahloqiy normalarni hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa ish odobi, ish muomalasi qoidalariga rioya qilishlari shart. Ular o'z huquqlarini amalga oshirishda boshqalarga zarar yetkazmasliklari, huquqlarni suiiste'mol qilmasliklari, ulardan qonun hujjatlariga huquqni mohiyatiga zid ravishda foydalanmasliklari shart.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirishda yuqorida ko'rsatilgan talablarga, shartlarga rioya etmasalar sud ularga tegishli huquqni himoya qilishni rad etishga haqli.

Subyektiv fuqarolik huquqini real amalga oshirishni namoyon bo'lish holatlaridan biri bo'lib zimmasiga majburiyat yuklangan shaxsni agarda u majburiyatni ixtiyoriy ravishda bajarmasa, majburiyatni bajarishga majbur qilish hisoblanadi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari FKning 11-moddasi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib quyidagilardan iboratdir:

huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararni to'lash;

neustoyka undirish;

ma'naviy ziyonni qoplash;

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin. Masalan, intellektual mulk huquqini himoya qilishning maxsus usullari FKning 1040-moddasida belgilangan bo'lib, mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo'lsa, o'sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo'yish orqali yoki yo'l qo'yilgan buzish haqidagi ma'lumotni majburiy suratda e'lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali ham himoya qilish mumkin.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish tartibi ham o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus tartibga bo'linadi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning umumiy tartib umumiyurisdiksiya sudlari va xo'jalik sudi orqali himoya qilish asosida shuningdek, fuqaroning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishdan iborat bo'ladi. Fuqarolik kodeksining 10-moddasiga asosan fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar yoki shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik

sudi yoki hakamlik sudi (bundan keyin – sud) tomonidan himoya qilinadi. Qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma'muriy tartibda himoya qilinadi. Ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Fuqarolik huquqining subyektlari o'zlari tomonidan ham fuqarolik huquqlarini himoya qilishlari mumkin. Biroq, bunda himoya muayyan shartlar asosida amalga oshirilishi qonunda belgilab qo'yilgan. FKning 13-moddasiga ko'ra fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilishiga yo'l qo'yiladi. Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish usullari huquqni buzishga mutanosib bo'lishi hamda huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi kerak. Masalan, FKning 290-moddasiga ko'ra qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog'liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to'lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning maxsus tartibi faqat qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjatlarda maxsus ko'rsatma bo'lgan taqdirdagina qo'llanilishi mumkin. Masalan, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan huquqlarni amalga oshirilishi va himoya qilinishi. Bojxona kodeksining 382-moddasiga ko'ra bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish choralarini ko'radi. Bojxona hududiga olib kiriladigan va bojxona nazorati ostida turgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash uchun bojxona organlari:

- intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning buzilganlik belgilari mavjud bo'lgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turishi;
- intellektual mulk obyektlarini o'z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborishni to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni bekor qilishi mumkin.

Shuningdek, sport musobaqalarida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar aniqlangan holatlarda o'yin natijalarini bekor qilinishi, g'irromchi sportchilarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llanilishi va h.k.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish

Odatda normal fuqarolik muomalasi nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlarining subyektiv huquqlarini amalga oshirish balki, ularni ishonchli himoyasi orqali ham namoyon bo'ladi. Fuqarolik

huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish faqatgina huquqiy choralarni qo'llash bilan cheklanmaydi. Uning uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa harakterdagi choralar ham mavjud.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish fuqarolik huquqi nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish qonunda belgilangan doirada ya'ni himoyaning ma'lum bir shakl, usul va vositalarini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Fuqarolik huquqlarining himoya qilish shakli deganda, fuqarolik huquqlar hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilishdagi tashkiliy chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Fuqarolik huquqlarining himoya qilishning ikki – yurisdikstiyaviy (sud orqali) va noyurisdiksiyaviy (sudsiz) shakllari mavjud.

Himoyaning yurisdikstiyaviy shakli buzilgan yoki nizoli huquqlarni himoya qilishda vakolatli davlat organlarining faoliyatida namoyon bo'ladi. Uning mohiyati shundaki, huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxs o'z huquqlarini tiklash uchun vakolatli davlat organiga murojaat etadi.

Asosan buzilgan fuqarolik huquqlari protsessual qonunlarda yoki shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudlovga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki hakamlik sudi tomonidan himoya qilinadi. Zero O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ninchi bobida ko'rsatilishicha, "davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi".

Yurisdikstiyaviy shakl o'z navbatida buzilgan huquqlarni himoya qilishning umumiy va maxsus tartiblariga ega. Umumiy qoidalarga ko'ra fuqarolik huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sud tartibida amalga oshiriladi. Fuqarolik-huquqiy nizolarning asosiy qismi fuqarolik sudlariga to'g'ri keladi. FPKning 31-moddasiga muvofiq fuqarolik sudlarga taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lgan nizolarga doir ishlar (qonunda bunday nizolarni hal qilish xo'jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno) FPKning 279-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda ko'riladigan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlar, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlar, fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish

to'g'risidagi ishlar, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar, taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar (chaqirib ish yuritish) hamda qonun bilan sudlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar taalluqli bo'ladi.

Xo'jalik sudlari tomonidan XPKning 23-moddasi talablariga muvofiq, iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir, tashkilotlar va yakka tadbirkorlarning huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash, bankrotlik va boshqa ishlar ko'riladi.

O'zaro bog'liq bo'lib, ba'zilar xo'jalik sudiga, boshqalari esa umumiy yurisdikstiya sudiga taalluqli bo'lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda, hamma talablar umumiy yurisdikstiya sudida ko'rilishi kerak.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etishda agar taraflarning nizoni hakamlik sudiga hal qilish uchun topshirish haqidagi kelishuvi – hakamlik bitimi mavjud bo'lsa nodavlat organ hisoblangan hakamlik sudlari ishni ko'rib hal qiladi.

Sud himoyasining asosiy vositasi da'vo hisoblanadi. Da'vo deb huquqni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatning himoya qilinishi to'g'risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat etishga aytiladi. Ba'zi bir holatlarda sud himoyasining vositasi ariza va shikoyatlar ham hisoblanadi.

Fuqarolik huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilishning maxsus tartibi ma'muriy tartibdagi himoya hisoblanadi. Bu umumiy qoidadan istisno sifatida ya'ni qonunda bevosita ko'rsatilgan hollardagina qo'llaniladi. Ma'muriy tartibdagi fuqarolik huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilishning vositasi bu shikoyatdir. U huquq buzilgan shaxs tomonidan tegishli vakolatli davlat organiga beriladi. Ba'zi bir holatlarda qonunga muvofiq holda aralash ya'ni ma'muriy – sud tartibidagi himoya usullari ham qo'llaniladi. Bunda sudga da'vo bilan chiqishdan oldin huquqi buzilgan shaxs sudga shikoyat bilan murojaat qilishdan oldin davlat boshqaruv organiga chiqishi lozim bo'ladi. Bularga patent bilan bog'liq nizolar, boshqaruv doirasidagi huquq buzarlilklarni hal qilish kabilar kiradi.

Fuqarolik huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilishning noyuridik shakli davlat va boshqa vakolatli organga murojaat etmasdan huquqi buzilgan shaxsning o'zi mustaqil, o'z xohishi bilan harakat qilishi tushuniladi.

Biroq bunda himoya ma'lum shartlar asosida amalga oshirilmog'i lozim. Ular FKning 13-moddasida nazarda tutilgan. Unga asosan shaxsning o'zi tomonidan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari huquqni buzish darajasi bilan baravar bo'lishi hamda huquqni buzishga yo'l qo'yish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi lozim. Masalan, iste'molchi o'ziga sotilgan nuqsonli tovarni ushlab qolib, yetkazilgan zarar va neustoyka to'lanmaguncha qaytarib bermaslikka haqli¹.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari deganda qonun tomonidan mustahkamlangan majburiy tisdagi moddiy-huquqiy choralar tushuniladi. Ushbu choralar yordamida buzilgan (nizolashayotgan) huquqlarni tiklash va huquqbuzarga muayyan ta'sir o'tkazish amalga oshiriladi. Ularning umumiy ro'yxati FKning 11-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1) huquqni tan olish (masalan, asarning, birov tomonidan o'zlashtirilib nashr etilgani to'g'risida nizo bo'lgani holda, shu asarga nisbatan mualliflikni tan olish);

2) huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish (masalan, mulk egasi o'z mulkidan foydalanish huquqining har qanday ravishda buzilishini bartaraf etish va kelgusida mulkdan foydalanishda xalaqit bermaslik majburiyatini buzuvchi shaxsga yuklash);

3) bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash(FKning 116-125-moddalari talablariga asosan, bitim haqiqiy emas deb topiladi. Haqiqiy bo'lmagan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir. Bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart);

¹ Бобоев Ж.И. Право потребителей и их защита по законодательству Республики Узбекистан.//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар,. 2003. № 3. -20-29 б.

4) davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish (Bu himoya usuli fuqarolik qonun hujjatlariga yangi kiritilgan usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzadigan, fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga monelik tug'diradigan hamda fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar vujudga keltiruvchi turli hujjatlari (qarorlari) shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqini vujudga keltiradi. Bunday hujjatlarni haqiqiy emas deb topish sud tartibida amalga oshiriladi.);

5) shaxsning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishi (mazkur usul noyurisdikstiyaviy usul hisoblanib, o'z huquqini himoya qilayotgan shaxsdan himoyaviy chora-tadbirlarni qonun talablariga muvofiq amalga oshirishni talab etadi. Bu holatda oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqmaslik, uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazmaslik shart, ya'ni FKning 13-moddasi talablariga muvofiq, fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish usullari huquqni buzishga mutanosib bo'lishi hamda huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi kerak);

6) burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish (masalan, sotilgan ashyo sotuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda topshirilmaganida uning oluvchisiga majburiy tarzda olib berish);

7) zararni to'lash (shaxs huquqi buzilganligi tufayli ko'rgan zararini to'la qoplanishini talab qilishi qonun bilan kafolatlanadi. Zararlarni qoplash buzilgan huquq va manfaatlarni uni buzishda aybdor bo'lgan shaxs hisobiga tiklashdir. Majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kreditorga yetkazilgan zararni to'lash majburiy hisoblanadi);

8) neustoyka undirish (neustoyka (jarima va penya) majburiyatlarni o'z vaqtida, lozim darajada bajarilishini ta'minlaydigan muhim usullardan biridir. U qonunda yoki shartnomada oldindan belgilangan taraflarga ma'lum bo'lgan va majburiyatlar bajarilmay qolganda to'lanishi lozim bo'lgan huquqiy chora sifatida namoyon bo'ladi);

9) ma'naviy ziyonni qoplash (huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida jabrlanuvchining boshidan kechirgan ma'naviy va jismoniy (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va boshqa) azoblar ma'naviy ziyon hisoblanib, bu azoblarning xususiyati ziyon yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi hamda pul bilan qoplanadi);

10) huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;

11) davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi;

12) qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar.

Shaxs o'z buzilgan huquqi yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida vakolatli organga murojaat qilganda yuqoridagi usullardan biri yoki bir nechasini qo'llashni so'rab murojaat etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ma'lumki, fuqarolik huquqida shaxsiy nomulkiy munosabatlar mulkiy harakterdagi va mulkiy harakterda bo'lmagan munosabatlarga bo'linadi. Fuqarolik-huquqiy munosabat doirasida mulkiy mezon qanday ahamiyat kasb etadi?

2. Fuqarolik huquqlarining himoya qilishda yurisdikstiyaviy va noyurisdikstiyaviy himoya usullari mavjud. FKning qanday normalarida noyurisdikstiyaviy himoya usullari nazarda tutilgan.

3. Fuqaro Abdullayev fuqaro Rashidov bilan og'zaki xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzdi. Keyinchalik Fuqaro Abdullayev nosoz ehtiyot qismlardan foydalangani uchun fuqaro Rashidovga tegishli bo'lgan televizor ishdan chiqdi. Fuqaro Rashidov buzilgan huquqlarini himoya qilishni so'rab sudga murojaat etganda, sud uning huquqini himoya qilishni rad etadi.

Sudning harakatlari qonuniymi? Fuqarolik huquqida buzilgan huquqlar qanday himoya qilinadi?

4. Beshkent tumanida joylashgan katta suv dambasining buzilishi natijasida shu tumanda joylashgan fermerlarga tegishli bo'lgan 500 gektar yerga ekilgan qishloq xo'jalik ekinlari nobud bo'ldi. Tuman hokimi ushbu voqea sababchilaridan fermerlarga yetkazilgan zararnigina qoplab berish xaqida buyruq chiqardi. Fermerlardan biri esa haqiqiy zarar bilan birga olinmagan foydani ham undirib berishni suddan talab qildi. Sud hokim qarorini asos qilib ko'rsatib fermerning talabini rad etdi.

Sudning harakatiga baho bering. Sudning qaroriga hokimning buyrug'i asos bo'lishi mumkinmi? Ushbu holatda hokimning buyrug'i fuqarolik huquqiy munosabatni tartibga sola oladimi?

4-MAVZU. FUQAROLAR – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTLARI SIFATIDA

Fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati. Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati. Fuqarolarning yashash joyi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish. Vasiylik va homiylik. Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish.

Fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati

Har qanday fuqarolik huquqi subyekti uning subyekti sifatida fuqarolik huquqiy muomalada faol qatnashishi uchun huquq layoqati va muomala layoqatiga ega bo'lishlari lozim. Fuqarolik huquqining asosiy subyektlaridan biri bo'lib hisoblangan fuqarolar ham xuddi shunday belgilarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati huquq layoqati hisoblanadi va teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqarolarni huquq layoqati mazmuni Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan. Ayni paytda fuqarolarni huquq layoqati mazmunining asosiy qoidalari mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Binobarin, fuqarolik huquqiy munosabatda ham fuqarolar huquq layoqatida teng deb e'tirof qilinadilar, ya'ni barcha fuqarolarga bir xildagi fuqarolik huquq va majburiyatlari belgilanadi.

Fuqarolik kodeksining 18-moddasi mazmuniga ko'ra fuqarolar: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishlari; mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo'yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjati haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi. Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno (Fuqarolik kodeksining 23-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasiga ko'ra jinoyat sodir etganlik uchun shaxslar ayrim fuqarolik huquqlaridan chunonchi, xizmat bo'yicha cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash choralari qo'llanilishi mumkin. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosidan tashqari boshqa fuqarolik huquqlarini cheklash choralari vaqtinchalik harakterga ega. Huquq layoqati inson tug'ilgandan boshlab to u vafot etguncha unga xos xususiyat, sifat bo'lib hisoblanadi. Inson o'zini holatidan qat'i nazar chaqaloq bo'ladimi, aqli zaif bo'ladimi, ruhiy hasta bo'ladimi baribir to'laqonli huquq layoqatiga ega.

Yuqorida ko'rsatilganidek umumiy qoida bo'yicha huquq layoqati subyekti sifatida mavjudlik chaqaloq tirik tug'ilishi bilan boshlanadi. Biroq, qonun ba'zi holatlarda hali tug'ilmagan ya'ni ona qornida homila sifatida mavjud bo'lganda ham uning kelgusidagi manfaatlarini qonun e'tiborga oladi, qo'riqlaydi. Masalan, agar meros qoldiruvchi fuqaro vafot etgan hollarda uning nafaqat hayot paytida tug'ilgan farzandlari balki, qonunda belgilangan tartibda meros ochilgandan so'ng tug'ilgan farzandlar ham merosxo'r sifatida e'tirof etiladilar (FKning 1118-moddasi).

Uy-joy kodeksida belgilanishicha, fuqarolarga turar joylar berilganda turar joy hajmini belgilashda oilada homilador ayollarning mavjudligi ham hisobga olinadi. Huquq layoqati fuqaro ya'ni, huquq subyekti o'limi bilan tugaydi.

Bugungi kunda fan texnika taraqqiyoti ba'zi og'ir kasalliklarda kishini sun'iy ravishda hayotini saqlab qolishga imkon beradi. Ba'zan bunday holat uzoq vaqt cho'zilishi mumkin (ba'zida yillab davom etadi va buni ba'zi adabiyotlarda o'simlik hayoti deb ham ataladi). Kishini o'simlik hayoti (sun'iy jonlantirish holati)da bo'lishi uni o'lim fakti ro'yo bermaganligi sababli huquq layoqatini bekor bo'lishiga olib kelmaydi.

Biologik o'lim hollaridan tashqari qonunda fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish taomili ham mavjud.

Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra fuqarolarning muomala layoqati fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir. Muomala layoqatini yuridik harakatlarni amalga oshirish layoqati deb ham e'tirof etish mumkin. Ba'zida, huquq layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar o'z xatti harakatlarini anglab, oqibatlarini tushunib o'z erki irodalari asosida amalga oshiradilar.

Odatda, yangi tug'ilgan chaqaloq garchi to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham o'z mustaqil harakatlari bilan o'zi uchun huquq va majburiyat vujudga keltirish qobiliyatiga ega emas. Bolalar yillar o'tgan sayin aqliy bilimlar va hayotiy tajriba orqali ongi to'liqlashib boradi. 18 yoshga to'lganda unda to'liq muomala layoqati vujudga keladi. Ayni paytda qonunda belgilangan tartibda va asoslarda nikohdan o'tgan voyaga yetmaganlar ham shu paytdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladilar. FKning 23-moddasiga ko'ra voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomala layoqatiga ega bo'ladilar. Fuqarolarning muomala layoqati faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda cheklanishi mumkin. Fuqaroning o'zi tomonidan yoki boshqalar tomonidan uning muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Voyaga yetmaganlarning fuqarolik muomalasida ishtiroki masalasi tabaqalashtirilgan holda tartibga solinadi. Ya'ni 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqatining hajmi va mazmunida o'ziga xosliklar mavjud. 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to'la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar. Biroq, qonun ularga fuqarolik muomalasida qatnashish bo'yicha muayyan imkoniyatlar beradi. Bunga ko'ra 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni

tasarruf etish borasidagi bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar.


O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

- 1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
- 2) fan, adabiyot yoki san‘at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;
- 4) mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

Kishining ruhiy kasalligi, aqli zaifligi uni sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish uchun asos bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni unutmaslik lozimki, har qanday ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik fuqaroni ongli ravishda harakatlar qilish va fuqarolik muomalasida faol qatnashish imkoniyatidan mahrum etmaydi. Fuqarolik kodeksining 30-moddasida ko‘rsatilishicha ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Tabiiyki, muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uni vasiyi amalga oshiradi. Agar fuqaro ruhiy kasallikdan davolansa, tegishli tartibda sud tomonidan to‘liq muomalaga layoqatli deb topilishi ya‘ni, muomala layoqati tiklanishi mumkin.

FKning 31-moddasiga ko‘ra spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiste‘mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek, ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladi.

Emansipatsiya



Fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati

Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir (FK ning 24-m). Tadbirkorlik faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat bo'lib hisoblanadi (Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 3-m). Yakka tartibdagi tadbirkor – bu fuqaro tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Fuqaro yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda turli shartnomaviy munosabatlarga kirishadi, ushbu shartnomalarni bajarish bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish uchun turli yuridik harakatlarni sodir etadi (masalan, da'vo bildirish va talabnoma qo'yish uchun). Tadbirkor fuqaro barcha yuridik harakatlarni o'z nomidan va tavakkal qilgan holda amalga oshiradi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun fuqaro belgilangan tartibda yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi shart. Fuqarolarning yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan, agar qonun hujjatlarida yoki huquqiy

munosabat mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, Fuqarolik kodeksi normalari qo'llaniladi.

Yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda (ya'ni, FK ning 24-modda 1-qism talablarini buzgan holda) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqaro tuzgan bitimlar xususida o'zining tadbirkor emasligini vaj qilib ko'rsatishiga haqli emas. Sud bunday bitimlarga FK ning, shuningdek, boshqa qonunlarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq majburiyatlar to'g'risidagi qoidalarini qo'llashi mumkin. Bunday qoida muhim ahamiyatga ega, chunki FK ning tadbirkorlar ishtirokidagi bitimlarda ular zimmasiga oshirilgan mas'uliyat yuklaydi. Masalan, FK ning 333-moddaga asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs bunga fors-major sabab bo'lganini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi. FK ning 425-moddada chakana oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi tadbirkorlik subyekti bo'lishi nazarda tutiladi. Bu esa uning zimmasiga qator majburiyatlar yuklaydi va h.k.

Tadbirkorlik faoliyati tavakkalchilikka asoslangan faoliyat bo'lgani sababli tadbirkor kutilgan natijaga erishmasligi, oxir-oqibatida bankrot (nochor) bo'lishi mumkin. FK ning 26-modda ga asosan yakka tadbirkor kreditorlarning o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan talablarini qanoatlantirishga qodir bo'lmasa, bunday tadbirkor belgilangan tartibda bankrot deb topilishi mumkin.

Odatda, tadbirkor bankrot deb topilgandan keyin uning kreditorlari uning mavjud mol-mulkiga nisbatan o'z talablarini qaratishga haqli bo'ladilar. Yakka tadbirkorni bankrot deb topish rasm-rusumlarini amalga oshirish jarayonida uning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlari bo'yicha kreditorlari ham o'z talablarini qo'yishga haqli. Mazkur kreditorlarning ushbu tartibda qo'yilmagan talablari yakka tadbirkorni bankrot deb topish rasm-rusumlari tamom bo'lganidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi (FK ning 26-modda 1-qism). Yakka tadbirkorning majburiyatlari tadbirkorlik bilan bog'liq yoki bog'liq emasligi bu o'rinda muhim prinsipial ahamiyatga ega. Masalan, fuqaro A. 2001-yil iyo'n oyida S. dan o'z qizini turmushga chiqarish munosabati bilan to'y xarajatlari uchun 100 ming so'm qarz oladi. 2001 yil 1 oktyabrda u tuman hokimligida yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tadi. 2001 yil 1 noyabrda "Tadbirkorbank"dan 3 million so'mli kredit oladi (3 oy muddatga). Lekin bozor konstrukturasini o'zgarishi oqibatida to'lovga layoqatsiz bo'lib qoladi, kredit o'z muddatida qaytarilmaydi. 2002 yil avgustida shahar xo'jalik sudi A. ni bankrot deb

e'lon qiladi. Uning kim oshdi savdosida sotilgan mol-mulki 500 ming so'm deb baholanib, S. ning talabi bo'yicha 50 ming so'm, "Tadbirkorbank" talabi bo'yicha 450 ming undiriladi. Tadbirkorlik rasm-rusumlari bo'yicha tadbirkor bankrot deb topilgach uning mol-mulki bo'lmasa, uning tadbirkorlik bilan bog'liq majburiyatlari bekor bo'ladi, lekin boshqa majburiyatlari saqlanib qoladi. Demak, A. ning S. dan yana 50 ming so'm qarzi saqlanib qolgan holda, "Tadbirkorbank"dan olgan kreditlarining qoplanmagan 2 million 555 ming so'mlik kreditini qaytarish bo'yicha majburiyatlari bekor bo'ladi.

Sud tomonidan yakka tadbirkorni bankrot deb topishning yoki yakka tadbirkor o'zini bankrot deb e'lon qilishining asoslari va tartibi qonun bilan belgilanadi (FK ning 26-modda 4-qism).

Shunday qilib, qonunda bankrot deb topilgan fuqaroning tadbirkorlik bilan bog'liq majburiyatlaridan ozod bo'lishi belgilab qo'yilgan. Bu esa mulkiy talofatlar ko'rgan shaxsni ruhiy-psixologik larzalardan saqlashga va hayotni yangidan boshlashiga imkon beradi. Shu sababli ham fuqaro bankrotlik instituti vaziyat taqozosiga ko'ra moddiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolgan shaxsni samarali himoya qilish usullaridan hisoblanadi.

Fuqarolarning yashash joyi

Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga asosan, fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi. U hovli, xonadon (kvartira), xizmat turar joyi, maxsus uylar(yotoqxona, mehmonxona, yolg'iz qariyalar uylari, faxriylar, nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek, fuqaro doimiy yoki asosan mulkdor sifatida ijara (ikkilamchi ijara) asosida yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarda yashab turgan boshqa joy bo'lishi mumkin.

Fuqaroning yashash joyi yetarli darajada aniqlash belgilanishi lozim. Bu o'rinda faqat aholi punktinigina ko'rsatish kifoya emas, balki ko'chasi, uy, xonadon tartib raqami ham albatta ko'rsatilishi lozim.

Doimiy yashash ushbu joyda uzoq muddat istiqomat qilish shartligini anglatmaydi. Eng muhimi tarkib topgan, vujudga kelgan sharoitlarga ko'ra fuqaro ushbu joyda istiqomat qilayotgan bo'lishi lozim. Masalan, oliy o'quv yurtini tugatgandan keyin muayyan boshqa hududga ishga kelgan yoki mutaxassis ushbu hududdagi turar-joyga o'rnashuvi bilan, bu joy uning doimiy yashash joyi hisoblanadi.

FKda doimiy yashash joyi iborasi bilan birgalikda, "asosan yashab turgan joyi" iborasi ham qo'llaniladi. Masalan, muayyan toifadagi

fuqarolarni turmush tarzi, hayoti va faoliyati doimiy istiqomat joyi bilan bog'liq emas. Masalan, geologlar, dengizchilar, baliqchilar, asalarichilar va boshqa kasb-kor qilishlari o'z hayotini ko'p qismini o'z uyidan chetda-ekspeditsiyalarda, dengizda, tog'larda o'tkazadi. Bunday hollarda fuqarolik yashash joyi bo'lib uning asosan yashaydigan joyi, ya'ni u nisbatan ko'proq yashaydigan joy hisoblanadi.

Fuqarolar muayyan yashash joyiga ega bo'lishi lozim degan qoida uning mamlakat hududida erkin ko'chib yurish, erkin harakatlanishi, erkin ravishda yashash joyini tanlash xususini aslo istisno etmaydi.

O'zbekiston Respublikasining har bir muomalaga layoqatli fuqarosi o'z xohishiga ko'ra yashash joyini tanlaydi. Yashash joyini erkin tanlash inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarda nazarda tutilgan muhim xususiyatlaridan biri. Ushbu huquq FKning 18-moddasida huquq layoqatini tarkibiy qismi sifatida belgilab qo'yilgan.

Pasport rejimi to'g'risidagi qoidalarga asosan, fuqarolar yashash joyida ro'yxatdan o'tishlari lozim. Binobarin, muayyan yashash joyda fuqaro ro'yxatga olinganidan keyin, boshqacha hol isbotlanguncha, u joy fuqaroni doimiy yashash joyi hisoblanadi.

Umumiy qoida bo'yicha yashash joyini erkin tanlash huquqi to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolarga tegishli bo'ladi. Shu munosabat bilan qisman muomala layoqatiga ega bo'lgan 14-18 gacha bo'lganlar va FKning 31-moddasida belgilangan tartibda sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolar bunday huquqqa egami degan savol tug'iladi. Bu savolga javob FKda mustahkamlab qo'yilgan normalar mazmunida aks etgan. Boshqacha aytganda, bunday fuqarolar o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari, homiylari roziligi bilangina yashash joyini tanlashlari mumkin.

Ba'zi toifadagi fuqarolarni yashash joyi qonunda belgilab qo'yilgan. Birinchidan, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarni (kichik yoshdagi bolalarni) yashash joyi ular ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yashash joyi hisoblanadi. Agar ota-ona boshqa-boshqa joylarda yashasalar, u holda bola qay biri bilan birga yashasa, yashash joyi bo'lib vasiylik yashash joyi hisoblanadi.(FKning 21-m)

Yashash joyini erkin tanlash huquqi O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishlidir. Biroq mamalakatimiz hududida ulardan tashqari xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham doimiy istiqomat qiluvchilar. Ular bilan bo'lgan munosabatlarni tartibga solishda davlat o'z immigratsiya siyosatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi hududida g'ayriqonuniy va nazoratdan tashqari bo'lgan migratsiyani oldini

olish va bartaraf etish maqsadlardan kelib chiqqan holda maxsus qoidalar belgilaydi.

Yashash joyini aniq belgilash fuqarolarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishi, fuqarolik huquqiy munosabatlari barqarorligini, davlat manfaatlarini ta'minlash uchun ahamiyatga ega.

Fuqarolik huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan qator masalalarni hal etishda fuqaroni yashash joyini aniq belgilash zarurati mavjud. Masalan, majburiyat qayerda ijro etilishi kerak degan masalani qonun majburiyat fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilari – kreditor va qarzdor yashash joyiga qarab hal etadi. (FKning 246-moddasi). Merosni ochilish joyi to'g'risida masala FKning 1117-moddasiga asosan meros qoldiruvchining oxirgi yashash joyi hisoblanadi. Yashash joyi protsessual qonunchilik bo'yicha muhim ahamiyatga ega.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish

Fuqaroni o'z yashash joyida uzoq muddat bo'lmasligi, agarda uni qayerdaligi noma'lum bo'lsa, u bilan huquqiy munosabatlarda bo'lgan tashkilotlar va fuqarolar uchun o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, agarda fuqaro qarzdor bo'lsa, uning kreditorlari qarzni qaytarilishini talab qila olmaydilar. Fuqaroni qaramog'ida bo'lgan shaxslar ta'minotidan maxrum bo'ladilar, biroq ular formal jihatdan boquvchisi bo'lgani sababli nafaqa so'rab murojaat qilishga hali haqli emaslar. Fuqaroni uzoq muddat yo'qligi uni yashash joyidagi mol-mulkini qarovsiz qolishiga, shikastlanishiga olib keladi.

Fuqaro uzoq muddat bo'lmasligi sababli ro'y bergan yuridik (huquqiy) noaniqlikni bartaraf etish, uning mol-mulki uchun salbiy oqibatlarini oldini olish uchun qonun bunday fuqaro uchun alohida yuridik holat, ya'ni, uni bedarak yo'qolgan deb tan olish tartibini joriy etgan. Bedarak yo'qolganlik – qayerdaligini aniqlashni imkoni bo'lmagan fuqaroni uning yashash joyida uzoq muddat bo'lmaganlik faktini sud tartibida guvohlantirish hisoblanadi.

FKning 33-moddasi 1-qismiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. Shunday qilib, bunday tartibda, sudga da'vo bilan emas, balki ariza bilan murojaat qilinadi. Qonunda manfaatdor

shaxslar doirasi belgilab qo'yilmagan. Agar qonunning umumiy mohiyatidan kelib chiqsak, u holda manfaatdor shaxs doirasiga bedarak yo'qolgan shaxsning eri (yoki xotini), qaramog'idagi shaxslar kiradi. Bundan boshqa sabablarga ko'ra ham har qanday shaxslar "manfaatdor shaxs" sifatida qaralishi mumkin, agarda shaxsni bedarak yo'qolgan deb topish uni qonuniy manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lsa. Bundan tashqari, prokuror, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, qonunga ko'ra o'zgalarni huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishga haqli bo'lgan organlar va fuqarolar ham bunday ariza bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Masalan, N. Abdulova (ismlari o'zgartirilgan) turmush o'rtog'i A. Abdulovni bedarak yo'qolgan deb topish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi. Arizada turmush o'rtog'i A. Abdulov bilan 1979 yilda qonuniy nikohdan o'tib turmush qurganligini, birgalikdagi turmushidan 1 nafar farzandi borligini, qaynona va qaynotasi vafot etishganligini, turmush o'rtog'i 2008 yilning oktyabr oyida ishlagani Qashqadaryo viloyatiga ketayapman deb, uydan chiqib ketganligini hamda boshqa qaytib kelmaganligini, hozirgi kunga qadar undan hech qanday xat-xabar yo'qligini, bu haqda Toshkent shahar Uchtepa tuman IIBga murojaat qilganligini bayon etadi. Sud guvohlarning ko'rsatuvlari, mahalla dalolatnomasi, tumani IIB, IIB FRB va XKCh bo'limi, FHDYo bo'limi, Sudtibbiy ekspertiza byurosi va Toshkent shahar 1-sonli ruhiy asab kasalliklari shifoxonasi, O'zbekiston Respublikasi IIVning Axborot markazining ma'lumotnomalariga tayanib, arizani qanoatlantirish haqida qaror qabul qiladi.

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish uchun uning yashash joyida eng kamida bir yil davomida uning qayerdaligi to'g'risida hech qanday ma'lumot bo'lmasligi lozim. Fuqaro to'g'risida oxirgi ma'lumotlar sanasini belgilab olish muhimdir. Ushbu sana u yuborgan oxirgi xat-xabar, guvoh ko'rsatuvlari asosida belgilanadi. Yo'qolgan shaxs to'g'risida oxirgi ma'lumotlar olingan kunni aniqlash imkoni bo'lmasa, bedarak yo'qolgan deb hisoblash muddati yo'qolgan shaxs to'g'risida olingan oxirgi ma'lumotlar olingan oydan keyingi oynning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo'lmagan taqdirda esa – keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish uning haqiqatda qayerdaligini aniqlash mumkin bo'lmagandagina amalga oshiriladi. Agar fuqaro biror mamlakatda yashab yuribdi degan ma'lumotlar mavjud bo'lsa

yoxud jinoyat sodir etib, qochib yurgan bo'lsa, uni bedarak yo'qolgan deb topish uchun asos bo'lmaydi.

Vasiylik va homiylik

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 32-moddasi 1-qismiga binoan, vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylarning bunga tegishli huquq va burchlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik o'z huquq va manfaatlarini o'zlari mustaqil himoya qilishga qiynaladigan yoki eplay olmaydigan fuqarolarni himoya qilish usulidir. Voyaga yetmaganlar uchun esa vasiylik va homiylik ularni oilada tarbiyalanishi uchun imkoniyatdir. Umuman olganda esa, vasiylik va homiylik tarkibiga fuqarolik, oila, ma'muriy huquq qoidalarini olgan kompleks huquqiy institut hisoblanadi.

Vasiylik va homiylikni quyidagi ikki ma'noda tushunish mumkin:

1) keng ma'noda (fuqarolik-huquqiy) – bu muomala layoqatining etishmagan qismini to'ldirish va voyaga yetmagan hamda muomalaga layoqatsiz shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish usuli;

2) tor ma'noda (davlat organining xizmat vazifalari) – ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularni tarbiyalashdir.

Vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Vasiyning vasiylikdagi shaxs bilan munosabatlari mulkiy va shaxsiy aloqalar bilan bog'liq. Vasiyga vasiylikdagi shaxsga nisbatan ota-onaning o'z bolasiga nisbatan hokimiyat huquqi tegishli bo'ladi va vasiyning vasiylikdagi bolaning shaxsiga nisbatan bevosita majburiyati – unga tarbiya berish hisoblanadi.

2. Vasiylikdagi shaxsning mol-mulkiga nisbatan munosabat vasiylikdagi shaxsning vakili sifatida harakatlarni amalga oshirish huquqlarini ifoda etadi. Bunda birinchi navbatda, vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini uning ehtiyojlari uchun sarflash, shuningdek, uning mol-mulkini saqlashga e'tibor qaratiladi.

3. Vasiyning uchinchi shaxsga nisbatan munosabati bir tomondan vasiylikdagi shaxsga nisbatan hukmronlik huquqiga ega subyekt sifatidagi,

ikkinchi tomondan vasiyning vasiylikdagi shaxs qonuniy vakili sifatidagi maqomidan kelib chiqadi.

4. Vasiylik bir emas, bir nechta vasiy tomonidan ifodalanganda va ba'zan vasiy bilan birga, homiy ham tayinlanganda, vasiylar o'rtasida, shuningdek, vasiy va homiy o'rtasida munosabat yuzaga keladi.

5. Vasiyning vasiylik idorasi bilan munosabati. Bu holda vasiy vasiylik idorasining nazoratida bo'ladi va undan tpoishiriq, farmoyishlar oladi.

“Vasiylik va homiylik to'g'risida” gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, vasiylik – o'n to'rt yoshga to'lmagan etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

homiylik – o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan etim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shaklidir.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar – alohida g'amxo'rlikka, shuningdek, o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar hisoblanadi.

Vasiylik va homiylik bo'yicha faoliyat:

tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari tomonidan – voyaga yetmaganlarga nisbatan;

tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan – sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga nisbatan;

tuman, shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan – sog'lig'ining holatiga ko'ra

homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi.

Vasiylik va homiylik tuman, shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyi bo'yicha, agar shaxs muayyan yashash joyiga ega bo'lmasa, vasiyning yoki homiyning yashash joyi bo'yicha belgilanadi.

Qonunchilikka ko'ra muayyan toifdagi shaxslar vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin emas va ular quyidagilardir:

- ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki ota-onalik huquqlari cheklangan shaxslar;

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

- sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olish ularning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganligi, farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lganligi, surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lganligi oqibatida bekor qilingan bo'lsa;

- o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud o'z huquqlarini suiiste'mol qilganligi uchun vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

- qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilingan shaxslar ("Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasi).

Qonunchilikka binoan vasiylar o'z vasiylikdagi shaxslarning qonuniy vakili bo'lib, ularning nomidan yoki ularning manfaatlarini ko'zlab barcha zarur bitimlarni tuzadi.

Homiylar o'z homiylikdagi shaxslarning qonuniy vakili bo'lib, homiylikdagi shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko'maklashadi, shuningdek, ularni uchinchi shaxslar tomonidan bo'ladigan suiiste'molliklardan muhofaza qiladi.

Vasiy va homiylarning, vasiylik va homiylikdagi shaxslar huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylikning tugatish asoslari "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan.

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish yuridik faktlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Fuqarolik holati hujjatlari qayd etilishi bilan fuqarolik huquq va burchlar vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor bo‘ladi. Shu sababli ham qonunchilikda fuqarolik holati hujjatlarning muayyan toifalari davlat tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 38-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, quyidagi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak:

- 1) tug‘ilish;
- 2) o‘lim;
- 3) nikoh tuzilganligi;
- 4) nikohdan ajralish.

Inson tug‘ilishi va uning hayoti uchun muhim bo‘lgan holatlarni yuridik hujjatlarda ifodalash hamda muayyan huquqlarning shaxsga tegishli ekanligi rasmiylashtirish bugungi rivojlangan kishilik jamiyatda alohida o‘rin tutadi. Albatta, insonning tug‘ilishi, uning borligi (tirikligi, yashayotganligi) muayyan rasmiylashtirishlarsiz ham mavjud voqelik hisoblanadi. Biroq, murakkab dunyo va ijtimoiy munosabatlar sharoitida, bir shaxs huquqlarining ikkinchi shaxs huquqlardan farqlash, insonning huquq va majburiyatlarini aniq ifodalashda, u bilan bog‘liq barcha ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda insonning tug‘ilishi, o‘limi kabi fuqaro uchun muhim bo‘lgan faktlar, shuningdek, muayyan yoshga etgandan so‘ng fuqaroning nikohdan o‘tish yoki nikohini bekor qilish holatlari tegishli ravishda rasmiylashtirilishi va muayyan tartibda “hisobda yuritilishi” davlat va jamiyat boshqaruvi uchun muhim omillardan biri sanaladi.

Mazkur faktlarni qayd etish va ular “hisobini yuritish” mamlakatimizda maxsus davlat organi - fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Ma’lumki, FHDYO organlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bo‘ysunuvchi organ bo‘lib, ularning asosiy vazifasi qonun hujjatlarida belgilangan, fuqarolik-huquqiy tisdagi yuridik faktlarni yozib qo‘yish, qayd qilish va maxsus riyestr kiritib qo‘yishdan iborat. FHDYO organlari davlat organi bo‘lishi bilan birga, fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi, aholiga muayyan turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi yuridik shaxs ham hisoblanadi. Shu bilan birga FHDYO organlarida qonun hujjatlarida belgilangan alohida turdagi yuridik faktlar – tug‘ilish, o‘lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, otalikni belgilash, farzandlikka olish, ism o‘zgartirish qayd etilishi FHDYO organi uchun o‘ziga xos yuridik majburiyatlarni vujudga keltiradi. Xususan, FHDYO organi va uning

mas'ul shaxslari farzandlikka olish sirini oshkor qilmasliklari, fuqarolarga pulli xizmat ko'rsatishlari (masalan, joylarga chiqib nikohni qayd etish) va shu kabi fuqarolik-huquqiy harakaterdagi "faoliyat" olib borishlari lozim.

Tug'ilish fuqarolik holati bo'lib, uni qayd etish yo'li bilan ushbu yuridik fakt rasmiy tus kasb etadi va jismoniy shaxsning huquq layoqatini rasmiy jihatdan tasdiqlaydi. Tug'ilganlikni qayd etish fuqarolik holati sifatida davlat tomonidan qayd etiladi va shu yo'l bilan jismoniy shaxsning huquqiy maqomi yuzaga keladi. Zero, jismoniy shaxsning keyingi hayoti davomida, masalan, bolani poliklinikada tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bolalar bog'chasiga joylashtirish, maktabga o'qishga chiqish kabi harakatlarda tug'ilganlik guvohnomasi asosiy hujjat sanaladi.

Fuqarolik holatini qayd etish fuqarolarning huquq va burchlarini paydo bo'lishiga sabab bo'lib xizmat qiluvchi hujjat (gerbli guvohnoma) berish uchun asos bo'ladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning ahamiyati shundaki, unga asosan FHDYO organi tomonidan berilgan guvohnoma, unda ko'rsatilgan faktning to'g'riligini tasdiqlovchi shaksiz dalil hisoblanadi.

Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma bolaning tug'ilganligini, uning ota-onasi kim ekanligini tasdiqlovchi yagona hujjatdir.

O'lim haqidagi dalolatnoma yozuvi qayd etilgandan so'ng, o'lim haqida gerbli guvohnoma rasmiylashtiriladi va murojaat qilgan shaxsga taqdim etiladi.

Nikoh qayd etilganligi haqida guvohnoma - bu nikohdan o'tgan shaxslarning er-xotinligini tasdiqlovchi va ular o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarining vujudga kelganligini ifodalovchi hujjatdir.

Nikohdan ajralganlik er-xotin o'rtasidagi oila-nikoh munosabatlari rasman tugaganligini anglatadi va bu haqda ularga nikohdan ajralganlik guvohnomasi beriladi hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga nikohdan ajralish qayd etilganligi haqida belgi qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan jismoniy shaxsga tushuncha bering va uning boshqa huquq sohalaridagi subyektliligi bilan qiyosiy tahlil eting?

2. Ma'lumki, fuqarolarning muomala layoqatini legal va doktrinal tasniflash mumkin. Bunday turkumlash mezonlari nimalardan iborat?

3. Fuqaro Axatov va Soliyevalar nikoh yoshiga to'lmadan turib nikoh qurishadilar. Ular uch oy yashamasdan o'zaro kelishmovchiliklar tufayli ajrashib ketadilar. Axatov yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruhsatnoma olgani Tadbirkorlarni ro'yhatga olish davlat idorasiga murojaat qilganida, unga to'la muomala layoqatiga ega bo'lmadan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish mumkin emasligini aytadi.

Davlat idorasining harakatlari to'g'rimi? Emansipatsiya deganda nimani tushunasiz?

4. Numonovning otasi 2003 yilda 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi. Numonovga vasiy qilib tayinlangan Rashidov Numonovni o'zining uyiga olib ketib, otasining uyini sotish uchun kim oshdi savdosiga qo'yadi. Keyinchalik mazkur uyning pulidan o'ziga ikkita xususiy magazin qurib oladi. 2009 yilda qabul qilingan Amnistiya akti tufayli Numonovning otasi jazodan ozod qilinadi va o'g'lining vasiydan uyini talab qilganida Rashidov pulni ishlatib yuborganligini ma'lum qiladi?

Numonovning fikrlari asoslimi? Kimlar vasiy bo'la olmaydilar? Vasiylik kimlarga nisbatan belgilanadi?

5-MAVZU. YURIDIK SHAXSLAR

Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari. Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati. Yuridik shaxslarning vujudga kelish va bekor bo'lishi. Yuridik shaxslarning turlariga umumiy tavsif.

Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari

Fuqarolik huquq subyektlari ichida yuridik shaxslar o'z belgilari, vujudga kelish va bekor bo'lish usullari, fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtiroki, subyektiv huquqlarni amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi layoqati nafaqat fuqarolarga, balki yuridik shaxslarga ham beriladi.

Mamlakatimizda yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yaxlit tizimi yaratilgan. Ularning har birida turli xo'jalik yuritish shakliga ega bo'lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o'ziga xos ta'riflar, tushunchalar berilgan. FK esa ularning barchasini umumlashtirib quyidagicha ta'rif beradi:

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi (FK, 39-modda).

Shuningdek, fuqarolik huquqi subyekti yuridik shaxs sifatida tan olinishi uchun muayyan huquqiy belgilarga ega bo'lishi talab etiladi. Yuridik shaxs belgisi uning ichki o'ziga xos xususiyatidir. FKda yuridik shaxsga berilgan ta'rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo'la oladi.

Tashkiliy birlik – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo'lganligini, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ta'ris hujjatlarida nazarda tutilgan boshqaruv organlari va bo'linmalari orqali muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishligini bildiradi. Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishi (strukturasi) ta'ris hujjatida ko'rsatiladi. Yuridik shaxslarning ayrim filiallari (xo'jalik bo'limlari,

uchastkalari, agentliklari) ma'lum tizimga ega bo'lgan, muayyan tarzda tashkil etilgan bo'lsa ham, ular butun bir tashkilot (korxonalar, muassasalar) ishining bir qisminigina bajaruvchi tashkilotlari bo'lgani tufayli yuridik shaxs bo'la olmaydi.

Mulkiy mustaqillik belgisi – yuridik shaxsga ma'lum bir mol-mulkni mulk (xo'jalik yuritish, operativ boshqaruv) huquqi asosida tegishliligini bildiradi. Ya'ni FKning 39-moddasidagi yuridik shaxs ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, "o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan" dagina, tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning balans yoki smetasida hisobda turadi va FKning 39-moddasi talablariga muvofiq har qanday tashkilotda balans yoki smeta mustaqil bo'lishi lozim. Davlat tashkilotlari davlatga qarashli mulkka nisbatan to'la xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqigagina egadirlar. Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, jamoat tashkilotlari, ularning birlashmalari o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkni egallaydi. Alohida mulkka ega bo'lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo'jalik munosabatlarida bo'la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyekti bo'lib hisoblanmaydi.

Mustaqil mulkiy javobgarlik – yuridik shaxs o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan (davlat tashkiloti esa, o'ziga biriktirib qo'yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo'lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Davlat budjetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag' berish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.


Yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga qarashli yuridik shaxs hisoblangan tashkilotlarning qarzlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Ammo yuridik shaxsning yuqori organi o'ziga bo'ysunadigan tashkilotning qarzlari uchun qonunda yoki ta'sis hujjatida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'lishi mumkin. Quyi tashkilotlar ham o'zlarining yuqori tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Yuridik shaxslar o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo'lmaganida davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar (qo'shimcha) javobgar bo'ladi. Yuridik shaxsning bankrotligi uning mulkdori yoki ta'sischining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo'lsa, yuridik shaxsning

mol-mulki yetarli bo'lmaganda, uning mulkdori (yoki ta'sischi) zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilishi – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy harakterda bo'lmagan huquqlarga ega bo'la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi, demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo'jalik sudida yoki hakamlilik sudida mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo'la oladi.

Yuridik shaxsni yuqoridagi belgilaridan tashqari uni individual belgilari (firma nomi, tovar (xizmat) belgisi) ham mavjud.

Yuridik shaxs vujudga kelishi va rivojlanishi bilan birga, uning mohiyatini o'zida ifoda etuvchi bir qator qarashlar, nazariyalari mavjud, ular zamonaviy yuridik shaxs tushunchasining vujudga kelishi va mohiyatini ifodalashda muhim o'rin egalladi. Bunday nazariyalarga fikstiya nazariyasi, ijtimoiy voqelik nazariyasi, mavjud holat nazariyasi, tashkilot nazariyasi, manfaat nazariyasi, ma'muriyat nazariyasi, direktor nazariyasi, jamoa nazariyasi, jamoa mulki nazariyasi va boshqalardir.



Yuridik shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati

Yuridik shaxs o'z faoliyatida o'z ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasidagi huquq layoqatining hajmida farq bo'lishi mutlaqo tabiiydir. Tashkilotlar fuqarolarga nisbatan belgilangan birmuncha huquq va majburiyatlarga ega bo'la olmaydilar. Bundan tashqari, vujudga kelish vaqtida ham fuqarolarning huquq va muomala layoqatidan yuridik shaxslarniki farqlanadi. Yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati bir vaqtda ro'yxatdan o'tishi bilan vujudga keladi.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi (FK, 41-modda). Aynan ushbu holat yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati doirasini kengaytirib, istalgan qonuniy harakatni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yuridik shaxs hisoblangan tashkilot yoki korxonaga qatnashadigan munosabatlarning doirasi uning tashkil qilinish maqsadlari bilan hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning harakteri bilan belgilanadi. Yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati ikki turga: umumiy (universal) va maxsus huquq layoqatiga bo'linadi. Qonunda taqiqlanmagan istalgan faoliyatni amalga oshirish yuridik shaxsga umumiy (universal) huquq layoqatini beradi. Bu layoqat bilan yuridik shaxs o'z faoliyat doirasining barchasini ta'sis hujjatlarida sanab o'tishi shart bo'lmaydi. Aksincha, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan istalgan faoliyat bilan shug'ullanish mumkinligi haqidagi ta'sis hujjatidagi havolaning o'zi faoliyat doirasining keng ekanligidan dalolat beradi. Maxsus huquq layoqatida esa yuridik shaxs o'z faoliyatini ta'sis hujjatida nazarda tutilgan maqsadga muvofiq shug'ullanishi nazarda tutiladi. Shunday qilib, yuridik shaxsning huquq layoqati, unga maxsus yuklangan vazifalar bilan belgilanadi (maxsus huquq layoqati). Yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin. Masalan, neft, neft mahsulotlari va gaz qazib chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish faoliyati.

Fuqarolik huquqida fuqarolardan farqli o'laroq, yuridik shaxslarning huquq layoqatida tenglik mavjud emas, ularning har qaysi turi uchun har xil. U muayyan yuridik shaxsning paydo bo'lishida, uning ish maqsadlariga qarab, qonun, ustav yoki nizomlarida belgilanadi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati huquq layoqati bilan bir vaqtda vujudga keladi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas. Yuridik shaxsning muomala layoqati o'z nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda harakat qilishi, ya'ni bitimlar tuzish, majburiyatlarga ega bo'lish va uni bajarish, da'vogar hamda javobgar bo'lish layoqatidir.

Yuridik shaxs o'z ta'sis hujjatlari (ustavi, nizomi yoki ta'sis shartnomasi) asosida harakat qiladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati, uning ta'sis hujjati tasdiqlangan paytdan boshlab yoxud tegishli vakolatli idora ushbu yuridik shaxsni tashkil etish haqida qaror chiqargandan keyin vujudga keladi. Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi (FK, 44-modda, 4-qism).

Yuridik shaxsning huquq va muomala layoqati uning qonun, ustav yoki nizom bo'yicha belgilangan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi o'z organlari orqali amalga oshiriladi hamda fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'ladi. Yuridik shaxslarning organlari korporativ boshqaruvning taqsimlanishiga qarab, bir, ikki yoki uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. Masalan, xususiy korxonalarda bir bo'g'inli, shirkat xo'jaligida ta'sis hujjatiga qarab bir yoki ikki bo'g'inli, jamoat fondlari, oilaviy

korxonalarda ikki bo‘g‘inli, MChJ, QMJda ikki yoki uch bo‘g‘inli, AJda uch bo‘g‘inli boshqaruv mavjud.

Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni ko‘rsatadigan ustavi yoki ta‘sis shartnomasi bo‘lishi kerak. Ba‘zi davlat muassasalari va davlat budjetida bo‘lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida Nizomga ega bo‘lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy (namunaviy) ustav (nizom) asosida ish olib borishlari mumkin.

Ta‘sis shartnomasi va ustav bir-biridan farqlanadi. Ta‘sis shartnomasi ikki yoki undan ortiq ta‘sischilar tomonidan tuzilsa, ustav mulkdor yoki ishtirokchilar umumiy yig‘ilishida tasdiqlanib, davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Amaldagi qonun hujjatlarida ustav va ta‘sis shartnomasi ta‘sis hujjati sifatida turli yuridik shaxslarda turlicha ekanligi ayon bo‘ladi. Masalan, xo‘jalik shirkatlarida faqat ta‘sis shartnomasi, mas‘ulyati cheklangan jamiyat, qo‘shimcha mas‘ulyatli jamiyat, nodavlat notijorat tashkilotlarida ustav va ta‘sis shartnomasi, xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyati va davlat korxonalarida ustav ta‘sis hujjati hisoblanadi.

Ta‘sis shartnomalarida yuridik shaxs turidan kelib chiqib, umumiy holda ta‘sis etilayotgan yuridik shaxsning turi, firma nomi va pochta manzili, uning faoliyat sohasi, maqsadlari va muddatlari, vakolatxonalar va filiallari, ularni tuzish tartibi, muassislarning (ishtirokchilarning) tarkibi, har bir ishtirokchi ulushining miqdori va nominal qiymati, hissalarining tarkibi, ularni kiritish muddatlari va tartibi, ustav fondining miqdori va uni hosil qilish tartibi, uni ko‘paytirish va kamaytirish tartibi, faoliyatni boshqarish tartibi, foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shartlar o‘z ifodasini topadi.

Yuqoridagilardan tashqari, har bir yuridik shaxsning ta‘sis hujjatlarida ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan kelib chiqib, o‘ziga xos ma‘lumotlar ham bo‘ladi. Bunday ma‘lumotlar maxsus qonun hujjatlarida belgilangan bo‘ladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarida emissiya qilinayotgan aksiyalar va ular bilan bog‘liq ma‘lumotlar.

Yuridik shaxslarning vujudga kelish va bekor bo‘lishi

FKning 42-moddasiga asosan yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

Yuridik shaxslarni ta'sis etish jarayoni ikki bosqichni o'z ichiga oladi ular tayyorlov bosqichi (davlat ro'yxatidan o'tgungacha bo'lgan jarayon) va davlat ro'yxatidan o'tkazish bosqichi (bu bosqichda ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan hujjatlarni vakolatli davlat organi tomonidan qonun hujjatlari talabiga mosligini tekshirish, mos bo'lgan taqdirda korxonani yuridik shaxslarning yagona davlat riyestriga kiritish va ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani berish amalga oshiriladi)

Yuridik shaxslar quyidagi usullarda vujudga kelishi mumkin:

1. *Buyruq (farmoyish) orqali.* Muassisning buyrug'i asosida tashkil etiladigan yuridik shaxslar mazkur usulda vujudga keladi. Bu usulda, odatda, davlat korxonalarini tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki boshqa vakolatli davlat organlarining qarorga muvofiq tashkil etiladigan korxonalarining vujudga kelishiga mazkur imperativ harakterdagi farmoyish (qaror, buyruq) korxonani tashkil etish uchun asos bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyo'ndagi, PQ-1990-son qaroriga asosan, Toshkent davlat yuridik universiteti buyruq asosida tashkil etilgan.

2. *Murojaat qilish usuli.* Bunda muassislar tomonidan tuzilishi kutilayotgan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyati qonun tomonidan oldindan belgilab qo'yilmagan bo'ladi. Ya'ni, yuridik shaxsni tashkil etish istagida bo'lgan shaxs - muassis qonunda taqiqlanmagan istalgan faoliyat turiga ixtisoslashgan hamda xohlagan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxsni tashkil etishi mumkin. Binobarin, bunday hollarda davlat organi xuddi shunday yuridik shaxsning tashkil etilish va etilmasligining maqsadga muvofiqligini tekshirmaydi, faqat uning ta'sis hujjatlari qonunga muvofiqligi tekshiriladi. Ayni kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi PQ-357-sonli qaroriga asosan tashkil etilayotgan korxonalar (banklar va ommaviy axborot vositalari bundan mustasno) aynan murojaat usuli orqali vujudga kelmoqda.

3. *Ruxsat olish usuli.* Bunday usulda tashkil topadigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyatlari qonunlarda oldindan belgilab qo'yiladi va binobarin, ularning tashkil bo'lish-bo'lmasligi maqsadga muvofiqligi tekshirilmaydi, balki ta'sis hujjatlarining qonunga muvofiqligi tekshiriladi, xolos. Hozir yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofiq emas, degan vaj bilan ro'yxatdan o'tkazish rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu bevosita FKning 44-moddasida o'z ifodasini topgan. Lekin amalda ba'zi korxonalar aynan shu usulda tashkil etilmoqda. Mamlakatimizda

tijorat banklari ruxsat olish usulida tashkil etilmoqda (“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi).

Hozirgi kunda yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning uchta shakli amalda qo‘llanilmoqda. Ular soddalashtirilgan (bir darcha), odatiy va maxsus shakllar (NNT, OAV va boshqalar)dir. Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va asoslari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar faoliyatining bekor bo‘lishi uni qayta tashkil etish va tugatish asosida amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning bekor bo‘lishi har doim subyektning tugatilishini topishini anglatishi bilan birga ba’zi holatlarda yangi subyektning vujudga kelishi uchun asos sifatida ahamiyatli bo‘ladi. Yuridik shaxslar bekor bo‘lishining birinchi usulida aynan shu holat ro‘y beradi. Qayta tashkil etish orqali yuridik shaxslar bekor qilinganda vujudga kelgan subyekt oldingi yuridik shaxsning vorisi sifatida e’tirof etilsa-da, u mutlaqo yangi huquq subyekti sanaladi. Qayta tashkil etish qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, tashkiliy huquqiy shaklini o‘zgartirish shakllarida amalga oshirilishi mumkin (FKning 49-moddasi).

Yuridik shaxs qo‘shib yuborilganda ikki yoki bir necha tashkilot o‘zining mustaqil ravishda ish olib borishini bekor qiladi va yagona tashkilotga birlashadi, ularning huquq va majburiyatlari yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o‘tadi.

Yuridik shaxs bo‘linganda o‘z faoliyatini bekor qiladi va uning negizida ikki yoki bir necha yuridik shaxs paydo bo‘ladi hamda avvalgisining huquq va majburiyatlari yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o‘tadi.

Yuridik shaxsni qo‘shib olishda bir yuridik shaxsning huquq va majburiyatlari uni qo‘shib olayotgan yuridik shaxsga o‘tadi hamda qo‘shib yuborilgan yuridik shaxs o‘zining mustaqil ravishda faoliyat yuritishini to‘xtatadi.

Ajratib chiqarish shaklida esa faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs tarkibidan mustaqil tashkilot ajralib chiqadi va o‘z holicha yuridik shaxs huquqini oladi.

O‘zgartirishda yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgaradi.

Masalan, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16 oktabr 2000 yilgi PF-2737-son Farmoniga muvofiq, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi etib o‘zgartirilgan.

Birlashish va qo‘shilish topshirish balansi, bo‘linish va ajralishda bo‘linish hujjati asosida mol-mulk universal vorislik asosida o‘tadi.

Huquqiy vorislik bo'yicha huquq va majburiyatlar to'la (universal) yoki qisman (singulyar) asosda qayta tashkil etilayotgan yangi subyektga o'tadi.

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shilganida, bu yuridik shaxsga qo'shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq o'tadi. Yuridik shaxs bo'lingan taqdirda uning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi. Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxs ajralib chiqqanida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi. Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgartirilganida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi. Singulyar huquqiy vorislikda huquq va majburiyatlarning belgilangan ma'lum bir qismi o'tadi.

Yuridik shaxsni bekor qilishning ikkinchi shakli – uni huquq subyektini sifatida tugatish hisoblanadi. Korxonani tugatish uning huquq va burchlarini huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor bo'lishiga olib keladi. Yuridik shaxslarni tugatish ularni qayta tashkil etishdan farqlanadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda kreditorlarning talabi vorislik asosida yangidan tashkil etilgan korxonaga vorislik bo'yicha o'tadi. Tugatilganda esa yuridik shaxs o'z-o'zidan huquq subyektini sifatida barham topadi va shu bilan birgalikda uning huquq va burchlari ham tugaydi. Shuning uchun ham korxonani tugatishda kreditorlarning huquq va burchlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

FKning 53-moddasida yuridik shaxslarni tugatish asoslari quyidagicha belgilangan: 1) yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan, yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganida, 2) yuridik shaxs faoliyati ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonun bilan taqiqlab qo'yilgan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, shuningdek, FKda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga

muvofiq tugatiladi, 3) yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

Yuridik shaxs tugatilayotganda, tugatish komissiyasi tayinlanadi. Tugatish komissiyasi yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar bosib chiqarilgan matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlar tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e'lon qiladi (FK, 55-modda). Bu muddat tugatish haqida xabar e'lon qilingan paytdan boshlab ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas.

Yuridik shaxs yagona davlat reyestridan chiqarilgandan so'ng tugatilgan hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning turlariga umumiy tavsif

Fuqarolik huquqi nazariyasida yuridik shaxslar bir necha asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi. Jumladan, mulk shakliga ko'ra xususiy (xususiy mulkka asoslangan) va ommaviy (davlat mulkiga asoslangan), faoliyat maqsadiga qarab tijoratchi va notijorat, ta'sisчилarning ishtirokiga ko'ra ta'sisчилar faqat yuridik shaxslar bo'lgan (uyushma va assotsiatsiyalar), muassis faqat davlat bo'lgan (unitar korxonalar) hamda har qanday subyekt muassis bo'lishi mumkin bo'lgan korxonalar kabi turlari mavjud. Ayrim hollarda yuridik shaxslar ommaviy, xususiy va ommaviy yuridik shaxsga o'xshash korxonalar tarzida turkumlanadi.

FKda yuridik shaxslar faoliyatining maqsadiga qarab (tijoratchi tashkilot va tijoratchi bo'lmagan tashkilot) tasniflanadi (FKning 40-moddasi).

Qonun hujjatlariga muvofiq tijoratchi yuridik shaxslar ham tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar ham tadbirkorlik (foyda olishga qaratilgan faoliyat) faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin, lekin bunda, tijoratchi yuridik shaxslardan farq qilib tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar o'z tadbirkorlik faoliyatlaridan olgan foydani faqat a'zolarining ehtiyojini qondirish yoki o'zga mushtarak maqsadni amalga oshirish uchun ishlatadilar. Olingan foydani boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu munosabat bilan tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarga nisbatan FK "foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan" degan ibora emas, balki, "foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo'ymagan" iborasi belgilangan. Bu esa, tijoratchi bo'lmagan tashkiloti tadbirkorlik bilan shug'ullanishi muayyan foyda ko'rishi mumkinligini belgilaydi. Faqatgina tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarning asosiy maqsadi

(yordamchi yoki boshqa maqsadlar bundan mustasno) foyda olish bo'lmaydi, xolos.

Tijoratchi bo'lgan yuridik shaxslar jumlasiga xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda unitar korxonalar kiradi.

Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar jumlasiga matlubot kooperativlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va mulkdorlar tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalar kiradi. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar o'z ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullana oladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomi umumiy asoslarda O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunida o'z aksini topgan.

FKning 77-moddasiga ko'ra yuridik shaxslar o'zlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, mushtarak manfaatlarini ifoda etish hamda himoya etish maqsadida uyushmalar (ittifoq) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin. Uyushma yuridik shaxs hisoblanib, uning a'zolari o'z mustaqilligini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Uyushma o'z a'zolarining majburiyatlari bo'yicha uyushmaning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham yuridik shaxs huquqlaridan foydalangan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashadi (FK, 78-modda). Mazkur tashkilot kvazi-yuridik shaxs hisoblanadi. Chunki unda ham yuridik shaxs ham ommaviy huquq subyekti (boshqaruv) belgilari mavjud.

Umuman, yuridik shaxslar o'z faoliyatlarida Fuqarolik kodeksi normalariga, soha qonunlariga, shuningdek, ustavlari va boshqa ta'sis hujjatlariga asoslangan holda ish olib boradilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Yuridik shaxslarni huquq subyekti sifatida tushunchasi va mohiyatini shakllanishida bir qator nazariyalar yaratilgan. Mazkur nazariyalarni tahlil qilgan holda hozirgi kunda FK va joriy qonun hujjatlari asosida mamlakatimizda tashkil etiladigan yuridik shaxslar qanday nazariya mohiyatiga mosligini ochib bering?

2. Ma'lumki fuqarolar umumiy, davlat esa maqsadli huquq layoqatiga ega. Yuridik shaxslarning maxsus va universal huquq layoqati haqida

tushunchalar mavjud. Ularni qiyosiy tahlil qilgan holda universal va maxsus huquq layoqati mohiyatini ochib bering.

3. “KAP” MChJ a’zosi V.P.Kvitko Moskva shahriga ko‘chib ketayotganligi tufayli shirkatdagi o‘z ulushini ajratib berishlari to‘g‘risida murojaat etadi. Lekin jamiyatning boshqa ishtirokchilari uning ulushini berish jamiyatning moliyaviy axvoliga salbiy ta’sir etishini, bundan tashqari MChJ ishtirokchisi agar jamiyatdan o‘z ulushini olib chiqib ketmoqchi bo‘lsa uch oy ilgari bu haqda bildirishi lozimligini vaj qilib ulushni berishdan voz kechadilar. V.P.Kvitko o‘z ulushini olib berish to‘g‘risida MChJni sudga beradi.

Sudda ushbu masala qanday hal qilinadi?

4. “Olim-A” MChJ ijro organi jami summasi 7 million bo‘lgan Matiz avtomashinasi oldi-sotdi shartnomasini imzoladi. Avtomashina harid qilib bo‘lingandan so‘ng 7 kun o‘tib MChJning ta’sislaridan biri bo‘lgan Sh. Salimov ushbu oldi-sotdi shartnomasini tuzishga MChJ ijro organining haqqi yo‘qligini, bu shartnoma umumiy summasi MChJ ustav fondining 70%ni tashkil etishini shu sabab bunday shartnoma yirik bitim hisoblanib uni tuzishga faqatgina MChJ umumiy yig‘ilishi xaqli ekanligini, ushbu shartnomaning tuzilishi jamiyatni moliyaviy qiyin ahvolga solib qo‘yganligini aytdi va sudga murojaat etdi.

Sudda ushbu masala qanday hal etiladi?

6-MAVZU. DAVLAT – FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR ISHTIROKCHISI SIFATIDA

Davlatning fuqarolik huquq layoqati. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki shakllari.

Davlatning fuqarolik huquq layoqati

Davlat jamiyat hayotining barcha sohalarida eng muhim ahamiyatga ega “subyekt” hisoblanadi. Davlatning ushbu maqomi iqtisodiy munosabatlarda yaqqol ajralib turadi. Zero, iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida davlat ishtiroki bevosita xalq manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda esa, davlat ana shu manfaatlarining himoyachisi sifatida ularni to‘g‘ri va maqbul amalga oshirilishini ta‘minlab beradi. Iqtisodiy sohada davlatning xalq manfaatlarini ifoda etishi bilan bog‘liq munosabatlar asosan fuqarolik huquqi bilan tartibga solinishini nazarda tutib, hozirgi sharoitda davlatning fuqarolik huquqiy maqomini aniqlash, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash, xalq manfaatlarini ifoda etishning iqtisodiy va huquqiy asosi hisoblangan davlat mulkini himoya qilish va uni amalga oshirishning samarali usul va vositalarning vujudga keltirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FKning 2-moddasiga ko‘ra davlat ham fuqarolar va yuridik shaxslar kabi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchisidir.

Darhaqiqat, bozor munosabatlari sharoitida davlatning iqtisodiy munosabatlardagi o‘rni va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi maqomi tubdan o‘zgardir. Endilikda davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi huquqiy munosabatlarda teng asoslarda ishtirok eta boshladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda hokimiyat sohibi sifatidagi davlat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu davlatning o‘zi bevosita ishtirok etadigan munosabat doirasini o‘zi belgilashidir. Demak, davlat o‘zining qaysi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishini o‘zi belgilab oladi. Zarur paytda esa, davlat o‘z qarorlari bilan o‘z ishtirokini ta‘minlaydi. Masalan, davlat, xalq va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab g‘alla ekinlari faqat davlatga sotilishini belgilab qo‘yishi mumkin.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki uning suverenitet sohibi ekanligidan kelib chiqadi.

Davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmasdir. Shunga binoan davlat fuqarolik-huquqiy munosabatda yakka va yagona subyekt (fuqarolar va yuridik shaxslar kabi ko‘p va turli xil emas) deb qaraladi. Zero, davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida boshqa subyektlar bilan o‘zaro huquqiy aloqalarga kirishar ekan, bunda u o‘ziga tegishli bo‘lgan imtiyozlar: hokimiyat vakolati, hukmronlik va boshqarish faoliyati, ustunlik maqomidan voz kechishiga to‘g‘ri keladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmas subyekt hisoblanadi. Binobarin, bitta alohida olingan hududda ikkita suverenitet sohibi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat – oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo‘lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabat sifatidagi xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. *Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlari subyekti sifatida fuqarolik huquqi subyektlari amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi.*

Fuqarolik huquqining boshqa subyektlari barcha subyektlar amal qiluvchi qonun qabul qilish vakolatiga ega emas. Qonun qabul qilish faqatgina davlat va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi va ijro etilishi ta‘minlanadi.

2. *Davlat organlari fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi bo‘ladigan hujjatlar chiqarishi mumkin* (FK, 8-modda, 2-band).

Umumiy qoidaga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har bir subyekt o‘zining nomidan harakat qilishi lozim. Bu qoida fuqarolarga (fuqarolik muomala layoqati) ham, yuridik shaxslarga (yuridik shaxslarning huquqiy belgilaridan biri – bu fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘z nomidan ishtirok etishi) ham taalluqlidir. Davlat ham fuqarolik muomalasida o‘z nomidan qatnashadi. “Davlat” tushunchasi mavhum hisoblanganligi uchun ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan uning organlari ishtirok etishi zarur. Chunki keyinchalik yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilashda bu holat muhim hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan ishtirok etishi mumkin bo‘lgan subyektlar doirasi FKning 79-moddasi 2-qismida belgilangan. Unga ko‘ra, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa maxsus organlar ishtirok etadilar. Aynan qaysi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, qaysi davlat organining ishtirok etishi shu organning funksiyasi, tuzilish maqsadi va faoliyat doirasidan kelib chiqib belgilanadi.

Har qanday davlat organi tomonidan chiqarilgan normativ harakterga ega bo'lmagan hujjatlar ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirishi mumkin.

Masalan, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari ham majburiy tushdagi hujjatlar qabul qiladi. Bunda ular O'zbekiston Respublikasi nomidan harakat qiladi va bu hujjatlar fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga asos bo'lishi mumkin.

FPKning 16-moddasiga asosan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug'i barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

3. Davlat immunitetdan foydalanadi, ya'ni davlat mol-mulkidan haq undirishga davlat organlari rozi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat immuniteti bu davlatning o'z vakolatlarini o'zi qabul qilgan qonun hujjatlari asosida amalga oshirishi, bunda fuqarolik-huquqiy munosabatdagi davlatning huquq va majburiyatlari faqatgina shu davlatning qonun hujjatlariga muvofiq belgilanishidir. Davlat immunitet sohibi sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qaysi turida ishtirok etishini ham faqat o'zi belgilaydi.

Masalan, FKning 457-moddasida davlat o'z ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish shartnomasida taraf sifatida ishtirok etishi belgilangan.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda immunitet davlatga nisbatan shunday holatni yuzaga keltiradiki, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etib, o'z majburiyatlarini bajarmagan davlat faqat o'z milliy qonun hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan vakolatlarini amalga oshirmaslik va hokimiyat vakolatlaridan foydalanmaslik talabi belgilangan bo'lsa-da, davlatning bu belgilari u bilan chambarchas bog'liqligi sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ham ta'sir etadi. Aynan shu holatlar "immunitet" atamasining mohiyatini tashkil etadi.

Eng muhimi, davlat o'z immunitetidan voz kechmasligi kerak. Aks holda, uning suverenitetiga putur yetadi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarga a'zligi unga to'sqinlik qilmaydi.

4. Huquq va muomala layoqatini cheklash bo'yicha boshqa subyektlarga taalluqli bo'lgan qoidalar davlatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Huquq va muomala layoqatini cheklash bo'yicha qaror har qanday holatda ham davlat vakolatli organi tomonidan uning qarori asosida amalga oshiriladi.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan yuridik shaxs haqidagi me'yorlar tatbiq etiladi. Bunda davlatga nisbatan yuridik shaxslar erkinligi vujudga kelishi erkning ifodalanishi to'g'risidagi qoidalariga qo'llaniladi. Ko'plab yuridik manbalarda ham ta'kidlanganidek, yuridik shaxslarga oid boshqa qoidalar (xususan, huquq layoqati to'g'risidagi, ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi, nom va joylashgan yeri, filiallar va vakolatxonalar, yuridik shaxs turlari, ularni tashkil etish va tugatish) davlatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Shu o'rinda davlat va yuridik shaxslarning bir-biriga o'xshash tomonlarini ta'kidlab o'tish joiz. Davlat xuddi yuridik shaxslar kabi muayyan tashkilot bo'lib, o'z ichki tuzilishiga va tashkiliy birligiga, boshqaruv organlariga, fuqarolik muomalasida o'z nomidan ishtirok etish huquqiga ega.

Yuridik shaxs huquqiy belgilarining asosiylarini tashkil etgan yuqoridagi to'rtta belgining davlatga nisbatan o'zgacha ko'rinishda tatbiq etilish holati ularning barchasiga ham taalluqli emas. Ayniqsa, mulkiy javobgarlik holati davlatda ham xuddi yuridik shaxs kabi tatbiq etilmaydi. Bunda davlat (garchi uning mol-mulki asosida tashkil etilgan yuridik shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z nomidan ishtirok etsalarda) mulkning sohibi sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shaxsan o'zi (o'z nomidan) yoki organlari, yoxud o'zi tashkil etgan yuridik shaxslar (yuridik shaxslar bunday holatlarda ularning filiallari va vakolatxonalari tomonidan amalga oshiradi) orqali ishtirok etadi.

Umuman davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi "alohida shaxs" maqomi, garchi, yuridik shaxsga o'xshasa-da, u bilan bir xilda emas. Zero, davlat *ipso jure* – yuridik shaxs emas.

Biroq ayni paytda davlatning huquqlari mutlaq cheksiz ham emas. Masalan, davlat shaxsiy huquqlarga ega bo'lmaydi. Binobarin, davlat alohida xususiyatlarga ega bo'lgan subyektdir.

Davlat ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar kabi muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Chunki huquqiy munosabatning mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Fuqarolik huquqlari va burchlarga ega bo'lmagan shaxslar huquqiy munosabatda mustaqil subyekt sifatida qatnasha olmaydilar. Huquq va burchlarga ega bo'lish holati esa, fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisining fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lishini ifodalaydi. O'z navbatida davlat ham fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Lekin davlat huquq va muomala layoqatining o'ziga xosligi uning boshqa subyektlar layoqatidan ajralib turishiga sabab bo'ladi. Davlat ham fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi mulkdor bo'lish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish (garchi davlat sof ma'nodagi tadbirkor hisoblanmasada, uning organlari va u tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari mumkin. Lekin tom ma'noda davlatning huquq layoqati turli xildagi yuridik shaxslar va fuqarolarning huquq layoqati bilan bir xil bo'lishi mumkin emas. Ba'zi holatlarda davlatning huquq layoqati fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq layoqatidan kengroq bo'lsa, ba'zi holatlarda davlatning huquq va burchlari cheklanadi. Masalan, fuqarolar huquq layoqatining mazmunini tashkil etuvchi huquqlar jumlasiga shunday huquqlar kiritilganki, bunday huquqlar davlatda mavjud bo'lmaydi. Masalan, FKning 18-moddasiga muvofiq, fuqarolar mol-mulklarini vasiyat qilib qoldirishlari, yollanma mehnatdan foydalanishlari, mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari, intellektual faoliyat natijalarining mualliflik huquqlariga ega bo'lishlari mumkin. Davlatda esa, bunday huquqlar mavjud emas.

Fuqarolik huquqining boshqa subyektlarida shunday huquqlar borki, bunday huquqlar davlatga tegishli bo'lmaydi. Masalan, mulkni meros qilib qoldirish, alohida turdagi shartnomalar (franshizing va boshqalar) tuzish, o'zining firma nomiga ega bo'lishlik, fan, adabiyot va san'at asarlari muallifi bo'lish kabilar.

Umumiy qoidaga ko'ra, davlat fuqarolik muomalasida o'z manfaatlari uchun emas, ommaviy hokimiyatni foydaliroq tatbiq etish uchun qatnashadi. Bunday maqsadlar davlat huquq layoqatining mohiyatini yanada to'ldiradi.

Biroq, davlatda shunday imkoniyatlar (huquqlar) mavjudki, bu huquqlar fuqarolik huquqining boshqa subyektlarida uchramaydi. Masalan, merosxo'rlari bo'lmaganda mol-mulkni egallash, qimmatli qog'ozlar chiqarish kabi. Shu bilan birga, maxsus huquqiy munosabatlar sohasi ajratilganki, garchi fuqarolik huquqining boshqa subyektlari ham ushbu munosabatlarda ishtirok etishlari mumkin bo'lsa-da, ularning to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishlari taqiqlanadi.

Davlatning huquq layoqatini maqsadli deb hisoblash mumkin. Zero, fuqarolik huquqi munosabatlarida davlat ishtirok etar ekan, faqat bitta maqsadni ko'zlab harakat qiladi va u tomonidan amalga oshirilgan har qanday huquqiy xatti-harakat xalq manfaati va uning farovonligini oshirishga qaratiladi.

Aytish kerakki, davlat huquq layoqatining asosiy holatlaridan yana biri – davlatning qonun chiqarish huquqdorligidir. Bu huquqdorlik davlat huquq layoqatida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Davlat qonun chiqarish faoliyatini amalga oshirish mobaynida o‘ziga tegishli huquqlarni, ya’ni xalq manfaatini amalga oshirishga qaratilgan huquqlarni o‘z maqsadini (xalq va uning har bir a’zosi farovonligini ta’minlash) amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Munitsipal organlar ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi o‘ziga xos subyekt hisoblanadi. Munitsipal organlar jumlasiga tegishli hududdagi davlat hokimiyati organlari kiradi. Munitsipal organlarning huquq layoqati davlatning huquq layoqatiga qaraganda biroz torroq bo‘lsa-da, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday o‘ziga xoslik munitsipal organlarning mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z budjetini tashkil etishi, bitimlar tuzishi, majburiyatda ishtirok etishi orqali namoyon bo‘ladi.

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatdagi ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari

fuqarolik huquqi sub’yektlari amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi

fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi bo‘ladigan hujjatlar chiqarishi

Davlat immunitetdan foydalanadi

Huquq va muomala layoqatini cheklash bo‘yicha boshqa sub’yektlarga taalluqli bo‘lgan

Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki shakllari

Fuqarolik huquqi subyektlari tizimida davlat alohida subyekt hamda “yagona va bo‘linmaslik” jihatiga ega bo‘lishi bilan birga, boshqa subyektlarning huquqiy maqomini, subyektiv huquq va majburiyatlarini, faoliyati va mavjudlik holatini belgilab beruvchi hamdir. Shu bilan birga, davlat xususiy munosabatlarda garchi, o‘zining hokimiyat vakolatlaridan foydalanmasligini o‘zi tomonidan qabul qilinadigan qonun hujjatlarida e’tirof etsa-da, har qanday fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatning hokimiyat vakolatlari sohibi ekanligi sezilib turadi. Bu, ayniqsa, natsionalizatsiya, rekvizitsiya va majburiyat munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. “Yagona va bo‘linmaslik” holatidan kelib chiqib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda aslida davlat nomidan bitta subyekt – O‘zbekiston Respublikasi qatnashadi. Bunda uning vakolatlarini Prezident, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shu bilan birga, mazkur munosabatlarda davlat nomidan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan, maxsus vakolatli organlar qatnashadi.

FKning 79-moddasiga asosan davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan bab-baravar asoslarda ishtirok etadi. Davlatning mamlakat ichki fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) davlat o‘ziga qarashli mol-mulkka nisbatan mulkdor sifatida harakat qilganida, masalan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish munosabatlarida;

b) egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum bo‘lgan ashyo egasiz hisoblanib, u sud qarori bilan davlat egaligiga o‘tkazilganida (FK, 191-modda);

v) Fuqarolik kodeksining 193-moddasi 2-qismiga asosan ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o‘tganda;

g) har bir fuqaro vasiyat bo‘yicha o‘zining butun mulkini yoki uning bir qismini davlatga vasiyat qilib meros tariqasida qoldirishida (FK, 1120-modda);

d) O‘zbekiston Respublikasi davlati huquq subyekti sifatida ba’zi fuqarolik-huquqiy harakterda bo‘lgan kredit munosabatlarida, masalan, davlat zayomi obligatsiyalarini sotishida, qarz shartnomasida ishtirok etganida;

e) tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tUSDagi boshqa vazifalarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishida (rekvizitsiya). Bunda rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli ekanligida (FK, 203-modda);

yo) mol-mulk musodara qilinganida, ya'ni qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishida (FK, 204-modda);

j) davlat ba'zi hollarda mualliflikka oid huquqiy munosabatlarda, masalan, asarni nashr etish huquqini sotib olganida, ixtirochilik munosabatlarida ixtiroga bo'lgan patentni sotib olganida huquq subyektini sifatida ishtirok etishida. Bunday huquqiy munosabatlarda davlatning ishtirok etishi natijasida olingan daromadlar ham davlat budjetiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektiga nisbatan ham davlat mulk huquqini qo'lga kiritadi;

z) davlat, shuningdek, chet ellik investorlar bilan konsessiya va mahsulot taqsimotiga oid bitimlarlarda ham qatnashadi. Unga ko'ra, davlat chet ellik investor bilan kelishib olingan shartlar asosida muayyan xo'jalik faoliyatini amalga oshirish; yer osti boyliklarini ishlab chiqarish va foydali qazilmalarni kavlab olish, korxonalar qurish va ekspluatatsiya qilish hamda boshqa huquqlarni beradi;

i) davlat chet mamlakatlarda ko'chmas mulkni sotib olishida;

k) xalqaro ommaviy va xususiy-huquqiy munosabatlarda davlat o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarmagan hollarda uning o'rniga vujudga kelgan voris davlat majburiyatni o'tmishdosh-davlat tuzgan shartlar asosida bajarishi lozim bo'lgan hollar va h.k.

Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi.

Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan yuqorida aytganimizdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar.

Ichki fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat nomidan aksariyat hollarda O'zbekiston Respublikasining tegishli vazirliklari va davlat

qo‘mitalari qatnashadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi davlati nomidan harakat qiluvchi organlar tizimida xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, moliya vazirligi va markaziy bank alohida mavqega ega.

Davlat idoralarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: bevosita va bilvosita. Bevosita ishtirokda davlat o‘z nomidan fuqarolik muomalasiga kirishadi. Bilvosita ishtirokda esa davlat nomidan uning organlari ishtirok etadi. Shuningdek,:

1. Davlat nomidan ishtirok etish. Bunda – muayyan organ davlat nomidan harakat qiladi va davlat uchun huquq va majburiyatlar vujudga keltiradi (Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining chet el kompaniyasi bilan tuzgan shartnomasi bunga misol bo‘la oladi).

2. Davlat organi fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Ishlar boshqarmasining do‘konlardan idora jihozlarini sotib olishi. Bunda faqat Oliy Majlisga birlashtirilgan mol-mulkka nisbatan huquq va majburiyatlar yuzaga keladi.

Davlat ba‘zi hollarda subyekt sifatida o‘zining mansabdor shaxslari yoki organlari tomonidan yetkazilgan mulkiy zararni to‘lashda javobgar bo‘ladi (masalan, dastlabki tergov, tergov, prokuratura, sud organlarining mansabdor shaxslari fuqarolarga nisbatan qilgan g‘ayriqonuniy harakatlari natijasida ularga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladilar).

FKning 15-moddasida belgilanganidek, davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan davlat organi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan to‘lanishi kerak.

Ayni vaqtda O‘zbekiston davlati tashqi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham mustaqil huquq subyekt sifatida ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan obyektlardan xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali hamkorlik o‘rnatishda, bunday hamkorlikni rivojlantirishda barcha amaliy harakatlarni ro‘yobga chiqarish uchun foydalanadi.

Jumladan, davlat organi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi o‘z faoliyatida respublika nomidan ish olib borib, barcha tashqi iqtisodiy aloqalarni koordinatsiya qiladi, tartibga soladi, nazorat qiladi va boshqaradi. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqari va xorijda respublika

nomidan barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish bilan birga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi. Vazirlik o'z faoliyatini bevosita Vazirlar Mahkamasi rahbarligida amalga oshiradi. Vazirlik o'z faoliyatida Tashqi ishlar vazirligi, Markaziy bank bilan uzviy hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolarining qonuniy huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, tashqi iqtisodiy sohada bevosita o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar huzurida O'zbekiston Respublikasining savdo yoki o'zga vakolatxonalarini ta'sis etiladi. Bu vakolatxonalar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, o'zlari to'g'risidagi nizomga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hamda vakolatxona joylashgan davlatlar ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga amal qiladi.

FKning 80-moddasiga binoan qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat o'zi tuzgan yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi. Davlat majburiyati yuzasidan yuridik shaxs ham javobgar bo'lmaydi. Ushbu qoidalar davlat tuzgan shartnoma asosida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergan) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergan) hollarga taalluqli emas.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat ishtirokining monistik (davlat nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faqat bitta organ ishtirok etishi) va plyuralistik (davlat nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bir nechta organning qatnashishi) ishtiroki farqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nima uchun davlat fuqarolik huquqining alohida subyekti? Bu "alohidalik" nimalarda ko'rinadi?

2. Davlatning fuqarolik huquq layoqati? Davlatning fuqarolik-huquqiy qiyofasi qanday?

3. Qonun hujjatlarida ayrim mol-mulklar, jumladan, qabristonlar davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan obyektlar sirasiga kiritilgan.

Buni qanday izohlaysiz? Guruh bo'lib sharhlang?

4. Respublikadagi viloyatlardan birining hokimi viloyat hududida joylashgan 30 ga yerni qazish va qazilma boyliklarini qayta ishlash maqsadida xorijiy kompaniyaga 50/50 shartnoma asosida topshirdi. Biroq huquqni muhofaza qiluvchi organ ushbu shartnomani noqonuniy ekani, viloyat hokimi yer berishga haqli emasligini aytib, shartnoma bajarilishiga to'sqinlik qildi. Viloyat hokimi esa, viloyat hududidagi yerga egalik qilish va undan foydalanish huquqi mavjudligini hamda o'z harakatlari qonuniy ekanini bildirdi.

Ushbu holat yuzasidan sizning fikringiz?

7-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTLLARI

Fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi va tasniflanishi. Fuqarolik huquqi obyektlarining turlari: a) moddiy ne'matlar; b) nomoddiy ne'matlar.

Fuqarolik huquqi obyektlari tushunchasi va tasniflanishi

Fuqarolik huquqining **obyekti** huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan moddiy va nomoddiy ne'matlardir. Faqatgina qonunchilik obyekt ustida o'rnatiladigan huquq va majburiyatlar, harakatlar qonun hujjatlari va axloq normalari asosida amalga oshirilishini talab etadi. Xususan, xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish yuzasidan ba'zan fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada bo'lishi cheklanishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi obyektlari doirasi kengaydi. Masalan, obyekt sifatida xususiy mulk, qimmatli qog'ozlar keng muomalaga kirib keldi, intellektual mulkning yangidan-yangi obyektlari (integral mikrosxemalar topologiyalari, nou-xaular) vujudga keldi, ishlar va xizmatlar doirasi kengaydi, tijorat siri mustahkamlandi.

Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, mol-mulklar, mulkiy huquqlar, pullar va qimmatli qog'ozlar, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, shaxsiy-nomulkiy huquqlar kiradi (FK 81-modda).

Fuqarolik huquqi obyektlarini ikki turga, ya'ni moddiy (ashyoviy) va nomoddiy (noashyoviy) ne'matlarga bo'lish mumkin.

Ashyo o'zining iqtisodiy tayinlanishiga, jisimiy va boshqa xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

fuqarolik muomalasidan chiqarilgan va chiqarilmagan ashyolar.

Masalan, o'z xususiyatlari bo'yicha tevarak-atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan ashyolar, ya'ni xavfli xossalarga ega ashyolar (portlovchi moddalar, qattiq ta'sir qiluvchi zahar kabilar). Bunday ashyolarni erkin olish va sotishga yo'l qo'yilmaydi. Muomalada bo'lishga yo'l qo'yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Masalan, FKning 214-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi" qonuni 4-moddasi.

Muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishga maxsus ruxsatnoma bilan yo'l qo'yiladigan (muomalada harakatlanishi cheklangan obyektlar) fuqarolik huquqi

obyektlari turli qonunlarda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi (masalan, ov miltig'i faqat ruxsat olish va ro'yxatdan o'tish tartibida jismoniy shaxs egaligiga o'tishi). Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, qonun ashyolarni muomalada bo'lish xususiyatiga qarab farqlaydi. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolar va yuridik shaxslar egaligida bo'lishi mumkin emas. Aytilganidek, yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar davlatga tegishli bo'lganidan ular faqat foydalanishga berilishi mumkin. Bu ashyolar sotilmaydi, garovga qo'yilmaydi va kreditorlarning talablarini qondirish uchun ular hisobidan haq undirilmaydi. Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolarga nisbatan mulk huquqi har doim davlatga tegishli bo'ladi.

Ba'zi ashyolar iqtisodiyot uchun ahamiyati, davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan yoxud boshqa asoslar bo'yicha faqat alohida ruxsat bo'yicha olinishi, sotilishi mumkin (qurol va o'q-dorilar, portlovchi va radioaktiv moddalar, qattiq ta'sir qiladigan zaharlar, muhr, shtamp kabilar).

Valyuta qimmatliklari (chet el valyutasi, qog'oz pullar, tanga-chaqalar); to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar); qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina, palladiy va boshq.); qimmatbaho tabiiy toshlar (olmos, gavhar, la'l, zumrad va boshq.) milliy qonunchilikda belgilangan tartib va doirada oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin. Mazkur qimmatbaho metal va toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlar hamda shunday buyumlarning siniq parchalari bundan mustasno.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar doirasi nihoyatda keng bo'lib, ular erkin sur'atda mulkdorning o'zidan begonalashtirilishi mumkin.

Ko'char va ko'chmas ashyolar. Ko'char ashyo bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish natijasida xususiyatini o'zgarishsiz saqlaydigan va o'z maqsadiga ko'ra ishlatish mumkin bo'lgan ashyodir.

Ko'chmas ashyolar odatda doimiy ravishda bir joyning o'zida mavjud bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga, xususiyl belgilarga egadir. Shu sababli ham u jismiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga emas, balki xususiyl alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar toifasiga kiritiladi. Bunday ashyoning o'ziga xos xususiyati yer bilan uzviy bog'liqligidir (tabiiy ravishda yer bilan uzviy bog'liq ashyolar, masalan, buloqlar, konlar, daryolar va boshq.; inson mehnati bilan vujudga kelgan yer bilan uzviy bog'liq ashyolar, masalan, bino va inshootlar, quduqlar, bog'lar, korxonalar va boshqa ashyolar).

Ko'chmas ashyolar bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish imkonining yo'qligi, tayinlanish maqsadiga ko'ra foydalanib bo'lmashligi, shaklan o'zgarishi, shuningdek ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kabi belgilarga ega.

Xususiy va turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar.
Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo alohida, faqat o'ziga xos belgisi va o'ziga xos, yolg'iz sifati bo'lgan ashyodir. Unga o'zining belgilari bilan boshqa o'xshash ashyolardan ajralib turadigan narsalar, masalan, ma'lum ko'chadagi, ma'lum sonli uy-joy, o'zi bir dona bo'lgan ashyo (jahon birinchiligida chempion bo'lgan ot, ko'hinur olmosi kabi)lar kiradi. Xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqa ashyolardan muayyan usulda belgi qo'yish yoki muhr bosish, raqam qo'yish bilan farqlanadi.

Pul xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyomi yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyomi? – degan savol tug'iladi.

Bir tomondan qaraganda, pulda muayyan belgi va raqam qo'yilgani uchun uni xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo deyish mumkin. Ikkinchi tomondan qaraganda, pul bir turga xos, ya'ni u bitta vazifani – to'lov ekvivalenti vazifasini bajaradi.

FKning 87-moddasi 2-qismiga ko'ra, xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydigan ashyolardir. Pulni esa boshqasi bilan almashtirish mumkin (masalan, yirik pulni mayda pulga va aksincha). Demak, pul turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyodir.

Valyuta qimmatliklari: chet el valyutasi (banknotlar, qog'oz pullar, tanga-chaqalar); chet el valyutasi hisobida yozilgan to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditiv va boshqalar); bankning chet el valyutasiga sotib olinadigan va shunday valyutaga almashtirish huquqiga ega bo'lgan so'm hisobidagi to'lov hujjatlari (cheklar va boshqalar); har qanday shakl va holatdagi qimmatbaho metallar: oltin, kumush, platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, radiy, ruteniy va osmiy); xom va ishlangan shakldagi qimmatbaho tabiiy toshlar (olmos, gavhar, la'l, zumrad, saprif, marvarid va boshqalar) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda va doiralardagina oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin. Mazkur qimmatbaho metal va toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlar hamda shunday buyumlarning siniq parchalari bundan mustasnodir.

Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar son, og'irlik va o'lchov bilan ko'rsatiladigan narsalar hisoblanadi. Masalan, 100 dona shifer, 100 metr chit, 100 tonna paxta va hokazo. Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqasi bilan almashtirsa bo'ladigan ashyolardir. Shuning uchun ham bunday ashyolarga nisbatan *persona non grataning* (ya'ni, tur nobud bo'lmaydi) qoidasi qo'llaniladi. Fuqarolik huquqida ashyolarning xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarga bo'linishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, majburiyatlarni ijro etishda, burchni natura holida bajarilishida bunday bo'linishning o'rni beqiyos.

Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyolar. Bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarini o'zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini yo'qotmaydigan ashyo – bo'linadigan ashyo hisoblanadi. Masalan, bir qop un, bir qop kartoshka, bir bidon paxta yog'i kabi.

Bo'linmaydigan ashyolar bo'lish natijasida qismlari dastlabki ashyo (butun)ning xossalarini yo'qotadigan, uning xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini o'zgartiradigan ashyo bo'linmaydigan ashyo hisoblanadi (FK 88-modda). Bo'linmaydigan ashyolarga shkaf, stol, televizor kabilar kiradi.

Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar (FK 89-modda). Iste'mol qilinadigan ashyolar bir marta foydalanish natijasida butunlay yo'qqa chiqadigan yoki jiddiy ravishda o'zgaradigan narsa (masalan, oziq-ovqat, xom ashyo kabi)lardir.

Iste'mol qilinmaydigan ashyolar birmuncha uzoq vaqt davomida o'zining sifatini saqlaydigan narsalardir. Bunday ashyolar, odatda, qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan bo'ladi. Qayta-qayta foydalanish davomida iste'mol qilinmaydigan ashyolarning emirilishi ham (binolar, uskunalar, transport vositalari) asta-sekin kechadi.

Asosiy va mansub ashyolar. Mansub ashyo asosiy ashyoga xizmat qilishga tayinlangan va umumiy xo'jalik maqsadi jihatidan u bilan bog'liq bo'lgan ashyodir. Masalan, asosiy ashyo qulf bo'lsa, unga mansub ashyo kalitdir.

Mansub ashyo, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, asosiy ashyoning taqdiriga bog'liq bo'ladi. Masalan, asosiy ashyo birovning egaligiga yoki vaqtincha foydalanishiga o'tsa, mansub ashyo ham u bilan birga o'tadi. Ammo qonun yoki shartnomada boshqacha hollar ham belgilanishi mumkin, ya'ni asosiy ashyo birovga o'tkazilganda, mansub ashyoning qoldirilishi to'g'risida alohida kelishuv ham bo'lishi mumkin.

Mansub ashyodan uning tarkibiy qismini ajratish kerak. Ashyodan uni zararlantirmay va qiymatini jiddiy ravishda tushirmay ajratilishi mumkin bo'lmagan har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, velosipedning nasosi mansub ashyo bo'lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Murakkab ashyolar. Agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo, ya'ni murakkab ashyo hisoblanadi. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, uning tarkibiy qismlariga taalluqli bo'ladi.

Hosil va daromad beradigan ashyolar tufayli hosil va daromadlardan foydalanish va ularni tasarruf etish to'g'risidagi ishni hal etish masalasi qo'yilishi mumkin. Ashyoning hosil va daromadlari to'g'risida Fuqarolik kodeksining ba'zi moddalarida ko'rsatma beriladi. Jumladan, FKning 230-moddasida mulkni birovning qonunsiz egallashidan talab qilib olishda daromad va xarajatlarning to'lanishi aytiladi.


Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lsa, ashyo egasiga tegishlidir.

Jonli va jonsiz ashyolar. Bunday ashyolar o'zida tiriklik alomatlari mavjudligi nuqtai nazaridan farqlanadi. Fuqarolik muomalasida jonli zotlar – kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo'lgan organizmlar – sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, quruqlikda ham, suvda ham yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyasiyalari ashyo sifatida namoyon bo'ladi.

Qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol-mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, FKning 169-moddasida nazarda tutilgan mulk huquqi obyektlari tarkibiga hayvonlar ham kiritilgan.

Huquqlarni amalga oshirish chog'ida hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

Ularga nisbatan mulkiy huquqlar bilan bog'liq barcha qoidalar qo'llaniladi. Hayvonlar bilan bog'liq ko'plab shartnomalar tuziladi. Odatda, eng ko'p tuziladigan shartnoma bu oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi. Xonakilashtirilgan hayvonlardan tashqari barcha hayvonot dunyosi ommaviy mulk sanaladi va u davlat muhofazasida bo'ladi.



2. Fuqarolik huquqi obyektlarining turlari: a) moddiy ne'matlar

Mol-mulk – fuqarolik huquqining obyekt sifatida. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyekt bo‘lib ko‘ringan mulk tushunchasi to‘g‘risida to‘xtalib, shuni aytish kerakki, ba’zi hollarda ashyo, narsalar mulk deb atalsa ham mol-mulk atamasining ma’nosi birmuncha keng bo‘lishini bilamiz.

Mol-mulk muayyan shaxsga (fuqaro yoki yuridik shaxsga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashyolar yoki ashyolarning yig‘indisidir. Demak, mol-mulk bu munosabatdir (bu haqda mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar mavzusida yanada batafsil to‘xtaymiz).

FKning 83-moddasida mol-mulk turlari ko‘rsatilgan. Unga asosan mol-mulk ko‘chmas va ko‘char mulkka bo‘linadi.

Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga ko‘ra, ko‘chmas mulklarning doirasi kengaytirilib, ular jumlasiga er uchastkalari, er osti boyliklar, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar kiritildi.

Ko‘chmas mol-mulk bilan bog‘liq huquqlarni olish yoki begonalashtirish FKning 84-moddasida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. FKning 83-moddasi 3-qismida qonunda boshqa mol-mulk ham ko‘chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkinligi belgilangan. Ta’kidlanganidek, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq asosiy xususiyat shundaki, u yer bilan bog‘liq bo‘lib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish natijasida o‘z xususiyatini yo‘qotadi.

Vazifasiga va tayinlanish maqsadiga zarar yetkazmagan holda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan mol-mulk ko‘char mulk jumlasiga kiradi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari ko‘char mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etilmaydi.

Pullar va qimmatli qog‘ozlar – fuqarolik huquqining obykti sifatida. Pul ham fuqarolik huquqining obykti sanaladi. Pul o‘zining uzoq davom etgan tadrijiy rivojlanishida mol-hol, zaytun yog‘i, oltin va kumush yombisi ko‘rinishidagi ayirboshlash vositalaridan hozirgi elektron pullarga, kredit kartochkalariga qadar bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Pul bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Manbalarda keltirilganidek, fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan pulning xususiyatlari va vazifalari quyidagilarda ko‘rinadi:

- pul qonun hujjatlariga muvofiq iste‘mol qilinadigan, turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan turi hisoblanadi;

- pul ko‘pchilik fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (qarz, kredit, hadya shartnomalarida) mustaqil obyekt sifatida ishtirok etadi;

- pul fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya shartnomalarida) teng qiymatga ega bo‘lgan obyekt hisoblanadi;

- umumiy ekvivalent, ya‘ni teng qiymatga ega bo‘lgan obyekt sifatida har qanday ashyo bilan almashtirish, yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni qoplash uchun ham qo‘llaniladi;

- pul har qanday qonuniy qarzni, uning har qanday holatlar asoslarida (masalan, majburiyat bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani tufayli) vujudga kelishidan qat‘i nazar, uni tuzish, to‘lash, qoplash vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi¹ (juz‘iy tahrir bizniki – *M.B.*).

Mustaqil davlatning asosiy atributlaridan biri – bu uning milliy valyutasidir. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mni muomalaga kiritish bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida”gi 870-son farmoni bilan 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining hududida 1000 so‘m pul kuponga bir “so‘m” nisbati bilan O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – “so‘m” muomalaga kiritildi. So‘m unga yozilgan qiymat bo‘yicha qabul qilinishi shart. Farmonga ko‘ra 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida “So‘m” mulkchilik shaklidan qat‘i nazar qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi.

¹ Раҳмонкулов Х. Фуқаролик ҳуқуқининг объектлари. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮИ, 2009. –Б.37-38.

Pullar jisimiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar qatorida bo‘lib, pul belgilarining soni bo‘yicha hisoblanmay, balki bu belgilarda ko‘rsatilgan summalarga qarab hisoblanadi.

Milliy so‘mdan tashqari chet el valyutasi ham muomalada bo‘ladi. Pul va chet el valyutasi bir xil tushunchaga ega. Faqat chet el valyutasi xorijiy mamlakatlarga tegishli bo‘lib, mamlakatimizda ular bilan hisob-kitob qilishda farq mavjud. Chet el valyutasi bilan bog‘liq munosabatlar “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi¹. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organidir. Chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan banklar vakolatli hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlar. Qimmatli qog‘ozlar Fuqarolik kodeksining 96-moddasida ko‘rsatilganidek, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlardir.

“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunga asosan qimmatli qog‘ozlar – hujjatlar bo‘lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi². Qimmatli qog‘ozlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.

Qimmatli qog‘ozlar fuqarolik huquqi obyeksi sifatida xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo bo‘lib, uni almashtirib bo‘lmaydi. Qimmatli qog‘ozlar emissiyaviy va noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlarga bo‘linadi. *Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar* – bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar; *noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlar* – “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar tushunchasiga oid bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlardir.

“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunda qimmatli qog‘ozlarning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, 1-2-сон, 6-модда.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 йил, 29-30-сон, 278-модда.

egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – aksiyador deb e'tirof etiladi. Soha qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, aksiyalarning nominal qiymati besh ming so'mdan ortiq bo'lishi mumkin emas¹. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak. Aksiya bo'linmasdir.

Veksel– veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Boshqacha aytganda, veksellar bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yozib berilgan qarz majburiyatini ifodalovchi, tijorat savdo operatsiyalarida ayriboshlash va muomala vositasida pul, chek va boshqa to'lov vositalarini o'rnini qoplaydigan, qonun bilan tasdiqlangan holatda majburiy rekvizitlarga ega bo'lgan va rasmiylashtirilgan kredit – qarzdorlik tilxatidir. Vekselni boshqa turdagi qimmatli qog'ozlardan uni sotish orqali bozor va korxonalaridan pul mablag'i iqtisodiy muomalaga jalb qilishda veksel depozit funksiyasini bajarishi bilan farqlanadi.

Depozitar tilxatlar– nominal qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitenti²dan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

Depozit sertifikat – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz.

Obligatsiya – obligatsiya saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (янги таҳрири) қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 йил, 19-сон, 210-модда.

² Emitent – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs.

nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Opsion – emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi.

Davlat qimmatli qog'ozlari – O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganligini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar.

Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers – qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi.

Chek – chek beruvchining chekda ko'rsatilgan summani chek saqlovchiga to'lash haqida bankka hech qanday shart qo'yilmagan topshirig'i mavjud bo'lgan qimmatli qog'oz. Chek bo'yicha pul chek beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Qonunda qimmatli qog'ozlar jumlasiga boshqa hujjatlar ham kiritilgan (**omonat daftarchasi** – fuqaro bilan bank omonati shartnomasini tuzish rasmiylashtirilgan hamda uning hisobvarag'ida omonat bo'yicha pul mablag'lari harakatini tasdiqlaydigan hujjat; **konosament** – yukni tashishga qabul qilinganligi va tashuvchining yukni oluvchiga yetkazish majburiyatini tasdiqlovchi hosilaviy qimmatli qog'oz).

Ishlar va xizmatlar – fuqarolik huquqining obyekt sifatida. Ko'rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan ishlar ham fuqarolik huquqining obyektlaridir. Manbalarda ishlar va xizmatlar moddiy ne'matlar tarkibiga kiritiladi¹. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar bu ikki obyektining o'zaro farqi shundaki, mazkur obyekt bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni amalga oshirish natijasida ashyoviy-moddiy ko'rinishga ega bo'lgan natijaning yaratilishidir. Agar moddiy natija yaratish maqsadida munosabatga kirishilsa – u ish sifatida, moddiy narsa yaratishni maqsad qilib qo'ymasa – xizmat deb baholanadi. Shu sabab ham ish bajariladi, xizmat esa ko'rsatiladi.

¹ Раҳмонкулов Х. Фуқаролик ҳуқуқининг объектлари. –Т.: ТДЮИ, 2009. Б.11.

Asosan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tuziladigan pudrat shartnomalarining predmeti ishlar bilan bog'liq bo'ladi va pudrat shartnomasi tushunchasi berilganda ushbu obyekt turiga alohida e'tibor qaratiladi.

FKning 631-moddasiga asosan pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Fuqarolik huquqi objekti sifatida ishlardan farqli ravishda aloqa, axborot, tibbiyot, veterinariya, auditorlik, advokatlik, repetitorlik, qo'riqlash, saqlash, yo'lovchi, yo'lovchi, bagaj va yuk tashish, transport ekspeditsiyasi, ta'lim bilan bog'liq munosabatlarda xizmat ko'rsatiladi va ular moddiy ne'mat yaratilishini nazarda tutmaydi.

Xizmat ko'rsatish tufayli, masalan, repetitorlik xizmati tufayli ilm-ma'rifat o'quvchiga singdiriladi, sayyohlik xizmati tufayli sayyohlarga tegishli xizmat ko'rsatiladi. Yo'lovchi tashish shartnomasi bo'yicha tashuvchi yo'lovchini, yo'lovchi bagaj topshirgan bo'lsa, bagajni ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni olishga vakolat berilgan shaxsga topshiriladi.

b) Nomoddiy ne'matlar

Moddiy ko'rinishdagi ne'matlar (ashyolar) bilan bir qatorda nomoddiy ne'matlar ham fuqarolik huquqining objekti hisoblanadi. Fuqaroga tug'ilganidan boshlab yoki qonun bo'yicha tegishli bo'lgan shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro'si, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlari nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Ular shaxsdan begonalashtirilishi yoki boshqa birovga o'tkazilishi (berilishi) mumkin emas. Ayni vaqtda qonunlarda nazarda tutilgan hollar va tartibda marhumga tegishli bo'lgan shaxsiy-nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar boshqa shaxslar, shu jumladan, huquq egasining merosxo'rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin.

Nomoddiy ne'matlar – qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan hamda egasi (sohibi)ning shaxsidan ajratish mumkin bo'lmagan ne'matlar va erkinliklardir.

Nomoddiy ne'matlarning quyidagi turlari mavjud:

- intellektual faoliyat natijalari;
- xizmat va tijorat siri;
- shaxsiy nomulkiy huquqlar.

Nomoddiy ne'matlarning bir qismi, ya'ni intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, tovar shakliga kiradi va mulkiy muomalada mutlaq huquq obyektlari sifatida namoyon bo'ladi.

SHaxsiy nomulkiy huquqlar esa fuqarolik muomalasida o'ziga xos tarzda, tovar shakliga kirmagan va iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan holda namoyon bo'ladi.

Nomoddiy ne'matlarning fuqarolik huquqi obyekt sifatidagi xususiyati shundaki, bunda *birinchidan*, buzilgan nomoddiy huquq mazmunidan, *ikkinchidan*, bunday buzilish oqibatlarini xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik huquqlarining himoya qilish usullaridan foydalanadi.

Nomoddiy ne'matga nisbatan huquqlarni himoya qilishda ko'p hollarda sud huquqni qayta tiklash yoki huquqbuzarliklarni to'xtatishni ta'minlovchi choralar ko'radi. Nomoddiy ne'matlar orasida shaxsning (yuridik shaxsning ham) sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si alohida o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda nomoddiy ne'matlar shaxsiy huquqlar nomi bilan yuritiluvchi o'ziga xos huquqlar majmuini ham o'z ichiga oladi (masalan, nomga, yashash joyini tanlashga, yozishmalar daxlsizligi, ya'ni sir saqlanishiga bo'lgan huquq kabilar).

FKning 99-moddasida nomoddiy ne'matlar huquq sohibiga yo tug'ilgandan boshlab tegishli bo'ladi (yashash huquqi, sog'-salomat bo'lishiga bo'lgan huquq, shaxs sha'ni, shaxsiy daxlsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, xususiy va oilaviy sirga bo'lgan huquqlar kabi) yoxud qonunga muvofiq huquq subyektiga tegishli bo'ladi (masalan, nomga bo'lgan huquq, erkin ko'chib yurish huquqi, yashash joyini tanlash huquqi kabi) deb ko'rsatilgan.

Nomoddiy ne'matlar shaxsning o'zidan begonalashtirilmaydi, biroq ularni amalga oshirish va himoya qilish uchun shaxslarga topshirilishi mumkin (masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yish ota-onasi tomonidan amalga oshiriladi).

Nomoddiy ne'matning ashyoviy mazmunga ega emasligi, uning sohibi bo'lgan subyektning shaxsi bilan uzviy bog'liq ekanligi zarur elementlar hisoblanadi, ba'zan ularning birortasi bo'lmashligi ham mumkin. Nomoddiy ne'mat o'z sohibining shaxsini individuallashtiradi, ijtimoiy mavqei xarakterlaydi. Nomoddiy ne'matlarning amal qilish muddati cheklanmagan.

Ayni vaqtda bu belgilar shartli xarakterga ega, masalan, intellektual mulk nomoddiy ne'mat sifatida qaralsa ham, fuqarolik muomalasida o'ziga xos tovar sifatida harakatda bo'lishi mumkin.

Intellektual faoliyat natijalari. Fuqarolik huquqlarining obyekt sifatida intellektual faoliyat natijalari nomoddiy ne'matlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Intellektual faoliyat mahsuli, uning yaralish jarayoni va o'ziga xos xususiyatlari odatdagi ashyolardan farq qiladi. Shuning uchun ular fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'ziga xos obyekt sifatida qaraladi.

Intellektual faoliyat ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu asosan aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener-texnik xodim kabilar ijodiy faoliyatining mahsulidir. Bunday faoliyat mahsuli fuqarolik qonun hujjatlari bilan qo'riqlanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- ❖ haqiqatda ijod mahsuli bo'lishi, ya'ni original (o'ziga xos) bo'lishi;
- ❖ betakror bo'lishi;
- ❖ biror-bir obyektiv shaklda ifoda etilishi.

Bu mahsullarning ko'pchiligi g'oyaviy-nomoddiy ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli ham ularga nisbatan odatdagi ashyolarga, moddiy obyektga nisbatan qo'llaniladigan huquq me'yorlarini qo'llab bo'lmaydi.

FK intellektual mulk obyektlariga:

- intellektual faoliyat natijalari;
- fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar;
- sohaviy qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarni kiritadi.

Insonning ijodiy tafakkuri bu obyektlar doirasini tinmay kengaytirib bormoqda (qog'oz kashfiyotidan tortib – bugungi elektron ijod namunalari, nanotexnologiyalargacha).

Xizmat va tijoratsiri. FKning 98-moddasiga asosan xizmat va tijorat siri ham nomoddiy ne'matlar tarkibiga kiradi. Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi ("Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"¹gi qonun). Tijorat siri – uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot sohalarida hamda boshqa

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил. 5-сон, 232-модда.

sohalarda tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot mulkdori uning maxfiylikni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi ("Tijorat siri to'g'risida"¹gi qonun).

Tijorat siriga doir talablarga ko'ra:

- uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli o'z mulkdori uchun haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo'lishi;

- qonun hujjatlariga muvofiq hammaga ma'lum yoki hamma uchun ochiq bo'lmasligi;

- uning maxfiylikni muhofaza qilish chora-tadbirlari bilan ta'minlangan bo'lishi;

- davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir belgilariga ega bo'lmasligi kerak.

Tijorat sirining mazmuni va hajmi uning mulkdori tomonidan belgilanib, mulkdor undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar. Adabiyotlarda shaxsiy nomulkiy ne'matlarning quyidagi xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi:

- fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgani;

- pulda baholanishi mumkin emasligi;

- shaxsdan ajralmasligi (bunday ne'matlarni sotish, hadya qilish, meros qilib qoldirish va boshqacha tarzda shaxsdan ajratish mumkin emas);

- umumiy qoidaga ko'ra, fuqaroning tug'ilishi bilan boshlanib, o'limi bilan tugashi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar baholanishi mumkin emas, ular uchun tekinlik xosdir, ularning amalga oshirilishi boshqa shaxslarning teng qiymatdagi mulkiy majburiyatlarini nazarda tutmaydi. Nomulkiy ne'matlar obyekti shaxsdan ajratib bo'lmaydigan nomoddiy ne'matlar: nom (ism), sha'n, qadr-qimmat, sog'liq, shaxsiy hayot siri, shaxsiy daxlsizlik va boshqalardir.

Nazorat uchun savollar

1. Ma'lumki, pul har bir davlat suverenitetining o'ziga xos atributlaridan biridir. Nima deb o'ylaysiz – pulning xarid quvvati nimalarga, qanday omillarga bog'liq? (Quvayt dinori, Turkiya lirasi, Yaponiya ienasi, Xitoy yuani, AQSh dollari, Singapur dollari, evro). Guruh bo'lib sharhlang.

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 йил, 37-сон, 463-модда.

2. Buzilgan shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishning o'ziga xos usullaridan biri bu – ma'naviy zararni qoplashdir. Uni qoplashda qanday mezonlarga tayaniladi? Shaxsning ijtimoiy reytingi, unvonlari, davlat mukofotlari, jinsi, diniy e'tiqodi, boyligi ma'naviy zararni qoplashda e'tiborga olinadimi?

3. Xalimova N. eng oxirgi nusxadagi kuchaytirilgan kompyuter terib berishni, buning uchun 700 ming so'm bahodagi haq to'lashini so'rab ustaga murojaat etadi. Usta u aytgan muddatda va kelishilgan bahoga mos kompyuterni terib unga eltib beradi. Lekin Xalimova N. ushbu kompyuterda printer va skanerning yo'qligi ular kompyuterning tarkibiy qismi ekanligi shu tufayli ular albatta kompyuterning bahosi ichiga kiritilganligini aytadi.

Masala qanday hal qilinadi? Kompyuterni ashyolarning tasniflanishiga ko'ra qaysi turga kiradi? N. Xalimovaning e'tirozi to'g'rimi?

4. Ikromov S. o'z sartaoshxonasini reklama qilish maqsadida antiqa usulni qo'llashni maqsad qilib oladi va do'sti dizayner Sharipova G. ga murojaat etadi. Sharipova G. unga "Dunyodagi eng zo'r sartaoshlik ishini bajaruvchi" so'zini turli xalqlar yozuvida naqshinkor ko'rinishdagi reklama lavxasini ko'rsatadi. Lekin Ikromov S. sartaosh ishni bajarmaydi, aksinchi xizmat ko'rsatadi shu sababdan "Dunyodagi eng zo'r sartaoshlik xizmatini ko'rsatuvchi" tarzida o'zgartirishni talab etadi. Sharipova G. esa sartaoshlik ishlar turkumiga kiradi, xizmat ko'rsatish so'zi unga to'g'ri kelmaydi, agar ushbu so'z bilan almashtirsak kulgiga qolishimiz mumkin degan fikrni bildiradi.

Ushbu bahsda kim haqli? Ishlar va xizmatlar o'rtasidagi farqni ko'rsatib bering?

8-MAVZU. BITIMLAR

Bitimlar tushunchasi va turlari. Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar. Bitim shakllari. Birja bitimlari. Bitimning haqiqiy sanalish shartlari. O‘z-o‘zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlarini.

Bitimlar tushunchasi va turlari

Bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi (FK 101-modda).

Bitim fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan hisoblanadi. Bitim instituti - bitimlarni tuzish tartibi va shakllarini, ularning turlari va mazmunini, haqiqiy emas deb hisoblash shartlarini, ularni haqiqiy emasligini tan olinishining huquqiy oqibatlarini belgilab beruvchi fuqarolik-huquqiy normalari yig‘indisidan iborat.

Bitim shaxslarning erki bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo‘lganligi tufayli, bitimda ifodalangan erk izhor qilinishi, ya‘ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitimning mazmunini quyidagi belgilar tashkil etadi:

1. Bitim–erk-irodani ifodalovchi hujjat;
2. Haqiqiy harakat natijasida yuzaga keladi;
3. Bitim fuqarolik-huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga maxsus yo‘naltirilgan bo‘ladi;
4. Bitim fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinuvchi huquqiy munosabatni yuzaga keltiradi.

Bitimlar uchun quyidagi shartlarning bo‘lishi muhimdir:

- a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanishi;
- b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo‘lishi va bu erk ma‘lum huquqiy oqibatlar tug‘dirishga qaratilgan bo‘lishi;
- v) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o‘zining tashqi ifodasini topishi lozimligi, ya‘ni ma‘lum shaklda izhor qilingan bo‘lishi kerak.

Bitimlar o‘zlarining belgilari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi (klassifikatsiya qilinadi):

1. *Bir, ikki va ko‘p tomonlama bitimlar* FKning 102-moddasida belgilangan bo‘lib, unda bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p

tarablama (shartnomalar) bo'lishi mumkinligi, bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir tarablama bitim hisoblanishi, shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki tarablama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p taraf (ko'p tarablama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerakligi belgilangan.

Har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, har qanday bitim shartnoma bo'la olmaydi. Aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi mumkin. Shu sababli shartnomaga aksariyat hollarda bitim qoidalari qo'llaniladi.

Shartnomaga odatdagidek bitimning bir turi sifatida qaramaslik lozim. Shartnoma bitim turlaridan faqatgina bittasi hisoblanmaydi, u yuridik hujjat bo'lib, uning vositasida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning ishtirokidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy munosabatlar tartibga solib boriladi.

2. *Haq baravariga va tekinga tuziladigan bitimlar.*

Haq baravariga tuziladigan bitimlar bo'yicha tomonlardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to'lash, ishni bajarish, biror bir xizmat ko'rsatish singari harakatlarni qilish majburiyatini oladi.

Tekin, ya'ni haq to'lanmay tuziladigan bitimlar asosida tomonlardan birigina ikkinchi tomon foydasiga biror-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo'q. Masalan, hadya, foizsiz qarz, mulkdan tekin foydalanish (ssuda) to'g'risidagi shartnomalarni ko'rsatish mumkin.

3. *Konsensual va real bitimlar.*

Konsensual¹ bitim deb, huquq va majburiyatlarni o'zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytda vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitim hisoblanadi.

Real² bitim deb, o'zaro kelishuvga muvofiq, ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytiladi. Real bitimlarga qarz, omonat, yuk tashish shartnomalarini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.

4. Bitimlar asosining mohiyati va ularning amal qilishiga ko'ra kauzal va abstrakt (mavhum) bitimlarga bo'linadi.

¹ "Konsensual" so'zi lotincha "consensus" so'zidan olingan bo'lib, "kelishuv" ma'nosini bildiradi.

² "Real" so'zi lotincha "res" so'zidan olingan bo'lib, "ashyo" ma'nosini bildiradi.

5. Fidustiar bitimlar. Bunday bitimlar o‘zaro ishonchga asoslanadi. Topshiriq, vositachilik, mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berish kabi bitimlar tomonlarning shaxsiy ishonchi bilan bog‘liqdir.

Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar

Huquq subyektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi va bekor bo‘ladi.

Agar bitimda huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi yoki bekor bo‘lishi vaqti ko‘rsatilgan bo‘lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha:

a) ma‘lum kun, oy, yil bilan (masalan, 2005 yil 15 sentyabr);

b) ma‘lum vaqtning o‘tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o‘tishini ko‘rsatish);

v) ma‘lum bir voqea yuz berishi (masalan, daryo orqali yuk tashish–muz erishi) bilan belgilanadi.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday bitim muddatsiz hisoblanadi.

Huquq va majburiyatlarning kelib chiqishi noma‘lum bo‘lgan holatning yuz berishi yoki bermasligi hisobga olingan holda tuzilgan bitimlar shartli bitimlar deyiladi.

Shartli bitim deb, taraflar o‘rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo‘lishi, biror-bir shartga bog‘lab qo‘yilishiga aytiladi. Shartli bitimlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

a) sharti kechiktirilgan;

b) bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitimlar.

Agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishining yuz berishi yoki bermasligi noma‘lum bo‘lgan holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bitim sharti kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi

Agar tarafning huquq va burchlari bekor bo‘lishining yuz berishi yoki bermasligi noma‘lum holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bunday bitim bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi.

Bitim shakllari

Bitim shakli - erkni bayon etish usulidan iborat. Erk og‘zaki, yozma va boshqa usullarda bayon etilishi mumkin. Shunga ko‘ra bitim ham tegishli shakllardan iborat. Bitimni shakli uni haqiqiy deb hisoblash (FKning 354, 366-m. m), taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, ularning huquq va burchlarini isbotlash uchun yuridik ahamiyatga ega.

Jeton, patta yoki odatda, qabul qilingan boshqa belgi berish bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, og‘zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi. Yozma shaklda tuzilgan shartnoma bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizning qadimdan mavjud “sukut – rozilik alomati” qoidasi amal qiladi.

Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:

a) oddiy yozma;

b) notarial idoralarda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo‘linadi.

Oddiy yozma bitim bitimning shartlarini o‘z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga aytiladi. Bitimlar quyidagi hollarda oddiy yozma shaklda tuziladi:

1) yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan tuziladigan bitimlari (chunki yuridik shaxslar mavzusida aytganimizdek, yuridik shaxslarning mulki va mablag‘lari uning balansida aks ettirilishi kerak.

2) fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat’i nazar boshqa bitimlar.

Tashkilotlar tomonidan tuziladigan yozma bitimlarda mazkur tashkilot rahbarining imzosi va muhri bo‘lishi lozim.

Birja bitimlari

Bitimlar orasida birja bitimlari o‘ziga xos xususiyatga ega. Bitimlarni birja bitimlari deb hisoblash uchun ular maxsus belgilangan joyda tuzilgan bo‘lishi lozim. Birja hududi doirasida tuzilgan bitimlarning joyi birjada tuzilgan hisoblanadi. Birja bitimlari tuzish vaqti deganda birja savdolarining boshlanishi va tugatilishi uchun belgilangan vaqt tushuniladi. Ushbu vaqt davomida taraflar birja aktivlarini sotib olish va sotish uchun zayavka beradilar. Birjalar O‘zbekiston Respublikasining “Birja va birja faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni talablari asosida faoliyat yuritadi.

Birja bitimi deb - birjada ro‘yhatga olingan birja listingi (savdo uchun ko‘rgazmaga qo‘yilgan tovarlar ro‘yxati)dan o‘tkazilgan birja tovarlari bo‘yicha savdo sessiyasi (savdo vaqti) vaqtida birja savdosi ishtirokchilari o‘rtasida tuzilgan va birja tomonidan ro‘yxatga olingan bitimga aytiladi.

Birja bitimlari uning o'zida ro'yxatga olinadi, shu sababli bunday bitimlar notarial tasdiqlanmaydi, qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Birja bitimlari birja nomidan va hisobidan amalga oshirilishi mumkin emas

Birja – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs. Birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Birjalar o'z faoliyatini tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjasi turida amalga oshiradi. Birjaning firma nomida “birja” so‘zi bo‘lishi kerak.

Birja ustavida birjaning to‘liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili;

birja ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;

birja tomonidan chiqariladigan aksiyalarning soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);

birja boshqaruvining tuzilmasi, birja kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a‘zolari soni, ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Birja ustavida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin.

Birja faoliyati birja tovarlari bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Birja bitimlarining turlari: birjalarda asosan birja tovarlari (mol, xom ashyo, agrosanoat tovarlari va mahsulotlari, valyuta, qimmatli qog‘ozlar va hokazo) bo‘yicha quyidagi oldi – sotdi shartnomalari tuziladi.

- *real (kassali) bitimlar* – mavjud bo‘lgan tovarlarni topshirish yoki yetkazib berish yoxud tovarga egalik qilish huquqini o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlar hisoblanadi;

Real bitimlar amaliyotda kassali bitimlar deb ham nomlanadi. Bunday bitimlar birja bitimlarining eng oddiy turlaridan hisoblanadi. Real bitimlarga xos xususiyatlardan biri ularni darhol bajarilishi kerak bo‘lishidan iborat, chunki ular mavjud bo‘lgan tovarlar bo‘yicha tuziladi. Real bitimning predmeti har doim tovar hisoblanadi, bitim tuzish paytida u jismonan mavjud va sotuvchining egaligida bo‘ladi.

- *forvard bitimlar* – mavjud (bitim tuzilayotgan vaqtda ishlab chiqarilgan) tovarni yetkazib berishni kechiktirish sharti bilan tuziladigan oldi – sotdi bitimlari; . Forvard so‘zi inglizcha “*Forward transaction*”

soʻzidan olingan. Bu birja bitimining oʻziga xos xususiyatlaridan biri bitim tuzishdan koʻzda tutilgan harakat maʼlum bir vaqt oʻtgandan soʻng amalga oshirilishidir, bundan tashqari sotib oluvchi mavjud tovarni koʻrib yoki koʻrmasdan (yaʼni kelgusida ishlab chiqariladigan tovarlarni nazarda tutib) shartnoma tuzishidir.

- *fyuchers bitimlar* –fyuchers bitimning predmeti fyuchers kontraktidan iborat boʻlib, u alohida hujjat hisoblanadi. Fyuchers qimmatli qogʻoz hisoblanmaydi. kelajakda bajarish majburiyati olingan holda tovarlarga boʻlgan standart kontraktlarni olish va sotish toʻgʻrisidagi bitimlar; tovarlarga doir standart kontraktlarning oldi-sotdi bitimlaridir. Fyuchers bitimidagi “standart” tushunchasi faqat birjada belgilangan shartlarga amal qiluvchi bitimlar bilan savdo qilish mumkinligi (kontrakt hajmi, yetkazib berish sanasi, bahosi va boshqalar) bilan bogʻliqdir. Ularni kelgusida ijro etish majburiyatini olgan holda tuziladi. Bu bitimlar boʻyicha tovarlar, xom-ashyolar, qimmatli qogʻozlar shartnomada koʻrsatilgan bahoda (tovar qabul qilinayotganda uning narxi oʻzgarsa ham shartnomadagi baho imperativ xarakterga ega boʻladi va oʻzgarmaydi), faqat muayyan vaqtdan soʻng ijro etilish sharti bilan sotiladi.

- *option bitimlar*– belgilangan narxda kelgusida sotib olinadigan va sotiladigan tovarlarga yoki tovarlarni yetkazib berish toʻgʻrisidagi standart kontraktlarga boʻlgan huquqlarni sotib olish yoki sotish haqidagi bitimlari hisoblanadi (lotincha optio – tanlash degan maʼnoni anglatadi). Opcion bu-hujjat, bitim taraflaridan birining oʻz kontragentidan cheklangan muddat davomida kelishilgan narxda muayyan kompaniyaning belgilangan miqdordagi tovarlarni sotib olish yoki sotish uchun belgilangan huquqidan iborat. Opcion qimmatli qogʻozning kursi oʻzgarishi bilan foyda chiqarib olish uchun imkoniyat yaratadi. Opcionning ikkita asosiy turlari mavjud: option koll (call, yaʼni sotib olish huquqi va option –put (put) yaʼni sotish huquqi.

Repo bitimi: qimmatli qogʻozlarni muayyan muddat oʻtgach, avvaldan belgilangan narx boʻyicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qogʻozlarga doir oldi-sotdi bitimlari.

Birjalarda tuzilgan bitimlarda ishtirokchi sifatida birja aʼzolari ishtirok etadilar. Birja aʼzolari oʻrtasidagi birja bitimlari birja savdolarining natijalariga koʻra tuziladi. Birja bitimlari faqat yozma shaklda tuziladi. Bitim bilan bogʻliq nizolar oldin birjalar hakamlik (ixtilof) komissiyasida hal etiladi. Qarordan rozi boʻlmagan tomon sudga murojaat etishga haqli.

Bitimning haqiqiy sanalish shartlari

Bitimlar haqiqiy sanalishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi:
birinchidan, bitimlarning mazmuni qonunga va qonun asosida chiqarilgan aktlarga, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo'lishi;

ikkinchidan, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo'lishlari;

uchinchidan, bitimlar ko'rinish uchungina tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat tug'dirish maqsadida tuzilgan bo'lishi;

to'rtinchidan, notarial guvohlantirishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan bitimlar haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qonun talablariga muvofiq bo'lmagan (FK 116-modda), O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan (O'zbekiston Respublikasi JKning 175-moddasi), o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan (FK 117-modda), qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FK 124-modda) o'z o'zidan haqiqiy sanalmaydi.

Nizoli bitimlar jumlasiga o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK 121-modda) yanglishish ta'sirida tuzilgan (FK 122-modda), aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan (FK 123-modda), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK 120-modda), yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FK 125-modda) kiradi.

O'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari

Qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoxud odob yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim, FKning 116-moddasida ko'rsatilganidek, o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilgan bitim haqiqiy sanalmaydi. G'araz, yomon niyat bilan atayin davlat va jamiyat manfaatlariga xilof maqsadlarda tuzilgan bitim qonunni jiddiy ravishda buzish, deb qaraladi.

Qalbaki bitim – taraflarning kelishuvi bo‘yicha yuridik oqibatlar tug‘dirmaslik niyati bilan faqat ko‘rinish uchungina tuzilgan bitim bo‘lib, u haqiqiy sanalmaydi (FK 124-modda).


Ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim deb boshqa bir bitimni yashirish maqsadida tuzilgan bitimga aytiladi. Agar bitim boshqa bir bitimni yashirish uchun tuzilgan bo‘lsa, bu holda taraflar tomonidan haqiqatda nazarda tutilgan bitimga oid qoidalar qo‘llaniladi. Ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim barcha hollarda haqiqiy sanalmaydi. Bunday bitim bilan yashirilgan bitim qonun talablariga javob berish-bermasligiga qarab yo haqiqiy bo‘ladi yoki haqiqiy emas deb topiladi.

Ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim ham qalbaki bitim kabi hech qanday huquq va majburiyatlarni kelib chiqishi uchun asos bo‘lmaydi. Bunday bitim tuzish vositasida taraflar aslida boshqa yuridik harakatni, ya’ni bitimni yashiradilar. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi hadya shartnomasi bilan yashiriladi. Bunday maqsad ko‘p miqdorda pul to‘laganligini oshkor qilmaslikdan iborat. Aholi yashamaydigan binoni ijaraga berish shartnomasini yashirish uchun birgalikda faoliyat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarini tuzish uchra turadi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi, shuningdek ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar haqiqiy sanalmaydi, taraflarning har qaysisi bitim yuzasidan olgan narsalarining hammasini ikkinchi tarafga qaytarishga majbur, olingan narsani natura baravarida qaytarishi mumkin bo‘lmasa, uning qiymatini pul bilan to‘lashga majbur.


Umumiy qoidaga muvofiq yashirilgan bitim g‘ayriqonuniy hisoblanadi, chunki u qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan emas. Shunday ekan uni yashirgan ko‘z bo‘yash uchun tuzilgan bitimni o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim deyish mumkin. Lekin yashirilgan bitim nizoli bitimlar turkumiga kirishi ham mumkin.

O‘z-o‘zidan (mutloq) haqiqiy sanalmaydigan bitimlar



O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan o‘smirlar qisman muomala layoqatiga ega bo‘lsalarda, bitimlarni otanalari, farzandlikka olganlar yoki homiylari roziligi bilan tuzadilar. Spirtli ichimliklarni yoki gilyohvand vositalarini suiiste‘mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining rozilgisiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin (FK 120-modda).

Jiddiy yanglishish ta‘sirida bo‘lib bitim tuzishda, bunday bitim tuzuvchi shaxs bitimda narsa, xususan, bu narsaning sifati to‘g‘risida, bitim tuzuvchi kontragentning (qarshi tarafning) shaxsi haqida noto‘g‘ri tasavvurda bo‘ladi.



Aldash, zo'rlash, qo'rqitish ta'siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda yoxud fuqaro uchun og'ir holatlarning yuz berishi oqibatida tuzilgan bitim jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha haqiqiy sanalmasligi mumkin. Aldash ta'siri ostida bitim tuzilishida bitim tuzuvchi ikkinchi tomonni atayin yomon niyat bilan yanglishtiradi. Bu

holda aldanuvchi tomon bitimning narsasi yoki uning shartlari to'g'risida noto'g'ri tasavvur qiladi.

Qo'rqitish ta'siri ostida bitim tuzilishida jabrlangan shaxs o'ziga yoki yaqin kishilariga biror mulkiy yoki shaxsiy zarar yetkazilishidan qo'rqib, bitim tuzishga majbur bo'ladi.

Zo'rlik deyilganda boshqa shaxsning erki shu shaxsni bitim tuzishga majbur qilish maqsadida uning o'ziga yoki yaqin kishilariga jismoniy azob yetkazishdan iborat bo'lgan g'ayriqonuniy qilmish tushuniladi.

FKning 125-moddasiga asosan, yuridik shaxs tomonidan uning ta'sis hujjatlarida (ta'sis shartnomasi, nizom, ustavi) aniq chegaralab qo'yilgan maqsadlarga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Ko'p hollarda bitim va shartnoma tushunchasi chalkashtiriladi. Bitim deganda shartnomani tushunish hamda bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarga oid qoidalarni to'liq shartnomalarni tasniflashga nisbatan qo'llash mumkinmi?

Muhokama qiling?

2. Qanday bitim turlarini bilasiz, birja bitimlarini boshqa bitim turlaridan farqi bormi, ular haqida nimalarni bilasiz?

Tushuncha bering?

3. Davlat imtixonida I. Norimonovga davlat va jismoniy shaxs o'rtasida tuzilgan bitimlarning mohiyati to'g'risida savol tushadi. Berilgan savollarga javob berar ekan I. Norimonov bu ikki subyekt o'rtasida bitim tuzilishi mumkin emas, buning sababi FKning 101-moddasida davlatning bitim tuzishga haqli ekanligi to'g'risida tushuncha yo'q deya javob beradi. U o'z savoliga qo'shimcha ravishda javob berar ekan davlat bilan jismoniy shaxslar shartnomalar tuzishi mumkin lekin bitim tuza olmaydi, degan xulosaga keladi

Javobni sharhlang va unga o'z munosabatingizni bildiring?

FKning 101-moddasi talablaridan kelib chiqib masalaga oydinlik kiriting?

4. N. Sharipov, G. Xasanov, L. To'qliyev va N. Namozovlar birlashib tadbirkorlikni amalga oshirishga kelishib oladilar. O'z kelishuvlarini yozma ravishda rasmiylashtirish maqsadida huquqshunos S.

Karimovga murojaat etadilar. S. Karimov ularning bitimi oddiy shirkat shartnomasi ekanligini va shartnomani tuzayotgan paytda ularning shartnomalari tekinga tuzilayotganligini ularda muqobil ijro – yo‘qligini, ular faqatgina foyda ko‘rsa, u foyda teng bo‘linishligini aytadi. Shundan so‘ng shartnomaning baho bilan bog‘liq bandiga tekinga degan yozuvni kiritadi.

Bu yerda huquqshunosning harakatini baholang? Haq evaziga va tekinga tuziladigan bitimlarning farqini ko‘rsatib bering? Tuzilayotgan shartnoma haq evaziga tuziladimi yoki tekinga tuziladimi? Ushbu masalaga oydinlik kiriting?

9-MAVZU. VAKILLIK VA ISHONCHNOMA

Vakillik tushunchasi. Vakolat va uning turlari. Ishonchnoma.

Vakillik tushunchasi

Shunday paytlar bo‘ladiki, shaxslar o‘z huquq va majburiyatlarini bevosita o‘zlari amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmay qoladilar. Bunday hollarda ularga fuqarolik huquqidagi vakillik instituti haqidagi tushunchalar yordam beradi. Vakillarning xizmatiga fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham muhtoj bo‘ladilar. Shu sababli ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki davlat organining hujjati asosan vujudga keluvchi vakillik institutining vazifasi vakolat beruvchi nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida shaxslarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. Zero qonunchikning eng asosiy vazifalaridan biri ham aynan shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularning daxlsizligini kafolatlashdir. Fuqarolik qonun hujjatlari ham shaxslarning subyektiv huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tengligi va o‘z huquqlarini amalga oshirishda hech qanday to‘siqlarsiz, erkin harakat qilishni ta‘minlashga qaratilganidir. Bunda fuqarolik huquqi subyektlari har qanday holatdan qat‘i nazar huquq layoqatiga ega ekanligi etirof etiladi. Qolaversa, shaxslar ayrim subyektiv va obyektiv sabablar bilan o‘z huquqlarini o‘zi amalga oshira olmasalar boshqa shaxslar yordamida, ya‘ni o‘z vakillari orqali bu huquqlarini amalga oshirishlari mumkin.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida vakillik instituti shaxslarning huquq va burchlarini amalga oshirishlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rnini quyidagi holatlarda ko‘rinadi:

- jamiyatdagi subyektlarning huquq va majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlaydi;
- shaxslarning o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga yordamlashadi;
- shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklari buzilishining oldini oladi;
- subyektlar o‘rtasida o‘zaro huquqiy munosabatlarining barqarorligini ta‘minlash va boshqa vazifalarni bajarishi bilan jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi.

Vakillik bu kecha yoki bugun vujudga kelgan institut emas, balki insoniyat rivojlanishining barcha davrlarida muayyan shaklda rivojlanib kelgan, ayniqsa, qadimgi Misr, Chin, Yunon va Rim davlatlarida savdo va hunarmandchilik faoliyatida undan keng foydalanilgan. Qadimgi Rimda vakillik asosan topshiriq shartnomasi ko‘rinishida yuzaga kelgan. Bunda bir taraf (mandant) topshiriq berishi va ikkinchi tomon (mandatariy) uning vakili sifatida topshiriqni bajarishni o‘z zimmasiga olishi lozim bo‘lgan. Vakillik predmeti sifatida yuridik harakatlar ham, faktik tusdagi xizmatlar ham e’tirof etilgan. Vakillik keyinchalik XVIII-XIX asrlarga kelib ancha takomillashtirildi va ayrim o‘zgarishlar bilan huquqiy jihatdan hozirgi kundagi shaklga keltirildi. Vakillik so‘zining o‘zi (ingliz. representation) - bir shaxs o‘zida mavjud bo‘lgan vakolat asosida boshqa shaxs nomidan, uning uchun bevosita huquqlarni vujudga keltirish (o‘zgartirish, tugatish) yo‘li bilan harakat qiladigan munosabatdir.

Vakillik deb, bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishiga aytiladi. Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi (FKning 129-moddasi).

Vakillik institutidagi munosabatlar insoniylik, o‘zaro yordam, fuqarolik munosabatlarda barchaning teng ishtirokini ta’minlash g‘oyalariga asoslanadi. Vakillik fuqarolik, oila, xo‘jalik, ma’muriy huquqiy munosabatlarni o‘zida jamlagan kompleks huquqiy institut hisoblanadi. Vakillikda vakolatlar huquqiy hujjatlar va shartnomalar bilan aniq tarzda belgilanadi. Vakillikning vujudga kelishi va bekor bo‘lishi har xil obyektiv va subyektiv yuridik faktlarga bog‘liq hisoblanadi; vakillik instituti shaxslarga fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi yuridik yordamning huquqiy asosidir.

FKning 129-moddasining mazmunidan kelib chiqsak, vakillikni amalga oshirishda vakilga nisbatan hech qanday yuridik oqibat kelib chiqmaydi, ya’ni unda huquq va majburiyat hamda undan kelib chiqadigan javobgarlik ham bo‘lmaydi. Masalan, A. o‘z vakili B. orqali o‘z mulkini S. ga ijaraga beradigan bo‘lsa, bu munosabatlardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar A. va S. o‘rtasida bo‘ladi, ijara haqini olish, uni tasarruf etish huquqi yoki mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish majburiyatlari A. ga nisbatan vujudga keladi. Bunda vakil B. da bunday huquq va majburiyatlar, undan kelib chiqadigan javobgarlik bo‘lmaydi.

Ammo agar shaxs 14 yoshga to'lmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lsa, unga nisbatan vasiylik belgilanadi. Vasiy barcha munosabatlarda o'z vasiyligi ostidagi shaxslar nomidan harakat qiladi va nafaqat ularga nisbatan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi, bekor qiladi, balki amalda ularni shaxsan o'zi amalga oshiradi va ulardan kelib chiqadigan oqibatlar uchun ham shaxsan o'zi javob beradi. Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo'lishlari, vakillik qilishlari mumkin. Istisno sifatida ayrim hollarda o'n olti yoshga to'lib, pasport olgan fuqaro ham vakil bo'lishi mumkin. Fuqarolarning faqat bir-birlari uchungina emas, ba'zi hollarda yuridik shaxslar uchun ham vakil bo'lishlariga qonun yo'l qo'yadi. Masalan, savdo va ta'minot bo'limlarining tijorat vakillari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar yuridik shaxslarning vakillari sifatida ish olib boradilar.

Vakillik qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra vujudga kelgan holda, quyidagi shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi:

- jismoniy shaxsning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga nisbatan vakilligi;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga nisbatan vakilligi;

- davlatning jismoniy shaxsga yoki yuridik shaxsga nisbatan vakilligi.

Bu vakillikning mazmun-mohiyati, amalga oshirilishi usuli, shakli, uning turlarga bo'linishida va vakillik subyektlarining huquqiy maqomini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun vakillik institutining eng muhim jihatlaridan biri - uning subyektlari hisoblanib, ular vakolat beruvchi – bu har qanday shaxs, ayni vaqtda davlat ham bo'lishi mumkin. Masalan, davlat shartnoma asosida ma'lum bir shaxslarga davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining direktorlar kengashida davlat manfaatlarini ifoda etish uchun o'z vakilini tayinlashi mumkin yoki ayrim hollarda fuqarolik munosabatlarda davlat nomidan maxsus vakil qilingan yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilgan. Vakil – bu faqat muomalaga layoqatli shaxslar bo'lishi mumkin. Qonunchilikda vakil bo'lishi taqiqlangan shaxslar bundan mustasno.

vakillikning quyidagicha o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1) vakillik munosabatlarning subyektlari har qanday shaxs bo'lishi mumkin;

2) vakillikdan kelib chiqadigan munosabatlarda uchdan ortiq taraflar ishtirok etadi;

3) vakillik instituti munosabatlari insoniylik, o‘zaro yordam, fuqarolik munosabatlarda barchaning teng ishtirokini ta‘minlash g‘oyalariga asoslanadi;

4) vakillik haq evaziga ham, tekinga ham amalga oshirilishi mumkin;

5) vakillik fuqarolik, oila, xo‘jalik, ma‘muriy huquqiy munosabatlarni o‘zida jamlagan;

6) vakillik instituti mavjudligining asosi bo‘lgan vakolatlar huquqiy hujjatlar va shartnomalar bilan aniq tarzda belgilanadi;

7) vakillikning vujudga kelishi va bekor bo‘lishi har xil obyektiv va subyektiv yuridik faktlarga bog‘liq hisoblanadi;

8) vakillik instituti shaxslarga fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi yuridik yordamning huquqiy asosidir.

qonun hujjatlarida belgilangan asoslardan kelib chiqqan holda, vakolat beruvchi vakilga muayyan vakolat beradi, vakil esa shu vakolat doirasida harakat qilgan holda nafaqat vakolat beruvchiga nisbatan, balki uchinchi shaxslar uchun ham huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Har qanday munosabatlarda bo‘lgani kabi vakillik munosabatlarining ham eng asosiy elementlaridan biri - bu taraflarning huquq va majburiyatlaridir. Vakillik munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar ikkiga bo‘linadi:

1) vakolat beruvchi va vakil o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar;

2) uchinchi shaxslarga nisbatan vujudga keladigan huquq va majburiyatlar.

Shu bilan birga, vakillik munosabatlaridagi huquq va majburiyatlar vakillikning turlariga bog‘liq holda ham har xil hisoblanadi va ayni shu mezonlardan, ya‘ni huquq va majburiyatlar kimga nisbatan vujudga kelganligiga, ularning vakillikning qaysi turiga mansubligidan kelib chiqqan holda vakillik munosabatlaridagi huquq va majburiyatlarining mohiyati yoritiladi.

Vakillik munosabatlarida vakolat beruvchi va vakilning huquq va majburiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning mazmun-mohiyati vakillikning turlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vakolat va uning turlari

Vakil o‘zida bo‘lgan vakolatga binoan, o‘zini vakil qiluvchiga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Binobarin, vakolat deb vakilning boshqa shaxs nomidan

muayyan yuridik harakatlar qilishga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq tushuniladi. Vakilning vakolatlari qonunga, sud qaroriga, vakil qilingan davlat organlarining hujjatiga yoki ishonchnomaga asoslangan bo'lishi mumkin. Vakillikning quyidagi turlari mavjud:

- Umumiy vakillik- bosh ishonchnomaga asoslanadi. Umumiy vakolatlar asosida ish olib boruvchi vakil vakolat beruvchi nomidan muayyan munosabatlarda qonunda belgilangan hollardan tashqari, barcha yuridik xatti-harakatlarni amalga oshirishga haqli bo'ladi.

- Maxsus vakillik - vakil ishonchnoma yoki shartnomada ko'rsatilgan xatti-harakatlarnigina amalga oshira oladi, ya'ni vakilning vakolatlari birmuncha cheklangan bo'ladi.

- Jamoat vakilligi- jamoat birlashmalarining o'z a'zolarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vakilligi.

- Ma'muriy aktiga asoslangan vakillik - vakillikning ushbu turiga muvofiq, ma'muriy tartibda tayinlangan vakil vakolat beruvchining nomidan harakat qilish majburiyatini oladi.

- Shartnomaviy vakillik- Vakillikning vujudga kelishi taraflarning o'z erki, xohish-istagi asosida o'zaro kelishuvga muvofiq belgilanadi.


- Qonuniy vakillik - vakolat beruvchining erkiga bog'liq bo'lmagan holda normativ hujjatlar asosida vakilga berilgan vakolatlardan kelib chiqadigan vakillik hisoblanadi.

Shu bilan birga koma yoki letargik uyqu (uzoq vaqt behush holatda yotish) holatidagi shaxsning "muomala layoqatini to'xtatib turish" tufayli vaqtinchalik vakil tayinlanishi lozim, bu ham qonuniy vakillikning bir shakli sifatida e'tirof etiladi.

Vakil o'z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko'zlabgina amalga oshirishga majbur. Binobarin, vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan, shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas – tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno. (FKning 129-moddasi 3-bandi).

Vakillik vujudga kelish asoslari va mazmuniga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Vakillikning klassifikatsiyasi



FK muomalaga layoqatli shaxslar nomidan vakillik qilishni muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik qilishdan farqlaydi. Muomalaga layoqatli shaxslar vakillarini o'z erklaridan kelib chiqib belgilaydilar. Muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik esa qonun asosida belgilanadi va ular nomidan vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiy va homiyalar harakat qiladi.

Agar bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan oshkora harakat qilish uchun hech qanday vakolati bo'lmasa yoki vakolatli bo'lsa ham uning doirasidan chetga chiqqan bo'lsa, bu holda tuzilgan bitimlar bo'yicha kimning nomidan harakat qilgan bo'lsa, mazkur shaxs uchun huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi.

FKning 132-moddasida ko'rsatilganidek, boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergan shaxs keyinchalik ma'qullangan taqdirdagina, uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan

guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham, bunday bitim ma'qullangan hisoblanadi.

Vakil qiluvchi tomonidan bitimning kelgusida ma'qullanishi u tuzilgan vaqtdan e'tiboran haqiqiy, deb hisoblashga huquq beradi.

Bitimlar tuzishda vakil o'z erki bilan harakat qiladi. Bu holda u o'ziga berilgan vakolatning hajmiga, amaldagi huquqiy normalarning qoidalariga, vakil qiluvchining bergan ko'rsatmalariga asoslanib ish tutadi. Bitim tuzilishida vakilning erki ham vakolat doirasida ifodalanganligi sababli vakilning jiddiy ravishda yanglishishi, aldanishi, qo'rqitilishi yoki zo'rlik ta'sirida tuzilgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 133-moddasiga muvofiq, tadbirkorlar shartnomalar tuzayotganida ular nomidan doimo va mustaqil suratda vakillik qiluvchi shaxs (tijorat vakili) vakilning vakolatlari ko'rsatilgan yozma shartnoma asosida, bunday vakolatlar ko'rsatilmagan taqdirda esa ishonchnoma asosida ham ish olib boradi.

Tijorat vakili o'zining ishtirokida tuzilgan shartnomadagi turli taraflarning manfaatlarini faqat bu taraflarning roziligi bilan hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollardagina ayni bir vaqtda ifodalashi mumkin.

Agar taraflar bilan tuzilgan bitimda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tijorat vakili kelishilgan haqni va topshiriqni bajarish vaqtida qilgan chiqimlarini teng ulushlarda to'lashni shartnomadagi taraflardan talab qilishga haqli.

Tijorat vakili o'ziga berilgan topshiriqni bajarib bo'lganidan keyin ham savdo bitimlari to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni sir saqlashi shart.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim sohalaridagi tijorat vakilligining xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tijorat vakilligi vakillikning maxsus turi sifatida e'tirof etiladi.

Tijorat vakilligining tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi afzalliklarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Muayyan hududda tijorat vakilligi asosida faoliyat olib borish tadbirkorlik subyektlari uchun filial ochishdan ko'ra, oson va kam xarajatli hisoblanadi;

- Tijorat vakili bilan shartnoma tuzishda u tomonidan tuziladigan shartnomalar sonidan qat'i nazar ma'lum bir qat'iy summada pul to'lanishini nazarda tutadigan shartnoma ham tuzish mumkin;

- Tijorat vakili vakolat beruvchi bilan mehnat munosabatlari asosida bog‘liq bo‘lmaydi;
- Tijorat vakili bir vaqtning o‘zida shartnomadagi turli taraflarning manfaatlarini ifodalashi mumkin.

XIX asrning oxirlaridan boshlab, Evropa davlatlarida tadbirkorlar tomonidan o‘zlarining eng ishonchli xodimlariga deyarli cheklanmagan vakolatlarning berilishi tamoyili kuzatilgan. Bunday xizmatchilar prokuristlar yoki bosh vakil, deb yuritiladi.

Tadbirkorning boshqa tijorat vakillaridan farq qilgan holda, prokuristning vakolatlari doirasi va mazmuni qonunda belgilab berilgan (Germaniyaning Savdo tuzuklari, Shveysariya, Avstriya, Bolgariyaning qonunchilik aktlari) va tadbirkorlar tomonidan o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan. Demak, ushbu normalar imperativ xarakterga ega. Tadbirkor o‘z arizasi orqali prokuristni Savdo riyestrada majburiy ro‘yxatdan o‘tkazishi shart.

Bosh vakilning bunday vakolatlarga egaligi unga barcha sud va suddan tashqari ishlarda, shartnoma va boshqa munosabatlarda tadbirkor tomonidan beriladigan ishonchnomasiz ham harakat qilish imkonini beradi. Germaniya va Shveysariya qonunchiligida bunday vakolatlar savdo (tijorat) vakolatlari sifatida baholanadi. Savdo vakolatlari konkret turdagi korxonaga uchun amalga oshiriladigan yuridik harakatlarga nisbatan tatbiq etiladi (Germaniya savdo tuzuklari 54-modda, Shveysariyaning majburiy qonuni 462-modda).

Korxonaga xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan vakillikni vakolatlar doirasiga ko‘ra:

- Cheklangan vakolatlarga asoslanadigan vakillik;
- Cheklanmaydigan vakolatlarga asoslanadigan vakillikka bo‘lishimiz mumkin. Chunki yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bosh vakilda cheklanmagan vakolatlar mavjud bo‘ladi.

Tijorat vakilligi turlari:

- Savdo tashkilotining xizmatchisi tomonidan amalga oshiriladigan vakillik;
- Savdo agentlari tomonidan amalga oshiriladigan vakillik;
- Birjadagi vakillik, agar vakil vakolat beruvchining nomidan harakat qilsa.

Tijorat vakiliga to‘lanadigan haq miqdori taraflarning kelishuviga asosan belgilanadi. Vakillik shartnomaga asoslangan holatlarda to‘lanadigan summa miqdori ko‘rsatib o‘tiladi.

Tijorat vakilligini sohasiga qarab ham turlarga bo‘lish mumkin.
Masalan:

- Sug‘urta sohasidagi vakillik;
- Savdo sohasidagi vakillik;
- Birjadagi vakillik;
- Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq vakillik;
- Ko‘chmas mulk bozoridagi vakillik.

Bugungi kundagi tijorat vakilligi bo‘yicha hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri - bu boradagi xalqaro-huquqiy normalarni unifikatsiya qilishdir. Bu boradagi ilk qadamlardan biri, 1983 yil 17 fevralda qabul qilingan “Xalqaro tovarlar oldi-sotdisida vakillik to‘g‘risida”gi Konvensiya bo‘lib hisoblanadi.

Ishonchnoma

FKning 134-moddasida ko‘ra, **ishonchnoma deb bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolatga aytiladi.** Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnomaning berilishi vakil uchun vakolat belgilashga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida ko‘riladi. Ishonchnoma topshiriq shartnomasi, mehnat shartnomasi, ekspeditsiya shartnomasi va boshqa shartnomalar asosida beriladi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko‘rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FKning 134-moddasi 2-bandi).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. *Masalan, uy-joy qurish kooperativining vakili kooperativ a‘zolarining barchasi tomonidan yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan, bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.*

Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo‘lishi uchun tayinlanadi. Ishonchnomaning mazmunidan vakilning qanday vakolatlarga egaligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqliligi ko‘rinib turishi kerak. Binobarin, vakil ishonchnomada ko‘rsatilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan

shartnoma tuzgan bo'lsa, vakil qiluvchi bu shartnomani bajarishdan bosh torta olmaydi.

Ishonchnomani quyidagi turlariga ajratish mumkin: umumiy, maxsus va bir martalik ishonchnomalar.

Umumiy ishonchnomada turli bitimlarni tuzish yoki boshqa yuridik harakatlar amalga oshirish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga tegishli transport vositasini boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi.

Maxsus ishonchnoma faqat muayyan sohada bitimlarni tuzish yoki yuridik harakatlarni sodir etish imkonini beradi. *Masalan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha mijoz bergan ishonchnomada ekspeditorga faqat shartnomaviy munosabat doirasida eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni olish, bojxona rasmiyatchiliklari yoki o'zga rasmiyatchiliklarni bajarish, yukning miqdorini va holatini tekshirish, uni ortish va tushirish, mijoz zimmasiga yuklatiladigan bojlar, yig'imlar va boshqa xarajatlarni to'lash, yukni saqlash, uni belgilangan manzilda olish kabi yukni yetkazib berish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bitimlar tuzishi uchun vakolat berilishi mumkin.*

Bir martalik ishonchnoma faqat bir bitim yoki yuridik harakat sodir etish uchun beriladi va uning bajarilishi orqali ishonchnoma o'z kuchini yo'qotadi. *Masalan, bir oylik maoshni, pochtdan xatni yoki jo'natmani olish bo'yicha berilgan ishonchnoma, uning olinishi orqali bekor bo'ladi.*

Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda, u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas (FKning 139-moddasi).

Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda ularning amalda bo'lish muddati, albatta, ko'rsatilishi kerak.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. FKning 136-137-138-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

Ishonchnomalarning notarial idoralardan tashqari boshqa tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi FKning 136-137-moddalari bilan belgilanadi. Chunonchi, xat-xabarlar, shu jumladan pul va posilkalar olish uchun beriladigan vakolatnoma, ish haqi hamda mehnat munosabatlari bilan

bog‘liq bo‘lgan boshqa to‘lovlarni, muallif va ixtirochilarga beriladigan haqlarni, pensiyalar, yordam pullari va stipendiyalarni, shuningdek xalq banklaridan tegishli summalarni olish uchun beriladigan ishonchnoma fuqarolar yashab turgan joydagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan, ishlab turgan yoki o‘qib turgan tashkilot tomonidan, turar joydagi uyga xizmat ko‘rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti tomonidan, davolanib turgan joyida esa davolanish muassasasining ma‘muriyati tomonidan, harbiy xizmatchi ishonchnoma berganida tegishli harbiy qism qo‘mondonligi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarga beriladigan ishonchnoma tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirishi uchun beriladigan ishonchnoma ushbu yuridik shaxsning bosh buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi (FKning 138-moddasi).

Vakillik shaxsiy ishonchga bog‘liq bo‘lganligi tufayli vakolat olgan shaxs qanday harakatlarni qilishga vakil qilingan bo‘lsa, ularni shaxsan o‘zi bajarishi lozim. Vakil olgan vakolati yuzasidan bu harakatlarni bajarishni faqat ishonchnomada ko‘rsatilgan hollarda yoki vakolat beruvchining manfaatlarini qo‘riqlash uchun ma‘lum bir sharoitlar tufayli birovga topshirishga majbur bo‘lsagina, boshqa shaxsga topshirishga haqli. Vakolatning vakil tomonidan boshqa shaxsga o‘tkazilishi mumkinligi nazarda tutilgan ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Iшонchnoma FKning 141-moddasida ko‘rsatilganidek, quyidagi hollarda bekor bo‘ladi: muddat tugashi, ishonchnoma beruvchi tomonidan bekor qilinishi, vakolat olgan shaxsning vakillikdan bosh tortishi, nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning bekor bo‘lishi, nomiga ishonchnoma bergan yuridik shaxsning bekor bo‘lishi, ishonchnoma beruvchi fuqaroning o‘limi, muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, deb topilishi yoki bedarak yo‘qolgan, deb topilishi, ishonchnoma olgan shaxsning o‘lishi, uning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilishi bilan bekor qilinadi.

Iшонchnoma beruvchi xohlagan paytda uni bekor qila oladi, ishonchnoma oluvchi ham undan bosh torta oladi.

Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning tugashi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda, bunday vazifa vakolat beruvchining huquqini oluvchi shaxslarga ham yuklatiladi. Vakolat beruvchining vafot etishi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda esa, bu vazifa uning vorislariga yuklatiladi.

Ishonchnoma bergan shaxs uning bekor qilinganligi to'g'risida ishonchnoma bergan shaxsni, shuningdek ishonchnoma yo'naltirilgan uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi kerak. Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs bekor bo'lgan, ishonchnoma bergan fuqaro vafot etgan, muomalaga layoqatsiz, deb topilgan holatlarda ishonchnoma bekor bo'lgani haqida xabardor qilish ishonchnoma bergan shaxs huquqi qabul qilib oluvchilar zimmasiga yuklanadi.

Ishonchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs tomonidan qilingan harakatlar to'g'risida FKning 142-144-moddalarida mulkning yo'qolishi yoki zararlanishi sababli ko'rilgan ziyonlarni jabrlanuvchiga to'laydi. Ishonchomaning bekor qilinganligi bilguniga yoki bilishi lozim bo'lguniga qadar ishonchnoma bergan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan qilingan harakatlar ishonchnoma beruvchi uchun yoki uning huquqlarini oluvchilar uchun o'z kuchini saqlab qoladi.

Ishonchnoma olgan shaxs tomonidan uning ishonchnoma bekor qilingan yoki tugatilganini bilganidan yoki bilishi lozim bo'lgan vaqtdan so'ng qilingan harakatlar vakolatnoma beruvchi uchun huquq va majburiyat tug'dirmaydi. Ishonchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs yoki uning vorislari (huquq va majburiyat oluvchilar) ishonchnomani darhol qaytarishlari lozim.

Ishonchnomaning bekor qilinishi bilan bu ishonchnoma yuzasidan boshqa shaxslarga topshirilgan vakolat (o'tkazilgan vakolat) ham o'z kuchini yo'qotadi.

Nazorat uchun savollar

1. Vakilga vakolat beruvchi nomidan barcha huquq va majburiyatlarini amalga oshirish huquqini beruvchi vakolat vakillikning qaysi turiga xos, bunday vakillikning muhim jihatlari nimalardan iborat?

2. Vakillikning o'ziga xos turlaridan biri qonuniy vakillik sanaladi. Qonuniy vakillar sifatida kimlar ishtirok etishi va ularning vakolat doirasi nimadan iboratligini tahlil qiling?

3. Tijorat vakilligining qo'llanilish sohalari, vakillikning boshqa turlaridan farqi hamda tijorat vakilining huquq va majburiyatlari doirasini tavsiflang?

4. Ishonchnomani yuridik tabiati, uning turlari va qo'llanilish asoslari hamda tartibini tahlil qiling?

5. Uzoq muddatga safarga ketayotgan Nurovlar oilasi qo'shnisi K.Komilovga uyiga, mollariga qarab turishni, ular kelishgandan so'ng buning haqini to'lashlarini aytishadi. K.Komilov qo'shnisining mollari yem-xashak olish maqsadida uning uyidagi ayrim mol-mulklarni sotadi. Safardan qaytib kelgan Nurovlar oilasi sotilgan mol-mulklarni qaytarishni, ularni sotishga vakolat bermaganliklarini, agar qaytarmasa sudga murojaat etishlarini bildiradilar. K.Komilov esa mollariga berishga yem-xashak qolmaganligi bois bu ishni amalga oshirganligini, aksincha bo'lganda bunday harakat qilmasligini, kelishuv bo'yicha uning uyiga, mollariga qarab turganligi uchun haq to'lashlarini so'raydi. O'rtadagi nizo bo'yicha sudga murojaat etadilar.

Taraflarning vajlariga huquqiy baho bering? Vakilning harakatlari to'g'rimi? Masala qanday hal qilinadi?

6. Mustafoyev pochta xabarnomasini oladi. Ulardan biri xotini Mustafoyeva Jamila nomiga, ikkinchisi 10 yashar o'g'li Ulug'bek Mustafoyev nomiga kelgan jo'nalma edi. Xotini va o'g'li qishloqda dam olayotganligi uchun Mustafoyev xotininig pasportini, nikoh qog'ozini va o'zining pasportini olib, pochtaga kelib jo'natmalarni berishni iltimos qiladi. Lekin, pochta boshlig'i fuqaro Mustafoyevdan o'g'li va xotini tomonidan berilgan ishonchnomani talab qiladi.

Pochta boshlig'ining talabi to'g'rimi? Bu vaziyatda qonuniy vakillik qo'llanilishi mumkinmi? Mustafoyev o'z xotiniga nisbatan qonuniy vakil bo'lishi mumkinmi?

10-MAVZU. FUQAROLIK HUQUQIDA MUDDATLAR VA DA'VO MUDDATI

Muddatlar tushunchasi va ahamiyati. Muddatlarning turlari. Muddatlarni hisoblash asoslari va tartibi. Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati. Da'vo muddatining turlari. Da'vo muddatining o'ta boshlashi. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi. Da'vo muddati o'tishining oqibatlari. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.

Muddatlar tushunchasi va ahamiyati

Ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda fuqarolik huquqining boshqa institutlari kabi "muddatlar va da'vo muddati" instituti ham muhim ahamiyatga ega. Aynan muddatlar orqali fuqarolik huquqida "aniqlik", "vaqt", "majburiyatlarni lozim darajada bajarish", "sub'ektlarning o'z huquqlariga e'tiborli bo'lishlari", "xatti-harakatlarni bajarishda kechikmaslik" holatlari e'tiborga ega bo'ladi va har bir fuqarolik-huquqiy munosabatlar uchun zaruriy shartlardan biri sanaladi. Shu bilan birga muddatlar subyekt va obyektning o'zaro bog'liqligida muhim o'ringa ega bo'lib, shaxsning obyektga nisbatan huquqlari va majburiyatlari amal qilishining eng ko'p va kam vaqtini belgilab beradi. Masalan, subyektlarning mol-mulkka nisbatan mulk huquqi muddatsizligi (FKning 164-moddasi) yoki ijarachining ijaraga olingan ashyoga egalik qilish muddatining taraflarning roziligi bilan belgilanishi va hokazo.

Har qanday muddat ham aniq belgilangan (mavhum yoki belgilanmagan vaqt huquqiy ahamiyatga ega emas) vaqt hisoblanadi. Vaqtning doimiy harakati muddat o'tishi boshlanishi va tamom bo'lishini yuzaga keltiradi. Mantiqiy nuqtayi nazardan qaraganda, muddat belgilangan vaqtdan o'ta boshlaydi, ma'lum payt (davr)dan so'ng tamom bo'ladi. Aynan shunday vaqt ham muayyan voqea-hodisa yoki sana bilan belgilangach, o'ta boshlaydi va belgilangan davr (payt)da u tugaydi. Shuning uchun ham muddat tushunchasi fuqarolik huquqida faqatgina aniq belgilangan vaqt tushunchasi bilan ayniy hisoblanadi. Ikkinchidan, boshlanishi va o'tishi belgilangan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan paytlar va vaqt davrlarigina muddat hisoblanishi, vaqt aniq belgilanishi

bilan birga, huquqiy oqibatlar vujudga keltirishi lozimligini ifodalaydi. *Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq, mahsulot yetkazib berish payti sifatida 1 mart belgilangan bo'lsa, aynan shu paytdan boshlab mahsulot yetkazib berishni kechiktirganlik uchun, kechiktirishning har bir kuniga qonunda nazarda tutilgan miqdordagi penyani to'lash nazarda tutiladi.*

Muddatning o'tib ketishi ham biror huquqiy oqibatni vujudga keltirishi lozim. *Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 895-moddasiga muvofiq, yuk topshiruvchi ashyolarni qaytarib olishdan bosh tortgan taqdirda lombard ularni uch oy mobaynida saqlab turishi shart. Bu muddat o'tganidan keyin lombardda talab qilib olinmagan ashyoni qonunda belgilangan tartibda sotish huquqi vujudga keladi.*

Mazkur holatlardan kelib chiqib, muddatlar tushunchasini quyidagicha bayon etish mumkin:

Fuqarolik huquqida muddat deb, aniq belgilangan, o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishga qaratilgan paytlar va vaqt davrlariga aytiladi.

Muddat huquqiy oqibat tug'dirishi, huquq va burchlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish mumkinligi uchun ham ularni yuridik fakt deb atash mumkin bo'ladi. Muddatlar yuridik faktlar tizimida alohida o'ringa ega.

Yuridik faktlar fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi. Har qanday harakatlar ham yuridik fakt hisoblanmaydi. Faqatgina yuz berishi natijasida fuqarolik huquqiy munosabatni vujudga keltirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin bo'lgan harakatlarga yuridik fakt bo'lishi mumkin.

Muddatlarning turlari

Fuqarolik huquqida uchraydigan juda ko'plab muddatlar bir necha asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi.

Muddatlar muddatning kim tomonidan tayinlanishiga ko'ra, huquqiy oqibatiga ko'ra, aniqlanish tavsifiga ko'ra va boshqa bir qator asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi.

Muddatlar kim tomonidan tayinlanishiga ko'ra, uchga bo'linadi:

- 1) qonuniy muddatlar;
- 2) shartnomali muddatlar;

3) sud tomonidan belgilanadigan muddatlar.

Muddatlarning bunday asosga ko'ra bo'linishi, muddatni vujudga keltiruvchi negiz bilan tavsiflanadi. Muddatlarni vujudga keltiruvchi, ya'ni belgilovchi va o'zgartiruvchi holatlar tegishli hujjatlarda ifodalanadi (masalan, qonun, shartnoma yoki sudning hal qiluv qarorida).


Huquqiy oqibatiga ko'ra, muddatlar huquqni vujudga keltiruvchi, huquqni o'zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi muddatlarga bo'linadi.


Muddatlar o'zlarining aniqlanish tavsifiga ko'ra imperativ va dispozitiv, mutlaq aniq, qisman aniq va noaniq, umumiy va maxsus hamda boshqa muddatlarga ajratiladi.

Fuqarolik huquqida fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlarining quyidagi turlari mavjud: fuqarolik huquqlarini amalga bo'lish vaqtini belgilaydigan muddatlar, cheklovchi (preklyuziv) muddatlar, e'tiroz (pretenziya) muddatlari, kafolat muddati, yaroqlilik muddati, tovarning xizmat qilish muddati, tovardan foydalanish, tovarni saqlash muddati va boshqa muddatlar.

Majburiyatlarni bajarish muddatlari. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari bilan birga fuqarolik huquqida u bilan uzviy bog'liq bo'lgan fuqarolik majburiyatlarini bajarish muddatlari ham mavjud. Har qanday fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda vaqt muhim ahamiyatga ega bo'lganidek, majburiyatlarni bajarishda ham vaqt alohida o'rinni egallaydi. Zero, subyektga tegishli huquq bilan bir vaqtda shu huquq bilan yonma-yon majburiyat ham mavjud bo'ladi. Bir shaxsning huquqini amalga oshirish muddati ikkinchi shaxsning majburiyatni bajarish muddati hisoblanadi.

Masalan, qarz shartnomasiga muvofiq, 1 may kuni olingan qarz 3 oy o'tgach, ya'ni 1 avgustda qaytarilishi bir vaqtning o'zida ham huquqni amalga oshirish muddatini, ham majburiyatni bajarish muddatini ifodalaydi.





Muddatlarni hisoblash asoslari va tartibi

FKning 145-moddasiga muvofiq muddatlar aniq kalendar sana (masalan, 2014 yil 3 noyabrda yoki 2014 yil 3 noyabrdan yoxud 2015 yil 3 maygacha) bilan, vaqt davrlari: yillar (masalan, uy-joy besh yil ijaraga berilishi mumkin), oylar (masalan, pudrat shartnomasiga ko'ra, pudratchi olti oy ichida ishning natijasini topshirishi lozim), haftalar (masalan, fuqaro bilan besh hafta mobaynida sut yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzilishi mumkin), kunlar (fuqaro bilan besh kun mehmonxonada yashash to'g'risida shartnoma tuziladi), soatlar (masalan, katamaran bir soatga prokatga beriladi) bilan belgilanadi.

Shu bilan birga muddat muqarrar yuz berishi kerak bo'lgan voqeani ko'rsatish bilan ham belgilanishi mumkin (masalan, umrbod renta shartnomasining muddati renta oluvchi yoki u ko'rsatgan shaxs hayot bo'lgan davrgacha tuziladi). Muqarrar yuz berishi kerak bo'lgan voqea bilan belgilanadigan muddatlar shartnomalar, bitimlarda foydalaniladigan hodisalardan farq qilib, bunda fuqarolik-huquqiy munosabati ishtirokchilari voqea ro'y berishining aniq vaqtini bilmaydilar. *Masalan, umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasining muddati boshqa shaxsga beruvchi vafotiga qadar davom etadi. Garchi boshqa shaxsga beruvchi fuqaroning vafot etishi muqarrar yuz berishi kerak bo'lgan voqea hisoblanmada, uning qachon ro'y berishi aniq bo'lmaydi.*

Muddatlar belgilanishi va hisoblanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: o'rnatilgan vaqt davrlari (yillar, oylar, haftalar va shunga o'xshash) bilan belgilanadigan muddatlar va aniq payt (to'lovni amalga oshirish kuni, ishni bajarishning aniq sanasi) bilan belgilanadigan muddatlar. Odatda, aniq payt bilan belgilanadigan muddatlar vaqt oralig'i bilan belgilanadigan muddatlar kabi o'tishi boshlanmaydi, faqatgina belgilangan paytdagina uning o'tishi boshlanadi va ularni boshlanish vaqtini aniqlash hech qanday

qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu bilan birga hisoblash qiyinchilik tug'dirmaydigan holatlardan yana biri boshlanishi va tamom bo'lishi aniq kalendar sana bilan belgilanadigan muddatlar (masalan, televizorni 1 iyundan 1 oktyabrgacha prokatga olish) yoki soatlar bilan hisoblanadigan muddatlar (bu muddatlar shartnomada belgilangan paytdan boshlanadi va soatlar bilan hisoblanadi. *Masalan, qayiq prokatga berilgan paytdan boshlab soatlar bilan hisoblanadi yoxud kunlar bilan hisoblanadigan muddatlar. Bunda tegishli huquqiy munosabat shartlariga ko'ra hamma kunlar, shu jumladan muddatlar boshlanishining birinchi kuni ham hisoblanishi lozim. Masalan, fotoapparat dushanba kuni besh kunga prokatga berildi va agar to'lov hamma kun uchun, shuningdek fotoapparat berilgan kun uchun amalga oshirilsa, muddat chorshanba kuni tamom bo'ladi.*

Bu muddatlarni hisoblash vaqt oralig'i hisoblanishini nazarda tutmaydigan hollarda muddatning birinchi kuni ham yillar, oylar, haftalar va hatto kunlar bilan belgilanganda qiyinchilik tug'diradi.

FKning 146-moddasi umumiy qoida tarzida vaqt davri bilan belgilangan muddat kalendar sanadan keyingi yoki uning boshlanish kuni deb belgilangan voqea yuz berganidan keyingi kundan o'ta boshlashini belgilaydi. *Masalan, pudrat shartnomasiga muvofiq ishning natijasini qabul qilish uchun besh kunlik muddat belgilangan bo'lsa, bu muddat ish bajarilishi to'g'risida buyurtmachi ogohlantirilgan kunning ertasidan boshlab hisoblanadi. Bunda ishning natijalarini qabul qilib olish to'g'risida buyurtmachi 17 may kuni ogohlantirilsa, muddatning o'tishi 18 maydan boshlanadi va 22 may kuni tamom bo'ladi. Ushbu qoida muddatlarni hisoblashning aniq tartibini belgilab beradi. Uning ahamiyati shundaki, kalendar bo'yicha yilning boshlanishi va tamom bo'lishi belgilangan vaqtga mos kelmasligi mumkin, ya'ni 1 yanvar va 31 dekabr. Aynan shu holat oylar va haftalar bilan hisoblanadigan muddatlarga ham taalluqlidir. Bunday holatda yillar, oylar va haftalar bilan hisoblanadigan muddatlarga boshlanishi va tamom bo'lishi taraflar uchun maqbul bo'lmagan kunga to'g'ri kelishi bu esa o'z navbatida muddatning oxirgi kunini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, ijara shartnomasi 12 fevral kuni tuzildi va velosiped uch oylik muddatga ijaraga berildi. Agar FKning 146-moddasi mavjud bo'lmaganida edi bu muddatning boshlanishi va tamom bo'lishini aniqlash qiyinchilik tug'dirardi. Bunday muddatning boshlanishi 1 fevral deb hisoblanishi, 1 mart deb ham hisoblanishi, uning tamom bo'lishi esa, 30 aprel deb yoki 31 may deb hisoblanishi mumkin bo'lardi. FKning 146-moddasi qoidalariga muvofiq esa, belgilangan uch oylik muddat kalendar sanasidan keyingi kundan ya'ni, 13 fevraldan o'ta boshlaydi va 13 may kuni tamom bo'ladi.*

Vaqt davri bilan belgilangan muddatning tamom bo'lish paytini aniqlash ham fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. FKning 147-moddasiga muvofiq, yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilidagi tegishli oy va kunda tamom bo'ladi. *Masalan, uch yillik umumiy da'vo muddati 2000 yil 21 fevralda boshlangan bo'lsa, 2003 yil 21 fevralda tamom bo'ladi. Agar muddat kabisa yilining so'nggi kuni 29 fevralda*

boshlangan bo'lsa, unda muddat tegishli yilning tegishli oyining so'nggi kunida ya'ni 28 fevralda tamom bo'ladi.

Yarim yil deb belgilangan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar qo'llaniladi (FKning 147-moddasi, 2-qismi). Bunda yarim yil sifatida oltinchi oyning so'nggi kuni muddat tamom bo'lish payti hisoblanadi. Masalan, 3-may kuni boshlangan yarim yillik muddat 3-noyabr kuni tamom bo'ladi.

Yil choraklari bilan hisoblanadigan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar tatbiq etiladi. Bu holatda yil choragi uch oyga teng deb hisoblanadi, yil choragining hisobi esa, yil boshidan yuritiladi. *Masalan, FKning 520-moddasiga muvofiq doimiy renta yilning har bir choragi tugashi bilan to'lanadi. Agar renta to'lash 2003 yil boshlangan bo'lsa, doimiy renta 2003 yil 31 mart kuni yoki FKning 520-moddasi talablariga ko'ra 31 martdan keyingi kuni 1 aprelda to'lanishi lozim.*

Oylar bilan hisoblanadigan muddat shu muddatning oxirgi oydagi tegishli kunida tugaydi. *Masalan, 15 mayda boshlangan 2 oylik muddat 15 iyulda tamom bo'ladi. Agar tegishli muddatda tegishli kun mavjud bo'lmasa, unda shu oyning so'nggi kuni muddatning tamom bo'lish kuni hisoblanadi. Masalan, 31 may kuni boshlangan muddat qoida bo'yicha 31 iyunda tugashi lozim. Lekin iyun oyining 31 sanasi mavjud emas. Shu munosabat bilan bu muddat 30 iyun kuni tamom bo'ladi. Yarim oy deb belgilangan muddatga kunlar bilan hisoblanadigan muddat deb qaraladi va bu muddat 15 kunga teng bo'ladi.*

Haftalar bilan o'lchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi. *Masalan, ikki haftalik muddat haftaning chorshanba kuni boshlangan bo'lsa, ushbu muddat o'ta boshlaganidan so'ng, ikkinchi chorshanbada tamom bo'ladi va bunda aniq sanalarga qaraganda hafta kunlari muhim ahamiyat kasb etadi.*

Muddatning o'tishi fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishiga, o'zgarishiga va tamom bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda vakolatli shaxsning yoki qarzdorning biror bir harakatning amalga oshirishi yoki oshirmasligi ahamiyatga ega emas. Chunki, muddatning o'tishi bilan yuridik oqibat o'z-o'zidan kelib chiqadi. Ko'pchilik holatlarda muddatlar tegishli xatti-harakatni, huquq yoki majburiyatni belgilash maqsadida amalga oshirishga qaratiladi (masalan, merosni qabul qilib olish muddati, qarzni qaytarish muddati, ijaraga berilgan mulkni qaytarib olish muddati va h.k.).

Bunday holatlarda nafaqat muddatning oxirgi kuni balki, tegishli kunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatni bajarish vaqti ham ko'rsatilishi kerak bo'ladi (FKning 148-moddasi).

Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati

FKning 149-moddasiga muvofiq, da'vo muddati - shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari ushbu huquqlarni sud orqali himoya qilish hisoblanganligi sababli, da'vo ana shu himoyani amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar yoki shartnomada belgilanib qo'yilganidek, ishlarning qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki hakamlar sudi tomonidan himoya qilinadi (FKning 10-moddasi). Bunday himoya va da'vo bir qancha shartlarga javob berishi va qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim. Shuning uchun ham buzilgan fuqarolik huquqlarini da'vo qo'zg'atish orqali himoya qilishda da'vo muddatining ahamiyati katta hisoblanadi.

Huquqi buzilgan shaxs da'vo qo'zg'ata turib nafaqat bu da'vo sud tomonidan qabul qilinishini, shu bilan birga ish sudga ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin. Zero da'vo qo'zg'atishdan asosiy maqsad ham buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Bunday himoyaga erishish va ish sud tomonidan ko'rib chiqilishi uchun fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan quyidagi holatlar talab etiladi: a) da'vo qo'zg'atayotgan shaxs tegishli subyektiv huquqlar sohibi bo'lishi; b) shu bilan birga uning subyektiv huquqlari buzilishi yoki unga putur yetkazilishi; v) bunday buzilish da'vo bo'yicha javobgar sifatida ishga jalb etilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi.

Da'vo muddatlarida belgilangan vaqt davrlari taraflar tomonidan o'zgartirilishi mumkin hisoblanmaydi. Odatda da'vo muddatlari imperativ xarakterga ega bo'ladi, taraflar ularni o'z istak xohishlari asosida uzaytirishga yoki qisqartirishga haqli bo'lmaydilar. Shu bilan birga huquqiy munosabat ishtirokchilari da'vo muddatining boshlanish paytini, uning qancha vaqtgacha davom etishini qonunda belgilangan muddatdan ko'p yoki kam qilib belgilashlari mumkin emas. FKning 152-moddasiga biror da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilmaydi. Bunday o'zgartirish qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi. Bu qoida shunday ma'noni anglatadiki, agar javobgar sudga da'vo muddati o'tib ketganligini bildirmasa, sud da'vogar va javobgar o'rtasidagi nizoni mazmunan ko'rib chiqish va hal qiluv qarori chiqarishi lozim. Bunda da'vo muddatining o'tib ketganlik holati ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ushbu holatda taraflar o'zaro bitim tuzish paytida, ular o'rtasidagi bitim yoki shartnomaga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmasligi to'g'risida kelishuvga erishsalar, bunday kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydi.

Da'vo muddati institutining maqsadi kimnidir jazolash yoki kim uchundir noqulaylik vujudga keltirish hisoblanmaydi. Bu institutning maqsadi va vazifasi huquqiy munosabatlarni buzmasdan, ular ko'lamiga ta'sir etmasdan huquqiy munosabatlardagi noaniqliklarni bartaraf etishdir.

Da'vo muddatining turlari

Fuqarolik qonun hujjatlari da'vo muddatlarining ikki xil ko'rinishini belgilaydi. Bunday tartib qadimgi Rim fuqarolik huquqida yaratilgan bo'lib, Rim huquqi asos bo'lgan kontinental huquq tizimiga mansub davlatlarning ko'pchiligida amal qiladi. Masalan, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarda ham da'vo muddatlari ikki ko'rinishda mavjud.

FK da'vo muddatlarini to'g'ridan to'g'ri: umumiy va maxsus da'vo muddatlariga bo'ladi. Lekin ularning tushunchasiga to'xtalib o'tmaydi. Faqatgina umumiy va maxsus da'vo muddatlari mavjudligini, hamda ularning amal qilish vaqtini ifodalaydi.

Umumiy da'vo muddatlari qonun hujjatlari tomonidan oldindan belgilanmagan muddatlar mavjud bo'lmagan barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladi. Bunda eng asosiy e'tibor tegishli fuqarolik-huquqiy munosabatga nisbatan qonun muayyan muddatni ko'zda tutmaganligiga qaratiladi. Agar qonun hujjatlarida fuqarolik-huquqiy munosabatga oid muddat belgilanmagan bo'lsa, unga nisbatan faqatgina umumiy va yagona da'vo muddati qo'llaniladi. Shu munosabat bilan bunday muddatlar (muddat alohida yoki oldindan o'rnatilgan tartib asosida belgilanmagan munosabatlarga tatbiq etiladigan) umumiy da'vo muddati hisoblanadi.

FKning 150-moddasiga muvofiq, umumiy da'vo muddati uch yildan iborat. Bu muddat o'z nomidan ko'rinib turibdiki, fuqarolar va yuridik shaxslar uchun bir xilda "umumiydir".

Maxsus da'vo muddatlari. Umumiy da'vo muddatlaridan farq qilib, maxsus da'vo muddatlari qonun hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan talablarga nisbatan qo'llaniladi. Bu muddatlar umumiy da'vo muddatiga qaraganda kamroq vaqt davom etganligi uchun, ular qisqartirilgan da'vo muddatlari deb ham yuritiladi. FKning 151-moddasi esa ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkinligini qayd etadi. Lekin bu "mumkinlik" amaliyotda faqatgina muddatning qisqartilishiga nisbatan qo'llanilishini hisobga olganda maxsus da'vo muddatlarining qisqartirilgan da'vo muddati deb nomlanishi asosli ekanligini ko'ramiz.

Maxsus da'vo muddatlari faqatgina qonun hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda qo'llaniladi va xuddi umumiy da'vo muddatlari kabi imperativ xarakter kasb etadi. Ya'ni taraflar o'z xohishlari asosida bunday muddatlarni huquqiy munosabatga nisbatan tatbiq etishlari mumkin emas. *Masalan, FKning 724-moddasiga muvofiq, tashuvchiga nisbatan yuk tashishdan kelib chiqadigan da'voni qo'zg'atishdan oldin unga tegishli transport ustavi yoki kodeksida nazarda tutilgan tartibda talab qo'yilgan bo'lishi shart.*

Maxsus da'vo muddatlarining belgilanishidan asosiy maqsad muayyan huquqiy munosabatni tez va to'g'ri hal qilish, hamda har bir holat yuzasidan asosli va to'g'ri qaror chiqarishdan iborat.

Da'vo muddatining o'ta boshlashi

Da'vo muddatini hisoblashda uning qaysi paytdan boshlanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zero, vaqt davri bilan hisoblanadigan muddatlarda belgilangan vaqtning tamom bo'lish payti huquqiy oqibat tug'dirishini nazarda tutib, hisoblashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun uni boshlanish paytini bilish huquqiy munosabat ishtirokchilari uchun zaruriy omil sifatida e'tirof etiladi. Shaxsning o'z huquqini amalga oshirish, buzilgan huquqini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni talab etish imkoniyatidan foydalanish qancha muddatgacha unda mavjudligini bilishi uchun, u o'zida bu imkoniyat qaysi paytdan boshlab vujudga kelganligini aniqlab olishi lozim.

FKning 154-moddasiga muvofiq, da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi.

Da'vo qilish huquqi vujudga kelmasdan turib, da'vo muddatining o'ta boshlashi masalasi ham namoyon bo'lmaydi. Da'vo muddati da'voga

bo'lgan huquqining tamom bo'lish paytini belgilaydi (moddiy ma'noda). Bunda da'vo qilish huquqi vujudga kelmasdan turib, uning tamom bo'lish muddatining o'ta boshlashi ham mumkin bo'lmaydi.

Shaxslarning subyektiv huquqlari va manfaatlarida uyg'unlik va umumiylik mavjud bo'lgan hollarda da'vo muddatining o'ta boshlash paytini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zero, ko'pchilik hollarda bir necha shaxslarga tegishli huquq buzilganda da'vo muddati o'ta boshlagan paytni aniqlash ham bir muncha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Masalan, majburiyatda shaxslarning ko'pchilik bo'lib ishtirok etishlari yoki umumiy mulkka nisbatan huquqlarning buzilishi va hokazo. Bunday hollarda bir necha shaxslardan birining huquqlari buzilganligini bilishi boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan da'vo muddatining o'ta boshlashini bildiradi. Hammualliflardan biriga tegishli huquqlarning buzilishi bilan asarga nisbatan mualliflik huquqlarining buzilishi sodir bo'ladi va da'vo muddati faqatgina huquqi buzilgan shaxsga nisbatan emas barcha mualliflarga nisbatan o'ta boshlaydi. Boshqacha aytganda uchta muallifdan birining ismi sharifi (agar taxallus ostida asar e'lon qilingan bo'lsa taxallusi) noto'g'ri ko'rsatilishi uning huquqlari buzilishi va da'vo muddatining o'ta boshlashini bildiradi hamda qolgan ikkita muallifning manfaatlariga putur yetkazib huquqi buzilgan muallif bilan bir vaqtda ularning huquq va manfaatlariga nisbatan da'vo muddati bir paytdan o'ta boshlaydi.

FKning 154-moddasi 3-qismiga ko'ra ijro etish muddati belgilanmagan yoki talab qilish payti ijro etish muddati bilan belgilangan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati kreditorga majburiyatni bajarish to'g'risida talab qo'yish huquqi paydo bo'lgan vaqtdan o'ta boshlaydi, bordi-yu, qarzdorga bunday talabni bajarish uchun imtiyozli muddat berilsa da'vo muddati imtiyozli muddat tamom bo'lgandan keyin hisoblana boshlaydi.

Majburiyatni bajarish uchun qarzdorga imtiyozli muddat berilishi FKning 154-moddasi ikkinchi qismida belgilangan, lekin bunday imtiyozli muddatning kim tomonidan berilishi va bu muddat qancha vaqt davom etishi qonun hujjatlarida aniq ifodalanmagan. Bunday imtiyozli muddat kreditor tomonidan berilishi lozim. Agar kreditorning majburiyatini bajarish haqidagi imtiyozli muddat sud tomonidan belgilansa, unda majburiyatni ijro etish ma'muriy tartibda hokimiyat organining majburlov kuchi bilan amalga oshiriladigan harakat sifatida ko'riladi va bunday holatlarga nisbatan FKning 154-moddasi ikkinchi qismi qoidalari qo'llanilmaydi.

Regress majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati asosiy majburiyat bajarilgan paytdan o'ta boshlaydi (FKning 154-moddasi 3-qismi). Regress majburiyatlarda asosiy majburiyat deganda, regress talab qilishi mumkin bo'lgan shaxs tomonidan bajarilgan va bevosita uchinchi shaxslarga nisbatan yuklatilishi nazarda tutiladigan majburiyat tushiniladi. *Masalan, sherik qarzdorning boshqa qarzdorlar majburiyatini bajarishi, uning asosiy majburiyatni bajarishi deb tushuniladi. Avtokorxon haydovchisining uchinchi shaxslarga yetkazgan zarari regress majburiyat qo'llanilganda asosiy majburiyat sanaladi. Bu holatda regress talab qilish huquqi asosiy majburiyat bajarilgan vaqtdan o'ta boshlaydi. Chunki, regress talab qilishi huquqiga ega shaxs shu paytdan boshlab, o'zining huquqlari buzilganligini biladi.*

Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi

FKning 156-moddasiga muvofiq, da'vo muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) agar da'vo qo'zg'atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmas kuch) to'sqinlik qilgan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirganligi (moratoriy) tufayli;

3) agar da'vog'ar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan qurolli Kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi holatlari turli davlatlar fuqarolik qonun hujjatlarida turli xil qilib belgilangan. *Masalan, Rossiya Federastiyasi Fuqarolik kodeksida da'vo muddati o'tishining asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidan farq qilib to'rtta banddan iborat qilib belgilangan bo'lsa va bu davlat FKda "muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasligi" sababli da'vo muddatining o'tishi to'xtatish holati mavjud emas. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksi mamlakatimiz FK kabi da'vo muddati o'tishining to'xtatishini beshta asosdan iborat qilib belgilagan. Rossiya FKda muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasligi da'vo muddati o'tishining to'xtatish holatining mavjud emasligi shu bilan izohlash mumkinki, muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari mavjud bo'lmaganligi tufayli da'vo muddati o'tkazib yuborilish holatini sud uzrli sabab deb topib, o'tkazib yuborilgan da'vo muddatini qayta tiklaydi. Shu munosabat bilan bu holatni da'vo muddati o'tishi to'xtatishining zaruriy bo'lgan fakti sifatida qarash shart emas.*

Muddatning to'xtatilishiga turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi.

FKning 158-moddasi da'vo muddati o'tishi to'xtatilishiga asos bo'ladigan yana bir holatni nazarda tutadi. Unga muvofiq, agar jinoyat ishi bo'yicha qo'zg'atilgan da'vo sud tomonidan ko'rilmadan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati da'voni ko'rmasdan qoldirgan hukm qonuniy kuchga kirgunicha to'xtatib turiladi, da'vo muddati to'xtatib turilgan vaqt da'vo muddatiga qo'shilmaydi. Bunda muddatning qolgan qismi olti oydan kam bo'lsa, u olti oygacha uzaytiriladi.

Agar da'vo sud tomonidan ko'rilmadan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati umumiy tartibda davom etadi (FKning 158-moddasi 1-qismi).

Ma'lumki, fuqarolik huquqida da'vo muddati o'tishining *to'xtatilishi* da'vo muddati o'tishining *uzilishidan* farqlanadi. Agar da'vo muddati to'xtatilganda da'vo muddati to'xtab qolgan muddatdan davom etsa, da'vo muddati uzilganda u da'vo muddatining qaysi paytida uzilganidan qat'i nazar yangidan boshlanadi. Shuningdek, da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi shaxsning erk-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar natijasida vujudga kelsa, da'vo muddatining uzilishi qarzdor yoki kreditorning erki-irodasiga asoslangan harakat natijasida vujudga keladi.

Da'vo muddati o'tishining uzilishi uzilish uchun asos bo'lgan holatlar vujudga kelgunga qadar o'tgan muddat da'vo muddati tarkibiga kiritilmasligi va da'vo muddati yangidan boshlanishini bildiradi. Da'vo muddati o'tishining uzilish u to'g'risidagi masala butunlay tugaganligini bildirmaydi, aksincha bunda da'vo muddati butunlay yangidan boshlanadi. FKning 157-moddasi da'vo muddati o'tishi uzilishining quyidagi ikki holatini belgilaydi:

- 1) belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan;
- 2) majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan.

Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, da'vo muddati o'tishining uzilishi bilan birgalikda fuqarolik huquqlarini himoya qilishda da'vo muddatining tiklanishi ham alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Da'vo muddatining tiklanishi, da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi va uzilishidan farq qilib, tegishli vakolatli organ tomonidan hal qiladi. Da'vo muddatining tiklanishi bevosita vakolatli davlat organining qaroriga

bog'liq bo'ladi. Agar vakolatli davlat organi mavjud vaziyatga huquqdor shaxsning foydasiga qaror chiqarsa, da'vo muddati tiklanadi va aksinchadir.

O'zbekiston Respublikasi FKning 159-moddasiga ko'ra, basharti, sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi kerak.

Da'vo muddatini o'tkazib yuborish sabablari da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oyga teng yoki olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida yuz bergan bo'lsa, ular uzrli deb hisoblanishi mumkin (FKning 159-moddasi). FKning 159-moddasida belgilangan "da'vo muddatining oxirgi olti oyida jumlasii" dan shunday ma'no anglashiladiki, agar da'vo muddatining o'tkazib yuborilish sabablari da'vo muddati tamom bo'lishidan olti oy oldin sodir etilgan bo'lsa, sud da'vo muddatini tiklamaydi. Zero, da'vo muddatining oxirgi olti oyidan oldin vujudga kelgan, huquqdor shaxsning o'z huquqlarini amalga oshirishga va sud orqali himoya qilishiga to'sqinlik qilgan vaziyatlar da'vo muddatining qolgan qismida bartaraf etilishi va shaxs o'z huquqlari himoyasini amalga oshirishi mumkin deb hisoblandi. *Masalan, fuqaro da'vo muddatining oxirgi sakkiz oyida og'ir kasallandi. Qonun bu vaziyatda sakkiz oylik muddat fuqaroning davolanib o'z huquqlarini himoya qilishiga imkon beradi deb hisoblaydi. Shu munosabat bilan da'vo muddati tugashining olti oyidan oldin vujudga kelgan sabablar tufayli da'vo muddati o'tkazib yuborilganda sud da'vo muddatini tiklamaslikka haqli hisoblanadi.*

Fuqarolik qonun hujjatlarida agar sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilish sabablarini uzrli deb topsa, sudga da'vo muddatini uzaytirish huquqini (majburiyat yuklamaydi) beradi. Muddatning bunday «uzaytirilishi» ko'pchilik holatlarda amaliyotda da'vo muddatining «tiklanishi» - deb ham nomlanadi. Da'vo muddati tiklanishining ahamiyati shundaki, bunday tiklanish natijasida, fuqaro o'zining buzilgan huquqi va putur yetkazilgan qonuniy manfaatini, garchi imkoniyat yo'qotilgan bo'lsada himoya qila oladi.

Da'vo muddati o'tishining oqibatlari

Da'vo muddati o'tkazib yuborilganda shaxs o'zining huquqlarini himoya qilish imkoniyatini yo'qotadi. Ya'ni shaxs qonun tomonidan qat'iy belgilangan vaqt mobaynida o'ziga berilgan imkoniyatdan foydalanmasdan, himoyani talab qilishga bo'lgan o'zining subyektiv huquqini amalga oshirmasa o'zining subyektiv huquqlarini qo'ldan chiqaradi. Da'vo muddatning o'tkazib yuborilishi natijasida, da'voga

bo'lgan moddiy ma'nodagi huquq yo'qotiladi, aniqrog'i da'vo yordamida subyektiv huquqlarning majburiy amalga oshirish imkoniyati bo'lmaydi. Bunday oqibat da'vo muddati o'tgach da'vo qo'zg'atilganda vujudga keladi. Agar da'vo o'z vaqtida qo'zg'atilgan bo'lsa, u nizoni ko'rish jarayoni qancha muddat davom etishidan qat'i nazar da'vo muddati o'tkazib yuborilganligi vaji bilan rad etilishi mumkin emas.

FKning 162-moddasi "asosiy talab bo'yicha da'vo muddati o'tishi bilan qo'shimcha talablar (neustoyka, garov, kafolat va shu kabilar) bo'yicha da'vo muddati ham o'tgan hisoblanishi"ni nazarda tutadi. Garchi, asosiy va qo'shimcha talablarga nisbatan da'vo muddatining amal qilish vaqti turlicha bo'lsada, asosiy da'vo muddatiga nisbatan da'vo muddatining o'tishi qo'shimcha majburiyatga nisbatan huquqlarni amalga oshirish imkoniyatining bekor bo'lishiga olib keladi.

Agar asosiy majburiyatga nisbatan da'vo muddatining tugashi qo'shimcha majburiyatga nisbatan ham da'vo muddatining tugashi olib kelsa, qo'shimcha majburiyatga nisbatan da'vo muddatining o'tishi asosiy majburiyatga nisbatan da'vo muddatining o'tishini anglatmaydi.

FKning 153-moddasiga muvofiq, buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. Zero, sud da'voni ko'rib chiqishga qabul qilib, uning o'tkazib yuborilish sabablarini tekshirib, o'rganib chiqadi. Agar da'vo uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan bo'lsa, sud da'vo muddatini qayta tiklashi lozim. Shu munosabat bilan sud da'vo muddati o'tkazib yuborilgan da'volarni ham ko'rib chiqishi lozimdir. Chunki, da'vo muddatining o'tkazib yuborilish sabablarini faqatgina sud jarayonida aniqlash mumkin.

Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar

Umumiy qoidaga ko'ra da'vo muddati barcha fuqarolik huquqlariga tatbiq etiladi. Deyarli barcha subyektiv fuqarolik huquqlari da'vo muddati davomida amalga oshirilishi va himoya qilinishi lozim. Fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda da'vo muddatining tatbiq etilishi ularning mulkiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda da'vo muddati mulk huquqi asosida vujudga keladigan hamda majburiyat huquqiy-munosabatlarida tatbiq etiladi. Lekin istisno tariqasida da'vo muddati qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bir qator

talablarga qo'llanmaydi. FKning 163-moddasiga muvofiq, da'vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:

- shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

- fuqaroning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga. Da'vo muddati o'tganidan keyin qo'zg'atilgan talablar da'vo qo'zg'atishidan oldingi ko'pi bilan uch yil bo'yicha qondiriladi;

- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;

- mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlarni, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni (FKning 231-moddasi), bartaraf etish haqidagi talablariga;

- mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;

- qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga.

Nazorat uchun savollar:

1. Fuqarolik huquqida muddatlarni turlarga bo'lish (klassifikatsiya qilish) asoslari va mezonlari turlichadir. Mazkur holatdan kelib chiqib, aniq amaliy ahamiyat kasb etishi nuqtai nazaridan fuqarolik huquqidagi muddatlarning alohida turlarini tahlil qiling?

2. Da'vo muddati buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish muddatlari orasida alohida o'rin tutadi. Shu bois da'vo muddatining buzilgan huquqlarni himoya qilishdagi protsessual muddatlardan farqlarini izohlang?

3. Fuqaro To'xtayeva qo'shnisi Aliyevadan foydalanib, qaytarib berish sharti bilan bir soatga changyutgich oldi. Yarim soatdan so'ng uyni tozalab bo'lgach To'xtayeva changyutgichni qo'shnisiniki olib chiqsa, Aliyeva uyda yo'q ekan. Bir ozdan so'ng To'xtayeva oila a'zolari bilan chet elga dam olishga jo'nab ketdi va oradan ikki oy o'tgach qaytib keldi.

Aliyeva changyutgichni so'rab, qo'shnisinikiga chiqsa uni topa olmadi. Bir hafta o'tgach Aliyeva o'zining chang yutgichini qaytarib ololmaganligi sababli, uylarni tozalash bo'yicha xizmat ko'rsatadigan

firmaga buyurtma berib uylarini tozalatdi. Bu holat To‘xtayeva chet eldan qaytib kelib changyutgichni topshirgunicha davom etdi. Bu vaqt oralig‘ida Aliyeva 7 marotaba tozalash firmasining xizmatlaridan foydalanishga majbur bo‘ldi.

Aliyeva To‘xtayevaga murojaat qilib changyutgichni qaytarib bermaganligi sababli, tozalash xizmatiga to‘lagan summani qaytarib berishni talab qildi.

To‘xtayeva uzrli va asosli sabablarga ko‘ra dam olish safariga ketganligini, changyutgichni olgandan so‘ng yarim soat o‘tgach uni olib chiqqanligini, lekin Aliyeva uyida yo‘qligini, changyutgichni qaytarib bera olmaganligi uchun Aliyeva aybdorligini, shuning uchun ham tozalash xizmati uchun to‘langan summani qoplamasligini aytdi.

Aliyeva sudga da’vo arizasi bilan murojaat qildi.

Taraflarning vajlarini tahlil qiling va ularga huquqiy baho bering? Sud qanday qaror chiqarishi lozim? Agar sud Aliyeva foydasiga qaror chiqarsa, tozalash firmasiga to‘lanadigan haqning miqdori nimaga asosan aniqlanishi lozim? Tozalash firmasiga to‘lanadigan haqning miqdori changyutgichning qiymatidan oshib ketsa, sud qanday qaror qabul qilishi kerak?

4. Qosimov tanishi Sobirovning iltimosiga ko‘ra avtomashinasini tegishli tartibda rasmiylashtirib, vaqtincha foydalanish uchun beradi. Tomonlar Qosimovning birinchi talabi bilan avtomashinani qaytarish zarurligi to‘g‘risida kelishib oladilar. 2010 yil 16 mayda Qosimov yozma shaklda Sobirovdan avtomashinani qaytarishni talab qiladi, lekin 2 kundan so‘ng Qosimov vafot etadi. Uning xotini Sobirovning mashinani qaytarib bermaganini bilardi, lekin ma’lum sabablar bilan qaytarib berishni talab etmaydi. 2013 yil 20 may kuni Sobirov o‘z tashabbusi bilan avtomashinani qaytarib beradi, lekin bir necha kundan so‘ng buni bilmasdan qilganini ma’lum qiladi va mashinani o‘ziga qaytarilishini talab qiladi, chunki da’vo muddati o‘tib ketganini bilmaydi. Mashina o‘ziga qaytarib berilmasa, Sobirov sudga murojaat qilishini aytadi. Lekin Qosimovning xotini avtomashinani qaytarib berishni rad qiladi.

Taraflarning vajlariga huquqiy baho bering? Da’vo muddatining uzilishi va qayta tiklanishi qoidalari ushbu masalaga aloqadormi? Ish agar sudda ko‘rib chiqilsa, kimning foydasiga hal bo‘lardi?

11-MAVZU. MULK HUQUQI

Mulk huquqi tushunchasi va mazmuni. Ashyoviy huquqlar. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari.

Mulk huquqi tushunchasi va mazmuni

Majburiyat huquqlari bilan ashoviy huquqlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun xizmat qiladilar. Shu ma'noda ashoviy huquqlar mulk muayyan subyekt tomonidan egallanishini, unga mansubligini tavsiflab beruvchi iqtisodiy munosabatlarni, ya'ni doimiy muvozanat (statik) holatini ifodalovchi munosabatlarni, majburiyat huquqlari esa bir shaxsdan ikkinchi shaxsga tovar harakati, mol-mulk o'tishi jarayonini, ya'ni dinamik munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qiladilar. Ashoviy huquqlar mohiyatini va ularning boshqa fuqarolik huquqlardan farqini to'laroq tushunish uchun ashoviy huquqlarning bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratish lozim.

Ashoviy huquq mutlaq (absolyut) huquqdir. Ashoviy huquqlarning mutlaqligi, ushbu huquqlarning (mulk huquqi, xo'jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi, servitut va boshqalar) subyektini, uning ashoviga nisbatan huquqini buzmaslikka majbur subyektlarning cheklanmagan doirasiga qarshi turganligidir. Bunga qarama-qarshi majburiyat huquqlari egalariga u bilan majburiyat munosabatlarda bo'lgan shaxslarning cheklangan guruhi qarshi turadi.

Ashoviy huquqlarning navbatdagi farqlovchi xususiyati bo'lib, uning obyektini hisoblanadi. Majburiyat huquqlardan farqli o'laroq ashoviy huquqlarning obyektini bo'lib xususiy alomati bilan belgilangan ashovilar hisoblanadi. Turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashovilar, nomoddiy ne'matlar ashoviy huquqlarning obyektini bo'lmaydi.

Majburiyat huquqlardan farqlanib ashoviy huquqlar qonun bilan o'rnatiladi. Ushbu holda qonun deb FK va o'ziga qonunlar tushuniladi. Fuqarolik huquq subyektlari shartnoma va boshqa bitimlar asosida ashoviy huquqlarning yangi turlarini vujudga keltirish huquqi yo'qligini alohida ta'kidlash lozim. Aksincha, majburiyat munosabatlari ishtirokchilari qonunda nazarda tutilgan ham, tutilmagan ham, lekin unga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish huquqiga ega.

Ashoviy huquqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib ergashma huquq hisoblanadi. Ergashma huquqning mohiyati ashoviga

nisbatan mulk huquqi va o'zga ashyoviy huquqlar boshqa shaxsga o'tishi ushbu huquqlar tugatilishiga asos bo'lib hisoblanmasligidir. FK 169-moddasining ikkinchi qismiga binoan mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi. Agar ashyo oldi-sotdi shartnomasiga asosan boshqa subyektga o'tgan bo'lsa, ashyoviy huquq uning ortidan borishda davom etadi. Bu borada fuqarolik huquqi nazariyasida, shak-shubhasiz, mulkka nisbatan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishi, ushbu mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarni tugatilishi uchun asos emasligi e'tirof qilingan.

Mulk huquqi o'zga ashyoviy huquqlar tizimiga asos soluvchi (boshlang'ich) hisoblanadi. Boshqa huquqlar ushbu huquqdan vujudga kelish xarakteriga egadir. Mulk huquqi ashyoviy huquqning barcha alomatlariga ega bo'lib, muddatsiz hisoblanadi.

Mulk huquqining tushunchasi FKning 164-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Mulk huquqi obyektiv va subyektiv jihatidan ko'rib chiqilishi mumkin. Obyektiv jihatidan mulk huquqi mulkdor tomonidan o'z mulkiga egallik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar tizimini tashkil etadi. Bu nuqtayi nazarda mulk huquqi – fuqarolik huquqining markaziy va asosiy institutidir. Har qanday subyektiv huquq kabi subyektiv jihatidan mulk huquqi ham, qonun tomonidan boshqarishga vakolat berilgan shaxsning ma'lum harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidir. Ushbu nuqtayi nazardan u o'z egasiga – mulkdoriga unga tegishli bo'lgan mulk xususiyati va foydalanish imkoniyatlarini belgilash va unga nisbatan to'liq xo'jalik hukmronligini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Xorijiy mamlakatlarda mulk huquqiga oid qoidalarga e'tibor qaratsak, shu narsa ma'lum bo'ladi, xorijiy mamlakatlarda mulk huquqining turli konstruksiyalarni klassifikatsiya qilishning yagona universal asosi belgilanmagan. Shu bilan birga, pretsedentlarga yo'naltirilgan ingliz umumiy huquqini qabul qilgan AQShda mulkchilik munosabatlar garchi Konstitutsiya darajasida nazarda tutilsa (AQSh Konstitutsiyasiga V, XIV qo'shimchalar), biroq uning rivojlanishi va keng ifodalanishi alohida shtatlarning qonunchiligi va sud qarorlarida

mustahkamlangan. Qolaversa, fuqarolik huquqi nazariyasi nuqtai nazaridan amerika mulk huquqi modelining asosida ushbu huquqning sub'ektiv tarkibi masalasi yotadi. AQSh mulk huquqi modelini oddiy va murakkab tuzilishli turlarga ajratish mumkin¹. Oddiy yoki soddalashtirilgan model “bitta ashyoga – bitta to‘la huquqli mulkdor” tamoyiliga asoslanadi. Bu konstruksiyada mazkur ashyoga u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan har qanday boshqa shaxslar “boshqa huquqli” shaxslar hisoblanadi va ashyoning mulkdori o‘zining egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishga dior vakolatlari yakka o‘zi amalga oshiradi. Shu ma’noda mulk huquqi mutlaq tus (fee simple absolute) kasb etadi.

Angliyada 1925 yilda “Mol-mulk to‘g‘risida”gi Qonun (Law of Property Act 1925) qabul qilingan. Mazkur qonunda mulk huquqi mutlaq tusga egaligi nazarda tutilgan. Angliyalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, ingliz mulk va egalik qilish huquqi rim huquqidagi ayniy tushunchalarga mos kelmaydi, ingliz huquqi mutlaq emas, ustuvor vakolatlarni belgilash tizimi hisoblanadi².

Germaniya Fuqarolik Tuzuklari (GFT) da mulk yoki xususiy mulk atamasilarning izohi berilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Germaniya fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra, mulk huquqi keng mazmunli ashyoviy huquqning bir turi bo‘lib, faqat egasiga o‘ziga tegishli mol-mulkdan foydalanish yo‘nalishini belgilash, mol-mulkka nisbatan to‘liq xo‘jalik hukmronligini amalga oshirish imkoniyati beradi. GFTda mulk huquqi tushunchasi berilmagan, aksincha, mazkur tushuncha mulk huquqining mazmunini bayon etish yo‘li bilan izohlangan. Shunga qaramasdan, GFTning 903-moddasida mulk huquqining fuqarolik-huquqiy ta’rif mavjud. Unga ko‘ra, ashyoning egasi qonun yoki uchinchi shaxslarning huquqlari to‘sqinlik qilmaydigan darajada ashyoni o‘z xohishi bo‘yicha tasarruf etishi va boshqa shaxs tomonidan har qanjay ta'sirni bartaraf etishi mumkin. Mazkur ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, GFTda mulk huquqi alohida vakolatlarning oddiy yig‘indisi emas, balki o‘ziga xos alohida huquq sifatida belgilangan³.

Ingliz-amerika huquq tizimidan farqli ularoq, O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi mansub bo‘lgan qit’a huquq tizimida mulk huquqi “bitta ashyo – bitta mulkdor” oddiy mulk huquqi modeliga tayanadi. Ingliz-amerika tizimida “taqsimlangan mulk” modeli hukmronlik qilib, unga muvofiq bitta mulkka bir necha shaxslarning huquqi e’tirof

¹ Joseph William Singer. Introduction to property. Aspen Publishers. – NY, 2005. -13-15,20-22 p.

² Bridge M. G. Personal Property Law. 3rd ed. London, 2002. P. 28 – 29.

³ Ernest Joseph Schuster. The principles of German Civil law// Bibliolife, 2015, -754 p.

etiladi. Mazkur moddada qonun chiqaruvchi qit'a modeli asosida mulk huquqining muhim xususiyatlarini belgilaydi. Shu bois O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, mulkdor tomonidan o'z qonuniy vakolatlarining bir qismini va hatto aksariyat qismini boshqa shaxsga berilishi mulkdorning ashyoga nisbatan mulk huquqini yo'q bo'lishini bildirmaydi. Faqat ashyo boshqaning tasarrufiga o'tganida (sotilganda, almashtirilganda va h.k.), unga nisbatan bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadi. Shunday qilib, milliy mulk huquqi tizimiga muvofiq bitta mulk obyektiga nisbatan bir necha mulkdorlar bo'lishi mumkin emas.

FKning 164-moddasida qonun chiqaruvchi mulkdorning an'anaviy qonuniy huquqlari "triadasi" (mulkga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) bilan bir qatorda mulk huquqining mazmunini ochib berish uchun "o'z ixtiyoriga ko'ra" va "o'z manfaatlarida" kabi mezonlarni ishlatadi. Bu amaldagi FKning o'ziga xos novellasidir.

Mulk huquqining mazmunini ochib berish uchun egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish tushunchalari bilan yanada batafsilroq tanishib chiqish lozim. Shu sababdan ta'kidlash kerakki, oldingilari kabi amaldagi FK ham mulkdorning ushbu huquqlari mazmunini ochib bermaydi. Mulkdorning huquqlari faqat o'z mulkiga nisbatan ma'lum tarzda harakatlar sodir etishning amaldagi imkoniyati bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki uning o'z hukmronligini amalga oshirishning yuridik imkoniyatidir.

Egalik qilish huquqi – shaxsning ashyoga nisbatan yuridik hukmronligi, unga amalda va xo'jalik jihatidan egalik qilishidir. Egalik qilish mulk huquqining zaruriy elementi bo'lib, foydalanish huquqi bilan ajralmas bog'liq, chunki ashyodan mustaqil foydalanish uchun bir vaqtning o'zida unga egalik qilish ham kerak. Mulkka egalik qilishni mulkdor ham, mulkdor bilan shartnoma asosida yoki o'zga huquqiy asoslarda boshqa shaxslar ham amalga oshirishlari mumkin. Masalan, ijara shartnomasi bo'yicha ijarachining, garov shartnomasi bo'yicha garovga beruvchining mol-mulkiga egalik qilish, meros qilib qoldirish asosida umrbod egalik qilish huquqi bo'yicha mol-mulkka egalik qilish, xo'jalik yuritish, operativ boshqaruv va boshq. Bu holda egalik qilish mulk huquqining emas, balki boshqa subyektiv fuqarolik huquqlarning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bizning huquqiy tizimimizda egalik qilish mustaqil ashyoviy huquq hisoblanmaydi.

Ashyoga egalik qilish qonuniy va noqonuniy bo'lishi mumkin. Egalik qilish shartnomaga asoslangan yoki o'zga huquqiy asoslarda (huquqiy titulda) bo'lsa, u qonuniy hisoblanadi. Bunday egalik qilish

mulkdorning egaligi bilan baravar qonunning himoyasida bo‘ladi. Har qaysi huquqiy titulga asoslangan egalik qilish, agar mulkdor yoki u ashyoni egalik qilishga berayotgan shaxs tomonidan qonunchilikning barcha shartlari bajarilganidagina vujudga keladi. Mulkdor bo‘lmagan shaxsning egalik qilish huquqi mulk huquqiga qaraganda hosila va tobe tusga egadir, chunki u mulkdor belgilagan doirada amal qilishi mumkin.

Qonuniy titulga asoslanmagan egalik qilish noqonuniy hisoblanadi. Noqonuniy egalik qilish kimningdir subyektiv fuqarolik huquqlari buzilishini nazarda tutadi, shuning uchun ham qonun tomonidan himoya qilinmaydi. Faqat bir holatdagina, mulk huquqini vujudga keltiruvchi egalik qilish muddatiga asoslangan titulsiz egalik qilish qonun tomonidan himoya qilinadi.

Foydalanish huquqi – ashyodan foydalanish jarayonida uning foydali, xo‘jalik xususiyatlarini yuridik jihatidan ta‘minlangan iste‘mol qilish imkoniyatidir. Foydalanish huquqining mazmuniga ashyo keltiradigan hosil va daromadlarni o‘zlashtirish huquqi ham kiradi. Masalan, FK 92-moddasiga muvofiq, ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, ashyo egasiga tegishlidir.

Foydalanish huquqi egalik qilish huquqiga asoslanadi. Shuning uchun ashyoning foydali xususiyatlarini nafaqat mulkdorlar, balki mulkdor egalik qilish huquqi bilan ushbu huquqlarni taqdim qilgan shaxslar ham olishlari mumkin. Demak, kim mulkka egalik qilsa, u undan foydalanish imkoniyatiga egadir. Chunki, ashyoga egalik qilmasdan, undan foydalanish mumkin emas.

Foydalanish huquqi qonun bilan kafolatlanadi va uchinchi shaxslarning tajovuzidan himoya qilinadi. Bu bilan birga, amaldagi qonunchilik uni amalga oshirish chegaralarini belgilab qo‘yadi. Foydalanish huquqini amalga oshirishda mulkdor va o‘zga titul egalari boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun tomonidan himoya qilinadigan manfaatlarini buzmasliklari kerak, axloqiy tamoyillarni va jamiyatning ma‘naviy me‘yorlarini hurmat qilishlari kerak. Qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga rioya qilinmagan taqdirda, sud shaxsga tegishli bo‘lgan foydalanish huquqini himoya qilishda rad javobini berishi mumkin.

Tasarruf etish huquqi – mulkdorning ashyoga nisbatan yuridik va faktik harakatlarni amalga oshirish orqali uning amaldagi va yuridik taqdirini qonun tomonidan kafolatlangan belgilash imkoniyatidir. Egalik qilish va foydalanish huquqlaridan farqli o‘laroq, tasarruf etish huquqi faqat mulk egasiga tegishlidir. Ashyolarning yuridik taqdirini belgilash ularni sotish, almashtirish yoki boshqalar tasarrufiga o‘tishning boshqa

shakllari orqali amalga oshiriladi, ashyolarning amaldagi taqdirini tasarruf etish esa mulkni iste'mol qilish yoki uni yo'q qilish orqali amalga oshiriladi. Mulkdor tasarruf etish huquqini amalga oshirib, ashyoga nisbatan mulk huquqini bekor qilishi (sotib yuborish, hadya qilish, almashtirish, xo'jalik jamiyatlar yoki shirkatlarning ustav fondiga berish va h.k.) yoki egalik qilish va foydalanish bo'yicha huquqlar (ijaraga, saqlashga berish) amalga oshirilishini vaqtincha to'xtatib turishi mumkin.

Qonun hujjatlarida mulkdor tomonidan tasarruf etish huquqini amalga oshirish bo'yicha ma'lum cheklashlar va taqiqlar o'rnatilishi mumkin. Masalan, mulk xatlanganda, qonunchilikda nazarda tutilgan bankrotlik taomillari joriy qilinganida, mulkdor tasarruf etish huquqini vaqtinchalik amalga oshirishi mumkin emas.

Mulk huquqi tushunchasiga "o'z ixtiyoriga ko'ra" va "o'z manfaatlarida" kabi kategoriyalarni joriy qilish, birinchidan, mulkdorlar va boshqa titulli egalik qiluvchilarning mol-mulkka bo'lgan huquqlarini farqlaydi, ikkinchidan esa, mulk huquqining faqat qonun bilan cheklangan bo'lib, unga tegishli mulkka nisbatan har qaysi harakatlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladigan mulk huquqining mutlaq xususiyatini isbotlab beradi. Albatta, "o'z manfaat"iga mulkdor bo'lmagan egallovchilar ham ega bo'ladi, lekin ular mol-mulkka nisbatan harakatlarni mulkdorning xohishi asosida amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Mulk huquqi mutlaq (absolyut) huquqdir, chunki bunday huquqiy munosabatda huquqdor shaxsga (mulkdorga) har biri mulkdorning huquqlarini buzishdan o'zlarini saqlashlari shart bo'lgan burchli (mulkdor bo'lmagan) shaxslarning nomuayyan doirasi qarshi turadi. Mulkdorga tegishli bo'lgan ashyoni egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishda uning manfaatini qondirish, agar mulkdor o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish va boshqalarning unga har qanday ta'sir ko'rsatishidan chegaralash mumkin bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ushbu manfaatni qondirish vositasi sifatida xizmat qiluvchi subyektiv mulk huquqi boshqa shaxslardan unga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishda to'sqinlik qiladigan harakatlarni bajarishdan o'zlarini saqlashlarini talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Mulk huquqining muddatsizlik tamoyili o'rnatilishi FK novellasidir. Mazkur tamoyil mulkdor o'z mulkidan foydalanishda, istagan vaqtda o'z ixtiyoriga ko'ra mulk huquqini amalga oshirishda muddatsiz huquqqa ega ekanligini bildiradi.

Mulk huquqi mutlaq huquqdir va qonun bilan qo'riqlanadi. "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum

etilishi mumkin” (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi).

Mulk huquqi nafaqat fuqarolik qonunchiligi me‘yorlari bilan, balki jinoyat, ma‘muriy, mehnat, yer va oila qonunchiligi me‘yorlari bilan qo‘riqlanishi, har qaysi jamiyatni normal, madaniy mavjudlik sharti sifatida, har qaysi huquqiy tizimning muhim vazifalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Mulk daxlsizlik tamoyili mulkdorga o‘z manfaatlarida unga tegishli mulkdan, boshqalarni o‘zboshimchalik bilan aralashishlari yoki ta‘qiqlashlari yoxud foydalanishda cheklashlaridan qo‘rqmasdan, foydalanish imkoniyatini ta‘minlashni bildiradi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi mulk munosabatlari mustahkamligi va barqarorligini saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlash uchun mulkni olib qo‘yish va mulk huquqining cheklash tartib va asoslarni maxsus tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ta‘kidlanadiki “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

Konstitutsiyada “xilma-xil shakllardagi mulk”, “barcha mulk shakllari himoyalaniishi” haqida aytilishiga qaramay, bugungi kunda mulk shakllarining ro‘yxati xususiy mulk va ommaviy mulk bilan chegaralanib qoladi.

Ayni paytda shuni ham unutmaslik lozimki, mulk shakllari tushunchasi Konstitutsiyada ham, FK ham tushuntirib berilmaydi. Mulk shakllarining ajratilishi manfaatlar turli bo‘lishi belgisi bo‘yicha amalga oshiriladi. Rim huquqidayoq ommaviy va shaxsiy manfaatlar qarshi qo‘yilgan. Rim yuristi Ulpianning aytishicha, “Ommaviy huquq bu Rim davlatining holatiga tegishli bo‘ladi, xususiy huquq esa alohida shaxslarning manfaatiga tegishli bo‘ladi”.

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlaridir.

Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo‘lishi mumkin.

Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo‘lishiga qarab mulk huquqini, mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.


Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, xonadonlar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek aqliy mulk obyektlari mulk bo‘lishi mumkin.

FKning 172-moddasiga ko'ra, mulkdorning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yishga majbur.

Mulkdor o'zining ustunlik mavqeini suiste'mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o'zga harakatlarni qilishga haqli emas.

Mulkdor o'z huquqini amalga oshirganida fuqarolarning sog'lig'iga va atrof muhitga zarar yetkazishining oldini olish choralari ko'rishga majbur.



Ashyoviy huquqlar

Mol-mulkka nisbatan ashoviy huquqlar nafaqat mulkdorlarga, balki fuqarolik muomalasining boshqa shaxslariga ham tegishli bo'lishi mumkin, shuning uchun ular "cheklangan ashoviy huquqlar" deb nomlanadi. Cheklangan ashoviy huquqlar har doim mulk huquqining hosilasi bo'lib, ular kamroq huquqlar hajmi bilan farq qiladilar. Mulkdor cheklangan ashoviy huquqlar amal qilish vaqtida mol-mulkka nisbatan mulk huquqini saqlab qoladi, lekin u yoki vaqtincha, yoki muddatsiz, yoki muayyan darajada ushbu huquqni amalga oshirishda o'zini cheklab qo'yadi. Demak, cheklangan ashoviy huquqlar mavjudligi mulkdorning huquqlarini o'ziga xos cheklanishidir.

Bozor munosabatlariga o'tilishi, barcha mulk shakllarini va ayniqsa, xususiy mulk huquqi tengligini e'tirof etilishi, tadbirkorlik rivojlanishi cheklangan ashoviy huquqlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Cheklangan ashoviy huquqlarning obyekti bo'lib, odatda, har doim ko'chmas mulk hisoblanadi. Cheklangan ashoviy huquqlar faqatgina muayyan maqsadlarda obyektidan foydalanish imkoniyatini beradilar. Cheklangan ashoviy huquqlar ma'lum ashodan uzoq vaqt davomida foydalanish, boshqa shaxsga ashoga mulk huquqi o'tish sababli ularda paydo bo'lishi mumkin salbiy oqibatlardan o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadini ko'zlagan shaxslarning mulkiy manfaatlariga xizmat qiladilar.

Cheklangan ashoviy huquqlarning ro'yxati FKning 165-moddasi 1-qismida keltirilgan bo'lib, ularga xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi, servitutlar kiradi.

Cheklangan ashoviy huquqlar shartnoma, bir taraflama bitim, sud qarori, davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining aktlari va huquqiy vorislik asosida yuzaga keladi. Masalan, FK 173-moddasining 4-qismida servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga muvofiq servitut belgilanishini nazarda tutadi. FK 173-moddasida foydalanish uchun qo'shni uchastkadan cheklangan foydalanish huquqi o'rnatilishi talab qilinadigan yer uchastkasi mulkdori va qo'shni yer uchastkasining mulkdori o'rtasidagi servitutni belgilash xususida nizo paydo bo'lgan holda, servitut belgilashni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal etiladi, va mazkur holatda qo'shni uchastkadan cheklangan foydalanish huquqi sud qarori bilan o'rnatilgan asos va hajmlarda yuzaga keladi.

Cheklangan ashyoviy huquqlar qonun, shartnoma, ashyoviy huquq tegishli bo'lgan tomonning bir taraflama harakati, sud qarori asosida, xususiy alomatli ashyo nobud yoki yo'q bo'lishi, bir shaxsning o'zida cheklangan ashyoviy mulk mulkdori va obyektiga to'g'ri kelishi, shunday huquqlar foydasiga o'rnatilgan shaxsning o'limi yoki yuridik shaxs tugatilishi sababli to'xtatilishi mumkin.

Cheklangan ashyoviy huquqlar vujudga kelishi va bekor bo'lishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

FKning 165-moddasida mulk huquqiga qo'shimcha qilib beshta ashyoviy huquqlar aytib o'tiladi: xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi va servitutlar.

Ushbu ashyoviy huquqlarning mazmuni FK va Yer Kodeksi tegishli normalarida belgilanadi.

Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari

Muayyan shaxslarda ma'lum mol-mulkka mulk huquqini vujudga kelishi huquq yaratuvchi faktlar orqali ham, subyektlarning harakatlari, kishilarning irodasiga bog'liq bo'lmagan hodisalar ro'y berishi orqali ham sodir bo'lishi mumkin. Mazkur huquq yaratuvchi yuridik faktlar mulk huquqi paydo bo'lishining asoslari (titullari) deb nomlanadi. Mulk huquqi ikki xil usul, ya'ni dastlabki va hosilaviy usullar yordamida qo'lga kiritiladi. Mulk huquqining dastlabki usulda qo'lga kiritilishida, sotib oluvchining huquqlari va majburiyatlari qonun tomonidan belgilanadi, hosilaviy usulda esa sobiq mulkdorning irodasi, huquqlari va majburiyatlari, tomonlarning o'zaro roziligi va davlat xokimligi organlarining dalolatnomalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dastlabki (boshlang'ich) usullarga mulk huquqi ayni ashyoga nisbatan birinchi bor paydo bo'ladigan sharoitdagi mulk huquqini (masalan, ilgari mavjud bo'lmagan, va shu sababdan hech kimning egaligida hali bo'lmagan yoki garchi mavjud ilgari kimnidir egaligida bo'lgan taqdirida ham, biroq hozirda hech kimga tegishli bo'lmagan ashyolar) yohud mazkur ashyoga sobiq mulkdorning erki-irodasidan qat'i nazar mavjud mulk huquqlarini qo'lga kiritish usullarini kiritadilar. Mulk huquqini bunday qo'lga kiritish usullariga yangi ashyoni yaratilishi, o'simlik, hayvonot olamining va notirik tabiatning umumiy iste'molga yaroqli obyektlarining yig'im terimi, mulk huquqiga nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddati, egasiz mulkka ega bo'lish va boshqalar kiradi.

Hosilaviy usullar bo‘lib mazkur shaxs tomonidan mulk huquqining qo‘lga kiritilishi dastlabki mulkdorining mulk huquqiga asoslanadigan usullar hisoblanadi. Yuridik shaxsning qayta tashkil etishdagi huquqiy vorislik tartibida tuziladigan mol-mulkni taqsimlash bitimlari asosida mulk huquqining qo‘lga kiritilishi mulk huquqini qo‘lga kiritishning xosilaviy usullariga taalluqlidir.

Mulkchilik huquqini qo‘lga kiritish usullarini dastlabki asos va hosilaviy usullarga bo‘linishi amaldagi FKda qonuniy mustahkamlanmaganligiga qaramay, uni amaliy maqsadlar uchun qo‘llash mumkin. Mulk huquqini qo‘lga kiritilishi usullarini dastlabki va xosilaviy usullarga farqlashning amaliy ahamiyati – ularning yordamida mulk huquqini oluvchining huquq va majburiyatlari hajmining belgilanishida namoyon bo‘ladi. Mulk huquqini qo‘lga kiritishning hosilaviy usullarida yangi mulkdori, o‘zining o‘tmishdoshiga tegishli bo‘lgan xuddi o‘sha huquqlari, va shular bilan birga mazkur huquqning barcha cheklanishlarini qo‘lga kiritadi. Dastlabki usulda oluvchiga mulk huquqining hech qanday cheklavlari tatbiq etilmaydi.

Mulk huquqi vujudga kelishining dastlabki usullarga quyidagilar kiradi:

- mol-mulkni yaratish va ko‘paytirish;
- mehnat faoliyati;
- mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko‘paytirish, bitimlar asosida qo‘lga kiritish;
- davlat mol-mulkini xususiylashtirish;
- meros qilib olish;
- egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat;
- hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashyolarni mulkka aylantirish;
- egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi;
- topilmaga egalik huquqini olish;
- qarovsiz hayvonlarga egalik huquqini olish;
- xazinaga egalik huquqini olish;

Mulk huquqi vujudga kelishining hosila usullariga quyidagilar kiradi:

- bitim bo‘yicha mol-mulkni olish;
- sudning qarori.

FKning 197-moddasiga ko‘ra, mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish (sotib olish) yo‘li bilan, shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan bekor bo‘ladi.

Mulk huquqining bekor bo'lish tartibotini o'rganishda jamiyat va mulkdor manfaatlarining o'ziga xos to'qnashuvini kuzatish mumkin. Bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun ularning o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur va bunga mulkchilik tizimi munosabatlarining tartibga solish jarayonida erishiladi.

Xususiy mulkning daxlsizligini e'tirof qilayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, «...Mulkdor undan faqat qonun tomonidan ko'zda tutilgan hollarda va tartibda mahrum etilishi mumkin» deyilgan. Mazkur ko'rsatmaga tayangan holda FK mulk huquqining bekor bo'lishining asoslarini, shuningdek FKning birinchi moddasida o'rnatilgan mulkning daxlsizligi tamoyiliga asoslangan holda ham tartibga soladi. Fuqarolik qonunchiligining negiziga kirgan mulkning daxlsizligi tamoyili bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk muomalasining barqarorligini qo'llab quvvatlashda, mulkdor uchun mol-mulkidan o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda foydalanishi uchun har tomonlama qulay shart sharoitlarning yaratilishida muhim o'rin tutadi. Mulk huquqi bekor bo'lishi asoslarining fuqarolik-huquqiy belgilanishi asosan fuqarolar va yuridik shaxslar xususiy mulkning daxlsizligini ta'minlanishi uchun qaratilgan.

Mulk huquqining bekor bo'lishi qonun tomonidan ko'zda tutilgan ma'lum, huquqni to'xtatuvchi yuridik faktlarni paydo bo'lishi bilan sodir bo'ladi. Mazkur yuridik faktlar vujudga kelishining huquqiy oqibati mulk huquqining bekor qilinishidir.

Mulk huquqining bekor qilinishiga faqat qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha yo'l qo'yiladi. Bunday asoslarga mulkdor tomonidan majburiyatning ixtiyoriy ijro etilishi, mulkdor tomonidan mulkning taqdirini hal etadigan bir tomonlama qarorning qabul qilinishi, sud qarori va qonun hujjatlarining mulk huquqini bekor qiladigan normalari asosida mulkning olib qo'yish (sotib olish) taalluqlidir.

Mulk huquqining bekor qilinishi bo'yicha mulkdorning o'z roziligini bildirishiga bog'liq holda, yuqorida ko'rsatilgan asoslarni ikki guruhga, ya'ni ixtiyoriy (mulkdorning erki bo'yicha) va majburiy (mulkdorning erkidan tashqari) asoslarga bo'lish mumkin.

Majburiyatning mulkdor tomonidan ixtiyoriy tarzda bajarilishi va mulkdor tomonidan mulkning taqdirini hal etadigan bir tomonlama qarorning qabul qilinishi mulk huquqi bekor qilinishining ixtiyoriy asoslaridir. O'z navbatida, sud qarori va qonun hujjatlarining mulk huquqini bekor qiladigan qoidalari asosida mulkning olib qo'yilishi (sotib olinishi) majburiy asoslarga kiradi.

Majburiyatning mulkdor tomonidan ixtiyoriy tarzda bajarilishi yo‘li bilan mulk huquqining bekor qilinishi mol-mulkni tasarruf etuvchi shartnomalar, ya’ni oldi – sotdi, ayriboshlash, xadya qilish va boshqa shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu holda tasarruf etish huquqini amalga oshirayotgan mulkdor o‘zining mulkiga nisbatan o‘z ixtiyoriga ko‘ra va o‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda mulk huquqini bekor qiladi.

Mulkdor tomonidan mulkning taqdirini hal etadigan bir tomonlama qarorning qabul qilinishi asosida, mulkdor tomonidan mulkni iste’mol qilish, yo‘q qilib tashlash yoki ro‘yxatdan chiqarish natijasida, va bir tomonlama bitimlarning (masalan, vasiyatnoma) tuzilishi tufayli mulk huquqi ixtiyoriy tarzda to‘xtatiladi (vasiyat qoldiruvchi vafot etgach).

O‘z navbatida, mulk huquqining majburiy bekor qilinishini, mulk huquqining bekor qilinishi uchun nima asos bo‘lganligiga qarab ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga sud qarori asosida amalga oshiriladigan mulk huquqining bekor qilinishi usullari kiradi. Bularga mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha uning mulkiga nisbatan undirishni qo‘llash, shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lmagan mulkka nisbatan mulk huquqining bekor qilinishi, tarix va madaniyat yodgorliklarni egasizlarcha saqlanishi va huquqbuzarlik uchun mol-mulkni musodara qilish taluqlidir.

Ikkinchi guruhni qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladigan mulk huquqini bekor qilish usullari tashkil qiladi. Mulk huquqini to‘xtatishning shunday usullariga natsionalizatsiya, rekvizitsiya va mulkdordan mol-mulkni bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan holda mulk huquqining bekor qilinishi kiradi.

Mulkning majburiy tarzda olib qo‘yilishi, musodara va mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha uning mol-mulkiga nisbatan undirishni qo‘llash hollaridan tashqari, umumiy qoida bo‘yicha to‘lovli asosda amalga oshiriladi.

Yuqorida aytilgandan tashqari, tabiiy ofat (yong‘in, zilzila va boshqalar) natijasida ashyoning nobud bo‘lishi holatida mulk huquqi bekor qilinishi mumkin. Ashyoning nobud bo‘lganidan keyin, saqlanib qolgan unga tegishli tarkibiy qismlar, agarda alohida ma’lum ashyolarga nisbatan qo‘yiladigan talablarga javob bersa, mulkdoriga tegishli bo‘ladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Mulk huquqi majburiyat huquqi bilan birga fuqarolik huquqining kichik sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mulk huquqi va majburiyat huquqining o‘zaro nisbati va mulk huquqining fuqarolik huquqida tutgan o‘rnini tahlil qiling?

2. Ma’lumki, mulk huquqining mazmunida foydalanish huquq alohida o‘rin tutadi. Ayni paytda foydalanish huquqi alohida holda emas, egalik qilish elementi bilan birgalikda namoyon bo‘lishi anglashiladi. Biroq foydalanish huquqining egalik qilish elementidan alohida holda qo‘llanilish holatlari ham kuzatiladi.

Mol-mulkka nisbatan foydalanish elementining egalik qilish elementidan alohida holda mustaqil ifodalanish holatini tahlil qiling?

3. Olimov kechki payt ishdan qaytayotib yo‘ldan uzuk topib oldi. Uzukni olib uyiga kelib qarasa, u tilladan yasalgan ekan. Ertasi kuni Olimov uzukni tanish zargarga ko‘rsatib narxini surishtirganda, zargar uzuk juda qimmat turishini aytdi. Hursand bo‘lib ketgan Olimov bu haqda ishxonasidagi do‘sti Nazirga aytganida, Nazir unga uzukni topilmalar idorasiga olib borish kerakligini, yo‘qsa, qonunda belgilangan javobgarlika toritilishini aytdi. Olimov maslahat so‘rab advokatga murojaat qildi.

Unga maslahat bering?

4. Fuqaro A. notariusga murojaat qilib, fuqaro B. ga tegishli bo‘lgan uy-joy (ko‘chmas mulk)ga mulk huquqini beruvchi orderni rasmiylashtirib berishni so‘radi. Bunga asos qilib, u 30 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzluksiz egalik qilib kelganligi, B. ning vafot etganligi, uning merosxo‘rlari yo‘qligini ma’lum qildi. Ammo notarius fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emasligini bildirib, rad javobini berdi.

Fuqaro A. ning talabi o‘rinlimi? Masala qanday hal qilinishi kerak?

12-MAVZU. XUSUSIY MULK HUQUQI

Xususiy mulk huquqining tushunchasi. Xususiy mulk huquqi subyektlari va obyektlari. Xususiy mulk huquqining himoya qilish kafolatlari.

Xususiy mulk huquqining tushunchasi

O'tish davri iqtisodiyoti amalda bo'lgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotini barpo etish uchun xususiy mulk hayotiy ahamiyatga ega. Xususiy mulk tadbirkorlik faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi va shu sababdan bozor munosabatlari tizimida alohida o'rin tutadi. Mazkur jihatni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining asosini turli ko'rinishlardagi mulk tashkil etadi. Mulkning boshqa ko'rinishlari bilan bir qatorda, xususiy mulk daxlsizdir va davlat tomonidan himoya qilinadi" deb ko'rsatilgan .

O'zbekiston Respublikasida xususiy mulkni huquqiy tartibga solishni rivojlanishi evolyutsion yo'l bilan sodir bo'lganligini ta'kidlash joiz. Birinchi bor, mulkning bir ko'rinishi sifatida xususiy mulk 1990-yil 31-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan edi. Qonunning 7-moddasiga muvofiq, xususiy mulk fuqarolarning mulki sifatida muomalaga kiradi, nodavlat yuridik shaxslarning va ularga qarashli birlashmalarning mulki esa va shuningdek, ijtimoiy hamda diniy birlashmalarning mulki Qonunning 8-moddasida xususiy emas, balki jamoa mulki deb ta'riflanadi. Demak, mazkur Qonun tomonidan xususiy mulkning faqat bitta turi – fuqarolarning xususiy mulki tan olinadi.

Harakatdagi FKning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasida xususiy mulk huquqini rivojlantirishdagi hal qiluvchi bosqich bo'ldi. "Mulkchilik to'g'risida" gi Qonundan farqli ravishda FK xususiy mulk huquqining subyektiv tarkibini jiddiy tarzda kengaytirgan holda, uning tarkibiga nafaqat fuqarolarni, balki tijorat hamda notijorat nodavlat yuridik shaxslarni ham kiritdi. Demak, bugungi kunda xususiy mulk huquqi fuqarolarning va nodavlat yuridik shaxslarning mulk huquqi sifatida muomalaga kirmoqda.

Qolaversa, 2012 yil 24 sentyabrdagi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda ham xususiy mulk huquqi subyektlarining vakolatlarini yanada mustahkamladi va tegishli kafolatlarni belgiladi.

Xususiy mulk huquqining subyektlari, ya'ni fuqarolar va nodavlat yuridik shaxslar o'z xohishlariga ko'ra va o'z manfaatlari yo'lida, o'zlariga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish va shuningdek mulk huquqining har qanday buzilishlarini, ular kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, bartaraf qilishni talab etishga haqlidirlar.

Xususiy mulk egaligida mavjud bo'lgan mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Masalan, Uy-joy Kodeksining 11-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq, uy-joylarga, xonadonlarga, uyning bir qismiga, xonadonning bir qismiga mavjud xususiy mulk egaligi miqdor, o'lcham va qiymat bo'yicha cheklanmaydi. Lekin, shu bilan birga, qonunchilikda belgilangan hollarda, xususiy va ijtimoiy manfaatlarini ko'zlash maqsadlarida ba'zi bir cheklashlar o'rnatilishi mumkin. Masalan, "Giyohvandlik vositalari va psixotropoli moddalar to'g'risida" gi Qonunning 22-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslar o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish uchun, ko'rsatilgan faoliyat turi uchun litsenziyaning mavjudligi va yillik ishlab chiqarish ehtiyojlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda, prekursorlarni sotib olishlari mumkin va sotib olingan yoki buyurtirilgan prekursor miqdori mazkur ehtiyojlardan ortib qolgan har bir holatda maxsus vakolatli organni shu haqda xabardor qilishga majburdirlar. Monopolistik faoliyatni cheklash va unga chek qo'yish, hamda raqobatni rivojlantirish maqsadlarida, monopoliyaga qarshi qonunchilik tomonidan aksiyalarni ma'lum miqdorda sotib olish uchun tegishli davlat organidan ruxsatnoma olinishi shartligi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi 2012 yil 6 yanvardagi qonunining 17-moddasiga ko'ra, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha bitimlar, agar bu bitimlarni tuzish paytida tegishli bitimda ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olgan jami tushumi eng kam ish haqining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo'lsa yoxud bitim ishtirokchilaridan biri ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lsa, shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini olishga nisbatan, agar bunday shaxs yoki shaxslar guruhi ushbu olishga qadar mazkur aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini tasarruf etmagan bo'lsa yoki mazkur aksiyadorlik jamiyatining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning o'ttiz besh foizidan kamini tasarruf etgan bo'lsa, bunda ana shu shaxs yoki shaxslar guruhi ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning o'ttiz besh va undan ortiq foizini tasarruf etish huquqini olish bo'yicha monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi bo'lgan taqdirda tuziladi.

Xususiy mulk huquqi subyektlari va obyektlari

FKning 208-moddasiga muvofiq, fuqarolar o'zlariga tegishli mol-mulkning xususiy mulkdorlaridir va shu sababli ular o'zlariga qarashli mol-mulkka nisbatan o'z xohishlariga ko'ra qonunga va boshqa huquqiy hujjatlarga zid bo'lmaydigan har qanday harakatlarni sodir etishlari mumkin. Xususiy mulk subyekti sifatida har qaysi fuqaro, ham shaxsiy tarzda, ham umumiy ulushli mulk asoslarida xususiy mulk subyekti sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Fuqarolarning xususiy mulki ishlab chiqarishda ishtirok qilishdan olingan daromadlar, mehnat qilish huquqini boshqa xil tarzda tasarruf etish, tadbirkorlik faoliyati, o'z xo'jaligini yuritish va kredit muassasalariga, aksiyalarga va boshqa xil qimmatli qog'ozlarga sarmoya qilingan vositalardan olingan daromadlar, mulkni meros huquqi bo'yicha qo'lga kiritish va qonunga xilof bo'lmagan boshqa asoslar hisobiga yaratiladi va ko'paytiriladi.

Amaldagi qonunchilik fuqarolarga, xususiy mulk huquqi asosida ularga tegishli har qanday mulkdan, ham shaxsiy iste'mol uchun, ham tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanish huquqini beradi, mazkur holat fuqarolar huquq layoqatining mazmunida tadbirkorlik faoliyati, shuningdek qonun tomonidan ta'qiqlanmaydigan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish huquqi elementlarida o'z mujassamini topgan. Fuqarolar tadbirkorlik bilan yakka tartibda yoki yuridik shaxs tashkil etgan holda shug'ullanishlari mumkin ("Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonunining 6-7-moddalari). Xususiy tadbirkorlik yakka tadbirkor tomonidan mustaqil tarzda, ishchilarni yollash huquqsiz, mulk huquqi bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk asosida va shuningdek, mol-mulkka egalik qilishga va undan foydalanishga yo'l qo'yadigan boshqa xil ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarning birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati, yuridik shaxsni tashkil qilmagan holda oila tadbirkorlik shaklida, oddiy shirkat yoki dehqon xo'jaligi ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatining subyektlari o'zlari ishlab chiqargan mahsulotning (bajargan ishlarning xizmatlarning) va ularni sotishdan olinadigan daromadlarning (foydaning) mulkdorlaridir. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining, ishlab chiqarish sarf-xarajatlarning qoplanishidan, soliqlar, yig'imlar va barcha majburiy to'lovlar to'lanishidan qolgan daromadlari (foydasi), sud tartibida majburiy tarzda qarzlarni undirish hollaridan tashqari, ularning o'z xohishi bilan tasarruf etiladi ("Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonunining 20-moddasi).

Fuqarolar xususiy mulki huquqining obyektlari deb yer uchastkalari, turar joy uylari, xonadonlar, dala hovlilar, garajlar, uy-ro'zg'or ashyolari, shaxsiy iste'mol ashyolari, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va shuningdek, korxonalar hamda ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan boshqa xil mulkiy majmualar, binolar, inshootlar, transport vositalari, ishlab chiqarishning boshqa vositalari tan olinadi. Mol-mulkning miqdori va qiymati, agarda u mulk sifatida qonunga yoki shartnomaga muvofiq olingan bo'lsa, cheklanmaydi.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat yuridik shaxslar yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqi subyektlari deb tan olinadi. Ishtirokchilar, ta'sischilarning ulushlari, xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar va boshqa qonun tomonidan yo'l qo'yilgan asoslar bo'yicha olingan mol-mulklar nodavlat yuridik shaxslar mol-mulki shakllanishining asoslaridir. Davlatga tegishli yuridik shaxslardan (unitar korxonalar, davlat korxonalari) farqli ravishda, mazkur yuridik shaxslarning mulki ularga xususiy mulk huquqi asosida tegishlidir.

Qonun tomonidan ko'zda tutilgan hollardan tashqari, yuridik shaxslarning xususiy mulki tasarrufida muomaladan chiqarilmagan har qanday ko'chmas va ko'char ashyolar bo'lishi mumkin.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligi bo'yicha, barcha yuridik shaxslar, yuritayotgan faoliyatining maqsadiga bog'liq holda tijorat va notijorat toifalarga bo'linadi. Tijorat yuridik shaxs sifatida o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni ko'zlagan tashkilot tan olinadi, notijorat tashkilot deb esa shunday maqsad sifatida foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan tashkilot hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning shakliga qarab, yuridik shaxsning mulkiga nisbatan ta'sischilar (ishtirokchilar) huquqlarining xususiyati ham farq qiladi. Xo'jalik shirkatlarida va jamiyatlarida hamda kooperativ (shirkat)larda ta'sischilar (ishtirokchilar) yuridik shaxsning mulkiga nisbatan hech qanday ashyoviy huquqlarga ega emas va faqat majburiyat huquqlariga egadirlar. Ta'sischilar (ishtirokchilar)ning ulushlari hisobiga yaratilgan mulk, va shuningdek xo'jalik shirkati tomonidan faoliyat yuritish jarayonida ishlab chiqarilgan va sotib olingan mol-mulk, mulk huquqi asosida unga tegishlidir. Barcha ustav fond bitta yagona jismoniy yoki yuridik shaxsga (masalan, 100%li davlat ishtirokidagi AJ yoki bitta shaxs tomonidan yaratilgan MChJ) tegishli bo'lishiga qaramay, tijoratchi yuridik shaxslarning mulki ta'sischilarga emas, balki mulk huquqi asosida faqat shu yuridik shaxslarga tegishli bo'ladi. Ta'sischilarga mulk huquqi asosida faqat aksiyalar va tegishli yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlari tegishlidir.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning xususiy mulkida muomaladan chiqarilgan ashyolardan tashqari har qanday ko‘char va ko‘chmas ashyolar bo‘lishi mumkin.

FKning 210-moddasiga ko‘ra, belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyga mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Bir yoki bir necha shaxslar tomonidan qurilayotgan uy-joy qurilishi tamom bo‘lguncha va ro‘yxatdan o‘tkazilguncha mahalliy hokimiyat organlarining ruxsatisiz boshqa shaxsga berilishi mumkin emas.

Davlatga qarashli uy-joy (kvartira)ga mulk huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xususiylashtirish tartibida vujudga keladi.

Kooperativ uy-joyga, kvartiraga, garajga, chorboqqa va boshqa binolarga mulk huquqi kooperativ a‘zosi pay badallarini batamom to‘lab bo‘lganidan keyin vujudga keladi.

Ko‘p xonadonli (kvartirali) uydagi kvartira mulkdoriga o‘ziga tegishli xonalar bilan birga uydagi umumiy mol-mulkka nisbatan ulushli mulk huquqi ham tegishlidir. FKning 211-moddasining birinchi qismiga ko‘ra ko‘p kvartirali uyda umumiy mulk obyektlari bo‘lib, ushbu uyning umumiy xonalari, jumladan ustun, to‘sin, devor konstruksiyalari, kvartiralararo zinapoyalar maydonchalari, zinalar, liftlar va boshqa shaxtalar, yo‘laklar, texnik qavatlar, yerto‘lalar, cherdaklar va tomlar, uy ichidagi injenerlik va kommunikatsiyalar tarmoqlari, bino ichida yoki tashqarisida joylashgan, bir necha binolarga, kvartiralarga xizmat qiluvchi mexanik, elektr, texnik-sanitariya va boshqa qurilmalar va uskunalar hisoblanadi. Ushbu obyektlar ko‘p kvartirali uylarga xizmat qilish vazifalarini bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib o‘ziga xos tarzda yagona mol-mulk majmuasini tashkil etadi. Ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulk va ushbu umumiy mol-mulkning alohida qismlari mulk huquqining mustaqil obyektlari bo‘lib hisoblanmaydi va begonalashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ko‘p xonadonli uydagi umumiy mulk yagona, bo‘linmas obyektini tashkil etishini va umumiy ulushli mulk tarkibida mavjud ekanligini ta’kidlash lozim. Ko‘p xonadonli uydagi xonadon mulkdorida qonunga muvofiq, uydagi o‘zi sotib olgan xonadonga mulk huquqining paydo bo‘lishi paytida umumiy mulk huquqidagi umumiy mulkning ulushli huquqi paydo bo‘ladi.

Ko‘p xonadonli uyda umumiy mulk huquqidagi umumiy mulkning ulushli huquqi muhim ahamiyatga ega. FKning 211-moddasining ikkinchi qismidagi me‘yorlar qaydlovchi xususiyatga egadir, chunki mazkur

qismda uying umumiy mulki tarkibida mulk huquqidagi mulkdorlarga tegishli ulushlarning miqdori va mulkdorlar o'rtasida uyni tutish va mazkur mulkni saqlash bo'yicha sarf-xarajatlarni taqsimlash tartibi turarjoy qonunchiligi tomonidan belgilanishi aniq ko'rsatilgan.

Xususiy mulk huquqining himoya qilish kafolatlari


“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunida xususiy mulk huquqini himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining muhim va asosiy kafolatlari belgilandi. Jumladan, qonunda “xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi”, “xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidaligi”, “davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta'minlash va uning ko'paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishi”, “mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi” kabi umumiy qoidalar bilan birga, o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan kafolatlar ham nazarda tutildi. Masalan, Qonunning 5-moddasiga binoan, xususiy mulk huquqi muddatsizdir. Mulkdorga mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish muddati belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qolaversa, Qonunning 7-moddasida milliy huquqshunoslik uchun o'ziga xos yangi qoida “mulkdor huquqlarining ustuvorligi” mustahkamlandiki, bu qoidaning mohiyatga ko'ra, mulkdorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qiladi, unga muvofiq qonun hujjatlaridagi xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga talqin etiladi.

Mazkur Qonuning 2-bobi xususiy mulk huquqini himoya qilish usullariga bag'ishlangan va bunda xususiy mulk huquqining buzilishi va xususiy mulk huquqiga yetkazilgan zararlarni qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, Qonunning 3-bobi mulkdor huquqlarining kafolatlarini nazarda tutgani holda har bir aniq holat uchun alohida kafolatlarni belgilaydi. Ana shunday muhim kafolatlardan biri Qonunning 17-moddasi 2-qismida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, xususiy mulk bo'lgan mol-mulkni, shu jumladan yer uchastkasini natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilingan hollarda olib qo'yish, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkdorga uning bozor qiymati, shuningdek, bunday olib qo'yish munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararining o'rnini to'la qoplanishi sharti bilangina amalga oshiriladi.

Qonunda mulkdorlar huquqlari uchun belgilangan eng muhim kafolatlardan yana biri bu uning 19-moddasida nazarda tutilgan qoidalaridir. Aynan mazkur qoidalar mulk huquqi mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo'yishga qaratilmagan holda bekor qilinganda uning huquqlari kafolatlari sifatida "mulk huquqining bekor qilinishiga faqatgina qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yilib, bunda mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka teng mol-mulk beriladi va u ko'rgan boshqa zararlarning o'rnini qoplanadi yoki mulk huquqi bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini to'la hajmda qoplanishi" mustahkamlandi. Qonunning 19-moddasi 3-qismida esa, "olib qo'yilayotgan yer uchastkasidagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni buzib tashlash yoki dov-daraxtlarni qo'porib tashlashga zararning o'rnini bozor qiymati bo'yicha oldindan va to'la qoplanmagunga qadar yo'l qo'yilmasligi" belgilangan bo'lib, uning muhim jihati sifatida mol-mulkning bozor qiymati oldindan mulkdor to'langanidan so'ng mulk huquqini bekor qilinishi hisoblanadi. Binobarin bu qoida mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan huquqlariga bo'lgan ishonchi oshishiga xizmat qilishi bilan birga, xususiy mulk huquqining daxlsizligini ta'minlaydi.

"Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan, fuqarolik qonunchiligi uchun yangi qoidalardan navbatdagisi bu – uning 24-moddasida belgilangan xususiylashtirish natijalarining qayta ko'rib chiqilmasligi va bekor qilinishi qoidasidir. Mazkur qoida mulkdorlarning xususiylashtirish natijasida qo'lga kiritgan mol-mulkiga nisbatan kafolatlar bo'lib, bu davlat organlari tomonidan suiiste'mollik holatlariga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi.



Nazorat uchun savollar:

1. Xususiy mulk ayni paytda fuqarolar va nodavlat yuridik shaxslarning mulki sifatida ifodalanadi. Bunda fuqarolarning xususiy mulki va nodavlat yuridik shaxslari mulkining o'zaro nisbati, obyektlari doirasi va boshqarilishidagi o'ziga xosliklar mavjud.

Mazkur holatlarni muhokama qiling?

2. Amaldagi qonunchilikda “xususiylashtirish natijalarining qayta ko‘rib chiqilmasligi va bekor qilinmasligi qoidasi” belgilangan. Qonunbuzilish holati mavjud bo‘lganda mazkur qoida amal qilish yoki qilmasligi holatini tahlil qiling?

3. Fuqaro Abdurazzoqovlarga tegishli bo‘lgan xususiy uy-joy yo‘l qurilishi munosabati bilan buzib tashlanishi haqida viloyat hokimining qarori qabul qilindi. Abdurazzoqovlarga tegishli bo‘lgan xususiy uy-joy buzib tashlangandan so‘ng, ularning oila a‘zolaridan ayrimlariga yer uchastkasi olib berildi. Biroq, oilaning boshqa a‘zolariga yer uchastkasi olib berish taklifi bildirmadi.

Mazkur holatda Abdurazzoqovlar oilasining xususiy mulk huquqini himoya qilishning qanday yo‘llari mavjud? Mulk huquqi mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan holda bekor qilinganda uning huquqlari qanday himoya qilinadi?

4. Fuqaro S. sudga murojaat qilib, fuqaro D. ga tegishli bo‘lgan uy-joy (ko‘chmas mulk)ga mulk huquqini berishini so‘radi. Bunga asos qilib, u 20 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzluksiz egalik qilib kelganligi, D. ning vafot etganligini ma‘lum qildi. Ammo sud fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emasligini bildirib, rad javobini berdi.

Fuqaro S. ning talabini muhokama qiling.

13-MAVZU. OMMAVIY (DAVLAT) MULK HUQUQI


Ommaviy (davlat) mulki huquqi tushunchasi va manbalari. Ommaviy mulk turlari.

Ommaviy (davlat) mulki huquqi tushunchasi va manbalari

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida davlat (ya'ni ommaviy-huquqiy tuzilma) yuridik shaxslar va fuqarolar bilan birgalikda an'anaviy tarzda alohida, mustaqil huquq subyekti bo'lib chiqadi. Davlat, nafaqat ommaviy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida, balki, ommaviy mulkdan foydalangan holda, o'z ixtiyorida xo'jalik yuritish subyekti bo'lish imkoniyatini saqlaydi.

Ommaviy mulkka nisbatan O'zbekiston Respublikasi FKning 213-moddasining qo'llangan taqdirida, mazkur moddaning normalari ommaviy mulk subyektlarining ko'p sonliligi to'g'risidagi qoidani mustahkamlaydi va mazkur mulk subyektlari sifatida bevosita O'zbekiston Respublikasi (respublika mulkini tashkil etuvchi mulkka nisbatan) va uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (munitsipal tuman, shahar mulkini tashkil etuvchi mulkka nisbatan) chiqadilar. Ular mulkiy muomalada tegishli davlat tuzilmasi nomidan chiqadilar, hamda o'zlarining mutasaddiligiga muvofiq tarzda ommaviy mulkdorning u yoki bu vakolatlarini amalga oshiradilar.

Ommaviy (davlat) mulkining zaruriyati



Davlat mulki tarkibida mavjud mulk ikki qismga bo'linadi. Uning bir

qismi xo‘jalikni yuritish yoki operativ boshqaruvning cheklangan, lekin to‘la darajali mustaqil ashyoviy huquqlari asosida davlat yuridik shaxslariga, korxonalariga va muassasalarga birlashtiriladi. Bu “taqsimlangan davlat mulki” deb nomlangan mulk mazkur tashkilotlarning mustaqil yuridik shaxslar sifatida muomalada bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U davlatning majburiyatlari va qarzlari qoplashni ta‘minlash uchun xizmat qila olmaydi, chunki korxonalar va muassasalar, yuridik shaxslar sifatida yuridik shaxsning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan davlat qarzlari bo‘yicha o‘z mol-mulki bilan javob bermaydilar. Mazkur mulk bilan ular o‘z kreditorlari oldida o‘z qarzlari bo‘yicha javob beradilar.

Ommaviy mulkning ikkinchi tarkibiy qismi – bu davlat korxonalariga va muassasalariga birlashtirilmagan mulk yoki “taqsimlanmagan” deb atalmish davlat mulkidir. Bu eng avval, tegishli budjetning mablag‘lari, oltin zahirasi, valyuta jamg‘armasi va boshqa har xil davlat jamg‘armalaridir. Bu mulk mulkdor davlatning majburiyatlari bo‘yicha uning kreditorlari tomonidan undirish obyektiga aylanishi mumkin bo‘lgan mol-mulkdir.

Ommaviy (davlat) mulkning manbalari



Ommaviy mulk subyektlari – bu umuman olganda O‘zbekiston Respublikasi (respublika mulki) yoki tegishli ma‘muriy–hududiy tuzilmalar (munitsipal mulk)dir. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi FK

ommaviy mulki obyektlarining doirasini cheklanmaganligini unutmazlik kerak. Uning tarkibida har qanday mol-mulk mavjud bo'lishi mumkin. Munitsipal mulk obyektlarining doirasi birmuncha torroq. Uning tarkibiga, xususan, respublika mutloq mulki obyektlari kirishi mumkin emas.

Huquqni belgilash yo'sinida respublika va munitsipal ommaviy mulkini chegaralash masalasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida respublika va munitsipal ommaviy mulki obyektlarini chegaralashning har tomonlama tartibini belgilaydigan maxsus hujjat mavjud emas.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatning mavjud bo'lmaganligi sababli umumiy va turdosh masalalarni tartibga soluvchi hujjat lardan foydalanish lozim.

Ommaviy mulk turlari

O'zbekiston Respublikasi FKning 214-moddasi birinchi qismida respublika mulki obyekti sifatida tasarruf etiladigan mulk obyektlarining ro'yxati keltirilgan.

Bunda, yerning va tabiat zahiralarning maxsus rejimi o'rnatilgan. Mazkur rejimning ayni holatdagi mohiyat mazmuni barcha yerlar hamda fuqarolarning va yuridik shaxslarning yoki munitsipal mulkning tarkibiga topshirilmagan barcha tabiiy zahiralarga respublika mulki deb e'lon qilinganligida namoyon bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, yerga va boshqa tabiiy zahiralarga respublika mulki prezumpsiyasi o'rnatilgan. Mazkur qoida tomonidan yerga va boshqa tabiiy zahiralarga, ularning faqat davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri-yo'l qo'yilgan darajada xususiy va munitsipal mulk obyekti bo'lishlari mumkinligi mazmunida, xususiy mulk sifatida ma'lum cheklanishlar o'rnatilgan.

Yerdan tadbirkorlik faoliyatidagi ko'chmas mulk obyekti sifatida foydalanish, uning maqsadli vazifasi inobatgan olingan holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq, yer va boshqa tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish lozim va ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Yer uchastkasi tushunchasi Yer kodeksida va 1998-yil 28-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi Qonunida mujassamlangan. YKning 10-moddasiga muvofiq, yer uchastkasi yer munosabatlarining obyekti sifatida – belgilangan chegaralarga, maydonga, joylanish hududiga, huquqiy rejimiga va davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa tavsif belgilariga ega bo'lgan yerlar

fondining bir qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentyabrdagi “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, yer zamini - bu tuproq qatlamidan pastroqda joylashgan yer po‘stlog‘ining bir qismi, uning mavjud bo‘lmaganligi holida esa yer yuzasining yoki geologik o‘rganish va o‘zlashtirish imkoniyati chegarasida bo‘lgan suv obyektlari tubining pastrog‘ida joylashgan yer po‘stlog‘ining qismidir. Yer zamini uchastkalari sotib olinish, sotish, xadya qilish, meros, omonat, garov obyektlari bo‘lishi yoki boshqa ko‘rinishda tortib olinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi Qonunining 31-bandiga muvofiq, yer mulkdorlari va yerdan foydalanuvchilar o‘zlariga berilgan yer uchastkalari hududi chegaralarida litsenziya olinmagan tarzda, qonunchilikda belgilangan shartlar asosida foydali qazilmalarning davlat balansi tomonidan zahiralari roy‘xatga olinmagan, umumiy tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish va o‘zlarining xo‘jalik va maishiy ehtiyojlari uchun portlash ishlarini qo‘llamay yer ostki inshootlarni qurilishini amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Boshqa xil foydali qazilmalardan foydalanishga nisbatan, qat’iy litsenliyalash tartibi joriy qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 7 dekabrdagi №312-II sonli “Mahsulotning taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida” gi Qonuniga muvofiq, “chet ellik sarmoyadorga, to‘lov asosida va ma’lum muddatga shartnomada ko‘rsatilgan yer uchastkasida foydali qazilmalarning konlari qidiruvi, tekshirilishi va qazib olinishiga va mazkur ishlarini olib borish uchun alohida huquq berilishi mumkin, sarmoyador esa, o‘z navbatida ko‘rsatilgan ishlarni o‘z hisobidan va o‘zining tavakkal qilishi asosida amalga oshirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi”.

Respublika mulki tarkibida ma’lum shartlarda o‘zga shaxslarning mulkiga o‘tishi mumkin bo‘lgan mulk ham mavjud. Mazkur toifaga, masalan, respublika budjeti mablag‘larini, oltin zahirani, valyuta jamg‘armasini va boshqa davlat jamg‘armalarini, va shuningdek, korxonalarini hamda davlatning budjet yoki boshqa mablag‘lari hisobiga yaratilgan yoxud sotib olingan intellektual faoliyat natijalari bilan teng ravishda boshqa har xil mulk majmualarini kiritish lozim.

Respublika mulki huquqi vujudga kelishi asoslari orasida, o‘ziga hos manba’larni, ya’ni soliqlar ko‘rinishidagi yoki boshqa har xil majburiy to‘lov tushumlarining manba’larini (masalan, davlat budjetdan tashqari

jamg'armalariga qilinadigan ajratmalarni) ko'rsatish darkor.

Davlat budjeti, shuningdek, mol-mulkning musodara qilinishi, ya'ni huquqbuzarlik uchun jazo chorasi sifatida mol-mulkning majburiy to'lovsiz davlat mulki tarkibiga olib qo'yilishi hamda rekvizitsiya (ya'ni favqulodda vaziyatlarda mulkdordan rekvizitsiyalangan (olib qo'yilgan) mol-mulkning qiymatining qoplanishi bilan, davlat va ijtimoiy manfaatlar uchun mulkdor mulkini majburan olib qo'yish) vositalari hisobidan ham to'ldirilishi mumkin.

Shunday tarzda, mulk respublika mulki tarkibiga nafaqat umumiy (umumfuqarolik) usullari orqali, balki xususiy mulkchilik munosabatlari uchun hos bo'lmagan maxsus usullarda, ya'ni soliqlar, tushumlar va boj to'lovlari va shuningdek, rekvizitsiya, musodara hamda natsionalizatsiya yordamida ham mol-mulk tushishi mumkin.

Ommaviy mulkni vujudga kelishining asosi sifatida turarjoylarni egasiz deb tan olinishi xizmat qilishi mumkin. Xususan, 2006-yil 21-yanvardagi 8-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Egasiz turarjoylarini aniqlash, ro'yxatga olish va davlat mulkiga aylatirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi egasiz uy-joylarni davlat mulkiga aylantirish tartibini nazarda tutadi.

Ommaviy huquqiy tuzilmalar mulk huquqining bekor qilinishi uchun maxsus asos ham, ya'ni xususiy mulk huquqi paydo bo'lishining alohida, mustaqil asosi bo'lgan xususiylashtirish mavjuddir.

FK 214-moddasining beshinchi qismida respublika mulki tarkibidan chiqarish asosi ya'ni qonun tomonidan belgilangan tartibda ommaviy mulk toifasidan xususiy mulkka o'tish imkoniyatiga ishora qilinadi. Mazkur holatlarning eng ko'p tarqalgan ko'rinishlaridan biri xususiylashtirishdir. Bunda, muomaladan chiqarilgan, davlatning alohida mol-mulkidan tashqari, maxsus qonun tomonidan belgilangan xususiylashtirish obyektiga har qanday ko'chmas mulk kiritilishi mumkin. Ko'char mol-mulkning ommaviy huquqiy tuzilmalardan xususiy shaxslarga o'tishi, qoida bo'yicha, mulkning tasarruf etish bo'yicha an'anaviy fuqarolik - huquqiy bitimlar tartibida, eng avvalo fuqarolik qonunchiligi qoidalariga muvofiq tuziladigan va rasmiylashtiriladigan oldi-sotdi shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda ommaviy huquqiy tuzilmalarga qarashli aksiyadorlik jamiyatlarning aksiyalari bundan mustasno bo'ladi va ular fuqarolarning hamda yuridik shaxslarning mulkiga nafaqat fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan umumiy tartibda, balki xususiylashtirish to'g'risidagi qonunchilik tomonidan belgilangan maxsus tartibda ham

olinishlari mumkin.

Ommaviy mulk toifasidan xususiy mulk tarkibiga korxonalar (mulkiy majmualar), turarjoy binolari, xonadonlar, yer uchastkalari kabi obyektlarning o'tishi maxsus qonunlar tomonidan nazarda tutilgan. Mazkur qonunlar, shuningdek, mulk huquqining rasmiylashtirilishi bilan birga, shunday o'tishning shartlari va tartibini ham belgilaydi. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi FKning mulk huquqining qo'lga kiritilishi va bekor qilinishi to'g'risidagi umumiy qoidalari faqat xususiylashtirish to'g'risidagi qonunchilikda maxsus ko'rsatmalar mavjud bo'lmaganligi shartidagina mazkur munosabatlarga taalluqli bo'ladi. Aslida bu, maxsus qonun umumiy qonundan ustuvorligi to'g'risidagi umumiy qoidaga muvofiq, xususiylashtirish munosabatlari Kodeks qoidalarining ta'siri doirasidan qisman chiqarilganligini bildiradi.

FK 215-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlari yoki ular tomonidan vakolatlangan organlar munitsipal mulk huquqining subyektlari deb e'lon qilingan.

Munitsipal mulk huquqining subyektlari, odatda, murakkab tizimli tuzilmalar bo'lib, o'zining ma'muriy-boshqaruv, ijtimoiy-madaniy, tezkor-xo'jalik kabi organlarining keng tarmog'i orqali faoliyat yuritadilar, ammo faqat ular bilan cheklanib qolmaydilar.

Bunda, munitsipal mulkning huquqiy rejimini vujudga kelishi mol-mulkni davlatdan ma'muriy-hududiy tuzilmalarga berishning qonun tomonidan tartibga solingan jarayoni doirasida sodir bo'ladi.

Bu holda O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 2-sentyabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunning 8-moddasi ikkinchi qismining normalariga tayanish lozim, unda quyidagicha ko'rsatilgan: "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, budget mablag'lari, budgetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin".

Obyektlar respublika mulkidan keyinchalik munitsipal mulk qilib berilganda, shuningdek, mol-mulk mulkdorining barcha huquqlari va

uning erkin xohish bildirishiga rioya qilingan holda o‘tkazishning tegishli huquqiy tartibiga rioya qilish zarur. Respublika mulkini munitsipal mulk tasarrufiga o‘tkazishning oldi-sotdi va boshqa sh.k. shakllari ham mavjud deb hisoblash mumkin. Ammo bu masalalar beistisno xususiy mulk bitimlarining fuqarolik - huquqiy konstruksiyalari doirasida hal qilinmasligini hisobga olish muhimdir. Ommaviy manfaatlarni hisobga olgan holda bunda mazkur ommaviy mulk obyektlarining maxsus huquqiy rejimi qo‘llanishi lozim.

Shu sababdan mazkur munosabatlar maxsus huquqiy tartibot obyekt sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 9-avgustdagi 287-sonli “Toshkent shahar hokimligining munitsipal mulk obyektlarini sotish to‘g‘risida” gi Qarorida Toshkent shahar hokimligiga tegishli mol-mulkni sotish tartibini nazarda tutadi.

Umuman olganda, munitsipal mulk huquqining obyekt bo‘lgan mol-mulk, respublika mulkini tashkil etuvchi mol-mulk qaysi guruhlarga bo‘linsa, xuddi shunday bo‘linadi:

- xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqida munitsipal korxonalar va muassasalarga birlashtirilgan mol-mulk;
- munitsipal korxonalar va muassasalarga birlashtirilmagan, munitsipal budjetni, munitsipal uy-joy fondini tashkil etuvchi mol-mulk va b.

Birinchi guruhdagi mol-mulk asosan ijtimoiy (ta‘lim, tibbiyot, madaniyat) va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Ikkinchi guruhga kiradigan mol-mulk esa aholining tegishli ma‘muriy-hududiy birlik hududida yashashi bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirishi, shuningdek, mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyatini moliyaviy va moddiy jihatdan ta‘minlashi lozim.

Munitsipal mulk sirasiga kiradigan mol-mulk o‘zining tur, miqdor va narx holati bo‘yicha, tabiiyki, respublika mulk huquqining obyekt bo‘lgan mol-mulkka mos kelmaydi. Ko‘rsatilgan parametrlar bo‘yicha u anchayin cheklangan va o‘ziga xosdir, chunki mahalliy ahamiyatga ega davlat vazifalarini hal etishga mo‘ljallangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Ommaviy mulkning shakllanish manbalarida soliqlar muhim o‘rin tutadi? Biroq soliqlarni undirish fuqarolik huquqiy munosabatlar tarkibiga kirmaydi. Shu sababli soliqlarning ommaviy mulkning shakllanish manbai

sifatidagi ya'ni holatini uning soliq huquqi obyektligi holatidan kelib chiqib muhokama qiling?

2. Munitsipal mulkni xususiylashtirish haqidagi qaror chiqarishda vazirlik va idoralarning vakolatlari va mahalliy davlat hokimiyat organlarining vakolatlarini to'qnashuvi va ularning o'zaro nisbatini fuqarolik-huquqiy nuqtayi nazardan mushohada eting?

3. Toshkentdagi uylardan birida kvartira bo'shadi. Toshkent shahar hokimiyatining uy-joy boshqarmasi va Yashnobod tumani hokimiyati o'rtasida bo'sh kvartirani kim band qilishi va buning uchun order berish to'g'risida nizo kelib chiqdi. Uy-joy boshqarmasining fikriga ko'ra, uy shahar mulki bo'lib, faqat shu boshqarma uni tasarruf eta oladi.

Yashnobod tumani hokimiyati esa, uyni mahalliy hokimiyat mulki deb hisobladi, uni berish tuman hokimiyati tomonidan beriladigan order orqali amalga oshirilishi va uy tuman uy-joy tashkiloti balansida turganligini bildirdi.

Ish qanday hal qilinadi? Davlat va mahalliy hokimiyat mulki asoslarga ko'ra bir-biridan farqlanadi?

4. "Namuna" xo'jaligi boshqaruvi o'z egaligidagi yerlardan bir qismini fuqarolarga, fermer xo'jaliklariga cheklangan tarzda sotib yubordi. Bundan xabar topgan mahalliy davlat hokimiyati organi xo'jalik boshqaruvi qarorini bekor qilish haqidagi xo'jalik sudiga murojaat qildi.

Masala qanday hal qilinadi? Bunday holatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi? Qanday hollarda yer xususiylashtirilishi mumkin?

14-MAVZU. UMUMIY MULK HUQUQI

Umumiy mulk huquqi tushunchasi va turlari. Umumiy mulk huquqining rejimi. Umumiy mulkdan ulush ajratish va uni taqsimlash. Imtiyozli sotib olish huquqi.

Umumiy mulk huquqi tushunchasi va turlari

Ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo‘lgan mol-mulk ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi.

Mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi alohida bir shaxsga (fuqaro, yuridik shaxs, davlat, ma‘muriy-hududiy tuzilma) tegishli bo‘lsa, mulk bir subyekтли hisoblanadi. Shunga muvofiq, bu holda mulkdorga qarshi turgan barcha uchinchi shaxslar, ushbu shaxsning mulkdan foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq vakolatlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi barcha xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari kerak. Agar mol-mulkka nisbatan mulk huquqi ikki yoki undan ko‘proq shaxsga tegishli bo‘lsa, umumiy mulk vujudga kelib, bu holda uni ishtirokchilarining barcha uchinchi shaxslar bilan tashqi munosabatlaridan tashqari, ushbu mulk ishtirokchilarining o‘rtasida ichki munosabatlar ham mavjud bo‘ladi. Bunday shaxslar (sherik mulkdorlar) o‘rtasidagi ichki munosabatlarni tartibga solish zaruriyati umumiy mulk instituti deb ataluvchi, mulkdorlarning o‘zlariga tegishli umumiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq vakolatlarini amalga oshirishda sherik mulkdorlarning irodasini muvofiqlashtirishga mo‘ljallangan huquqiy normalar tizimini yuzaga keltirdi.

Umumiy mulkning barcha turlariga taalluqli o‘ziga xos xususiyatlar bo‘yicha quyidagilarni qayd etish mumkin:

– birinchidan, u ikki yoki undan ko‘proq shaxsga tegishli, ya‘ni ko‘p subyektlidir;

– ikkinchidan, uning predmetini umumiy toifaga kiruvchi muayyan bir mol-mulk tashkil etadi;

– uchinchidan, umumiy mulkchilikda sherik mulkdorlarning barcha uchinchi shaxslar bilan tashqi munosabatlaridan tashqari, ularning o‘rtasida ichki munosabatlar ham mavjud bo‘ladi.

Yuridik adabiyotda bir necha shaxsga tegishli mulkni belgilash uchun ayrim payt “jamoa mulki” singari atama ishlatiladi, bu esa huquqiy jihatdan uncha to‘g‘ri emas, chunki “jamoa mulki” tushunchasida gap mulkni huquqiy subyekt yaxlitligini tashkil etuvchi biron jamoaga tegishli

ekanligi to'g'risida borishi faraz qilinadi. Vaholanki, ko'p subyektli mulk munosabatlarida gap mulkning yagona huquq subyektini tashkil etmaydigan bir necha shaxsga tegishli ekanligi xususida boradi. Buning ustiga ayrim hollarda jamoaviy deb yuridik shaxslarga tegishli mulk tushuniladi.

FKning 216-moddasi ikkinchi qismga muvofiq umumiy mulkning ikki xil: ulushli va birgalikdagi turlari farqlanadi. Har bir ishtirokchining ulushi belgilangan mulk ulushli bo'ladi, demak-ki, ulushlar belgilanmagan mulk birgalikdagi hisoblanadi.

Qonun faqat qat'iy belgilangan hollardagina birgalikdagi mulk munosabatlari vujudga kelishiga yo'l qo'yadi. Sababi shuki, birgalikdagi mulk ishtirokchilari tomonidan vakolatlarni amalga oshirish juda o'ziga xos bo'lib, ular tomonidan FK va maxsus qonunchilik qoidalarining qo'llanilishi ular o'rtasidagi munosabatlarning yuqori darajada ishonchli deb faraz qilinadi. Aynan shuning uchun ham qonun, birgalikdagi mulkni ulushli mulkka aylanishiga ruxsat bersa ham, umumiy qoida bo'yicha buning teskarisiga yo'l qo'ymaydi.

Qayd etish lozimki, birgalikdagi mulkda mol-mulkning umumiyligi ulushli mulkka nisbatan ko'proq darajada ifodalangan. Buni, birgalikdagi mulk ishtirokchilari (er-xotin, dehqon xo'jaligi a'zolari va h.) o'rtasidagi munosabatlar ancha ishonchli va barqaror xususiyatga egaligi bilan tushuntirish mumkin. Ammo bu birgalikdagi mulkda umuman ulush yo'qligini anglatmaydi. Bu masaladagi farq shundan iboratki, ulushli mulkdagi har bir ishtirokchining ulushi, odatda, avvaldan belgilangan, birgalikdagi mulkda esa ulush faqat umumiy mulk taqsimlanganda yoki ajratilganda, ya'ni birgalikdagi mulk munosabatlari tugatilgan paytda aniqlanadi. Bu holda ham ulushli, ham birgalikdagi (yuqorida ko'rsatilgan holatlarda) mulkdagi ulushlar, qonun yoki shartnomada o'zgacha tartib belgilanmagan bo'lsa, teng deb faraz qilinadi.

Umumiy birgalikdagi mulk o'z vazifasini o'zgartirmagan holda taqsimlanishi mumkin bo'lmagan (bo'linmaydigan ashyolar) yoki qonunga ko'ra taqsimlanishi mumkin bo'lmagan mol-mulk ikki va undan ortiq shaxs mulkiga o'tgan paytda vujudga keladi.

Mol-mulkka nisbatan umumiy mulkchilik, uning bo'linmaydigan mol-mulkligidan, qonunga binoan bo'linishi mumkin bo'lmagan mol-mulkligidan yoki bo'linadigan mol-mulkligidan qat'i nazar vujudga kelishi mumkin. Basharti mol-mulk vazifasini o'zgartirmagan holda taqsimlanishi yoki qonunga ko'ra taqsimlanishi mumkin bo'lmasa, unga nisbatan umumiy mulkchilik mol-mulkka xos bo'lgan funkstional sifatlar yoxud

uning huquqiy rejimi oqibatida paydo bo'ladi. Mol-mulk bo'linuvchi sirasiga kirsa, unga nisbatan umumiy mulkchilik faqatgina qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan holatlardagina vujudga keladi.


FK umumiy ulushli va umumiy birgalikdagi mulkni ta'rifi ham, vujudga kelish asoslariga ham turlicha yondashadi. Umumiy ulushli mulkning vujudga kelish asoslari to'la-to'kis aniqlanmagan. U qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan holatlarda ham, tomonlarning kelishuvi, sudning qarorida nazarda tutilgan holatlarda ham, shuningdek, umumiy ulushli mulk paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan boshqa vaziyatlar ta'sirida ham vujudga kelishi mumkin.

Umumiy ulushli mulk ishtirokchilarining doirasi qonun bilan cheklanmagan. Ular mulkchilikning turli shakllarini turli birikmada ifodalashlari mumkin. Fuqarolar, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida, yuridik shaxslar, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, fuqarolar va hokazolar o'rtasida umumiy ulushli mulkchilik bo'lishi mumkin. Jumladan, meros mol-mulkning qisman egasizlik holatida bir tomondan davlat mulkchiligi, ikkinchi tomondan esa fuqarolar va yuridik shaxslar mulkchiligi vujudga kelishi mumkin. Bu holda qonun mulkchilikning turli shakllarini ifodalovchi subyektlarning umumiy mulkchiligini majburiy to'xtalishini talab etmaydi. Aksincha, umumiy ulushli mulkchilik faqat qonunda nazarda tutilgan holatlardagina vujudga kelishi mumkin, bunda qonun tomonidan uni ishtirokchilarining doirasi ham qat'iy belgilangan.

O'z navbatida, mol-mulkka nisbatan birgalikdagi mulkchilikning paydo bo'lishi faqat qonunda belgilangan hollardagina mumkin (er-xotinning, dehqon xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi mulki). Mol-mulkka birgalikdagi mulk huquqi birgalikdagi mulk ishtirokchilarining kelishuviga binoan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sudning qarori bilan ulushli mulkchilik huquqiga almashtirilishi mumkin. Bunda har bir mulkdorning mulk huquqidagi ulushi belgilanishi lozim.

Birgalikdagi mulk ishtirokchilari o'rtasidagi yaqin aloqalari bilan ulushlidan ajralib turadi. Birgalikdagi mulk ishtirokchilari ulushga haqli emaslar. Shu sababli umumiy mulkning bunday shaklini ayrim payt ulushsiz deb ham atashadi. Birgalikdagi mulk ishtirokchilari o'z huquqlarini uchinchi shaxslarga umumiy mulkchilik rejimini to'xtatmasdan berishga haqli emaslar. Shunday qilib, birgalikdagi mulk ishtirokchilarining tarkibi tasarrufli bitimlar asosida o'zgarishi mumkin emas. Birgalikdagi mulk ishtirokchilarining doirasi qonunda aniq belgilangan.

Birgalikdagi mulk ishtirokchisining tasarruf imkoniyatlari ulushli mulkka nisbatan sezilarli darajada cheklangan. U nafaqat o'z huquqlarini boshqaning tasarrufiga o'tkazishi, balki, boshqa ishtirokchilar bilan munosabatlarini ulushli mulk munosabatlariga o'zgartirmasdan turib birgalikdagi mulk ajratilishini yoki taqsimlanishini ham talab qilishga haqli emas. Bunda birgalikdagi mulk ishtirokchilari kelishuv yo'li bilan uni ulushli mulk sifatida qayta tuzishga, shakllantirishga haqli. Qayta tuzish to'g'risida ham, ulushlarning miqdori to'g'risida ham kelishuvga erishilmagan taqdirda qaror sud tomonidan qabul qilinadi.



Umumiy mulk huquqining rejimi

FKning 217-moddasi 1-qismiga ko'ra, agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo'lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi. Bu qoida umumiy ulushli mulk ishtirokchilari ulushlari tengligining prezumpsiyasini mustahkamlaydi. Ammo, bu prezumpsiya rad qilinishi mumkin, chunki ulushlar, basharti qonun asosida aniqlanishi mumkin bo'lmasa hamda umumiy ulushli mulkning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilanmagan bo'lsa teng hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi tomonidan umumiy ulush huquqidagi ulushlarning tengligi prezumpsiyasini ishlatilishi fuqarolik qonunchiligining umumiy tamoyili–fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda oqillik va adolat talablariga rioya qilishning ko'rinishlaridan biridir. Umumiy ulushli mulk munosabatlarining ishtirokchilariga kelishuvga erishish orqali odatiy tartibni o'zgartirish hamda umumiy mulk huquqidagi ulushlarning o'zgacha miqdorlarini belgilash imkoni taqdim etilgan.

Ulushlar tengligining prezumtsiyasi tom ma'noda umumiy ulushli mulkka nisbatan mustahkamlangan bo'lsa ham, u umumiy birgalikdagi mulkka nisbatan ham, qachonkim u ajratilgan yoki taqsimlangan holatda barchaning yoxud faqat ajralayotgan sherik mulkdorning ulushini aniqlash zarurati vujudga kelganda amal qilaveradi. Bu xulosa Oila kodeksining er-xotinning umumiy birgalikdagi mulkiga doir, shuningdek, dehqon xo'jaligi a'zolarining umumiy birgalikdagi mulkiga doir normalarida o'z tasdig'ini topadi.

Kelishuv bilan ulushni aniqlash tartibi belgilab qo'yilishi mumkin. Bu holda u barcha ishtirokchilar uchun majburiy bo'lib qoladi va ular ulush miqdorini kelishuvda ko'rsatilganidan boshqacha tarzda hisob-kitob qilishga haqli emaslar.

Basharti ulush miqdorining umumiy mulk obyektiga qo'shilgan hissaga bog'liqlik sharti to'g'ridan-to'g'ri qayd etilmagan bo'lsa, ammo taraflarning munosabatlari shunday shartni faraz qilsa, u holda ulush miqdori kiritilgan hissani e'tiborga olib tegishli kelishuvga erishish yo'li bilan, erishilmagan taqdirda esa sud tomonidan belgilanadi.

Bundan tashqari, ulushlar tengligi prezumtsiyasidan chekingan holda umumiy ulushli mulk ishtirokchilarining kelishuviga muvofiq ularning ulushlari har bir shaxsning umumiy mol-mulkni vujudga keltirish va orttirishga qo'shgan hissasiga muvofiq aniqlanishi belgilab qo'yilishi mumkin. Ushbu hissa nafaqat umumiy mulkni tashkil etish paytida, balki uning mavjudligi va faoliyatining keyingi bosqichlarida ham unga kiritilgan moddiy, mehnat va o'zga qo'yilmalarni hisobga olib aniqlanishi mumkin. Bunday vaziyat, taraflar o'z hissalarini birlashtirib, umumiy xo'jalik maqsadiga yetish uchun birgalikda harakat qilishni boshlaydigan oddiy shirkat shartnomasini tuzishda yuzaga keladi. Birgalikdagi faoliyat mobaynida har bir ishtirokchining umumiy mulkka qo'shgan hissasi sezilarli darajada o'zgarishi mumkin.

Ulushlarning miqdorini aniqlash to'g'risidagi umumiy qoidalarni rivojlantirgan holda O'zbekiston Respublikasi FK 217-moddasining uchinchi qismi bunda umumiy mulkka ajralmas yoki ajraladigan yaxshilashlar kiritilganini hisobga olishni taklif etadi.

Yaxshilash deganda qonun chiqaruvchi mol-mulkning qiymatini oshirgan yoki uning iste'mol xususiyatlarini qulaylashtirgan oqilona va o'rinli o'zgartirishlarni tushunadi.

Ajratib olinadigan deb ashyodan unga sezilarli ziyon yetkazmasdan ayirib olish mumkin bo'lgan yaxshilashlar tan olinadi. Basharti bunday ajratib olish zararni yetkazsa uning boshlang'ich holatiga nisbatan

ashyoning yomonlashuvi muqarrar bo'lsa, yaxshilashlar ajratib olinmaydigan deb hisoblanadi.

Agar ulushli mulk ishtirokchisi belgilab qo'yilgan tartibga amal qilgan holda umumiy mol-mulkni o'z hisobidan ajratib olish mumkin bo'lmaydigan tarzda yaxshilagan bo'lsa, u mol-mulk qiymatining ortishiga mutanosib ravishda o'z ulushining tegishli darajada ko'paytirilishini talab qilishga haqli bo'ladi. Bundan xulosa shuki, belgilab qo'yilgan tartibga amal qilinmagan bo'lsa (masalan, mol-mulkka yaxshilash kiritish uchun barcha sherik mulkdorlarning roziligi olinmagan bo'lsa), sherik mulkdor o'z ulushi miqdorini ko'paytirilishiga haqli bo'lmaydi. Yaxshilashlar ajratib olinadigan bo'lsa, sherik mulkdor yaxshilash kiritish uchun umumiy mulkning boshqa ishtirokchilarini roziligini so'rashi shart emas, chunki yaxshilashlar umumiy mulkka ziyon yetkazmasdan ajratib olinishi mumkin bo'ladi. Ajratib olinadigan yaxshilashlarning taqdiri barcha sherik mulkdorlarning roziligi bo'yicha aniqlanadi. Ular yaxshilashni kiritgan shaxsga umumiy mulkdagi ulushlarni o'zgartirmagan holda tegishli kompensatsiya to'lash; yaxshilashni kiritgan sherik mulkdorning ulushini ko'paytirish va h.k. to'g'risida kelishib olishlari mumkin. Bunday kelishuv bo'lmasa ajratib olinadigan yaxshilashlar ularni kiritgan shaxsning mulkiga o'tadi.

Ulushli mulkdagi mol-mulk uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan tasarruf etiladi. Amaldagi FK ulushli mulkchilikdagi mol-mulk hamda ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi ulushini tasarruf etishning turli tartibi belgilangan. Jumladan, birinchi holatda umumiy mulkni barcha ishtirokchilarining roziligi talab qilinsa, ikkinchi holda esa ulushli mulk mulk ishtirokchisi ulushini o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf qilishi mumkin. Mol-mulkni tasarruf qilish deb unga nisbatan har qanday bitimlarni tuzish, shuningdek, mol-mulkka nisbatan o'zga tasarrufiy xatti-harakatlarni (uni o'zgartirish, qayta qurish, mulkdan voz kechish, mol-mulkni buzish va sh.k.) sodir etishga aytiladi.

Umumiy mulkni tasarruf etishda: umumiy mulk huquqining bir ishtirokchisi – bitta ovoz tamoyili amal qiladi. Ulushni miqdori inobatga olinmaydi; barcha sherik mulkdorlarning bir ovozdan qabul qilgan qarori zarur bo'ladi. Kelishuv bo'lmagan taqdirda nizo sherik mulkdorlardan istalgan birining da'vosi bilan sudda hal etilishi mumkin.

Umumiy qoida bo'yicha, ulushni tasarruf etish uchun boshqa sherik mulkdorlarning roziligi talab etilmaydi. Ulushli mulkning ishtirokchisi o'z xohish-ixtiyori bilan mulk huquqidagi ulushini sotishi, sovg'a qilishi, vasiyat qilib qoldirishi, garovga berishi yoki boshqacha tarzda tasarruf

qilishi mumkin. Haq olib tasarrufdan chiqarishda ulushli mulk ishtirokchilari tomonidan ulushni imtiyozli sotib olish huquqi amal qiladi.

Ishtirokchilardan biri tomonidan umumiy ulushli mulkdagi mol-mulkni tasarruf qilishga oid bitimlar yoki o'zga harakatlarning sodir etishi boshqa ishtirokchilarning roziligi bo'lmaganda bunday bitimlarning o'z-o'zidan haqiqiy emasligiga olib keladi, shu bilan u birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkka nisbatan sodir etilgan bitimlarning nizoli ekanligini nazarda tutuvchi fuqarolik normasi qoidasidan farqlanadi.

Agar umumiy mulkni tasarruf qilish, avvalo, uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzishni nazarda tutsa, umumiy mulkka egalik qilish va undan foydalanish ishtirokchilar o'rtasidagi mol-mulkning o'ziga, uning foydali xususiyatlarini chiqarib olishga, ashyo ustidan hukmronlik qiliishga doir munosabatlarni qamrab oladi.

Bunda umumiy mulkchilikda bo'lgan mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, uni tasarruf etish ham barcha ishtirokchilarning kelishuviga ko'ra, ulardan hech bo'lmasa birining e'tirozi bo'lgan taqdirda esa sud belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulkka egalik qilish uning ustidan to'liq jismoniy nazoratdan iboratdir. Mol-mulkni qo'riqlash, turarjoyda istiqomat qilish yoki turarjoyga mo'ljallanmagan binoda turish egalikning shakllari bo'lishi mumkin. Egalik barcha ishtirokchilar tomonidan umumiy kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi. Barcha ishtirokchilarning ashyoga teng erishuvi (foydalanishi) kelishuvda nazarda tutilishi shart emas. Agar hech bo'lmaganda bitta ishtirokchi umumiy rozilik bilan ashyoni nazorat qilayotgan bo'lsa, egalik amalga oshirilyapti deb hisoblanishi mumkin. Shunga muvofiq, uchinchi shaxslar tomonidan egalikning buzilishi ishtirokchilardan istalgan biri tomonidan huquqbuzarga qarshi qaratilgan egalikni (mulk huquqini) himoyalash to'g'risida da'vo kiritish huquqini beradi.

Ulushli mulkning ishtirokchilari umumiy mulkdan yaxlit holda yoki uning ayrim qismlaridan foydalanishlari va unga egalik qilishlari mumkin. Tanlov, odatda, umumiy mulk huquqi obyektiga bog'liq bo'ladi. Bo'linmas ashyolar yagona birlik sifatida ishlatiladi. Masalan, bir yoki bir necha qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarning umumiy mulki sifatida xarid qilingan murakkab texnika har bir sherik mulkdor tomonidan mulk huquqidagi ulushiga muvofiq muayyan vaqt ishlatiladi. Umumiy ulushli mulkdagi xonadonga ega oila a'zolari xonalardan bir qismini alohida (masalan, yotoqxona, kabinet va x.k.), boshqa qismidan esa (vannaxona, oshxona, karidor va x. k.) birgalikda foydalanadilar.

Ishtirokchilar tomonidan egalik mulkdorlar sifatida amalga oshiriladi, shu sababli ular, o'zlari uchun egalik qilgan holda, bir paytning o'zida ashyodan foydalanish huquqini amalga oshirmoqda, uni saqlash bo'yicha majburiyatlarni bajarmoqda va boshqa jihatlardan ham o'zlarini uning mulkdori sifatida tutishyapti deb faraz qilinadi. Demak, mol-mulkni ishtirokchiga (ulush egasiga) egalikka yoki foydalanishga ajratish bir paytning o'zida shu mol-mulkka nisbatan mulkdorning barcha huquqlarini alohida kelishuvsiz amalga oshirishni bildiradi. Ammo ashyodan foydani unga egalik qilmasdan ham chiqarib olishning imkoni bo'lsa, bu holda foydalanish alohida kelishuv predmetiga aylanishi mumkin.

Sherik mulkdorlar ulushlarining miqdori nafaqat umumiy mulkka egalik qilish va undan foydalanishda, hosil, mahsulot va daromadlarni taqsimlashda, balki uni saqlab turish, asrash xarajatlarni ko'tarishda ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Har bir sherik mulkdor o'z ulushiga mutanosib ravishda umumiy mulkni saqlash bo'yicha xarajatlarda ishtirok etishi shart.

Umumiy mulkdan ulush ajratish va uni taqsimlash

Ulushli mulkdagi mol-mulkni taqsimlash deganda mazkur mol-mulk qismlarining sherik mulkdorlarni har birining egaligiga ularning umumiy mulk huquqidagi ulushlariga mutanosib ravishda o'tishiga va ushbu mol-mulkka nisbatan umumiy ulushli mulkchilikning tugatilishiga aytiladi. Umumiy mulkdan ulush ajratish – ushbu mulkni bir qismining umumiy mulk ishtirokchisining mulkiga uning umumiy mulk huquqidagi ulushiga mutanosib ravishda o'tishiga va bu shaxs uchun umumiy mulkdagi ulushga nisbatan huquqning bekor bo'lishiga aytiladi. Taqsimlash ham, ajratish ham umumiy ulushli mulk ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bo'yicha amalga oshishi mumkin. Bunda ularni har birining o'z ulushini ajratishni talab qilish huquqi bo'ladi. Mazkur huquqni amalga oshirish uchun ulushli mulkni boshqa ishtirokchilarining roziligi talab etilmaydi.

Ulushli mulkchilikda bo'lgan mol-mulkning turi uni taqsimlash yoki undan ulush ajratishning tartibiga ta'sirini ko'rsatadi. Mol-mulk, basharti qonunda yo'l qo'yilsa va mol-mulkka nomutanosib zarar etmasa, natura shaklida taqsimlanishi mumkin. Xuddi shunday shart-sharoitda ulushni ham naturada ajratish imkoni bo'ladi. Agar natura shaklida mol-mulkni taqsimlashga yoki ulush ajratishga yo'l qo'yilmasa, gap boshqa usullar ustida ham borishi mumkin, masalan, butun mol-mulkni sotib, tushum summasini ulushlar bo'yicha taqsimlash yoki ajralayotgan sherik mulkdorga uning ulushi qiymatini to'lab berish.

Bo‘linmas ashyo natura shaklida taqsimlanishi mumkin emas. Taqsimlash ashyoni sotish va umumiy mulkni har bir ishtirokchisiga uning umumiy mulk huquqidagi ulushiga mutanosib bo‘lgan pul xissasini to‘lash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ulush sherik mulkdorlar tomonidan umumiy mulkning ajralib chiqayotgan ishtirokchisiga tegishli pul badalini xissasini to‘lash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.


Natura shaklida umumiy mulkni taqsimlash (ulush ajratish)ning imkoni bo‘lmaganda muqobil yo‘l sifatida mol-mulkka (undagi ulushga) mulk huquqini saqlab qolayotgan bir yoki bir necha sherik mulkdor tomonidan boshqa sherik mulkdor(lar)ga pul badalini to‘lash (bunda ular badal olganidan so‘ng bu huquqni yo‘qotadilar) bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, pul yoki o‘zga turdagi badalni (xissani) to‘lash va mol-mulkni natura shaklida taqsimlashni yoki ulushni ajratishni to‘lig‘icha o‘rnini bosmasdan, balki ular bilan birga kelishi mumkin, masalan, bunda naturada ajratilayotgan mol-mulkning ulushli mulk ishtirokchisining ideal miqdordagi ulushiga mutanosibligiga rioya qilishning imkoni bo‘lmasa, qolgan qismi pul badali yoki ishtirokchi roziligi bilan boshqacha mol-mulk tarzida beriladi. Badalning miqdori taraflarning kelishuvi bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda, sud tomonidan belgilanadi, zarur bo‘lsa, baholash faoliyati bo‘yicha mutaxassislar jalb qilinadi, bunda taqsimlash paytida umumiy mulkning real qiymatidan kelib chiqilib, naturada taqsimlashni texnikaviy ta‘minlash uchun sarflanadigan xarajatlar hamda bunday taqsimlash natijasida umumiy mulkning yomonlashish ehtimoli hisobga olinadi.

Basharti ulushli mulk ishtirokchilari taqsimlash va ajratishning usuli va shartlari to‘g‘risida o‘zaro bir to‘xtamga kelmasalar, yuzaga kelgan nizo, fuqarolik huquqi to‘g‘risidagi nizo sifatida sud tartibida hal etilmog‘i kerak. Bunda xissasi ajralib chiqayotgan sherik mulkdor umumiy qoida bo‘yicha o‘zining ulushini aynan natura shaklida ajratilishini talab qilishga haqlidir. Qachonki bunday ajratishni ulushga nisbatan aniq bajarishni imkoni bo‘lmasa, bu nomutanosiblik tegishli pul summasini to‘lash yoki o‘zga tartibda badal to‘lash usuli bilan bartaraf etiladi. Naturadagi ulush huquqidagi ulushdan ortib ketish-ketmasligiga bog‘liq ravishda kompensatsiyani to‘lash bo‘yicha majburiyat ulushli mulkni boshqa ishtirokchilarining foydasiga ajralib chiqayotgan sherik mulkdor zimmasiga, yoki aksincha, ajralayotgan sherik mulkdor foydasiga boshqa sherik mulkdorlar zimmasiga yuklatiladi.

Sud amaliyotida arziyas ulushga ega sherik mulkdor uni ajratib berishni talab qiladigan holatlar ko‘p uchrab turadi (masalan, uch xonali

xonadonda 1/16 ulushga ega merosxo‘r uni ajratib berishni so‘raydi). Bu holda sud arzimagan ulushga ega mulkdorga, uning rozilgisiz, kompensatsiya to‘lab berishni boshqa sherik mulkdorlar zimmasiga yuklashga haqli. Ulushning qanchalik darajada arzimasligini sud belgilaydi.



Imtiyozli sotib olish huquqi

Umumiy mulk sherik mulkdorlarni uchinchi shaxslar bilan bog‘laydigan tashqi munosabatlar va sherik mulkdorlarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘laydigan ichki munosabatlarning murakkab bog‘lanmasi bilan tavsiflanadi. Sherik mulkdorlar umumiy mulk munosabatlaridan chiqib ketayotgan kishining o‘rnini kim olishiga befarq emaslar. Bundan tashqari, mulkdorlar o‘zlariga tegishli ulush miqdorini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘lishlari mumkin. O‘z-o‘zidan ravshanki, o‘rtalarida umumiy mulk munosabatlari saqlanib qolayotgan shaxslarning hamda butun umumiy mulkka egalik qilish, ya’ni umumiy mulkdan bir subyektli mulkka o‘tishni istaydigan shaxslarning manfaatlari shu tarzda hisobga olinishi lozimki, bunda har bir sherik mulkdorning o‘z ulushini erkin tasarruf etish huquqi cheklanmasligi kerak. Sotib olishning imtiyozli huquqi to‘g‘risidagi qonunda mustahkamlab qo‘yilgan taomillar aynan o‘zaro manfaatlarning qat’iy hisobga olinishda qaror topadi.

Sotib olishning imtiyozli huquqi umumiy mulk ishtirokchilarining mulkdorlar sonini qisqartirishga bo‘lgan manfaatini ifodalab, bu ularning har biri uchun umumiy mulkning qadrini, shuningdek, har bir ishtirokchi ulushining ko‘paytirishga bo‘lgan imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari,

ushbu huquq vositasida ishtirokchilar ma'lum darajada birgalikdagi egalarning shaxsiy tarkibini nazorat qilish imkonini qo'lga kiritadilar, bu ham ular uchun sezilarli manfaatdir.

Sotib olishning imtiyozli huquqi mexanizmi shundan iboratki, umumiy mulkning boshqa ishtirokchilari belgilangan muddat ichida ulushini sotgan ishtirokchi tomonidan tuzilgan umumiy mulk huquqining oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha oluvchi (xaridor)ning huquq va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishga haqlidirlar. Bu huquq, sotuvchi boshqa ishtirokchilarni ulush sotilishi to'g'risida yozma shaklda xabardor qilish bo'yicha o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarganidan qat'i nazar kelib chiqadi.

Qonunda imtiyozli sotib olish huquqining doirasi belgilab berilgan. Bu huquq to'g'risida, birinchidan, ulush umumiy mulk ishtirokchilari jumlasiga kirmagan uchinchi shaxsga sotilganda, ikkinchidan esa, ulush (boshqacha tarzda tasarrufdan chiqarilmasdan) aynan sotilganda gap borishi mumkin. Bundan ikkita muhim amaliy xulosa kelib chiqadi. Sherik mulkdorlar, ulush ulardan biriga sotilayotganda yoxud u sotilmasdan, qonunda yo'l qo'yilgan boshqa biron usulda tasarrufdan chiqarilayotganda imtiyozli sotib olish huquqidan foydalana olmaydilar. Har ikkala holda ham sotib olishning imtiyozli huquqi to'g'risida gap yuritish mumkin emas. Birinchi holda – o'z ulushini sotish uchun umumiy mulk ishtirokchilaridan istalgan kishini tanlab olish huquqi aynan sotuvchiga tegishli bo'lgani uchun: sotuvchi ulardan xohlagan birini tanlashi mumkin. Ikkinchi holda esa ulush hech kimga sotilmasdan, boshqacha tarzda (masalan, hadya sifatida) tasarrufga o'tkazilgani uchun, bunda uni imtiyozli sotib olish huquqi ham bo'lmaydi. Sherik mulkdor, qachonki u ulushni sotuvchi taklif etgan narxda hamda taklif etilgan va barchaga teng bo'lgan boshqa shartlarda sotib olishga tayyor bo'lsa, imtiyozli sotib olish huquqidan foydalanishi mumkin.

Ulushni imtiyozli sotib olish huquqi faqat umumiy ulushli mulkning (sotuvchidan) boshqa ishtirokchilariga tatbiq qilingani sababli mazkur huquqdan boshqaning foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Kim oshdi savdosining maqsadi mol-mulkni (va shu jumladan ulushni ham) boshlang'ichga nisbatan eng baland narx taklif qilgan shaxsga sotishdan iborat bo'lgani sababli, ulush kimoshdi savdosida sotilganda imtiyozli sotib olish huquqi qo'llanilmaydi. Shu bilan birga sherik mulkdorlar kimoshdi savdosida umumiy asosda ishtirok etishlari mumkin.

Ulush qonunda nazarda tutilgan hollarda barcha sherik mulkdorlarning roziligi bo'lmaganda ham kimoshdi savdosida sotilishi mumkin, masalan, umumiy ulushli mulk ishtirokchisining majburiyatlari bo'yicha undiruv uning mol-mulkiga qaratilgan taqdirda.

FKning 224-moddada nafaqat sherik mulkdorlar tomonidan imtiyozli sotib olish huquqining mazmuni ochib beriladi, balki mazkur huquqni amalga oshirishning tomonlarning manfaatlarini hisobga oluvchi tartib-amaliyoti ham belgilanadi. Sotuvchi zimmasiga o'z ulushini o'zga shaxsga sotish niyati haqida umumiy mulkning boshqa ishtirokchilariga yozma ravishda ma'lum qilib, ulushning narxini va uni sotishning boshqa shartlarini ko'rsatish majburiyati yuklanadi.

Shu sababli qonun sherik mulkdorlar uchun ulushni sotib olish taklifiga javob qaytarish muddatini belgilaydi: gap ko'chmas mulkdagi ulushni sotish to'g'risida borayotgan bo'lsa, bu muddat bir oyni, ko'chadigan mol-mulkdagi ulush sotilganda esa o'n kunni tashkil etadi. Muddat ulushni sotish niyati haqida sherik mulkdorlarga xabar berilgan kundan hisoblanadi. O'zining yuridik tabiatidan kelib chiqilsa, bu huquqning mavjudlik davri, amal qilish muddati bo'lib, u, da'vo muddatidan farqli ravishda, na to'xtatilishi, na uzilishi va na tiklanishi mumkin emas.

Basharti sherik mulkdorlar ulushni sotib olishdan voz kechsalar yoki sotuvchining taklifiga hech bir usulda javob qaytarmasalar, ko'rsatilgan muddatlar (mos ravishda o'n kun yoki bir oy) o'tib bo'lganidan so'ng sotuvchi ulushni istalgan shaxsga sotib yuborishga haqli bo'ladi. Sherik mulkdorlarning sukut saqlashi bu o'rinda, ular ulushni imtiyozli sotib olish huquqini yo'qotishi sifatida yuridik ahamiyat kasb etadi.

Basharti ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda (masalan, sotuvchi ulushini sotishi to'g'risida boshqa sherik mulkdorlarni xabardor qilmagan yoki javobni kutish muddati tugashini kutmagan bo'lsa yoxud ulushini chet shaxsga sherik mulkdorlarga taklif qilinganidan ko'ra imtiyozliroq shartlarda sotgan bo'lsa), umumiy mulkning boshqa har qanday ishtirokchisi uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Umumiy mulkni tushunish uning huquqiy rejimini belgilash muhimdir. Bunda umumiy mulk huquqining mulk shakli yoki turi ekanligi

masalasini aniqlash lozim. Amaldagi qonunchilikda umumiy mulk huquqi mulk shakllaridan keyingi joylashtirilgan holatidan kelib chiqib, umumiy mulkning mulk shakli yoki turi ekanligini tahlil qiling?

2. Birgalikdagi umumiy mulkdan ulush ajratish va taqsimlashning ulushli mulkdan ulush ajratish va taqsimlashdan farqi nimada. Ulushlarni taqsimlashda sheriklarning xarajatlari hisobga olinishi faktini ham tahlil qiling?

3. Ota-onaning vafotidan soʻng ularning voyaga yetgan va alohida yashaydigan toʻrt nafar farzandlariga uy-joy meros qoldi. Merosxoʻrlarning uchtasi uyni sotish va tushgan mablagʻni oʻrtada taqsimlashni taklif qilishdi. Bittasi esa uyni sotishga qarshilik qilib, oʻz ulushi uchun uydan yashash uchun foydalanishni talab qildi.

Merosxoʻrlar oʻrtasida kelishuvga erishilmagach, uch merosxoʻr uyni sotishga qarshilik qilgan merosxoʻrga nisbatan uyni sotish paytida taʼsir oʻtkazmaslikni cheklash toʻgʻrisida sudga daʼvo bilan murojaat qilishdi. Oʻz talablarida ular uyning butunlay sotilishini, bu esa uning bozor narxini ancha oshirishini bildirishgan.

Ish qanday hal qilinadi?

4. Er-xotin Qobilov va Odilova oʻzlarining birgalikdagi hayotlari davomida "Nexia" mashinasiga ega boʻlishdi. Bir necha yil oʻtgach, Qobilov aviastiya halokati tufayli halok boʻldi. Uning onasi merosxoʻr sifatida Odilovaga nisbatan avtomashinani sotib, pulini taqsimlash toʻgʻrisida daʼvo qoʻzgʻatdi. Sudning qarori bilan avtomobil xotiniga qoldirildi, onasiga Odilova tomonidan pul kompensatsiyasi toʻlandi.

Bir oz vaqt oʻtgach, Odilova mashinani sotdi. Buni eshitib, Qobilovning onasi oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisida daʼvo qoʻzgʻatdi, uning fikricha avtomobil oldi-sotdisida oʻzining imtiyoli sotib olish huquqi buzilgan.

Masalani tahlil qiling?

15-MAVZU. MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIY HUQUQLARNI HIMOYA QILISH

Mulk huquqini himoya qilish tushunchasi va usullari. Vindikatsion va negator da'volar. Mulkiy huquqini fuqarolik huquqi normalari bilan himoya qilishning boshqa usullari.

Mulk huquqini himoya qilish tushunchasi va usullari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mulkdor mulkiga o'z hohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. Uning bu huquqini mahrum etishga hech kim haqli emas. Ammo ijtimoiy turmushda, hayotda shunday holatlar bo'ladiki, mulkdorning bu huquqiga daxl qilinadi, tajovuz qilinadi. Bu holatda mulkdor yoki mulkdor bo'lmagan ega mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qiluvchi usullardan foydalangan holda o'z buzilgan huquqlarini tiklashga harakat qiladi.

Mulk huquqi himoya etilmas ekan, mulkiy munosabatlar normal tarzda rivojlana olmaydi. Shu sababli davlat turli huquq normalari orqali mulkdorning mulkka bo'lgan huquqini himoya etilishini kafolatlaydi. Mulkdor faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Mulk huquqini himoya qilishda Fuqarolik huquqi normalari muhim rol o'ynaydi. Mulk huquqini himoyasini ta'minlashda fuqarolik huquqi me'yorlari turli xil vazifalarni bajaradi. Ba'zi bir me'yorlar moddiy ne'matlarning u yoki bu shaxslarga tegishli ekanligini mustahkamlaydi. Mulk huquqini vujudga kelishi va bekor bo'lishi haqidagi me'yorlar shunday meyo'yorlar jumlasiga kiradi. Ikkinchi guruh me'yorlari esa mulkdorga tegishli huquqlarni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan sharoitlarni ta'min etsa, nihoyat uchinchi guruh me'yorlari mulk huquqini bevosita barcha uchinchi shaxslarning ta'siridan qo'riqlash va himoya etish vazifasini bajaradi. Bunday me'yorlarga mulkdorga yetkazilgan

moddiy zarar uchun javobgarlikni belgilovchi me'yorlarni kiritish mumkin¹.

Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni fuqarolik - huquqiy himoya qilish deganda – bu huquqlarga qarshi qilingan buzilishlarni bartaraf etish, mulkdorning mulkiy manfaatlarini tiklash va himoya qilishga qaratilgan fuqarolik qonunchiligida belgilangan vositalar yig'indisi tushuniladi.

Mulk huquqini uchinchi shaxslar tomonidan buzilishining xarakteri va mazmuniga qarab mulk huquqini himoya qilish turli usullarga turkumlanadi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. *Mulk huquqini ashyoviy huquqlar bilan himoya qilish.* Bu usul mulk huquqini mutlaq subyektiv huquq sifatida himoyalab hech qanday aniq majburiyatga bog'liq bo'lmagan holatda mulkdorning o'ziga tegishli bo'lgan ashyoga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqini tiklash yoki bu huquqlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan holatlarni bartaraf etish tushuniladi. Ashyoviy-huquqiy usullarga mol-mulkni birovning qonunsiz egaligidan talab qilish da'vosi (vindikatsion da'vo), egalik qilish huquqining bekor qilinishi bilan bog'liq bo'lmagan huquqbuzarliklarni bartaraf etishni talab qilish da'vosi (negator da'vo), mulk huquqini tan olish to'g'risidagi da'volar kiradi. Aniqroq qilib aytganda, mulk huquqi aniq subyektiv huquq sifatida faqat ashyoviy-huquqiy usullar bilan himoya qilinadi.

Mulk huquqini himoya qilishni aynan “ashyoviy huquqlar” bilan bog'lanishi mulkiy huquq buzilishi natijasida ham mulkdor kelajakda o'z mulkini aynan o'zini ashyoviy-natura shaklda qaytarib olishi mumkin bo'ladi yoki mulkiy huquqlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan to'sqinliklarni bartaraf etilishi uchun “kurashadi”. Buning oqibatida mulk ashyoviy ko'rinishda mulkdor tasarrufida qolishi ta'minlanadi yoki tiklanadi. Mulk qonunsiz egalikdan talab qilish jarayonida ashyoviy ko'rinishda qaytarilish imkoni bo'lmasa, u holda mulkiy himoya ashyoviy huquqlar bilan himoya qilish usullari tarkibiga kirmaydi.

2. *Majburiyat-huquqiy usullar bilan himoya qilish.* Bu usullarga mulkdorga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz orttirilgan mol-mulkni qaytarish, shartnoma bo'yicha olingan ashyoni, agar shartnoma bo'yicha


¹ Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истиқболлари. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. -157 б.

ashyo ma'lum muddatga foydalanishga berilgan bo'lsa, qaytarish kabi mulk huquqini himoyalovchi usullar misol bo'ladi. Ushbu usullarning barchasi uchun ularning asosini tashkil etuvchi omillar mulk huquqiga ega bo'lmay, balki boshqa huquqiy institutlarga tegishli subyektiv huquqlar xosdir. Masalan, mulkdor o'ziga tegishli mulkni ijaraga berib, ijara muddati tugagandan so'ng, ijaraga oluvchi mulkni mulkdorga qaytarmasa, mulkdorning huquqi mulk huquqi normalari bilan emas, shartnoma huquqi normalari bilan himoya qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, majburiyat-huquqiy usullar mulk huquqini bevosita emas, balki so'nggi natijaga bog'liq holatda himoya qiladi hamda majburiyat bajarilmasligi oqibatida mulk huquqini buzilishidan himoyalanih orqali namoyon bo'ladi. Bir qator holatlarda, jumladan, mulk nobud bo'lganda mulk huquqi o'z-o'zidan bekor bo'ladi. Bunda majburiyat-huquqiy usullar mulk huquqini himoya qilishga emas, mulkdorning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi.

3. *Fuqarolik huquqining turli institutlari bilan himoya qilish.* Bu guruhga mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilishning shunday usullari kiradiki, ular ashyoviy huquq va majburiyat-huquqiy munosabatlarga aloqador bo'lmasdan, fuqarolik huquqining turli institutlaridan kelib chiqadi. Bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning qaytib kelishi natijasida, uning mulkiy huquqlarini himoya qilish haqidagi normalar, bitim haqiqiy emas deb topilganda; taraflarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, garov saqlovchining javobgarligi haqidagi, meros qilib qoldirilgan mol-mulkni saqlovchi yoki vasiyga berilgan vasiylik ostidagi shaxsning mol-mulkini nobud bo'lishi va yo'qolishi haqidagi qoidalar fikrimizni isbotlaydi.

Bu himoya usuli orqali mulk huquqi bilvosita himoya qilinadi.

4. *Mulk huquqining bekor bo'lishini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda himoya qilish.* Mazkur maxsus usul bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy usullarga, bevosita mulk huquqi bekor bo'lishi oqibatida yuzaga keladigan huquqbuzilishlarini fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar orqali himoyalash usullari kiradi. Bunga, xususan, davlat tomonidan shaxslar mulkining davlat ixtiyoriga noqonuniy o'tkazilishidan himoyalovchi kafolatlar kiradi.



Vindikatsion da'vo

Mulk huquqini e'lon qilish, huquqini tan olish to'g'risida da'vo

Negator da'vo

Vindikatsion va negator da'volar

Amaldagi fuqarolik qonunchiligi bo'yicha vindikatsion da'vo, ya'ni egalik qilmayotgan mulkdorga tegishli mol-mulkni o'zga shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish mulk huquqini himoya qilishning asosiy ashyoviy-huquqiy usullaridan hisoblanadi. Mulk huquqini himoya qilish usuli sifatida vindikatsion da'vo qadim tarixga ega bo'lib, uning ildizlari Rim xususiy huquqida namoyon bo'ladi. Vindikatsiya-lotinchada "*vim dicere*" so'zidan olingan bo'lib, "kuch qo'llanish to'g'risida e'lon qilaman" ma'nosini anglatadi. Bu orqali mulkdor o'z mol-mulkini qidirish va qaytarib olish bo'yicha huquqini amalga oshirgan-qayerda o'z mol-mulkimni topsam, shu yerda uni vindikatsiya qilaman (*ubi rem meam invenio, ibi vindico*). Mazkur huquq tizimi bo'yicha vindikatsion da'vo orqali bevosita mulkdorning egaligi himoya qilingan.

FKning 228-moddasida ham mazkur da'vo nazarda tutilgan. Moddaning mazmunidan bunday da'voni faqatgina boshqa shaxsning qonunsiz egaligida bo'lgan mol-mulkning mulkdori berishi mumkinligi anglashiladi. To'g'ri, FKning 232-moddasi mulkdor bo'lmagan titulli egalik qiluvchilarga ham mol-mulkni o'zga shaxsning egaligidan talab qilib olish huquqini beradi.

Vindikatsiya da'vosi bo'yicha javobgar bo'lib qonunsiz egalik qiluvchi shaxs hisoblanadi. Qonunsiz egalik qilish – tegishli huquqiy asoslarsiz mol-mulkni egallab olishdir. Faqatgina o'zboshimchalik bilan mulkni o'zlashtirib olgan (o'g'irlagan, topilmani, qarovsiz chorva hayvonlarini o'zlashtirib olgan) shaxsnigina emas, balki mol-mulkni tasarruf etish vakolatiga ega bo'lmagan shaxsdan sotib oluvchini ham qonunsiz egallovchi deb hisoblanadi. Bunda, qonunsiz egalik qiluvchining harakatlari albatta aybli bo'lishi shart emas. Mulkka nisbatan egalik obyektiv jihatdan qonunsiz ekanligi muhimdir.

Vindikatsiya da'vosi doirasida mulk egaligi titulini (rutba)ni isbotlash faqat ashyoning qay yo'sinda da'vogar mulkiga aylanganligi asoslarini aniqlashdan iborat bo'lmay, balki javobgarining egaligi qay tarzda vujudga kelganligi shart-sharoitlarini ham o'rganishdan iboratdir. Jumladan, agar mulk egasi nizoli mol-mulkni u begonalashtirish to'g'risidagi bitim asosida (masalan, oldi-sotdi) yoki mulkni vaqtinchalik foydalanish uchun o'tkazilganligi asosida (masalan, ijara) qo'lga

kiritganligini ko'rsatsa, ana shu bitim sud tomonidan baholanishi shart. Agar bitim haqiqiy bo'lsa, shuning o'zi vindikatsiya da'vosini asossiz deb topish uchun asos bo'ladi, zero bunda javobgarni qonunsiz egalik qiluvchi deb e'tirof etib bo'lmaydi.

Da'vogar ashyoga nisbatan o'z egalik huquqini isbotlash bilan bir vaqtning o'zida javobgarning ana shu mol-mulkka nisbatan egaligini keltirib chiqargan bitimning haqiqiy emasligiga oid vajlarni ham keltirishi shart. Ammo agar da'vogar ko'rsatayotgan asoslar bitimning nizoli ekanligidan dalolat bersa (masalan, mulk javobgar tomonidan kimoshdi savdosida sotib olingan), sud bir vaqtning o'zida vindikatsiya da'vosini ham, nizoli bitimini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'voni ham ko'rib chiqishi mumkin. Agar nizolashuv huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan nizoli bitimni haqiqiy emasligini e'tirof etish to'g'risida da'vo arizasi kiritilmasa, vindikatsiya da'vosi ham qanoatlantirilmaydi.

Vindikatsiya da'vosi yordamida faqat muayyan xususiy alomatlari bilan belgilanadigan mol-mulk (ashyo), qolaversa, qonunsiz egallovchida asl (natura) holida mavjud bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquq himoya etilishi mumkin. Noqonuniy egalik ostida bo'lgan, ammo ish ko'rib chiqiladigan kunda mavjud bo'lmagan mol-mulkka noqonuniy egalik qilib turgan shaxsga nisbatan keltirilgan da'vo qanoatlantirilmaydi. Agar mulk yo'q qilib yuborilgan bo'lsa, mulk egasi uning qaytarilishini talab eta olmaydi, u faqat mulkning yo'qotilishi sababli ko'rilgan zararni qoplash to'g'risida talab qo'yishi mumkin.

Vindikatsiya da'vosini bildirish uchun da'vogar va javobgar o'rtasida nizoli ashyo yuzasidan majburiyatli munosabatlar mavjud emasligi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mulk egasi majburiyatli munosabatlarga ega bo'lgan shaxs tomonidan mulkning qaytarilishini talab qilingan da'vo majburiyat huquqlari me'yorlariga muvofiq ravishda hal etilishi darkor. Masalan, agar javobgar mol-mulkka ijara shartnomasi asosida egalik qilayotgan bo'lsa, vindikatsiya da'vosini qanoatlantirish mumkin emas.

Vindikatsiya da'volariga nisbatan umumiy da'vo muddati tatbiq etiladi. Shu boisdan mulk huquqi bilan bog'liq nizolarni hal etishda mulk huquqini vujudga keltiruvchi egalik muddatini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa, egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddatining hisobi ko'rsatib o'tilgan uch yillik muddat tugamasidan avval boshlanmasligini unutmazlik lozim.

Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat bo'yicha mol-mulkka nisbatan uzoq muddatli ruhiy munosabatni ifodalovchi halol egalik qilishdan farqli o'laroq, insofli egalikka olish, odatda, oluvchi tomonidan

o'z xatti-harakati orqali hech kimning huquqlarini buzmayotganligini bir zumda baholash orqali sodir bo'ladi. Holbuki, nizoli mol-mulkni egalikka olish yuzasidan bitim tuzilishi vaqt jihatidan cho'zilib ketgan bo'lsa (masalan, bevosita shartnoma tuzish oldidan uzoq vaqtli bahslashuvlar yoki muzokaralar olib borilganda), oluvchiga ana shu davr ichida ma'lum bo'lib qolgan bitim to'g'risidagi har qanday axborot egalikka olish tasnifiga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, agar nizoli mol-mulk yuzasidan haq to'lab olinadigan bitim tuzilayotgan paytda oluvchi unga nisbatan uchinchi shaxslarning da'volari mavjudligini bilgan bo'lsa va keyinchalik o'rnatilgan tartibda ana shu da'volarning qonuniy ekanligi isbotlansa, bunday xaridorni insofli egalikka oluvchi deb e'tirof etilmaydi.

Shunday egalikka olishni insofli deb hisoblash mumkinki, unda egalikka oluvchida mol-mulkning begonalashtirilishi bilan bog'liq bitimning noqonuniyligi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar bo'lmaydi (bilmagan), ayni chog'da bu bitimning qonuniyligiga bitim tuzilayotgan shart-sharoit orqali fuqarolik munosabatida ishtirok etayotgan har qanday oqil insonda shubha tug'ilishi mumkin emasligi ochiq oydin ko'rinib turgan (bilishi mumkin bo'lmagan) holat mushtarak keladi. Mol-mulkni nomutanosib darajada arzon narxda bitim asosida sotib olinishi va bu bitimning atrofda gilardan yashirin holda bajarilishi yoki avvaldan begonalashtirayotgan shaxsga tegishli emasligi aniq ko'rinib turgan mol-mulkning egalikka olinishi va h.k. insofsiz deb tasniflanishi lozim. Sotib olishning ana shunday noinsof shart-sharoitlari har bir muayyan holatda sud tomonidan egalikka oluvchining shaxsiyatini, unda bitimning shart-sharoitiga oid ma'lumotlar bo'lgan yoki bo'lmaganligini va h.k. sinchiklab tahlil qilinishini talab etadi. Agar egalikka oluvchi yuridik shaxs hisoblangan holatda (faqat ayrim jamoat va diniy tashkilotlarni istisno etganda), mol-mulkning egalikka olinishida ehtiyotsizlik sababli yo'l qo'yilgan noinsoflikka oid shubhalarni rad etish maqsadida maxsus huquqiy ma'lumotlarning yo'qligini, bozordagi sharoit to'g'risidagi ma'lumotlarni va h.k. vaj qilib ko'rsatish amaliy jihatdan ahamiyatga ega emas.

FKning 231-moddasida mulkdor o'zining qonunsiz egalikdagi mol-mulkini talab qilib olishga haqli bo'lmagan shart-sharoitlar ko'satib o'tilgan. Bunday cheklov savdo muomalasining boshqa qatnashchisi – insofli egalikka olgan shaxsning manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash uchun kiritilgan.

Mulkdorning da'vosini sudda rad etilishi uchun insofli egallovchi quyidagilarni isbotlashi talab etiladi:

- bu mol-mulkni sotish huquqiga ega bo'lmagan uchinchi shaxsdan sotib olayotganini bilmagani va bilishi mumkin bo'lmaganligini;
- ashyoni haq to'lab olganligini;

Nizoli mulkni mulkdorning, yoki mol-mulk egalikka o'tkazib berilgan shaxsning egaligidan ularning ixtiyoridan tashqari (yo'qolgan, o'g'irlangan va sh.k.) chiqib ketganligi isbotini topgan holatlar bundan istisno etiladi.

Bunday taomillarni ko'chmas mulkka nisbatan qo'llanilishi ancha mushkul. Xususan, ko'chmas mulkni uning tabiiy xususiyatlariga ko'ra yo'qotish mumkin emas. Biroq, ko'chmas mulkni qalbakilashtirilgan hujjatlar orqali o'zlashtirilishi, mulkning o'zini esa mulkdorning nomidan sotilishini; voyaga yetmagan shaxsning mol-mulki uning ixtiyoriga xilof ravishda uning qonuniy vakili tomonidan sotilishini; ko'chmas mol-mulkni vorislar tomonidan bu mulkka nisbatan boshqa merosxo'rlarning huquqlarini hisobga olmasdan sotib yuborilishini; yuridik shaxs rahbari tomonidan yuridik shaxsga tegishli ko'chmas mol-mulkni o'z vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda sotib yuborilishini – mazkur holatlarning hammasini mulkdordan yoki u mol-mulkini bergan shaxsdan ularning ixtiyoridan tashqari, boshqacha yo'l bilan ularning egaligidan chiqib ketgan holatlar deb hisoblanadi. Binobarin, bunday holatlarda ko'chmas mol-mulk mulkdorga hatto insofli egalikka oluvchidan ham qaytarib olib berilishi mumkin.

Negator da'vo o'z nomini lotincha ifodadan olgan bo'lib, u inkor etish ma'nosini anglatadi. Da'vogar javobgarining servitutini inkor etadi: axir aynan servitut o'z ashyosiga ega bo'lgan mulkdorni boshqa shaxsning servitut huquqi egasi uchun noqulayliklarni keltirib chiqaradigan, mulk huquqini to'laqonli amalga oshirishiga cheklovlarni joriy etadi va bunga ko'nikishga majbur etadi. Shu sababli javobgar servitutni tan olmagan holatlarda, da'vogar undan o'z mol-mulkidan foydalanishiga to'sqinliklarni to'xtatilishini talab etib chiqqan. Zamonaviy qonunchilikda negator da'vo deganda nafaqat mulkdor bilan unga to'sqinlik qiluvchi huquq buzuvchi o'rtasida servitut mavjud bo'lgan holatlar, balki keng doirali boshqa vaziyatlar ham qamrab olinadi.

Negator da'vo ham xuddi vindikatsiya da'vosi kabi himoyalani shaxsning ashyoviy vositasi hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, agar taraflar o'rtasida shaxsiy (majburiyatli) huquqiy munosabatlar ochiq-oydin mavjud bo'lsa, xuddi shu narsa tegishli nizoni hal etishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Nizo faqat taraflar o'rtasida boshqa hech qanday aloqadorlik mavjud bo'lmagan va faqatgina javobgar tomonidan ashyoga

ko'rsatilgan ta'sirning qonuniyligi ustida nizolashilayotgan holatda ko'rib chiqilishi mumkin.

Negator da'vo binolardagi umumiy foydalaniladigan turar-joy va noturar-joy egalari bo'lgan qo'shnilar o'rtasida o'rtadan devor urilganligi va shunga o'xshash qurilish ishlari olib borilganligi natijasida umumiy xonalardan foydalanishda to'sqinlik vujudga kelishi sababidan tug'ilgan nizolarni hal etishda qo'llaniladi. Ayni vaqtda negator da'vo vositasida faqat to'sqinliklarni yo'qotish chorasini ko'rish mumkin, ammo barcha foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini ko'zda tutadigan qandaydir tartib o'rnatishning iloji bo'lmaydi. Negator da'vodan umumiy foydalanishda bo'lgan obyektlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash, javobgar zimmasiga qandaydir sarf-xarajatlarni yuklash uchun ham qo'llab bo'lmaydi.

FKning 231-moddasida mulkdorga egalik qilishdan mahrum etmaydigan to'sqinliklardan himoyalaniş imkonini taqdim etadi. Mana shunday da'vo negator da'vo deb ataladi va mol-mulkdan foydalanish va tasarruf etish haq-huquqlarini himoyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday ishlarda da'vogar mulkning egasi bo'lsa, javobgar esa – noqonuniy xatti-harakatlari tufayli mulkdorni o'z mol-mulkidan foydalanish va tasarruf etish huquqidan mahrum etgan shaxsdir.

Negator da'vo yer uchastkasi, turar-joy va noturar-joy xonalari va sh.k. bo'yicha qo'shni bo'lgan shaxsning noqonuniy xatti-harakatlaridan himoyalanişning yagona vositasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, agar qo'shni qurayotgan binosini qo'shni tomondagi yer uchastkasini yorug'likdan butkul to'sib qo'yadigan holatda ko'tarsa, uning noqonuniy xatti-harakatidan negator da'vo yordamida himoyalaniş mumkin.

Mol-mulknı tasarruf etishdagi (ba'zan foydalanishdagi) to'siqlarnı bartaraf etishga qaratilgan da'voning yana bir turi mol-mulknı band solishlikdan (xatlovga olishdan) ozod etish to'g'risidagi nizolardir. Mol-mulkkaga band solish faqat bevosita qonunda ko'rsatilgan holatlarda da'voning ijrosini ta'minlash yoki undiruvni qarzdorning mol-mulkgaga qaratishda qo'llaniladi.

Ko'pincha xatlovga boshqa shaxslarga mansub bo'lgan mol-mulk ham qo'shib ketadi. Ko'pincha bunday boshqa shaxslar er yoki xotin bo'lib, turmush o'rtog'ining shaxsiy mulki yoki o'rtadagi umumiy mol-mulkdagi ulushni tasarruf etish huquqiga ega bo'lmaydi.

Bu turdagi da'volarnı mol-mulkdan foydalanish huquqidan mahrum bo'lgan mulkdorlar (boshqa ashyoviy huquq egalari) tomonidan kiritiladigan mol-mulklarnı xatlovdan ozod etish borasidagi da'volar bilan

tenglashtirib bo'lmaydi. Bunday da'vo vindikatsiya da'vosi sifatida tasniflanadi.

Negator da'volarga da'vo muddati tatbiq etilmaydi. Chunki huquqlarning buzilishi mavjud ekan, buzilishni bartaraf etishni talab qilib da'vo bildirish huquqi ham saqlanib qoladi. Huquq buzilishi to'xtashi bilan da'vo bildirish huquqi ham bekor bo'ladi, zero shikoyat predmeti yo'q bo'lgan hisoblanadi. Ammo huquqlarning buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab etish huquqi saqlanib qoladi.

Mulkiy huquqni fuqarolik huquqi normalari bilan himoya qilishning boshqa usullari

Mulkiy huquqni himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishda, mulk egalari mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi majburiyat huquqiga oid vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Mulkiy huquqni himoya qilishning bunday majburiy-huquqiy usullari ikki ko'rinishda: 1) shartnomali munosabatlar; 2) shartnomadan tashqari munosabatlarda bo'ladi.

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqning himoya qilinishi to'g'risida shuni aytish kerakki, tuziladigan xilma-xil shartnomalar aksariyat hollarda qonunga, shartnoma shartlariga rioya qilinib, to'g'ri va insofli ravishda bajariladi. Ammo ba'zi hollarda shartnomaning ayrim intizomsiz ishtirokchilari shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini butunlay bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmaslik hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda tabiiy buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash hamda shuning o'zi bilan mulkiy huquqlarni har tomonlama va to'la himoya qilish masalasi qo'yiladi.

Shartnomali munosabatlarda mulkiy huquqlarni buzish quyidagicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

a) qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek, huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas va u FKning 116-moddasiga binoan, haqiqiy sanalmaydi hamda har ikki tarafning yoki bir tarafning bunday shartnoma yuzasidan olgan daromadlari davlat daromadlariga o'tkaziladi;

b) muomalaga layoqatsiz shaxslar (yosh bolalar, ruhiy kasallar) bilan bitim tuzilishi natijasida mazkur shaxslar mulkiy zarar ko'rsalar, qonun (FKning 117-119-moddalari) tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas, deb topishi bilan birga buzilgan mulkiy huquqning tiklanishi lozimligini ham ko'rsatadi. Masalan, 13 yoshli bola o'ziga hadya qilingan fotoapparatni ota-onasining ruxsatisiz birovga sotsa, shartnoma haqiqiy sanalmasligi va

bunday shartnomaning tuzilishi natijasida voyaga yetmagan shaxs mulkiy zarar koʻrgan boʻlsa, zarar haqi undirilishi mumkin;

d) jiddiy yanglishish, aldanish, zoʻrlik qilinishi taʼsirida tuzilgan bitimlar (shartnomalar) sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday bitimlar tuzilishi natijasida buzilgan mulkiy huquqlar ham qonun (FKning 122-123-moddalari) boʻyicha himoya qilinadi;

e) ayrim shartnomalar, chunonchi, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, ijara, pudrat, yuk tashish va boshqa qator shartnomalar boʻyicha olingan majburiyatlar butunlay yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar mulkiy zarar koʻrishlari mumkin. Bunday hollarda ham qonun (bunday shartnomalar)ning har qaysisini buzish oqibatlari toʻgʻrisida, huquqiy normalar buzilgan huquqlarni himoya qilinishini nazarda tutadi.

Shartnomalardan tashqari boʻladigan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqlarning himoya qilinishiga kelsak, baʼzi hollarda majburiyat munosabatlari yuqorida aytilganidek, oʻzaro kelishuv asosida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqmay, bevosita qonun bilan ham belgilanishi mumkin. Bunday hollarda tashkilotlar va fuqarolar qonunga asosan oʻzaro majburiyat munosabatlarida boʻladi va huquq subyektlari (tashkilotlar va fuqarolar) bir-birlariga nisbatan muayyan majburiyatlar oladi. Agar qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida mulkiy zarar koʻrilsa, buzilgan mulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi vujudga keladi.

Shartnomalardan tashqari boʻlgan majburiyat munosabatlarida mulkiy huquqning buzilishi asosan quyidagi hollarda uchrashi mumkin:

a) baʼzi hollarda ayrim shaxslar (yuridik shaxslar yoxud fuqarolar)ning mulkiga qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan zarar yetkazish tufayli mulkiy huquqlar buziladi. Masalan, davlat yoki tashkilot mol-mulkini talon-taroj qilish, fuqaroning mulkini oʻgʻirlash, fuqaroga zarar yetkazilishi natijasida mulkiy huquqlar buzilishi mumkin. Bunday hollarda qonun buzilgan huquqlarning tiklanishi, mulkiy huquqlarning har tomonlama va toʻla himoya qilinishini belgilaydi;

b) amalda birovdan topshiriq olmay, uning manfaatlarini koʻzlab, baʼzi xarajatlar qilish hollari ham boʻlishi, chunonchi, birovning toʻsatdan kasal boʻlib qolgan bolasini shifoxonaga taksi mashinasida olib borib joylashtirishda maʼlum xarajat qilinishi mumkin. Qonun bunday hollarda ham zararining toʻlanishi lozimligini koʻrsatib, mulkiy huquqni himoya qiladi;

d) xatolik bilan birovning mulki olingan yoki tejalgan bo'lsa, ya'ni birovning mulkini olib qolish yoki tejash uchun qonun yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo'lmasa, olingan yoki tejalgan mulk egasiga qaytarilishi lozimligi qonunda belgilanadi. Masalan, xatolik bilan ikkinchi marta takror to'langan qarz yoki olinmagan mahsulot uchun tashkilotning to'langan puli qaytarilishi lozim.

Qonun (FKning normalari) yana boshqa ba'zi hollarda ham shartnomalardan tashqari vujudga keladigan majburiyatlarda mulkiy huquqlarning himoya qilinishini belgilaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mulk huquqini himoya qilishning ashyoviy-huquqiy va majburiyat-huquqiy usullarining o'zaro nisbati, ularni qo'llash mexanizmlarining afzal jihatlari va ulardan eng samaralisini amaldagi qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.

2. Vindikatsion va negator da'volar mulk huquqini himoya qilish tizimida qanday o'rin tutadi va ular mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilishning qaysi usullariga mansubligini muhokama qiling.

3. Olimov va Valiyeva Sobitovga o'zlariga tegishli erkaklar va ayollar paltosini lombard evaziga qarz olib turish uchun topshirishdi. Ikkala palto ham Sobitov tomonidan lombardga berildi (va buning uchun ma'lum vaqt o'tgach pul olindi), keyin Olimov va Valiyeva tomonidan berilgan pul evaziga qaytarib olindi, lekin Sobitov uni egalariga qaytarmadi. Shu munosabat bilan Olimov va Valiyeva paltolarning haqini qaytarish to'g'risida Sobitovga nisbatan da'vo qilishdi. Sud vindikatsion da'vo normalari asosida paltoning o'zini yoki qiymatini qaytarish to'g'risida qaror qildi.

Sudning qarori to'g'rimi? Masalani tahlil qiling.

4. Qosimovning yo'qolgan mol-mulklari ichida charm kurtkasi ham bor edi. Surishtiruv organi tomonidan kurtka Odilov ismli shaxsning pasporti bilan lombardga garovga qo'yilganligi, lekin u pasportda ko'rsatilgan manzilda yashamasligi aniqlangan.

Qosimov lombarddan kurtkasini qaytarish uchun da'vo qo'zg'atdi. Lombard da'voga qarshilik bildirib, lombardda ustavga ko'ra o'ziga garovga topshirilgan narsalar aynan shu fuqaroga tegishli yoki tegishli emasligi tekshirilmasligi, Odilovdan olingan kurtka ham tekshirilmaganligini va nihoyat, Qosimovga kurtka qaytarilsa, lombardga

iqtisodiy zarar bo‘lishini, chunki kurtkani lombardga topshirgan fuqarodan to‘lovni qaytarish mumkin emasligini bildirgan.

Ish qanday hal qilinadi?

16-MAVZU. MAJBURIYAT HUQUQI TUSHUNCHASI, TIZIMI, VUJUDGA KELISH ASOSLARI

Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchalari, majburiyatlarni vujudga kelish asoslari. Majburiyat subyektlari. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi. Regress (qaytarma) majburiyat.

Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchalari, majburiyatlarni vujudga kelish asoslari

Fuqarolik huquqining eng muhim kichik sohalaridan biri majburiyat huquqi hisoblanadi. Majburiyat deb shunday fuqarolik huquqiy munosabatga aytiladiki, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa – qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda majburiyat atamasi bilan birgalikda burch atamasi borasida ham so'z yuritiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq va burchlar borasida so'z boradi. Ushbu atamalar teng ma'noli bo'lib, fuqarolik huquqiy munosabatlarda har doim majburiyat atamasi qo'llaniladi.

Majburiyat subyektlari, obyektlari, uning mazmuni majburiyatning eng muhim elementi hisoblanadi. Majburiyat subyektlari bu muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan shaxslardir. Odatda har bir majburiyatda kamida ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan harakat qilinishini va muayyan harakatdan tiyilishni talab qilish ga haqli bo'lgan taraf – kreditor (haqdor) deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa – qarzdor (burchdor) shaxs bo'lib hisoblanadi.

Majburiyat huquqiy munosabatlari o'z mohiyatiga ko'ra nisbiy huquqiy munosabat hisoblanadi. Demak, kreditor faqat muayyan shaxsdan yoki shaxslarga nisbatan talab qo'yish huquqiga ega. Majburiyat munosabatlarda kreditorning talab qilish huquqi va shunga muvofiq qarzdorni burchi nimaga qarata yo'naltirilgan bo'lsa u majburiyat obyekti hisoblanadi. Masalan, huquq va majburiyatlar biron-bir ashyoni olishga, topshirishga, muayyan pulni to'lashga, ishni, xizmatni ijro etilishiga

qaratilgan yuridik harakatlardan yoxud muayyan harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyish xulq-atvoridan iborat bo'lishi mumkin.

Majburiyat huquqi – mol-mulknı topshirish, ishlarnı bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarnı tartıbgā soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig'ındisidir.

Majburiyat huquqi jamiyatda mulkiy munosabatlarning eng muhim va keng sohasini, o'zining fuqarolik-huquqiy tusidagi qoidalari bilan tartıbgā soladi. Jamiyatdagi majburiyatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolar va tashkilotlarning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash maqsadlarida o'rnatiladi. Majburiyatlar to'g'risidagi normalar mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari orqali xilma-xil xizmatlar ko'rsatilishini tartıbgā soladi. Majburiyatlar vositasida mulk va mulkiy huquqlar qo'riqlanishi ta'minlanadi, fuqaroning sog'lig'iga zarar yetkazilganda ko'rilgan zararlar qoplanadi va hokazo.

Majburiyat huquqi tizimi ikki asosiy bo'limdan, ya'ni majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar va majburiyatlarning alohida turlariga oid maxsus qoidalardan iboratdir.

Shartnomali majburiyatlarga oid huquqiy institutlar asosan shartnomaviy munosabatlardan vujudga keladi va uning asosiy xususiyati majburiyat taraflarining erk-irodasini namoyon etish orqali yuzaga keladi.

Shartnomasiz majburiyatlar shaxsning erk-irodasidan tashqarida yuz beradi yoki bir tomonlama harakat natijasida kelib chiqadi.

Majburiyat mazmuni deganda, kreditorning qarzdor tomonidan muayyan harakatlar qilinishini (yoki qilinmasligini) talab etishga bo'lgan huquqi va qarzdorning shunga yarasha bo'lgan burchi tushuniladi.

Qarzdor tomonidan qilinishi lozim bo'lgan harakatlar har xil: ashyoni egasiga (kreditorga) topshirish, ashyolarnı foydalanish uchun topshirish, ma'lum summa pulni to'lash, biror-bir ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish, qarzdor tomonidan bitimning tuzilishini ta'minlash, birovga yetkazilgan zararnı to'lash, asossiz orttirilgan boylikni o'z egasiga qaytarish to'g'risida bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan majburiyat obyektlaridan ko'rinishicha, majburiyatning mazmuni asosan mulkiy xarakterdagi huquq va burchlardan iborat bo'lsa-da, huquq subyektlarini o'zaro mulkiy xarakterda bo'lmagan majburiyatlar ham belgilashlari mumkin. *Masalan,*

asar mualliflaridan biri o'zaro kelishuv bo'yicha muayyan vaqt ichida asarning bir qismini tuzatib, qayta ishlab kelish to'g'risida o'z zimmasiga majburiyat olishi mumkin.

Majburiyat taraflarining bir-birlariga nisbatan belgilangan huquq va majburiyatlari ularning tusiga qarab farqlanadi. Ular mazmuni, obyektlari va subyektlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Ijobiy va salbiy mazmunli majburiyatlar.* Agar majburiyat yuzasidan qarzdor muayyan bir harakatni qilishga burchli bo'lib, kreditor aynan shunday harakatning qilinishini talab qilishga haqli bo'lsa, bunday majburiyat *ijobiy mazmunli majburiyat* hisoblanadi. Huquqiy munosabatning ko'pchiligida ijobiy mazmunli majburiyatlar yotadi. *Masalan, oldi-sotdi, mulkni ijaraga berish, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida olinadigan majburiyatlar – ijobiy mazmunli majburiyatlardir.*

Agar majburiyat bo'yicha qarzdor muayyan harakatni qilishdan saqlanishga burchli, kreditor harakat qilishdan saqlanishini talab etish huquqiga ega bo'lsa bunday majburiyat *salbiy mazmunli majburiyat* hisoblanadi. *Masalan, nashriyot shartnomasi bo'yicha muallif shartnoma kuchda bo'lgan davrda o'z asarini boshqa nashriyotga topshirishdan saqlanish majburiyatini olsa, nashriyot muallifning boshqa nashriyot bilan shartnoma tuzishdan saqlanishini talab etish huquqini oladi.*

2. *Bir tomonlama va ikki tomonlama majburiyatlar.* Majburiyatda qatnashuvchilarning birida faqat talab qilish huquqi (yoki huquqlari), ikkinchi tomonda esa faqat majburiyat (majburiyatlar) bo'lsa, bunday majburiyatlar *bir tomonlama majburiyatlar* hisoblanadi. *Masalan, qarz shartnomasi. Qarz shartnomasi bo'yicha qarz bergan shaxs qarzning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdor o'z zimmasiga olgan qarzini qaytarishga burchlidir.*

Huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi ham huquq, ham majburiyatga (qator huquqlar va majburiyatlarga) ega bo'lsa, bunday majburiyatlar *ikki tomonlama majburiyat* hisoblanadi. *Ikki tomonlama majburiyatlarga oldi-sotdi, ijara, pudrat kabi shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, oldi-sotdi munosabatida sotuvchida sotilgan narsani topshirish majburiyati bo'lsa, oluvchida sotib olingan narsaning qiymatiga yarasha haq to'lash majburiyati bo'ladi va aksincha. Aksariyat majburiyatlar ikki tomonlama majburiyatlardir.*

3. *Muayyan harakatni bajarishga qaratilgan va muqobil majburiyatlar.* Agar huquqiy munosabat bo'yicha kreditor qarzdordan muayyan bir harakat qilinishini, masalan, ma'lum ishning bajarilishini, biror-bir ashyoning topshirilishini yoki ma'lum summa pul to'lanishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, bunday majburiyat *muayyan harakatni*


bajarishga qaratilgan majburiyat hisoblanadi. Agar huquqiy munosabatda kreditorning talabi bo'yicha qarzdor bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo'lsa, bunday majburiyat muqobil majburiyat sanaladi. Muqobil majburiyat bo'yicha huquqiy munosabatda bir necha harakat ko'rsatilgan bo'lsa ham, majburiyatning mazmunini qarzdorning faqat birgina majburiyati va kreditorning shu majburiyatning bajarilishini talab qilishga bo'lgan huquqi tashkil etadi. Huquqiy munosabatda nazarda tutilgan harakatlardan birining bajarilishi bilan majburiyat ijro etilgan hisoblanadi. Muqobil majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi qoida FKning 250-moddasida berilgan. Mazkur moddada ko'rsatilishicha, agar qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini bajarishga majbur bo'lsa, qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun hujjatlarida qaysi majburiyatning bajarilishi lozimligini tanlash huquqi kreditorga berilganligi ko'rsatiladi. Xususan, ularda sotilgan ashyoning sifati lozim darajada bo'lmaganda, sotib oluvchi o'z xohishi bilan ana shu ashyoni boshqa sifatli ashyoga almashtirish yoki xarid bahosini tegishli darajada kamaytirishni yoxud sotuvchining shu ashyodagi kamchiliklarni haq olmay tuzatib berishini yoki shu kamchilikni tuzatish uchun oluvchining qilgan xarajatlarini to'lashni yo bo'lmasa shartnomani bekor qilib, o'ziga yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishga haqli bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Bu qoida bo'yicha qarzdor sifatidagi sotuvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlardan birini tanlash huquqi kreditorga, ya'ni sotib oluvchiga beriladi.

4. *Shaxsiy tusga ega bo'lgan majburiyatlar va shaxsiy tusga ega bo'lmagan majburiyatlar. Ba'zi majburiyatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning har qaysisi yoki birining shaxsi bilan qat'iy bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, topshiriq shartnomasi bo'yicha vujudga keladigan majburiyat vakilning (topshiriqni bajaruvchining) ishonchli shaxs bo'lishiga qarab belgilanadi. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini, agar qonun yoki shartnomada boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, boshqa shaxsga o'tkazilishiga yo'l qo'ymaydi, kreditor ham boshqa shaxs bilan almashinishi mumkin emas. Bunday majburiyatlar, odatda, qarzdor yoki kreditorning vafot etishi bilan bekor bo'ladi.*

Aksariyat huquqiy munosabatlarda majburiyatning kim tomonidan bajarilishi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Masalan, qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatning fuqaro G. tomonidan ham yoki uning uchun fuqaro B. tomonidan ham bajarilishi mumkin. Bunday shaxsiy xarakterga ega bo'lmagan majburiyatlar bo'yicha kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxs bilan almashinishiga yo'l qo'yiladi. Bunday majburiyatlar bo'yicha kreditor yoki qarzdorning vafot etishi majburiyatning bekor qilinishi uchun asos bo'lmaydi.

Umumiy qoidaga binoan, majburiyatlar FKda nazarda tutilgan asoslarda vujudga keladi. Ammo, bunday majburiyatlarning vujudga kelishi qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa-da, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy mohiyati va mazmuniga zid bo'lmagan fuqarolar va yuridik shaxslarning harakatlari asosida ham vujudga kelishi mumkin (FKning 8-moddasi 1-qismi).

FKning 234-moddasida belgilanganidek, majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi. Fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar tarkibiga davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlari, sud qarori, turli voqea hodisalarni kiritish mumkin.



Majburiyat subyektlari

Majburiyatda qatnashuvchi taraflarning biri majburiyatni bajarilishini talab qiluvchi subyekt – kreditor, ikkinchisi, ya'ni majburiyatni bajaruvchi subyekt – qarzdor deb ataladi. Majburiyat aynan ushbu ikki subyektning o'zaro munosabatidan vujudga keladi. Shu sababli ular majburiyat munosabatlarining asosiy subyekti sifatida e'tirof etiladilar.

Majburiyatda qarzdor va kreditor bo'lib ishtirok etuvchilar, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo'la oladigan shaxslar bo'lishlari kerak. Majburiyatga oid munosabatlarda kreditor va qarzdor sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek, ba'zi hollarda O'zbekiston Respublikasi ham subyekt bo'lib ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatning alohida turlarida taraflar turlicha nomlanishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida – sotuvchi va xaridor, energiya

ta'minoti shartnomasida energiya bilan ta'minlovchi va abonent (iste'molchi), pudrat shartnomasida pudratchi va buyurtmachi, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida ijrochi va buyurtmachi, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha ekspeditor va mijoz, vositachilik shartnomasida vositachi va komitent, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasi bo'yicha bir taraf – kompleks litsenziar ikkinchi taraf – kompleks litsenziat, delikt munosabatlarida zarar yetkazuvchi va jabrlanuvchi va h.k. Lekin ularning birini qarzdor, ikkinchisini esa kreditor sifatida tushunmaslik lozim. Jumladan, har bir taraf bir vaqtning o'zida kreditor yoki qarzdor bo'lib qolishi mumkin.

Fuqarolik huquqida aksariyat majburiyatlarda (shartnomalarda) qatnashuvchi shaxslar bir vaqtning o'zida ham kreditor, ham qarzdor bo'lib hisoblanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasida sotuvchi sotilgan narsani topshirish yuzasidan qarzdor, uning summasini talab qilib olish yuzasidan kreditor hisoblanadi va aksincha, sotib oluvchi mol-mulkni talab qilib olish yuzasidan – kreditor, uning summasini to'lash yuzasidan qarzdor hisoblanadi. Binobarin, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarda, ya'ni kreditor va qarzdorda ham talab qilish huquqi, ham majburiyat bo'lsa, bunday majburiyatlar (ikki tomonlama shartnomalar) murakkab majburiyatlar, deb ham yuritiladi.

Odatda, har bir majburiyatda ikki taraf – kreditor va qarzdor qatnashadi. Ammo ba'zi hollarda majburiyatda kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud har ikki tarafda ham bir necha shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlar *ko'p shaxsli majburiyatlar* hisoblanadi. Masalan, bir mol-mulk ikki shaxs tomonidan sotib olinganida sotuvchi huzurida uning summasini to'lash yuzasidan qarzdor tomonidan ikki shaxs qatnashadi.

Majburiyatda ko'pchilik bo'lib qatnashuvchi shaxslar *faol* va *nofaol* ishtirokchilarga ajratilishi mumkin. Majburiyatda ko'pchilik bo'lib kreditor tarafida qatnashuvchi shaxslar – *faol* ishtirokchilar deb, qarzdor tarafida qatnashuvchi shaxslar esa – *nofaol* ishtirokchilar deb ataladi. Agar majburiyatda qatnashuvchi shaxslar har ikki tarafda ham ko'pchilik bo'lib ishtirok etsa – *aralash* ishtirokchilar deb ataladi.

Ko'p shaxslar ishtirok etgan majburiyatlar *ulushli* va *sherik* majburiyatlarga bo'linadi.

Ulushli majburiyatlarda qatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, ulushli qarzdorlardan har biri o'ziga tegishli ulushni bajarishga majbur bo'ladi.

FKning 251-moddasida ko'rsatilganidek, agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Ulushli majburiyatga ikki fuqaro tomonidan ulushlarga bo'linib qurilgan uy-joyning sotilishida sotuvchilardan har biri o'z ulushiga nisbatan tegishli haqni talab qilish yuzasidan kreditor bo'lishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yuridik shaxslar o'rtasida ham ulushli majburiyatlar vujudga kelishi mumkin. *Masalan, bir necha tashkilot birgalashib uy-joy qurganida, tashkilotlarning har biri o'z ulushiga yarasha uy-joyni boshqarish va undan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.*

Ulushli majburiyatlarda faol ishtirokchi bo'lgan kreditorlardan har biri qarzdordan faqat o'ziga tegishli ulushnigina talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdorlardan har biri o'ziga tegishli ulushda majburiyatni bajarishga majbur bo'ladi.

Kreditorlardan biriga majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan o'z ulushiga yarasha bajarishi ulushli majburiyatni butunlay bekor qilmaydi. Bunday majburiyat, to boshqa kreditorlarning talablari qondirilguncha yoki boshqa qarzdorlar o'z ulushlariga yarasha majburiyatlarini bajarguncha saqlanib qoladi.

Kreditorlar va qarzdorlar ko'pchilik bo'lgan taqdirda kreditorlardan har biri qarzdordan qarzni boshqalar bilan teng ulushda talab qilishga haqli va qarzdorlarning har biri esa boshqalar bilan teng ulushda majburiyatini bajarishga majbur bo'ladi.

Sheriklik majburiyatlarga asosan, kreditor majburiyatning to'la hajmda bajarilishini, sherik qarzdorlarning har qaysisidan majburiyatning butunlay bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida berilgan ta'rifga ko'ra, sheriklik majburiyatlarida qatnashuvchilar sifatida qarzdor bitta-yu, kreditorlar bir nechta bo'lishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor bo'lishi mumkin.

Sheriklik asosida majburiyat olganlar – sherik qarzdorlar bo'lsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega bo'lganlar – sherik kreditorlar deb ataladi.

Sheriklik majburiyatining mazmunini sheriklik majburiyati va sheriklikka oid talab qilish huquqlari tashkil etadi. Masalan, bir necha shaxs bir kishiga yoki tashkilotga ziyon yetkazganlarida qonun bo'yicha sheriklik majburiyati belgilanadi. Bir necha vorislarga qarashli, ulushli va bo'linmagan uy-joy bir fuqaro tomonidan sotib olinganda, sheriklikka asoslangan talab qilish huquqi vujudga keladi.

Sheriklik majburiyatida kreditorlarning talablari yoki qarzdorlarning majburiyatlari ulushlarga bo'linmaydi. Ammo kreditorlardan biri yoki bir nechtasi qarzning qisman bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Sheriklik (solidaritet) asosida belgilanadigan majburiyatga ko'ra, qarzdorlardan biri tomonidan majburiyat bajarilmaganida, uning uchun boshqa sherik qarzdorlar javobgar bo'lishadi va aksincha, sherik qarzdorlar bajarmagan majburiyatning bajarilishini bunday qarzdorlarning biridan ham to'la talab qilishi ham mumkin.

FKning 252-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdorlarning sheriklik majburiyati belgilanganida, kreditor majburiyatni qarzdorlarning barchasidan birgalikda, shuningdek har qaysisidan ayrim-ayrim holda to'la yoki qisman bajarilishini talab qilishga haqlidir.

Sherik qarzdorlarning biridan to'la qanoat hosil qilmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa sherik qarzdorlardan talab qilishga haqli. Sherik qarzdorlar to'la majburiyat to'la bajarilgunga qadar, qarzdor bo'lib qolaveradi.

Sherik qarzdorlarning har biri kreditorning talablariga qarshi e'tirozlarini bildira oladi. Chunonchi, qarzning ilgari to'liq yoki qisman to'langanligini ko'rsatishlari mumkin. Ammo sheriklik majburiyat bo'lgani holda, qarzdor kreditorning talablariga qarshi boshqa qarzdorlarning kreditorga nisbatan bo'lgan, mazkur qarzdor ishtirok etmagan, munosabatlarga asoslangan e'tirozlarini qo'ya olmaydi (FKning 253-moddasi).

Masalan, sheriklik majburiyatda kreditor G. sherik qarzdorlari A. va V.lardan biri aytaylik, V. boshqa bir oddiy majburiyatda qarz shartnomasi bo'yicha G.ning kreditori bo'lsa, bunday holda o'zaro hisoblashishni faqat V.gina talab qila oladi. Binobarin, unga nisbatan sheriklik majburiyati yuzasidan talablar qo'yilganida, faqat uning o'zigina e'tirozlar bildira oladi. Boshqalar bunday huquqqa ega bo'la olmaydi.

Sheriklik majburiyatining qarzdorlardan biri tomonidan to'la bajarilishi, boshqa qarzdorlarni kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan ozod qiladi.

Sheriklik majburiyatini bajargan qarzdor, qonun yoki shartnomalarda boshqacha tartib belgilab qo'yilmagan bo'lsa, majburiyatni bajargan qarzdor o'z ulushini chegirib tashlab boshqa qarzdorlarga teng ulushlarda regress talab qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyatini bajargan qarzdorga to'lanmagan haq bu va boshqa qarzdorlar zimmasiga teng ulushlarda tushadi (FK 254-modda).

Agar sheriklik majburiyatda kreditorlar bir nechta bo'lsa, u holda sherik talablar vujudga keladi va sherik kreditorlarning har qaysisi qarzdorga nisbatan to'la hajmda talab qo'yishga haqli bo'ladi. Bunday sheriklik talablarga faol sheriklik deyiladi. Sheriklik talablariga binoan, qonun yoki shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, qarzdor kreditorlarning biriga majburiyatni to'la hajmda bajarishi mumkin,

kreditor esa qabul qilib olishga majbur. Sherik kreditorlardan har biri ham qarzdordan majburiyatning to'la hajmda bajarilishini talab qilishga haqli. Bunday talab qo'yilganda majburiyatni solidar kreditorlardan biriga nisbatan to'la bajarish qarzdorni majburiyatni boshqa solidar kreditorlarga nisbatan bajarishdan ozod qiladi (FK 255-modda, 3-band).

Sheriklik talablar ko'pincha birgalikdagi faoliyatdan, sherik mualliflikdan va boshqa ba'zi huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi mumkin. Sherik kreditorlardan har birining harakati bilan boshqa kreditorning manfaatiga ziyon yetkazmasligi kerak. Chunonchi, sherik kreditorlardan birining qilgan harakati qarzdorlardan birini majburiyatning muayyan qismini bajarishdan ozod qilishga qaratilgan bo'lsa ham, bu qarzdor sherik kreditorlar huzurida majburiyatni to'la bajarishdan ozod bo'lmaydi.

Qarzdor sherik kreditorlarning biri tomonidan qo'yilgan talabga qarshi o'zining boshqa sherik kreditorlar bilan bo'lgan, mazkur kreditor ishtirok etmagan munosabatlarga asoslangan e'tirozini qo'ya olmaydi. Masalan, pudrat shartnomasi bo'yicha, pudratchi bir necha jamoa xo'jaligining buyurtmasiga binoan stadion qurishi kerak bo'lib, keyinchalik shu jamoa xo'jaliklarining biridan buyurtmani kechiktirib bajarishga muhlat olgan bo'lsa, qolgan jamoa xo'jaliklarining buyurtmasini o'z vaqtida bajarishi uchun qo'ygan talabiga kechiktirib bajarish uchun olgan muhlatini qarshi qo'ya olmaydi.

Majburiyatning qarzdor tomon sherik kreditorlaridan birining to'la hajmda bajarilishi, uni boshqa kreditorlarga nisbatan bajarishdan ozod qiladi.

Qarzdordan majburiyatning ijrosini qabul qilib olgan sherik kreditor, basharti ular o'rtasidagi munosabatlardan boshqacha tartib anglashilmasa, boshqa kreditorlarga tegishli bo'lgan ulushlarni to'lashi shart (FK 255-modda).

Aralash sheriklik majburiyatlarda bir vaqtning o'zida bir necha kreditor va qarzdor shaxs ishtirok etadi. Bunday majburiyatlarni bajarish tartibiga faol va sust sheriklik majburiyatlarini bajarish deyiladi. Masalan, shaxsiy mulk huquqi asosida uy-joyga ega bo'lgan bir necha fuqaro ta'mirlovchi brigada bilan pudrat shartnomasi tuzgan bo'lsa, ulardan har biri majburiyatning to'la hajmda bajarilishini brigadaning har qaysi a'zosidan talab qilishga haqli.

Tashkilotlar yuridik shaxs sifatida mustaqil mulkiy javobgarlikka ega bo'lib, xo'jalik hisobi asosida ish olib borganliklari sababli, har qaysi tashkilot majburiyatini bajarmaganligi uchun o'zicha alohida javobgar

bo'ladi. Lekin ayrim hollarda aralash sheriklik majburiyati asosida ham javobgarlik belgilanishi mumkin. Masalan, turli tashkilotlarga qarashli avtomashinadan bir necha fuqaroga ziyon yetkazilsa, birgalikdagi aralash sherik javobgarlik belgilanishi mumkin.

Qo'shimcha (subsidiar) majburiyatlar faqat qarzdorlar tarafida vujudga keladi. Majburiyat asosiy qarzdor tomonidan bajarilmaganida, kreditor uning bajarilishini qo'shimcha qarzdordan talab qilishga haqli. Subsidiar javobgarlik asoslari FKning 329-moddasida nazarda tutilgan. Bunga asosan, qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq, asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishda bo'lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo'yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo'yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo'yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, bu talab subsidiar javobgar bo'lgan shaxsga qo'yilishi mumkin. Kreditor asosiy qarzdorga bo'lgan o'z talabini qondirilishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o'tkazish yoki mablag'larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo'li bilan qondirilishi mumkin bo'lsa, subsidiar javobgar shaxs o'ziga kreditor tomonidan qo'yilgan talabni qondirilishdan oldin, bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilish kerak. Aks holda, asosiy qarzdor o'zining kreditorga qarshi e'tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega.

Sheriklik majburiyati bo'yicha boshqalar uchun majburiyatni bajargan qarzdor regress (qaytarma) da'vo huquqiga ega bo'lsa, qo'shimcha majburiyatni uchinchi shaxsga nisbatan bajargan qarzdor, agar qonun yoki shartnomalarda boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, shu bajarilgan narsani qaytarib olish huquqiga ega bo'lmaydi. Masalan, ota-onalar farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmagan bolalarning harakati natijasida yetkazilgan zararni uchinchi shaxsga to'laganlarida mazkur haqni qaytarib olish huquqiga ega emaslar.

Qo'shimcha majburiyat qonun yoki shartnomalarda ko'rsatilgan taqdirdagina vujudga keladi. Chunonchi, qonunda aytilishicha, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan o'smir tomonidan yetkazilgan ziyon uchun ularning ota-onalari, vasiy va homiylari qo'shimcha javobgardirlar. Qo'shimcha majburiyatga yana bir misol qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, boshqa shaxs majburiyatining butunlay yoki qisman bajarilishi uchun uning kre-

ditori oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan kafilning qo‘shimcha javobgarligini ko‘rsatish mumkin. Ammo bu holda majburiyatni bajargan kafil regress (qaytarma) da’vo qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Majburiyatdagi shaxslarning o‘zgarishi

Kreditorning o‘zgarishi majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda muayyan subyektlar o‘rtasida vujudga keladi. Majburiyatni bajarishda ishtirok etayotgan taraflar o‘rinlarini boshqa shaxs bilan almashinishlariga qonun bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi. Majburiyatda qatnashuvchi kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxslar bilan almashinishlari mumkin.

Kreditorning almashinishi deb, majburiyatda ishtirok etayotgan kreditor o‘z o‘rnini boshqa shaxs bilan almashinishiga aytiladi. Kreditorning talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazilishiga, agar bu qonun yoki shartnomaga zid bo‘lmasagina yoki talab kreditorning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lmasagina yo‘l qo‘yiladi. Fuqarolik huquq nazariyasida kreditorning o‘zgarishi “sessiya”, sobiq kreditor esa “sedent” deb nomlanadi. Agar talab kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa, masalan, FKning 314-moddasida ko‘rsatilganidek, alimentlar va hayotga yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni to‘lash to‘g‘risidagi talablarning boshqa shaxsga o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ba’zi hollarda, talab qilish huquqini o‘tkazishga shartnoma bo‘yicha ham yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga bergan shaxs o‘zining talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkaza olmaydi. FKning 318-moddasida ko‘rsatilishicha, kreditorning majburiyat bo‘yicha huquqlari boshqa shaxsga quyidagi hollarda o‘tadi:

- 1) kreditor huquqlaridagi universal huquqiy vorislik natijasida;
- 2) kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi sudning qaroriga muvofiq;
- 3) qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat bo‘yicha qarzdor bo‘lmagan kafil yoki garovga qo‘yuvchi tomonidan bajarilishi oqibatida;
- 4) sug‘urta holati boshlanishi uchun javobgar bo‘lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining sug‘urta qiluvchiga subrogatsiyasi (o‘tishi) natijasida;
- 5) qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Talab qilish huquqini boshqa shaxsga o‘tkazgan kreditor bu huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarni ana shu shaxsga topshirishga majbur. Chunonchi, kreditor qarzdordan tilxat olgan bo‘lsa, mazkur hujjatga talab qilish huquqining o‘tkazilganligini yozib, uni yangi kreditorga topshirishi

lozim. Dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o'tkazilgan talabning qarzdor tomonidan bajarilmaganligi uchun javob bermaydi, dastlabki kreditor yangi kreditor oldida qarzdor uchun o'z zimmasiga kafolatini olgan hollar bundan mustasno (FK 321-modda).

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilinmagan bo'lsa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi (FK 313-modda).

Ba'zi hollarda normativ hujjatlarning o'zida ham talab qilish huquqini umumiy qoida sifatida o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi, masalan, temir yo'l ustavining 172-moddasida temir yo'l korxonasiga talab, shikoyat yoki da'vo qo'zg'atish huquqini boshqa tashkilotga yoki fuqaroga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilishi bilan birga, qanday hollarda bu qoidadan istisnolar bo'lishligi ham aytilgan.

Qarzdor majburiyat bo'yicha huquqlar yangi kreditorga o'tganligi haqida ogohlantirish olgan paytda dastlabki kreditorga qarshi e'tirozlarni yangi kreditorning talabiga qarshi qo'ya oladi (FK 317-modda). Masalan, majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarz hujjatida ko'rsatilgan summaning olinmaganligini ko'rsatib, o'z e'tirozlarini yangi kreditor talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega.

Qarzdorning almashinishiga kelsak, majburiyatda qatnashayotgan qarzdor ham o'z o'rnini boshqa shaxs bilan almashish huquqiga ega. Qarzdor almashgani tufayli, yangi qarzdor majburiyatli bo'lib qolishiga – qarzning (majburiyatning) ko'chirilishi deyiladi.

Qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi (FK 322-modda). Qarzdor uchun qaysi kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishning farqi yo'q bo'lsa ham, kreditor uchun kim yangi qarzdor bo'lishining ahamiyati bor. Avvalo, kreditorning yangi qarzdorning mulkiy holati, ish qobiliyati hamda majburiyatni bajarishga qodir bo'lish-bo'lmasligi qiziqtiradi. Agar, masalan, yuqori malakali usta ishni bajarishni o'z shogirdiga topshirmoqchi bo'lsa, kreditor ish manfaatlarini ko'zlab, bunga rozi bo'lmasligi ham mumkin. Dastlabki qarzdor boshqa shaxsga majburiyatini o'tkazganida, kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan butunlay ozod bo'ladi. Uning barcha majburiyati yangi qarzdor zimmasiga o'tadi.

Kreditor bilan dastlabki qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e'tirozlarni yangi qarzdor kreditorning talabiga qarshi

qo‘ya oladi, jumladan, yangi qarzdor ham dastlabki qarzdor kabi majburiyatning qisman bajarilganligini yoki qarzning qisman to‘langanligini yoxud hujjatda ko‘rsatilganga qaraganda kamroq summada olinganligini aytib, e‘tirozlarini bildiradi.

Kreditor yangi qarzdordan majburiyatni to‘la hajmda bajarishni talab qila oladi, chunki majburiyatni ko‘chirishda uning mazmuni o‘zgarmaydi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor almasha, kreditor yangi qarzdordan to‘la hajmda to‘lanishini talab qila oladi.

Agar kafil yoki garovga qo‘yuvchi yangi qarzdor uchun javobgar bo‘lishiga rozilik bermasa, kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan berilgan garov qarzning boshqa shaxsga ko‘chirilishi bilan bekor bo‘ladi.

Qarzni (majburiyatni) ko‘chirish, ko‘pincha fuqarolarning o‘zaro munosabatlarida qo‘llaniladi. Ammo majburiyat qarzdorning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lsa, qarzni ko‘chirish mumkin emas.

Yozma shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talab qilish huquqini o‘tkazish va qarzni (majburiyatni) ko‘chirish oddiy yozma shaklda qilinishi lozim. Agar bitim notarial tasdiqlangan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lsa, u holda ushbu tegishli shaklga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. FKning 323-moddasida qarzni ham, majburiyat bo‘yicha ijroni ham bir paytda boshqa shaxsga o‘tkazish qoidalari nazarda tutilgan. Bunga asosan qarzdorni qarzni to‘lash majburiyatidan ozod qilmagan holda qarzni yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o‘tkazishga ruxsat beriladi. Bu holda har ikkala qarzdor majburiyatning bajarilishi uchun sherik (solidar) javobgar bo‘ladi.

Qarzdorning uchinchi shaxs bilan shartnomasi asosida, uchinchi shaxs majburiyatining bajarilishi bo‘yicha kreditor oldida emas, balki faqat qarzdor oldida burchli bo‘ladi.

Regress (qaytarma) majburiyat

Regress atamasi qadimgi Rim huquqida vujudga kelgan bo‘lib, o‘sha davrlarda bu atama bugungi kundagi vazifani bajargan. Regress – lotincha “regressus” so‘zidan olingan bo‘lib, “orqaga harakat” degan ma‘noni anglatadi¹. “Regress” atamasi (“progress” – “oldinga harakat” atamasiga qarama-qarshi o‘laroq) so‘zma-so‘z tushunilganda “orqaga harakat, qaytarma” ma‘nolarini ifodalaydi. Shu sababli ko‘pchilik vaziyatlarda “regress talabi” o‘rniga uning sinonimi bo‘lgan “qaytarma talab” atamasi qo‘llaniladi. “Regress” fuqarolik huquqida “qaytarish” tushunchasini,

¹Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т. Адолат, 2010.-В.381.

masalan, birov uchun to‘langan pulning qaytarish to‘g‘risidagi talabni bildiradi. Qaytarma majburiyat sheriklik va qo‘shimcha majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqadi. Sherik qarzdorlardan biri kreditorga nisbatan majburiyatni to‘la hajmda bajarib, keyinchalik ular uchun to‘langan summani, qilingan ish xarajatlarini qolgan qarzdorlardan qaytarma talab asosida qoplata oladi. Odatda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda regress majburiyatlar asosiy majburiyatni qarzdor o‘rniga uchinchi shaxslar bajarganda yoki uchinchi shaxsning aybi bilan majburiyat bajarilmagan hollarda yuzaga keladi.

Regress majburiyat o‘ziga xos quyidagi belgilari bilan ta’riflanadi:

a) regress majburiyat asosiy majburiyatning hosilasi hisoblanadi;

b) unda ishtirok etuvchilarning bittasi yoki barchasi asosiy majburiyatning subyektlaridan hisoblanadi;

v) asosiy majburiyatni regress majburiyat taraflaridan biri tomonidan bajarilishi yoki regress majburiyatning o‘zini vujudga kelishi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning harakati yoki harakatsizligi bilan bog‘liq.

Regress majburiyat bo‘yicha qatnashuvchi kreditor *regredient* deb ataladi. U albatta asosiy majburiyatda qatnashuvchi hisoblanadi. Regress majburiyat bo‘yicha qarzdor “*regressatom*” deb nomlanadi. Regressatom asosiy majburiyatda qatnashgan yoki qatnashmagan bo‘lishi ham mumkin, lekin asosiy majburiyatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uning muayyan harakatlarni amalga oshirishi yoki oshirmasligiga, shuningdek regredient uchinchi shaxs oldidagi vazifasini bajarilishiga bog‘liq¹.

Qaytarma (regress) majburiyat deb, bir taraf ikkinchi taraf uchun uchinchi shaxs oldida bajargan majburiyatni qaytarish to‘g‘risida talab qila olish huquqiga aytiladi. Regress (qaytarma) talabda ham boshqa majburiyatlar singari ikki taraf ishtirok etadi. Masalan, qarz shartnomasiga asosan, qarzdorlardan biri qarzni to‘la hajmda to‘lasa, qarz majburiyati bekor bo‘ladi. Lekin boshqa qarzdorlar uchun qarzni to‘lagan qarzdor ulardan tegishli summani undirish uchun qaytarma talab qila oladi. Agar majburiyatni to‘la hajmda bajargan qarzdor bu to‘g‘rida boshqa sherik qarzdorlarini ogohlantirmasa, sherik qarzdorlar majburiyatni bajarmagan bo‘lsa, zarar ko‘rgan qarzdor qolgan qarzdorlarga nisbatan qaytarma da’vo qo‘zg‘ata olmaydi. U faqat kreditorga nisbatangina uning asossiz olganini qaytarishi to‘g‘risida da’vo qila oladi. Qaytarma talab uchinchi shaxsga nisbatan qilingan xarajatning umumiy miqdoridan oshmasligi kerak.

Qaytarma majburiyat xo‘jalik tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘proq tarqalgan. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tashkilotdan sotib oluvchi tashkilotga mahsulot sifatsiz bo‘lgani uchun jarima to‘laganida, bunday sanksiyaga (jarima) tortilishi mahsulot

¹ Раҳмонкулов Х. Мажбурият ҳуқуқи. –Т. ТДЮИ, 2005. –В.46.

tayyorlovchi tashkilotning shartnoma shartlarini buzganligi sababli vujudga kelganligi ko'rsatilib, keyinchalik bu jarima summasining o'ziga qaytarilishi to'g'risida mahsulot tayyorlovchi tashkilotga qaytarma da'vo qo'zg'ata oladi.

Binobarin, qaytarma da'vo tashkilotlar o'rtasida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatiga nisbatan javobgarligini oshiradi va u muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fuqarolik huquqining asosiy institutlari hisoblangan mulk huquqi va majburiyat huquqi institutlarining o'zaro bog'liqligi va nisbatini tahlil qiling?

2. Kreditorning solidar qarzdorlarga nisbatan talabini amalga oshirish shakli va qarzdorlarning qarshi talabini ta'minlashning o'ziga xosligi va ushbu munosabatlarning huquqiy "kombinatsiyalari" bo'yicha mushohada yuriting?

3. Ahrorov do'sti, estrada xonandasi – Komilov bilan xizmatdoshlarini chaqirib, uning qo'shiqlarini uy sharoitida eshitish to'g'risida kelishib oldi. Ammo belgilangan muddatga bir soat qolganda Komilov Ahrorovga telefon qilib, borolmasligini, uyda o'tirib futbol matchini tomosha qilishini aytdi.

Ahrorov Komilov tomonidan barbod qilingan uchrashuvga tayyorgarlik ko'rib, qilgan xarajatlari (sotib olingan oziq-ovqat va ichimliklar haqi)ni va yetkazilgan ma'naviy zararni to'lashni undan talab qildi.

Ahrorovning Komilovga nisbatan bunday talab qo'yishiga huquqiy asos bormi?

4. Ikki yonma-yon joylashgan dala hovli egalari, o'z yer uchastkalarida bahorgi va kuzgi tozalash ishlarini navbatma-navbat o'tkazishni kelishib olishdi. Ayni paytda, Fayzievning uchastkasi Safarovning uchastkasidan ikki baravar katta ekanligini hisobga olib, Safarov tomonidan o'tkaziladigan tozalash uchun, Fayziev eng kam ish haqi miqdorida haq to'lashi lozimligi haqida ham kelishib olishdi.

Dastlabki tozalov ishlarini Fayziev amalga oshirdi, lekin Safarov o'z majburiyatini bajarganda, Fayziev haq to'lashdan bosh tortdi va o'rtalaridagi shartnoma maishiy xarakterda bo'lib, yuridik kuchga emas emasligini aytib o'tdi.

Fayzievning fikrlari asoslimi? Fikringizni asoslang.

17-MAVZU. MAJBURIYATLARNI BAJARISH

Majburiyatlarni bajarish tushunchasi va tamoyillari. Majburiyatlarni bajaruvchi subyektlar (shaxslar). Bajarish predmeti. Majburiyatni bajarish muddati, joyi va usuli.

Majburiyatlarni bajarish tushunchasi va tamoyillari

Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq, muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, ma'lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish muayyan harakatdan saqlanganlik kabilardan iborat.

Davlat, yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan olingan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, mulkiy munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatning tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishda katta rol o'ynaydi.

Majburiyatlar FKning 236-moddasida aytilganidek, majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmagan taqdirda esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Bunda taraflarning har biri o'z majburiyatlarini ancha tejamli bajarishi, ikkinchi tomonga uning o'z majburiyatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko'rsatishi lozim.

Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo'lsa, ularda ko'rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatlar o'zaro kelishib qo'yiladigan talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki tomon xo'jalik aloqalarining rivojlanishini ko'zlab, tejamlilik bilan va o'zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Majburiyatning bajarish predmeti yuklangan majburiyatning xarakteriga qarab faol harakatni amalga oshirish yoki harakatdan saqlanish hisoblanadi. Odatda FKda ko'proq faol harakatdan iborat majburiyatlar o'rin olgan.

Majburiyatlarni bajarish bir qator tamoyillarga asoslanadi. Ular: majburiyatlarni lozim darajada bajarish, kelishilgan va maqbul usulda

bajarish, majburiyatni tegishli shaxs uchun bajarish, aniq bajarish, tejamlilik va o‘zaro hamkorlikda bajarish kabilardir.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish tamoyili deganda, majburiyatlar qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradigan darajada, bekamu ko‘st va belgilangan muddatda bajarilishi nazarda tutiladi. Huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar o‘z majburiyatlarining lozim darajada bajarilishidan bab-baravar manfaatdor bo‘lishlari, bir-birlariga ko‘maklashishlari faraz qilinadi.

Mazkur tamoyil yuklatilgan majburiyatlarni majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq bajarilishini ta’minlaydi.

Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi jamiyat manfaati hamda uning tobora o‘sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida majburiyatlarni lozim darajada bajarilishidan nafaqat majburiyat o‘z foydasiga bajarilayotgan subyekt, balki oxir-oqibatda jamiyatning har bir a‘zosi manfaatdor bo‘ladi. Chunki barcha xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan o‘z majburiyatini lozim darajada bajarmasligi boshqa subyektlar uchun ham, garchi ular bevosita bunda kreditor sifatida qatnashmasalarda, salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish ularni qonun hujjatlariga, shartnoma shartlariga, ish muomalasi odatlariga, odatda qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda shartnoma narsasining sifati, miqdori, hajmi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarilishini anglatadi.

Majburiyatlarni bajarishning yana bir tamoyili – bu *majburiyatlar kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilish tamoyilidir*. Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyati anglashilmasa va qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak (FK 238-modda). Ushbu tamoyil mazmuniga ko‘ra o‘z navbatida majburiyatlarni real (asl holicha) bajarilishi, uni bajarishda tejamli usullardan foydalanish, majburiyat bajarilishida taraflarning hamkorlik qilish haqidagi qoidalarini anglatadi. Bu qoidalarni ham shartli ravishda, garchi qonunda bevosita sanab o‘tilmagan bo‘lsa-da, majburiyatlarni bajarish tamoyillari sifatida qarash mumkin.

Majburiyatlarning aniq bajarilishi tamoyili – shartnomada ko‘rsatilgan harakatning aynan o‘zi bajarilishining, topshirilishi lozim bo‘lgan narsaning (mahsulotning) asl holatida topshirilishini bildiradi. Bu tamoyil ayrim adabiyotlarda “majburiyatlarni asl holatda bajarish

tamoyili” deb ham nomlanadi. Bu FKning 330-moddasi mazmunidan kelib chiqib belgilangan.

Majburiyatning qarzdor aybi bilan kechiktirilishi yoki lozim darajada bajarilmasligi hollarini nazarda tutib, belgilangan neustoyka (jarima, penya)ning ham majburiyatning lozim darajada bajarilmasligi natijasida kelib chiqqan zararning undirilishi – majburiyatni asl holida bajarishdan qarzdorni ozod qilmaydi.


Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari majburiyatni bajarishda bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi (FK 237-modda). Ammo bu qoida yuqorida aytilganidek, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba’zi majburiyatlar uchun qo‘llanilmaydi. Chunonchi, topshiriq shartnomasi bo‘yicha topshiriq beruvchi bergan topshirig‘ini har vaqt bekor qila oladi, topshiriq olgan shaxs xohlagan vaqtda topshiriqni bajarishdan bosh torta oladi. Temir yo‘l va boshqa turdagi transport vositasida yo‘lovchilar tashish munosabatida ham yo‘lovchi talabi bilan shartnoma har qachon bekor qilinishi mumkin.

Majburiyatlarni bajarishda tejamlilik qoidasiga muvofiq majburiyatni bajarishda taraflar kam xarajat bilan ko‘p foyda keltirishga qaratilgan harakatlarni qilishlari lozim. Bu qoida kreditor va qarzdorga majburiyatni bajarish jarayonida eng qulay hamda eng foydali usuldan foydalanish lozimligini belgilaydi. Chunonchi, pudrat shartnomasi bo‘yicha pudratchi ishni buyurtmachi materialidan bajarishda materialni tejamlilik bilan sarflashi va u noto‘g‘ri ishlatilishi uchun javobgar bo‘lishi belgilangan. Yuk tashish shartnomasiga asosan yuk tashuvchi yukni eng qisqa yo‘ldan tashishi ko‘rsatilgan.

Majburiyatlarni bajarishda o‘zaro hamkorlik va tejamkorlikda bajarish tamoyillari ham mavjud. Majburiyatlarni bajarishda o‘zaro hamkorlik tamoyiliga binoan har ikki tomon majburiyatni bajarishda bir-birlariga zarur bo‘lgan yordamni ko‘rsatishlari lozim. Chunonchi, kreditor majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lishi bilan birga qarzdorning o‘z majburiyatini bajarishda unga yordam berishga, ko‘maklashishga ham majbur. Masalan, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo‘jalik mahsulotlarining davlat yo‘li bilan xarid qilinishida tayyorlovchi (mahsulot qabul qiluvchi) tashkilotlar qishloq xo‘jalik korxonalariga mahsulotlar yetishtirishda, mahsulotni tashishni tashkil qilishda yordam ko‘rsatishi zarur.

Majburiyatlarni tegishli shaxs uchun bajarish tamoyili Fkning 240-moddasida o‘z ifodasini topgan. Bunga asosan, agar taraflarning

kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor majburiyatni bajarish chog'ida ijroni kreditorning o'zi yoki bu ish uchun u vakolat bergan shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli bo'ladi va bunday talabni qo'ymaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo'ladi.



Majburiyatlarni bajaruvchi subyektlar (shaxslar)

Majburiyatni o'z nomidan ijro etuvchi va ijroni qabul qilib oluvchilar majburiyat ijrosining subyekti hisoblanadilar. Ijro subyektlari majburiyat subyektlariga hamma vaqt ham mos kelmasligi mumkin. Majburiyat subyektlari barcha hollarda qarzdor va kreditor bo'ladi. Ijro subyektlari esa ayrim hollarda qarzdorlari uchun majburiyatni bajaruvchi boshqa biror shaxs bo'lishi, kreditor uchun ijroni qabul qiluvchi uchinchi bir shaxs bo'lishi ham mumkin.

Ammo ba'zi hollarda majburiyat kreditor uchun uning ko'rsatmasiga binoan, boshqa shaxsga ham ijro etilishi mumkin. Masalan, mahsulot oluvchi ulgurji savdo bazasi manziliga kelishi lozim bo'lgan mahsulot (tovar)ning bevosita savdo korxonalariga yuborilishi to'g'risida mahsulot yetkazuvchi bilan kelishishi mumkin.

Qarzni depozitga qo'yish yo'li bilan majburiyatning bajarilishi to'g'risida FKning 249-moddasida aytilganki, majburiyat bajarilishi lozim

bo‘lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo‘lmasa yoki vakil rozi bo‘lmasa, majburiyat bo‘yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo‘qligi ko‘rinib turgan bo‘lsa, xususan bu haqda kreditor bilan boshqa shaxslar o‘rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan kreditorning ijroni qabul qilishdan bo‘yin tovlashi yoki uning tomonidan boshqacha yo‘l bilan kechiktirilishi munosabati bilan amalga oshiriladi.

Pul summasini yoki qimmatli qog‘ozlarni notarius yoxud sudning depozitga qo‘yishi, majburiyatni bajarishi hisoblanadi.

Depozitga pul yoki qimmatli qog‘ozlar qo‘ygan notarius yoxud sud kreditorni bundan xabardor qiladi.

Notarial idoraning depozitga qarzni qo‘yish yo‘li bilan majburiyatning bajarilishiga oid munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 74-moddasida aytilishicha, pul summalari va qimmatli qog‘ozlar depozitga qo‘yilganligi haqida notarius kreditorga xabar qiladi va uning talabi bo‘yicha unga tegishli bo‘lgan pul summalari va qimmatli qog‘ozlarni topshiradi.

Majburiyatning uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi FKning 241-moddasida ko‘rsatilgan. Umuman, majburiyatning bajarilishi FKning 241-moddasida ko‘rsatilganidek, uchinchi shaxs zimmasiga ham yuklatilishi mumkin. Qonunda aytilishicha, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, shuningdek uchinchi shaxs taraflardan biri bilan tegishli shartnoma orqali bog‘liq bo‘lsa, shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning bajarilishi uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Majburiyatning bajarilishini uchinchi shaxs zimmasiga yuklash uchun quyidagi asoslar bo‘lishi kerak:

1) belgilangan qoidalarda nazarda tutilgan bo‘lishi, chunonchi, yukni bir necha transport korxonasi ishtirokida tashishda shartnoma faqat bir transport korxonasi (yukni jo‘natish punkti) bilan tuzilsa ham, majburiyatni bajarishda (yukni tashishda) boshqa transport korxonalarining ishtiroki transport qonunlarida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak;

2) ma‘muriy jihatdan bo‘ysunish holatining bo‘lishi, masalan, qurilish tresti bilan o‘ziga bo‘ysungan qurilish boshqarmasiga majburiyatni bajarishni topshirishi kerak;

3) majburiyatning bajarilishi uchinchi shaxs zimmasiga yuklanishi shartnoma bilan belgilangan bo‘lishi kerak. Chunonchi, ta‘minotchi tashkilot mahsulotni yetkazuvchidan olib, o‘zi iste‘molchilarga

yubormasdan, bu vazifani (majburiyatni bajarishni) o‘zaro kelishuv bo‘yicha mahsulot yetkazib beruvchiga yuklashi ham mumkin.

Bunday hollarda FKning 241-moddasi, 2-bandida ko‘rsatilganidek, agar qonun, shartnoma yoki majburiyat mazmunidan majburiyatni qarzdorning shaxsan o‘zi bajarishiga majburiligi anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart.

Biroq majburiyat bajarilmaganligi uchun, basharti qonun hujjatlari yoki shartnomada uchinchi shaxsning javobgar bo‘lishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnomadagi taraf javobgar bo‘ladi.

Bajarish predmeti

Moddiy narsalar (ashyolar, pullar), ishlar va xizmatlar, shuningdek ijodiy mehnat natijalari (yaratilgan asarlar), umuman nimaning barpo etilishi yoki topshirilishi to‘g‘risida majburiyat belgilansa u bajarish predmeti bo‘ladi. Faqat u fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar bo‘lishi kerak.

Masalan, kreditorga majburiyat bo‘yicha muayyan bir ashyoni, chunonchi, o‘ziga xos belgilari bo‘lgan narsani topshirish lozim. Aytaylik, majburiyat predmeti jismiy alomatlari, chunonchi, son, og‘irlik yoki o‘lchov bilan belgilanadigan bo‘lsa, qarzdor tomonidan shu xildagi son, og‘irlik yoki o‘lchov bilan belgilanadigan ashyo topshirilishi kerak.

Majburiyatni bajarish predmetida sifat masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sifat majburiyatni bajarilishi oqibatida kreditor qabul qilib olgan majburiyat natijasida – tovar, ish, xizmat, intellektual faoliyat natijasidan qoniqish hosil qilish imkonini beradi va kelajakda turli nizolarni kelib chiqmasligini ma’lum darajada kafolatlaydi.

Pul majburiyatida u so‘mlar bilan chet el valyutasidagi muayyan summadagi ekvivalent (teng) bo‘lgan summadagi yoki shartli pul birliklari (Evro, “maxsus qarz olish huquqlari” va hokazolar) bilan to‘lanishi lozimligi nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda, odatda, hisob-kitoblar to‘lov kunidagi rasmiy kurs bo‘yicha belgilanadi. Pul to‘g‘risidagi majburiyatlarni chet el valyutasida ifodalash hamda to‘lashga faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Muqobil va fakultativ majburiyatlar. Qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini qilishga majbur bo‘lishi (FKning 250-moddasi) muqobil majburiyat hisoblanadi. Chunonchi, ikki fuqaro o‘rtasidagi oldi-

sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi oluvchiga o'zida bo'lgan bir narxdagi ikki narsadan birini, masalan, yo televizor yoki xolodilnikni sotish to'g'risida kelishishlari mumkin. Bunda shartnoma predmeti ikki ashyo bo'lib ko'riladi. Bu ashyolardan birini tanlab olish bilan majburiyatni bajarish huquqi qonun, shartnoma yoki majburiyat mazmunidan boshqacha hol anglashilmasa qarzdorga beriladi.

Fakultativ majburiyat deb, asosan, qarzdor muayyan bir harakatni qilishga majbur bo'lib, shu bilan birga mazkur majburiyatda nazarda tutilgan harakat o'rniga boshqa bir harakatni qilish huquqini o'zida saqlab qolishga aytiladi. Chunonchi, shartnomada televizor sotilishi ko'rsatiladi, ammo shu bilan birga sotuvchi televizor o'rniga xolodilnikni sotish huquqini o'ziga belgilab qo'yadi.

Majburiyatlarning muqobil va fakultativ majburiyatlarga bo'linib bajarilishining ma'lum huquqiy oqibatlari bor. Chunonchi, muqobil majburiyatda ko'rsatilgan ashyolardan biri tasodifan nobud bo'lsa, o'rniga ikkinchisi topshiriladi. Demak, bunday holda majburiyat bekor bo'lmaydi. Ammo fakultativ majburiyatda ko'rsatilgan asosiy narsa tasodifan, qarzdorning aybi bilan bog'liq bo'lmagan holda nobud bo'lsa, bunday majburiyat bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli bekor bo'ladi.

Ulushli va sheriklik majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida o'n to'qqizinchi mavzuda batafsil to'xtab o'tildi.

Majburiyatni bajarish muddati, joyi va usuli

Majburiyatni bajarish muddati qonun bilan yoki taraflarning o'zaro kelishuvi bilan yoxud sud qarori bilan belgilanishi mumkin.

Majburiyatni bajarish muddati kalendar sana bilan yoki muayyan vaqtda, masalan, uch oy ichida bajarilishini ko'rsatish bilan yoxud biror hodisaning vujudga kelishi, chunonchi, paxta hosilning yig'ishtirib olinishi vaqt bilan ko'rsatilishi mumkin.

Muddatlar umumiy va juz'iy, asosiy va maxsus, boshlang'ich va oxirgi muddatlarga bo'linishi mumkin.

Umumiy muddat – barcha majburiyatning butunlay bajarilishi muddati bo'lsa, juz'iy muddat – majburiyatning qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan qismlarga bo'linib, qisman bajarilishidir. Bunday muddatlar asosiy muddatlar hisoblanadi, chunki bu muddatlar taraflarning asosiy majburiyatlarini bajarishlari uchun belgilanadi.

Maxsus muddatlar biror-bir qo'shimcha, maxsus harakatlarni bajarish, chunonchi, qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda

zarur hujjatlarni topshirish, mahsulotda bo'lgan kamchiliklar to'g'risida dalolatnomalar tuzish uchun belgilangan muddatlardir.

Ba'zi majburiyatlarda, masalan, pudrat shartnomasida ishni boshlash muddati–boshlang'ich muddat va ishni tamomlash muddati – oxirgi muddat qilib ko'rsatilishi mumkin. Muddatlarni hisoblashga oid qoidalar FKning 145-148-moddalarida normalangan.

Bajarish muddati belgilanmagan majburiyatlar ham uchraydi. Ba'zi hollarda o'zaro shartnoma tuzishda majburiyatni bajarish muddatini belgilamasliklari yoki majburiyatning kreditor yoki qarzdor talab qilgan zahoti bajarilishi kerakligini belgilashlari mumkin.

Agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilanib qo'yilmagan bo'lsa, kreditor majburiyatda ijroni talab qilishga, qarzdor esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab, yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart (FK 242-modda). Muddat ko'rsatilmay belgilangan majburiyatlarga omonat saqlash majburiyatini ko'rsatish mumkin. Taraflardan birining talabi bo'yicha omonat shartnomasi har qachon bekor qilinishi va ashyoni omonatga qo'ygan shaxs har qachon uning qaytarilishini talab qilishga, omonat saqlovchi esa darhol qaytarishga majbur bo'ladi. Agar ashyolar talab qilib olinguncha yoki muddat ko'rsatilmay saqlash uchun topshirilgan bo'lsa, omonat saqlovchi har qachon shartnomadan bosh torta oladi, ammo bu holda u omonat topshirgan shaxsga mulkni qayta qabul qilish uchun mazkur sharoitlarda yetarli muddat berishga majbur. Qonun ba'zi hollarda kreditorga ham ijroni qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish uchun muhlat olish mumkinligini belgilaydi. Chunonchi, agar mulk ijarasi shartnomasi muddati ko'rsatilmay tuzilgan bo'lsa, bu holda u noma'lum muddatga tuzilgan sanaladi va har ikki taraf xohlagan vaqtda shartnomani bekor qila oladilar. Bu holda shartnomani bekor qilmoqchi bo'lgan taraf ikkinchi tarafni bir oy oldin ko'chmas mulk ijarasida esa uch oy ilgari yozma ogohlantirilishi lozim, deb ko'rsatiladi.

Majburiyatlar muddatidan ilgari ham bajarilishi mumkin. Majburiyatning bajarilishi vaqti kreditor uchun har xil ahamiyatga ega bo'ladi. Chunonchi, kreditor omonatga qo'yilgan narsani muddatidan ilgari o'ziga qaytarilishini istamasligi qarz shartnomasi bo'yicha esa berilgan qarzning muddatidan avval qaytarilishiga qarshi bo'lmasligi mumkin. Agar qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud majburiyatlarning mohiyatidan yoinki ish muomalasi odatlaridan yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablardan anglashilsa, qarzdor

majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga haqli, kreditor esa ijroni muddatidan ilgari qabul qilishi shart (FK 243-modda).

Fuqarolik huquqida majburiyatni ijro etish joyi ham muhim ahamiyatga ega. FKning 246-moddasiga asosan, agar majburiyatni bajarish joyi qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa va majburiyatning mohiyatidan yoxud ish muomalasi odatlaridan yoinki odatda qo'yiladigan talablardan anglashilmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

1) ko'chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha mol-mulk turgan joyda;

2) tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlar bo'yicha – tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;

3) qarzdorning tovarni yoki boshqa mol-mulkni topshirish yuzasidan o'zga majburiyatlari bo'yicha – mol-mulkni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqish paytida bu joy kreditorga ma'lum bo'lgan bo'lsa;

4) pul majburiyati bo'yicha–majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo'lsa, uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o'z yashash joyini yoki joylashgan yerini o'zgartirgan bo'lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo'lsa – ijro bilan bog'liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida;

5) boshqa barcha majburiyatlar bo'yicha – qarzdorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan yerida.

Majburiyatni ijro etish usuli - bu majburiyat tuzilgan shartnomaning shartlari yoki huquq normalari bilan belgilangan tartibda ijro etilishidir. Ba'zi majburiyatlar o'zining mazmuniga ko'ra birdaniga va batamom ijro etiladi. Chunonchi, xususiy alomatlar bilan belgilanadigan ashyoni masalan, sotilgan televizorni topshirish majburiyati bir vaqtda va batamom ijro etiladi. Boshqa bir xil majburiyatlar, aksincha, qismlarga bo'linib, bir qancha vaqt davomida ijro etilishi mumkin. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berishda moddiy ta'minot unga bir necha yillar davomida beriladi, ya'ni majburiyat qismlariga bo'linib, bir qancha vaqt davomida bajariladi. Aksariyat majburiyat masalan, tashkilotlarga sotilgan mahsulot (tovar)larni yetkazib berish va buning uchun haq to'lash majburiyatlari birdaniga, qismlarga bo'lib-bo'lib ham bajarilishi mumkin.

Ba'zi hollarda majburiyatning qismlarga bo'linib ijro etilishi kreditor uchun noqulay bo'lishi mumkin. Masalan, qish faslida sotiladigan kiyimlarni bir necha chorakka bo'lib, bahor va yoz fasllarida yetkazib berilishi xo'jalik hisobida ish ko'ruvchi savdo tashkilotini qanoatlantirmasligi mumkin. Bunday hollarda boshqacha tartib qonun hujjatlarida, shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor majburiyatning qismlarga bo'lib bajarilishini qabul qilmaslikka haqli (FK 239-modda). Bunday ijroni kreditor qabul qilmasa, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarmagan yoki butunlay bajarmagan hisoblanadi.

Ba'zi hollarda ikki tomonlama majburiyatlarda kimning eng avval o'z majburiyatini ijro etishi lozimligi ma'lum bo'ladi. Masalan, vositachilik shartnomasi bo'yicha vositachi avval o'z majburiyatini bajaradi, narsani sotadi, keyin xizmat haqini oladi; chakana savdo magazinida oluvchi tovarning qiymatini avval to'laydi, keyin molni oladi va h.k. Agar taraflardan biri o'z majburiyatini avval bajarishi noma'lum bo'lganda, agar qonun, shartnoma yoki majburiyat mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma yuzasidan olingan o'zaro majburiyatlar bir vaqtda bajarilishi lozim bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan qoida dispozitiv xarakterda bo'lganligi tufayli majburiyatning avvalo kim tomonidan bajarilishi, masalan, sotilgan narsaning topshirilishi yoki pulning to'lanishi o'zaro kelishuv bo'yicha ham belgilanishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Majburiyatlarni bajarish qanday ahamiyatga va undan ko'zlangan maqsad o'rtasidagi nisbatni tahlil qiling?

2. Majburiyatlarni bajarish tamoyillari tizimi, ularni tasniflash mezonlari va bundan tasniflanishning amaliy ahamiyatini yoriting?

3. Avtobus O'zbekistonning qadimiy joylari bo'ylab uyushtirilgan sayohat davrida Buxoroga kelganda buzilib qoldi. Natijada Xiva shahrini tomosha qilishga vaqt qolmadi. Sayohatdan so'ng sayohlar tomonidan sayohatni uyushtirgan sayyohlik firmasiga e'tiroz bildirildi, ammo hech qanday natijaga erishib bo'lmadi.

Bu vaziyatda sayyohlik firmasi to'g'ri harakat qilganmi? Sayyohlar talabi to'g'rimi? Bu sharoitda ularga qanday maslahatlar bersa bo'ladi?

4. Fuqaro Zoirov bir oy oldin 50.000 so'mga sotib olgan tuflisini oyoq kiyim ustaxonasiga poshnasining bir qatlam rezinasini almashtirish uchun topshirdi va ish haqi uchun 3000 so'm to'lashni kelishib oldi. Usta tuflini 3 soat ichida tuzatib berishini aytdi. Zoirov tuflini kelishilgan muddatdan so'ng olib ketgani kelganida tufli yo'qolgani ma'lum bo'ldi. Ustaxona esa unga yo'qolgan tuflini o'rnini qoplashdan bosh tortdi.

Ustaxonaning harakatlari to'g'rimi? Zoirov qanday huquqlarga ega va ularni qay tartibda amalga oshirishi mumkin? Javobingizni amaldagi qonun hujjatlaridan kelib chiqib asoslantiring.

18-MAVZU. MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi. Neustoyka. Garov. Ushlab qolish. Kafillik. Kafolat. Zakalat.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash tushunchasi

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan chora bo'lib hisoblanadi. Majburiyat bajarilishini ta'minlashning tabiati shu bilan izohlanadiki, qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasa yoki boshqacha tarzda buzilsa, kreditorda ziyonlarni undirishga bo'lgan huquqdan tashqari majburiyatning obyektini tashkil etgan harakatni qilishga qarzdorni majbur qiladigan boshqa mulkiy ta'sir choralari qo'shimcha ravishda tatbiq etilishini talab qilish huquqi vujudga keladi.

Qo'shimcha majburiyatlar asosiy majburiyatning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi usullardan tashkil topadi. Ular qarzdorni asosiy majburiyatni bajarishga majbur qiluvchi va u bajarilmagan taqdirda kreditorning talablarini qanoatlantiruvchi huquqiy vosita (chora)lardan hisoblanadi¹.

Majburiyatni ta'minlashning u yoki bu usulining o'ziga xos xususiyatlarini va uning muayyan vaziyatlarga nisbatan qo'llash imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Darhaqiqat, neustoyka va zakalat bir vaqtning o'zida fuqarolik huquqiy javobgarlik chorasini ifoda etadi va ular sifatida qarzdorni, haqiqatda javobgarlikni qo'llash xavfi ostida majburiyatlarni tegishli usulda bajarishga undaydi, negaki neustoyka yoki penyani belgilangan miqdorda undirish kreditordan unchalik jiddiy sa'yi-harakatlar sarflanishini talab qilmaydi, masalan, qachonki ularning xajmini asoslash va isbotlash lozim bo'lgan zararlarni qoplash holatida².

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi qarzdorning o'z zimmasiga olgan yoki unga yuklatilgan


¹ Раҳмонкулов Х. Мажбурият ҳукуқи (умумий қоидалар). –Т.: ТДЮИ, 2005 й. -81 б.

² Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд. Адлия вазирлиги. – Т.: “Vektor-Press, 2010. – 618 б.

vazifani bajarishga qaratilgan huquqiy profilaktik choradir. Bunday profilaktik choraning asosiy maqsadi qarzdorni asosiy majburiyat bo'yicha majburiyatini bajarishga qaratilgan. Ya'ni, asosiy majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda kreditorning huquq va manfaatlari qo'shimcha ta'minot usullari asosida ta'minlanadi. Bunday usullar har qanday holda majburiyat huquqiy munosabatlarda kreditorning tavakkalchilik xavfini kamaytirish barobarida uni erkin va faol harakat qilishga undaydi. Qolaversa, bunday usullar asosan kreditor manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Majburiyatlarning bajarilishi har xil usul bilan ta'minlanadi. Mazkur usullar yo qonun bilan belgilanishi yoki shartnomaga asoslangan bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonun hujjatlarida majburiyatning bajarilishini ta'minlash neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin (FK 259-modda).

Ushbu usullardan hech qaysisi o'zicha mustaqil ravishda qo'llanilmaydi. Bularning hammasi biror-bir majburiyatning mavjud bo'lishini nazarda tutgan holda, mazkur majburiyatning bajarish maqsadlarini ko'zlab belgilanadi. Bunda shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyat – asosiy majburiyat bo'lib, uning bajarilishini ta'minlash usuli esa qo'shimcha majburiyat hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot yetkazib berish yoki pudrat shartnomasidan kelib chiqadigan asosiy majburiyatning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qo'shimcha majburiyat hisoblanadi.





Neustoyka

Neustoyka majburiyat huquqiy munosabatlar tizimida ta'minlovchi va qoplash funksiyasini bajaradi.

Neustoyka majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli sifatida toki uni ijrosi buzilgunga qadar amalda bo'ladi. Bunday hollarda qonun yoki shartnoma neustoykani undirish huquqining vujudga kelish vaqtini nazarda tutadi. Asosiy majburiyat buzilgandan so'ng neustoyka mulkiy javobgarlik shakli sifatida namoyon bo'ladi. Neustoykani ta'minlovchi va javobgarlik chorasi o'rtasidagi nisbat shu bilan izohlanadiki, *birinchidan*, ta'minlovchi funksiya qarzdorni majburiyatni bajarishga undaydi, *ikkinchidan*, agar tegishli majburiyat bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa unga nisbatan javobgarlik chorasini majburiy qo'llash taqozo etadi. Boshqacha aytganda, qarzdorni o'z majburiyatini bajarish uchun oqilona harakatlanishini rag'batlantiradi va agar u o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarmasa javobgarlik xavfi mavjud ekanligi haqida ogohlantiradi. Neustoyka bir holatda majburiyatni qarzdor tomonidan buzilmasligini kafolatlasa, ikkinchi holatda esa u javobgarlik chorasi sifatida namoyon bo'ladi. Neustoykaning majburiyat munosabatlarda bunday ikki xilda namoyon bo'lishi uning real va oqilona asosda majburiyatlar bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qilishidan dalolat beradi. Bunday o'ziga xos xususiyat majburiyatlar bajarilishining boshqa usullarida mavjud emas desak, mubolag'a bo'lmaydi. Neustoykaga bo'lgan huquq to asosiy majburiyat bajarilishi bilan bog'liq bo'lib to'lovdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi. Neustoyka majburiyatni ta'minlash usuli sifatida (to huquqiy buzilishi sodir etilgunga qadar) shartnomaviy majburiyat bajarilmagan taqdirda pul kompensatsiyasining to'lash hollarini belgilaydigan va unga bo'lgan huquqni vujudga keltiruvchi shartni o'zida ifoda etadi. Bunday pul kompensatsiyasiga bo'lgan huquq tegishli huquqiy buzilish sodir etilganidan so'ng vujudga keladi.


Qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi (FKning 260-moddasi).

Neustoyka majburiyatning bajarilishini ta'minlashning usuli sifatida

zarar yetkazilmagan taqdirda ham, tadbirkorlik sohasida esa, umumiy qoidaga binoan majburiyatni buzgan shaxsning aybi bo‘lmasa-da, qo‘llaniladi. Neustoyka majburiyatning lozim darajada bajarilishini ta‘minlash jarayonida operativ vosita hisoblanadi, undan huquqbuzarlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi zahotiyoyq va buning natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni kutmasdan turib foydalanish mumkin.

Neustoykani qo‘llash uchun asos bo‘lib majburiyatning buzilishi yoki huquqiy hujjatlar talablari yoinki ish muomalasi odatlari hisoblanadi. Neustoykani qo‘llash asosi sifatida, tadbirkorlik faoliyati bundan mustasno, qarzdorning aybi bo‘lishi ham hisobga olinadi. Demak, neustoykani undirish uchun, umumiy qoidaga binoan, majburiyatning buzilishi (huquqning buzilishi) va qarzdorning aybi asos bo‘lib hisoblanadi, biroq bunda huquqbuzarlik tarkibining to‘liq bo‘lishi (huquqqa xilof qilmish, zarar, sababiy bog‘lanish, ayb to‘liq holda mavjud bo‘lishi) shart emas.

Shubhasiz, neustoykaning qonun va shartnoma talablari asosida to‘g‘ri qo‘llanilishi majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlashning muhim yuridik vositasi bo‘lib hisoblanadi.



Garov

Garov - majburiyat bajarilishini ta‘minlashning eng samarali va ishonchli usullaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264-moddasida ko‘rsatilganidek, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Majburiyat qarzdor tomonidan ijro etilmaganida, kreditor o‘zining talabini garovga qo‘yilgan mulk hisobidan birinchi navbatda qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qolaversa, majburiyat vujudga kelish bosqichida kreditorga to‘liq miqdorda talabni qanoatlantirishga baho berish imkoniyati vujudga keladi; kreditorida garovga qo‘yilgan mol-mulk

hisobidan talabni tezda qanoatlantirish mumkin bo‘ladi; kreditor garov predmetini to majburiyat lozim darajada bajarilgunga qadar ushlab turishga haqli bo‘ladi.

Kreditorning talablari qondirilgandan so‘nggina garovga qo‘yilgan mulkni sotishdan hosil qilingan summadan qolganini boshqa kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin. Garov tufayli garov bilan ta‘minlangan majburiyat bo‘yicha kreditor (garovga oluvchi) qarzdor tomonidan bu majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo‘lgan shaxs (garovga qo‘yuvchi) ning boshqa kreditorlariga nisbatan o‘z talabini imtiyozli qanoatlantirilishiga haqli bo‘ladi. FKning 264-moddasida ko‘rsatilgan subyektiv huquq garov huquqi bo‘lib, mulkni garovga bergan shaxs – garovga qo‘yuvchi va mulkni olgan shaxs esa – garovga oluvchi deb ataladi. Mulkni garovga qo‘yuvchi shaxs qarzdorning o‘zi ham, shuningdek uchinchi bir shaxs ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, FKning 266-moddasida ko‘rsatilganidek, garovga qo‘yuvchi garovga qo‘yilayotgan mulkning egasi bo‘lishi lozim. Basharti, qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdorning roziligisiz ashyoviy huquqni garovga qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Garovning majburiyatning bajarilishini ta‘minlovchi kuchi shundan iboratki, agar qarzdor tomonidan majburiyat bajarilmasa, kreditor o‘z talabini garovga qo‘yilgan mol-mulk hisobidan qarzdorning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda birinchi galda qanoatlantirilishiga haqli bo‘ladi. Asosiy majburiyat (bank krediti, qarz, oldi-sotdi va h.k.) qanday bo‘lishidan qat‘i nazar garov barcha hollarda kreditorga qarzdordan o‘z talabiga monand keladigan ma‘lum miqdorda pul summasini undirish uchun huquq beradi. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta‘minlaydi, xususan foizlar, neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar to‘lanishini, shuningdek garovga oluvchining garovga qo‘yilgan ashyoni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to‘lanishini ta‘minlaydi (FKning 268-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 23 oktyabrdagi “Garov riyestri to‘g‘risida” gi qonuniga ko‘ra garov riyestri deganda, qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash vositasi sifatida berib qo‘ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi shuningdek, qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo‘yilgan cheklov hamda qarzdor o‘z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta‘minlashi bilan bog‘liq boshqa

talablar haqidagi yozuvlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlarning yagona axborot bazasi tushuniladi.

Garovning mohiyati shundan iboratki, qarzdor kreditorga o‘z majburiyatlarining bajarilishini ta’minlashga mo‘ljallangan mol-mulkini beradi. Garovga beriladigan mol-mulk, ham qarzdorga, ham boshqa shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. O‘z mulkini garovga qo‘yuvchi shaxs garovga qo‘yuvchi deb nomlanadi. Talablari garov bilan ta’minlanadigan kreditor - garovga oluvchidir. Garov mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqining kreditorga o‘tishini nazarda tutmaydi. Garov kreditorga faqat, qarzdorning boshqa kreditorlariga nisbatan, o‘z talablarini garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatidan qanoatlantirish imkoniyatini beradi. Qarzdorning o‘z majburiyatlarini bajarmasligi holatida garovga qo‘yilgan mulk sotiladi va tushgan pul summasidan asosan kreditorning garov bilan ta’minlangan talablari imtiyozli ravishda qanoatlantiriladi.

Garov vujudga kelishining eng oddiy va keng tarqalgan usuli – shartnoma tuzilishidir. Mol-mulkning garovi to‘g‘risidagi kelishuv, u bilan ta’minlanadigan asosiy majburiyatlar vujudga keladigan asosiy shartnomada belgilangan bo‘lishi ham, shuningdek, tegishli majburiyat bajarilishini ta’minlash bo‘yicha garov to‘g‘risidagi alohida shartnoma tuzilishi orqali rasmiylashtirilishi ham mumkin.

Garov qonunda belgilangan holatlarda, garov to‘g‘risidagi shartnomani tuzmasdan ham vujudga keladi. Masalan, nasiyaga sotilgan tovar uning haqi to‘lab bo‘lingunga qadar, sotib oluvchi tomonidan tovar haqini to‘lash majburiyati bajarilishini ta’minlash uchun sotuvchida garovda turgan deb hisoblanadi (FK 421-moddasining yettinchi qismi).

Garov quyidagi turlarga bo‘linadi: zakalat, ipoteka, huquqlar garovi. Bunday bo‘linish garov narsasining xususiyatlariga hamda garov narsasi kimning egaligida qolishiga qarab farqlanadi. Garovga qo‘yiladigan mol-mulk garovga qo‘yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o‘tkazilganda, topshirilganda garov zakalat deb hisoblanadi. Odatda, ko‘char mol-mulk zakalat narsasi bo‘lishi mumkin.


Ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish ipoteka hisoblanadi. Binolar, inshootlar, ko‘p xonadonli uylardagi xonadonlar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari, shuningdek turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, qonunda ko‘chmas mulk jumlasiga kiritilgan boshqa mol-mulk ipoteka narsasi bo‘lishi mumkin. Ipoteka to‘g‘risidagi qoidalar “Ipoteka to‘g‘risida”¹gi Qonunda ham o‘zining ifodasini topgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 40-сон, 393-модда.

Garovning keyingi turi - huquqlar garovidir. Mulkiy huquq, shu jumladan, egalik va foydalanish huquqi, ijara huquqi va majburiyatlardan kelib chiqadigan boshqa huquqlar ham garov narsasi bo‘lishi mumkin. Amalda ko‘pincha yer uchastkasidan doimiy foydalanishga bo‘lgan huquq, fermer xo‘jaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkasining ijarasi huquqi, xo‘jalik jamiyatlarining ustav kapitalida ishtirok etishidan kelib chiqadigan huquqlar, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlar garovi uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, majburiyatlarni bajarilishini taminlashning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, garovga oluvchining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Birinchi holda, garovga qo‘yuvchi garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa ashyoga almashtirishi mumkin. Garov narsasining almashtirilishi garov to‘g‘risida"gi shartnomaga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish bilan rasmiylashtiriladi. Masalan, garov narsasi - "Lasetti" avtomashinasi, u majburiyatlari garov bilan ta‘minlangan qarzdor do‘stining mulkidir. Bu orada qarzdor "Kaptiva" avtomashinasini merosga oladi. Garovga oluvchining roziligi bilan, garov narsasini qarzdorning mulki "Kaptiva" bilan almashtirish mumkin, bunda "Lasetti"ga bo‘lgan garov huquqi yo‘qoladi.



Ushlab qolish

Ushlab qolish majburiyatning bajarilishini ta‘minlashning yangi usulidir. Ushlab qolish huquqi lotin tilidan (“jus retentions”) kelib chiqib o‘zining tub ma‘nosiga ko‘ra ushbu fuqarolik huquqiy kategoriyani ifoda etadi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 259-moddasida majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash usullari tizimida qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish ham nazarda tutiladi. Bu usullarni qo‘llash asoslari FKning 290-moddasida belgilab berilgan. Unga asosan, qarzdorga yoki qarzdor ko‘rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo‘lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog‘liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to‘lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida

bajarilmagan taqdirda unga tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli.

Ushlab qolishga xos huquqiy belgilar *birinchidan*, qonunga muvofiq ushlab qolish bo'yicha bir tomonlama bitim munosabatlari vujudga kelishida; *ikkinchidan*, kreditor (retentor)ni haqiqiy egaliligida ashyoning mavjud bo'lishida; *uchinchidan*, qarzdordagi ashyo qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilgan bo'lishida; *to'rtinchidan*, talablarning garov haqidagi qoida bo'yicha ashyoni qiymatidan qanoatlantirish imkoniyati yaratilishida; *beshinchidan*, kreditorga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan (o'z ashyosini ushlab qolish) ashyoni ushlab qolishga yo'l qo'yilmasligida namoyon bo'ladi.

“Ushlab qolish huquqi” va “ushlab qolish” bir xil kategoriya emas. Ushlab qolish huquqi ta'minlovchi subyektiv fuqarolik huquqi bo'lsa, ushlab qolish esa ushlab qolishga haqli bo'lgan shaxs tomonidan ushlab qolish huquqini amalga oshirish nazarda tutiladi. Ushlab qolishga xos majburiyatni ta'minlovchi funktsiya xarakterli bo'lib, kreditorning mulkiy manfaatlarini himoya qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushlab qolishni har qanday holda o'z ashyosi hisobidan amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Ushlab qolish huquqi o'zga ashyoga nisbatan vujudga keladigan huquqdir.

Ashyoni ushlab qolishdan ko'zlangan asosiy maqsad kreditor o'zini qo'shimcha mulkiy xarajatlardan saqlaydi. O'z navbatida kreditorga ashyoni o'tkazishda qarzdor majburiyatni bajarilishidan ko'ra ko'proq xarajatlarni qilishiga to'g'ri keladi. Ushlab qolish huquqi qayd etilgan ma'noda nafaqat shartnomaviy balki shartnomasiz majburiyatlarda qo'llanilishi mumkin. An'anaviy jihatdan ushlab qolishga vaqtinchalik chora sifatida qaraladi. Uning predmeti bo'yicha qarzdorning xususiy alomatlari bilan belgilangan ko'char ashyolari hisoblanadi. Ushlab qolish subyektiv muddatli huquq bo'lib asosiy qarzni bekor bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Ushlab qolish majburiyat bajarilmaganda kreditorda qarzdorga nisbatan tezkor ta'sir qilish huquqi vujudga keladi. Ushlab qolish huquqining qonun asosida vujudga kelishini inobatga olsak, bu huquq kreditorning erkiga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Ushlab qolish huquqi fakti eng avvalo asosiy majburiyatning yoki talab qilish huquqining mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. Asosiy majburiyatning bo'lmasligi, uning haqiqiy emas deb topilishi yoki shartnomaning tuzilmasligi kreditorda ushlab qolish huquqini vujudga keltirmaydi. Shartnomasiz majburiyatda kreditorning egaligiga qonuniy olingan va uning tasarrufida bo'lgan qarzdor mulkini ushlab qolish bilan majburiyatning ta'minlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Sud yoki hakamlilik sudi qarorini ijro qilish maqsadida ushlab qolishdan foydalanish maqsadga

muvofiq emas. Asosiy majburiyat mutlaqo pul xarakterida bo'lishi talab etiladi.

Ushlab qolish huquqining faqat qonunga asoslanishini nazarda tutsak, uning majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash usullari tizimida o'ziga xos o'rin egallashidan dalolat beradi. Boshqa usullar nafaqat qonun, balki kelishuv va shartnomalarga ko'ra ham vujudga keladi. Ushlab qolishning asosi bo'lib hali to'lov muddati kelmagan qarz hisoblanadi. Ushlab qolish huquqi shartnomaga muvofiq vujudga kelganda, u albatta yozma ravishda tuzilishi kerak. Basharti ushlab qolinadigan mulk ko'chmas mulk bo'lsa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi talab etiladi.

Kafillik

Kafillik shartnomasiga asosan, bir taraf kafil, boshqa shaxs o'z majburiyatlarini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi (FK 292-moddasining, birinchi qismi).

Kafillikning asosiy funksiyasi boshqa ta'minlovchi usullar kabi majburiyatni bajarilishi ta'minlashning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarishni rag'batlantirmasdan, ehtimoliy yo'qotishlar ro'y berganda kreditorning huquq va manfaatlarini qoplash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kafillik akstessor belgiga ega bo'lib, xususiy huquqiy ta'minlovchi chora sifatida shartnomaviy xarakterni o'zida namoyon etadi. Kafillik qat'iy pullik majburiyatdir.

Kafillik shartnomasi bir tomonlama konsensual va haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Kafillik shartnomasi tekinga tuzilishi mumkin, agar bu haqda FKning 297-moddasiga muvofiq shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa. Lekin bunday bo'lishi kafilni yetkazilgan zararni to'lashni qarzdordan talab qilish huquqidan mahrum qilmaydi.¹

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida ko'riladigan kafillikning mohiyati shundaki, kreditor asosiy majburiyat bajarilmagan holda o'z talablarini faqat asosiy qarzdorgagina qo'ymay, balki kafilga nisbatan ham qo'ya oladi.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu holda taraflar kafillik to'g'risida alohida yozma shartnoma tuzishlari shart bo'lmaydi. Kafillik belgilanishida kafil asosiy qarzdor tomonidan beriladigan tilxatda qarzdor tomonidan majburiyatning lozim darajada bajarilishi javobgarligini o'z zimmasiga olganligini ko'rsatib belgi qo'ysa yoki qarzdorning muayyan majburiyat yuzasidan kafil bo'lishini kreditor

¹ Раҳмонкулов Х. Мажбурият ҳуқуқи. – Т.: ТДҶОИ, 2005 й. – 128 б.

nomiga yozgan xatida bildirsa ham kifoya. Kreditor tomonidan da'vo bir vaqtning o'zida kafil va qarzdorga nisbatan qarzdor tomonidan asosiy majburiyat bajarilmaganligi munosabati bilan taqdim etilib, solidar javobgarlik to'g'risidagi qoidalarni qo'llash lozim bo'lgan hollarda, bunday javobgarlik faqat kafil yoki faqat qarzdorga yuklatilishi mumkin emas. Kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob berishlari kerak.

Kafillik asosiy majburiyatga qo'shimcha xarakterda bo'lishi shundan iboratki, kafillik bilan faqat asosiy talab ta'minlanishi mumkin. Agar asosiy shartnoma uning shakliga rioya qilinmaganligi sababli yoki shartnomada ishtirok etuvchi taraflarning muomalaga layoqatsiz bo'lishi tufayli va boshqa shu kabi sabablar bo'yicha haqiqiy emas deb topilsa, mazkur shartnomaga qo'shimcha hisoblangan kafillik shartnomasi ham o'zining yuridik kuchini yo'qotadi.

Kafilning javobgarligi hajmi asosiy majburiyat yuzasidan qarzdorning javobgarligidan oshiq bo'lishi mumkin emas. Qarzdor qanday hajmda javobgar bo'lsa, kafil ham shu hajmda javobgar bo'ladi. Xususan, kafillik shartnomasi bilan boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, foizlar, zararlar va neustoykaning to'lanishi uchun ham javobgar bo'ladi.

Kafilning javobgarligi qarzdor tomonidan kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi holatlarida vujudga keladi. Bu holda, bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik faqat majburiyatga nisbatan bo'lishi lozim. Odatda, kafil kreditor oldida solidar javobgar bo'ladi. Bunda qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida majburiyatlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Kafolat

Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra, kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FKning 299-moddasi).

Bank kafolati xalqaro muomalada¹ keng qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga majburiyatni ta'minlashning yangi

¹Унифицированные правила по договорным гарантиям (редакция 1978.; публикация МТП. №325. Конвенция ООН о независимых гарантиях и резервных аккредитивах от 11 декабря 1995 г.)

usuli sifatida kiritildi. Kafolat kafillikdan shuning bilan farqlanadiki, bunda prinsipial (asosiy qarzdor)ning benefitsiar (kreditor)ga bo'lgan talablari va e'tirozlari inobatga olinmaydi, shuningdek prinsipial va benefitsiar o'rtasidagi shartnomaga nisbatan qo'shimcha (akstessor) majburiyat bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum darajada mustaqil hisoblanadi. Kafolat ushbu xususiyatlari bilan kreditor (benefitsiar) uchun uchinchi shaxs kafilligiga nisbatan ancha afzal usul hisoblanadi.

Kafolatning mazmuni birinchi galda kafil (bank)ning oldindan o'rnatilgan, asosiy majburiyat bilan belgilangan summani berish majburiyatidan iborat. Lekin beriladigan summa belgilangandan keyin asosiy majburiyat bekor bo'lsa yoki u haqiqiy emas deb tan olingan taqdirda ham, kafolat ushbu asosiy majburiyatga bog'liq emas va o'z kuchini saqlashda davom etadi. Shu bilan ham asosiy majburiyatlar bilan bog'liq boshqa ta'minlovchi majburiyatlardan farq qiladi.

Kafolat ko'pincha kafillikning bir turi sifatida e'tirof etiladi. Kafolat beruvchi subyektlar doirasi bilan kafillikdan tubdan farq qiladi. Kafolat bajarilishi ta'minlanayotgan majburiyatdan mustaqil bo'lib hisoblanadi. Bu holat shu bilan izohlanadiki, kafolat bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lsa yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda kafil kafolat bo'yicha majburiyatni bajarishdan ozod etilmaydi. Boshqacha aytganda, har qanday holda kafolat o'zining yuridik kuchini saqlab qoladi. Bu bilan kafolat majburiyatni bajarishni ta'minlashning boshqa usullaridan farq qiladi.

Kafolatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda har doim kafil sifatida bank, boshqa kredit muassasasi yoxud sug'urta tashkiloti qatnashadi. Ko'p hollarda kafil prinsipalga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanadi. Shu sababli ham kafil prinsipalning bankda saqlayotgan pul mablag'lari hisobidan uning kreditorlari oldidagi majburiyatini bajaradi. Biroq qonun buni shart qilib qo'ymaydi, shu sababli ham kafil sifatida har qanday kredit muassasasi yoki kredit tashkiloti bo'lishi mumkin.

Kafolatga xos xususiyat shundan iboratki, u orqali prinsipalning benefitsiar oldidagi o'z majburiyatini (asosiy majburiyatni) tegishli darajada bajarilishi ta'minlanadi. Kafolat haq baravariga tuziladi. Kafolat bergan bank (kredit muassasasi, sug'urta tashkiloti)ga prinsipal tegishli miqdorda haq to'laydi.

Kafolat asosiy majburiyatdan (ya'ni prinsipalning benefitsiar oldidagi majburiyatidan), garchi kafolatda ushbu majburiyatga havola qilinsa-da, mustaqil hisoblanadi.

Kafolat prinsipal tomonidan, kafolatda benefitsiar sifatida chiquvchi, kreditor oldida o'zining majburiyatlarini lozim darajada bajarishni ta'minlashga qaratilgan. Kafolatni olish uchun prinsipal kafilga haq to'laydi. Haq to'lash miqdori u bilan tuziladigan kelishuvda belgilanadi va kafolat summasiga hamda ta'minlanadigan majburiyatlar xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, u kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas. Kafolat bo'yicha benefistarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lmasa, u berilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Benefitsiarning kafolat bo'yicha pul summasini to'lash haqidagi talabi kafolatda ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda kafilga yozma ravishda taqdim etilishi lozim. Talabda yoki unga ilovada benefistar prinsipalni ta'minlash uchun kafolat berilgan asosiy majburiyatni buzishi nimadan iboratligini ko'rsatishi kerak.

Zakalat

Zakalat deb, shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasiga aytiladi. Ta'minlashning boshqa turlaridan farqli ravishda, zakalat shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beriladigan pul summasidir.

Zakalat to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuzilishi kerak. Mazkur talabga rioya qilinmasligi oqibatida, unda bu to'langan summa, shartnoma bo'yicha berilishi lozim bo'lgan to'lovlar hisobiga, bo'nak sifatida to'langan deb hisoblanadi.

Zakalat uchta vazifani bajaradi. Xususan, zakalat berilib tuzilgan shartnoma haqiqatan tuzilganligini isbotlovchi dalil hisoblanadi. Zakalat shartnoma yuzasidan avvaldan to'lab qo'yiladigan pul summasi bo'lib, tegishli to'lovlar hisobiga muayyan summani to'lagan taraf shartnomani qisman ijro etgan hisoblanadi. Zakalat shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning ijro etilishini ta'minlash uchun belgilanadi. Zakalatning mazkur vazifasi shu bilan ifodalanadiki, zakalat bergan taraf shartnoma yuzasidan olgan o'z majburiyatlarini bajarmaganida, bergan zakalatni yo'qotadi. Agar zakalat bergan taraf shartnomadan voz kechgan bo'lsa, bu holda u bergan zakalatning qaytarib berilishini talab qila olmaydi. Agar

zakalat olgan taraf o'z majburiyatlarini bajarmasa, u ikkinchi tarafga zakalat summasini ikki baravar miqdorida to'lashga majbur.

FKning 312-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilganidek, shartnomaning bajarilmasligi uchun javobgar bo'lgan taraf, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, zakalat summasini hisobga olgan holda, ikkinchi tarafga zararlarni to'lashi shart.

Agar zakalat summasi zarar summasidan birmuncha ko'proq bo'lsa, u holda faqat zakalatgina undiriladi. Agar majburiyatni bajarmaslik natijasida ko'rilgan zarar zakalat summasidan ortiq bo'lsa, u holda zakalat summasi ham, zararlarni qoplash uchun yetishmagan summa ham undiriladi.

Zakalatning mohiyati shundan iboratki, agar shartnomaning bajarilmasligi uchun zakalat puli bergan taraf javobgar bo'lsa, zakalat ikkinchi tarafda qoladi va qaytarilmaydi. Lekin shartnomaning bajarilmasligi uchun zakalat olgan taraf javobgar bo'lsa, u ikkinchi tarafga zakalatni ikki baravar qilib qaytarishi shart.

Zakalat haqidagi kelishuv akstessor (qo'shimcha) tusga ega bo'lib, asosiy majburiyat vujudga kelmasa, zakalat haqidagi kelishuv ham mavjud bo'lmaydi. Ta'minlovchi zakalat funksiyasi asosiy majburiyatni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Zakalat va avans (bo'nak) bir-biridan farq qiladi. Avans qarzdorga kelgusidagi to'lovlar hisobidan beriladi. Avans barcha hollarda to'lov va dalil funksiyasini bajaradi. Biroq zakalat kabi majburiyatni bajarilishini ta'minlash funksiyasini bajara olmaydi.

To'langan summa zakalat ekanligi haqida shubha tug'ilgan taqdirda, bu summa agar boshqa hol isbotlangan bo'lmasa, faqat odatda to'lov vazifasini bajaradigan bo'nak (avans) sifatida to'langan deb hisoblanadi. Masalan, da'vogar A. javobgar B. qarshi unga uy-joyni sotib olish uchun berilgan pul summasiga nisbatan ikki barobar ko'p miqdorda, ya'ni 1300 so'mni undan undirish haqida sudda da'vo qo'zg'atgan. Lekin sud da'vogar arizasida zakalatga xos quyidagi belgilarning mavjud emasligini ko'rsatib, da'voni rad etgan: uy-joyning oldi-sotdisini ta'minlash uchun zakalat to'g'risida shartnoma tuzilmagan. Uy-joyning oldi-sotdi shartnomasi umuman tuzilmagan va kelajakda tuzilishi faraz qilingan, to'lanadigan pul hisobidan da'vogar javobgarga 6500 so'm o'tkazgan, ushbu summadan 300 so'mni qarzdor da'vo qo'zg'atgunga qadar da'vogarga qaytargan. Javobgar olgan summani sud bo'nak deb tan olgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Neustoyka funksiyalarini ta'minlash deganda nimani tushunasiz. Neustoykani undirish qanday tartibda amalga oshiriladi? Mahsulot

yetkazib berish shartnomaviy majburiyatni bajarishda neustoyka penya shaklida undiriladimi yoki jarima shaklida undiriladimi? Fikringizni fuqarolik qonun hujjatlari va sud amaliyoti misollari asosida bayon eting.

2. Majburiyat bajarilishini ta'minlashning bir necha imkoniyatlari mavjud. Sizningcha majburiyat bajarilishini ta'minlashning qaysi biri qay vaziyatda nisbatan maqbul hisoblanadi?

3. "Ipoteka" tijorat banki va xususiy tadbirkor o'rtasida kredit shartnomasi tuzilgan. Qarz summasini qaytarish muddati kelgan paytda xususiy tadbirkor uni summasini qaytara olmagan. Kredit shartnomasi agar qarz oluvchi summani belgilangan muddatda to'lamasa qarzdorning muddati kechiktirilgan kreditlarini to'lash hisobiga uning depozit raqamida mavjud bo'lgan mablag'lari hisobidan o'tkazish belgilangan. Bayon etilgan holatda majburiyatni bajarish usuli sifatida ushlab qolishga oid bo'lgan qoidalarni qo'llash mumkinmi?

4. Da'vogar «O'zmevasabzavotimpeks» Samarqand viloyat filiali «Noyob A» AT «Tadbirkorbank» Samarqand viloyat boshqarmasiga nisbatan kredit shartnomasi va kafolat xati asosida kredit va foiz to'lovlari bo'yicha qarzni solidar tartibda undirishni so'ragan. Birinchi instanstiya sudi da'voni to'liq qanoatlantirgan. Kafolat xatiga asoslangan kredit majburiyatida sud FKning qaysi normalari talablarini inobatga olgan. Bunday holda sud tomonidan qarzni subsidiar tartibda undirishga yo'l qo'yilishi mumkinmi? Fikringizni moddiy va protsessual huquq normalari asosida izohlab bering.

19-MAVZU. FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik: mohiyati, tushunchasi, tavsifi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari. Javobgarlik subyekti va huquqbuzarlik subyekti: o'zaro nisbat. Ayb – fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikda qo'llaniladigan fuqarolik ta'sir choralari. Zarar fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik: mohiyati, tushunchasi, tavsifi

Har qanday huquq tarmog'i kabi fuqarolik huquqi uchun ham eng muhim masalalardan biri fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq normalariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishga harakat qilishlarini ta'minlash hisoblanadi.

Odatda, fuqarolik huquqi predmetining asosiy qismi subyektlar o'rtasidagi, odatdagi, kundalik normal munosabatlar hisoblanadi. Bu munosabatlarning normal doiradan tashqariga chiqishi fuqarolik huquqi normalarining buzilishini, fuqarolik-huquqiy javobgarlik tartibidagi masalani keltirib chiqaradi.

Biroq repressiv huquq sohalaridan (jinoyat huquqi, ma'muriy huquq va boshqa ommaviy huquq sohalari) farqli ravishda fuqarolik huquqi subyektlarga jazolash, ta'qib qilish orqaligina ta'sir ko'rsatish maqsadini qo'ymaydi.

Fuqarolik huquqining ta'sir usullari ko'proq imkoniyat berish, tanlash uchun sharoit yaratish, tashabbus ko'rsatishni rag'batlantirish va shu kabilarda namoyon bo'ladi.

Biroq fuqarolik-huquqiy munosabatlar har doim bir maromda normal davom etishi imkoniyati bo'lmaydi. Ba'zi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda normal holatdan chetga chiqish kuzatilishi mumkin.

Agarda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda javobgarlik keltirib chiqarishlarini istisno etuvchi asosiy xatti-harakat qoidasini shakllantirish mumkin bo'lsa, bu quyidagi ikki qoidada o'z mujassamini topgan bo'lar edi:

- A) O'z majburiyatlaringni vijdonan bajar;
- B) Hech kimga zarar keltirma.

Yuqoridagi ikki qoidaga rioya qilmaslikda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni muqarrar vujudga keltiruvchi holatlarning mohiyati namoyon bo‘ladi.

Birinchi holat majburiyat munosabatlari bilan bog‘liq. Aksariyat hollarda subyektlar kirishgan o‘zaro fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmuni ularning bir-birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarida namoyon bo‘ladi. Bu asosan shartnomaviy munosabatlar hisoblanadi.

Shartnomaviy munosabatlar bo‘yicha majburiyatlarni har qanday buzilishi muayyan fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini qo‘llashga sabab bo‘ladi.

Ikkinchi holda esa fuqarolik huquqi subyektlari kundalik turmushida boshqa biror subyekt huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazmasligi bilan bog‘liq. Bunda subyekt o‘zi uchun shunday maqbul xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini belgilash lozimki, toki bu boshqalarning mol-mulkiga zarar keltirmasligi lozim.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, fuqarolik-huquqiy javobgarlikka sabab bo‘ladigan xatti-harakat fuqarolik huquqbuzarlik hisoblanadi. Bunda huquqbuzarlik, nafaqat bevosita fuqarolik normalarini buzish, balki taraflar o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida belgilangan shartnoma shartlarini buzish ham hisoblanadi.

Binobarin, u nafaqat davlat tomonidan belgilangan ommaviy huquq normasi, balki fuqarolar, yuridik shaxslarning o‘zlari tomonidan belgilangan xususiy huquq normalari buzilishi tarzida ham namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan fuqarolik-huquqiy munosabatlar faqat unda ishtirok etuvchi shaxslarga talluqli va bu borada vujudga keladigan huquqbuzarlik oqibatlarini ta‘siri ham cheklangan degan xulosaga kelmaslik lozim.

Bozor munosabatlari tizimida muayyan yaxlitlik va uyg‘unlik mavjud, binobarin, qayerdadir kimdirning o‘z majburiyatlarini bajarmasligi yoki boshqalarga zarar yetkazishi o‘z navbatida boshqa munosabatlar tizimiga ham salbiy ta‘sir qiladi.

Masalan, aholining ba‘zi qatlamlari tomonidan kommunal to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanmasligi energiya yetkazib beruvchi tashkilotlarning energetika qurilmalarini ta‘mirlash, soz holatda saqlab turish jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, bundan kelib chiqadiki, fuqarolik-huquqiy normalarning buzilishi o‘ziga xos zanjir reaksiyasini hosil qilishi mumkin.

Ko'pchilik stivist olimlar fuqarolik-huquqiy javobgarlikni majburiyatlarni buzgan yoki boshqalarga zarar yetkazgan subyektlar uchun noqulay salbiy oqibatlarni vujudga keltirish va qo'llash ma'nosida talqin qilishadi. Odatda, huquq nazariyasida javobgarlik sanksiyasini qo'llash jarayoni fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yakuni sifatida tavsiflanadi. Biroq fuqarolik-huquqiy munosabatlar xarakteridan kelib chiqqan holda fuqarolik-huquqiy javobgarlik konstruksiyasi huquq nazariyasida belgilangan huquqiy javobgarlik konstruksiyasi va repressiv huquq sohalarida qat'iy belgilab qo'yilgan huquqbuzarlik tarkibiga (masalan, jinoyat, ma'muriy huquq va shu kabilar) aynan mos kelavermasligini ta'kidlash lozim.

Hozirgi davrda qo'llanilayotgan fuqarolik-huquqiy ta'sir choralari nafaqat moddiy zararni qoplash, balki moddiy zararni to'laqonli ravishda qoplash (boy berilgan foydani hisobga olgan holda) va ayni paytda ma'naviy zararni qoplash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ma'naviy zararni qoplash xarakteri moddiy zararni qoplash xarakteri bilan aynan mos kelmaydi va ularni bir xil ma'noda qo'llash mumkin emas. Jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar pul ko'rinishida qoplanganda, jismoniy og'riq va ruhiy iztiroblar oqibatlari to'liq bartaraf etilmasligi mumkin. Bunda, ma'naviy zararni pul ko'rinishida qoplash, ushbu oqibatlarni yumshatadi holos, lekin to'liq bartaraf etmaydi. Ma'naviy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy munosabatlarda keng qo'llanayotgan hozirgi sharoitlarda buni hisobga olmagan holda fuqarolik javobgarlik mohiyatini to'liq ochib berish mumkin emas.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik o'zida mujassam etadigan elementlar:

-davlat majburlov chorasi ekanligi va ayni paytda ixtiyoriy ravishda ijro etishi mumkinligi;

-qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilishi;

-huquqbuzar yoki qonun hujjatlarida javobgarlik zimmasiga yuklatilgan subyektlar uchun salbiy oqibatlar yuzaga kelishi;

-huquqbuzarlik uchun yetkazilgan zararni qoplash, huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etish yoki yumshatishga qaratilgan bo'lishi;

-huquqbuzar uchun muayyan subyektiv huquqlardan maxrum bo'lish yoki qo'shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash yoki boshqa noqulay oqibatlar vujudga kelishida namoyon bo'lishi bilan bog'liq ta'sir choralarni qo'llashda o'z mujassamini topadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deb, fuqarolik qonun hujjatlari yoki shartnomalarda nazarda tutilgan, ixtiyoriy amalga oshirilmagan

taqdirda davlat majburlov kuchi bilan ta'minlangan, fuqarolik huquqbuzarligi oqibatlarini bartaraf etishga, shu jumladan, zararlarni to'liq qoplashga yoxud ushbu oqibatlarni yumshatishga qaratilgan, huquqbuzar yoki qonun hujjatlarida javobgarlik zimmasiga yuklatilgan subyektlarni muayyan subyektiv huquqlardan maxrum qilish yoki qo'shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash yoxud boshqa noqulay salbiy oqibatlarni vujudga keltirishda namoyon bo'ladigan huquqiy ta'sir choralarning qo'llanilishidir.

Ushbu ta'rif umumiy universal xarakterga ega bo'lib, u shartnomaviy majburiyatlar sohasiga hamda delikt sohasiga ham to'laqonli taalluqli bo'ladi. Ayni paytda nafaqat mulkiy ta'sir choralarini, balki nomulkiy shaxsiy ta'sir choralarini ham javobgarlik ta'sir choralari sifatida qo'llanilishini istisno etmaydi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari yagona tarkibga egami yoxud u javobgarlikni vujudga kelish asoslariga ko'ra farqlanadimi, degan masala muhim amaliy ahamiyatga ega. Agarda FKning 333-moddasi (majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari) va 985-moddasi (zarar yetkazganlik uchun javobgarlik asoslari) mazmunidan kelib chiqiladigan bo'lsa, u holda fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari yagona tarkib ko'rinishida mavjud bo'lmaydi, deb aytish mumkin. Yuqoridagi har ikkala tarkib o'z elementlari va ushbu elementlarni mavjud bo'lishi shartlilik nuqtai nazardan turlicha bo'lib hisoblanadi.

Masalan, FKning 333-moddasi bo'yicha quyidagilar majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikning zaruriy elementlar sifatida belgilab qo'yilgan a) majburiyatni bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi - huquqqa xilof qilmish sifatida; b) qarzdor aybining mavjudligi; d) javobgarlik subyekti bo'lgan qarzdorning mavjudligi. Zarar ushbu tarkibda zaruriy element sifatida emas, balki fakultativ element sifatida namoyon bo'ladi

FKning 985-moddasi bo'yicha javobgarlik asoslari sifatida quyidagilar belgilangan: a) zararning mavjudligi, b) zarar yetkazuvchi aybining mavjudligi, d) zarar yetkazuvchi harakatlarining huquqqa xilofligi, e) zararni qoplash majburiyati zimmasiga yuklatilgan subyektning mavjudligi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, FKning 985-moddasi bo‘yicha javobgarlik asoslari o‘zining parodaksal qirralariga ham ega. Bu yerda javobgarlikning mutloq asosi sifatida faqat zarar mavjud bo‘lishi kerak. Qolgan elementlar mavjud bo‘lmasligi mumkin. *Masalan, zarar yetkazuvchining aybi bo‘lmasligi, zarar yetkazuvchi harakatlarini huquqqa muvofiq bo‘lishi, muayyan qonunlar yoki qonun hujjatlarida belgilangan hollarda javobgarlik qo‘llanilmasligi uchun asos bo‘la olmaydi. (masalan, oshiqcha xavf manбайдan zarar yetkazilganda oshiqcha xavf egasi aybidan qat’i nazar javob beradi yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari olinishi munosabati bilan fuqaroning turar joyi buzilishi hollarida garchi hokimlik o‘z vakolat doirasida qonunga muvofiq tarzda harakat qilgan bo‘lsa ham, baribir turar joy buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashi shart). Zarar yetkazuvchi subyekt zimmasiga javobgarlikni yuklashga qonun yo‘l qo‘ymasligi (14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tomonidan zarar yetkazilganda) holatlari ham mavjud.*

Boshqacha aytganda, qonunda nazarda tutilgan muayyan hollarda javobgarlik zarar yetkazuvchi shaxsga emas, balki boshqa shaxs zimmasiga ham yuklanishi mumkin. Biroq yuqoridagi holatlardan umumlashma xulosa chiqarib, fuqarolik javobgarlik asoslari umuman yuridik javobgarlik asoslariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Yuqoridagi umumiy qoidadan istisnolar juz’iy xarakterga ega. Ularni qo‘llashdan maqsad fuqarolik javobgarlik asoslarini mavjud real voqelikka, hayotga mosligini ta’minlash, shuningdek, javobgarlikni qo‘llashda adolat, oqilonalik tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirish hisoblanadi. Umuman olganda, aksariyat ko‘p hollarda majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikda ham, zarar yetkazganlik uchun javobgarlikda ham fuqarolik javobgarlik asoslari umumiy yuridik javobgarlik asoslariga muvofiq keladi.

Real voqeilikda muayyan huquqbuzarlik va uning oqibatlarini uchun bir paytning o‘zida ikki va undan ortiq javobgarlik shakllarini qo‘llash yoxud javobgarlikni muqobillik asosida qo‘llash masalasi yuzaga keladi. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, ijtimoiy adolat va oqilonalik nuqtai nazaridan olganda ommaviy huquq tarmoqlarida (jinoyat huquqi, ma’muriy huquq, bojxona huquqi) bir qilmish uchun bir javobgarlik tamoyili amal qiladi. Biroq ommaviy huquqiy javobgarlik va fuqarolik javobgarlik qo‘llash holatlarida bir qilmish uchun ikki javobgarlik shaklini qo‘llash holatlari uchrab turadi. *Masalan, muayyan sodir etgan jinoyat uchun jinoyatchiga nisbatan ozodlikdan maxrum qilish jazosini qo‘llanilishi uni jabrlanuvchi hayoti va sog‘ligiga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarlik qo‘llashdan aslo ozod qilmaydi. Ba’zi holatlarda esa bir qilmishga nisbatan ham jinoyat huquqiy javobgarlik, ham fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash imkoniyatlari mavjud va qonun talabiga ko‘ra muqobillik asosida jabrlanuvchi birini tanlashi lozim bo‘ladi.*

Agar jinoiy javobgarlik qo'llash rad etilsa, unda fuqarolik javobgarlikni qo'llashni talab qilish huquqi istisno etilmaydi. Masalan, amnistiya orqali javobgarlikdan ozod qilish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish imkoniyatini istisno etmaydi.

Javobgarlik subyekti va huquqbuzarlik subyekti: o'zaro nisbat

Odatda repressiv huquq tarmoqlarida huquqbuzarlik subyekti (huquqbuzarlik qilmishini sodir etgan shaxs) va huquqbuzarlik uchun javobgarlik subyekti (sodir etilgan huquqbuzarlik uchun zimmasiga yuridik javobgarlik yuklatilgan shaxs) deyarli farqlanmaydi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashda ham aksariyat ko'p hollarda huquqbuzarlik subyekti ayni vaqtda fuqarolik javobgarlik subyekti sifatida qaraladi. Biroq, bu holat har doim ham kuzatilmaydi. *Masalan FK 334-moddasiga asosan basharti, qonun hujjatlari yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi.*

Bu yerda huquqbuzarlik subyekti uchinchi shaxslar, javobgarlik subyekti esa qarzdor hisoblanadi. O'z navbatida qarzdor javobgarlikka tortilgandan so'ng regress da'vo qo'zg'atishi mumkin.

Umumiy yuridik qoidaga ko'ra huquqbuzarlik subyekti va javobgarlik subyekti uchun ham javobgarlikka tortish asosi sifatida uning muayyan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, qisman yoki to'liq muomala layoqatiga egaligi kabi mezonlar hisobga olinadi. Biroq zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini qo'llashda 14 yoshga to'lmagan zarar yetkazuvchining mol-mulki bo'lgan taqdirda ushbu mol-mulkka nisbatan yetkazilgan zarar bo'yicha undiruv qaratilishi mumkin. Bu holat FKning 993-moddasi 5-qismida o'z aksini topgan.

FKning 996-moddasiga ko'ra, agar vasiy vafot etsa yoxud zararni to'lash uchun yetarlicha mablag'ga ega bo'lmasa, zarar yetkazuvchining o'zi esa bunday mablag'ga ega bo'lsa, sud jabrlanuvchining va zarar yetkazuvchining mulkiy ahvolini, shuningdek boshqa holatlarni inobatga olib, zararni to'lig'icha yoki qisman muomalaga layoqatsiz zarar yetkazuvchining mol-mulki hisobidan to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Ayb – fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosi sifatida

Fuqarolik huquqi nazariyasida ayb masalasi bo'yicha ham yagona yondashuv mavjud emas. Odatda repressiv huquq sohalarida ayb

huquqbuzar tomonidan o'zi sodir aytgan harakat oqibatlariga nisbatan ruhiy-psixik munosabati sifatida qaraladi. Bunda eng asosiysi huquqbuzar bunday harakatni sodir etishni atayin xohlagan yoki xohlamaganligi, shunday oqibatlar kelib chiqishini istagan yoki istamaganligi va bu istak va xohish uning qilmishini sabablantiruvchi omil bo'lgan yoki bo'lmaganligi (qasddan yoxud o'z harakati va uning oqibatlariga nisbatan beparvolik va o'z-o'ziga ishonishga, ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, huquqbuzarlik sodir etganligi) hisoblanadi.

Fuqarolik huquqida ayb masalasidagi umumiy yondashuv shundan iboratki, qarzdor yoki zarar yetkazuvchi o'zini aybsizligini isbotlab berishi lozim. Bunday isbotlashda ruhiy-psixik munosabat emas, balki qarzdorning amaliy harakatlari birinchi o'ringa chiqadi. Masalan FKning 333-moddasiga ko'ra agarda qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi. Lekin ba'zi holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashda ayb qarzdorning ruhiy psixik holati sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, FKning 889-moddasi 2-qismida shartnomada nazarda tutilgan saqlash muddati yoki omonat saqlovchining talabiga ko'ra ashyoni qaytarib olishi shart bo'lgan vaqt tugagach, yuk topshiruvchi saqlanayotgan ashyoni qaytarib olmasa, omonat saqlovchi bundan buyon ashyo yo'qolganligi, kam chiqqanligi yoki shikastlanganligi uchun qasddan harakat qilgan yoki qo'pol ehtiyotsizlik qilgan taqdirdagina javob berishi belgilangan.

Fuqarolik qonun hujjatlarida qarzdor yoki zarar yetkazuvchini aybdor yoki aybdor emasligini belgilash uchun muayyan normalarda qo'shimcha me'zonlar ham qo'llaniladi. Masalan, g'amxo'rlik, ehtiyotkorlik, tejamkorlik, hamkorlik, oqilonalik, insoflilik, boshqa subyektlar manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilish (vakillik, ishonchnoma, yuridik shaxs rahbarining yuridik shaxs nomidan harakat qilishi, sug'urta munosabatlarida to'liq axborot berish masalasi), ayb darajasini hisobga olish (yetkazilgan ma'naviy zararni undirishda) va shu kabilar.

Aybning javobgarlik hajmiga ta'sir ko'rsatish holati FKning 1004-moddasida nazarda tutilgan.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikda qo'llaniladigan fuqarolik ta'sir choralari

Umumiy qoida bo'yicha fuqarolik javobgarlik choralari zararni qoplash, neustoyka to'lash, zakalatdan maxrum bo'lishda namoyon bo'ladi. Ayni paytda, bundan tashqari ham fuqarolik javobgarlik ta'sir chorasi sifatida baholanishi mumkin bo'lgan huquqiy ta'sir choralari tizimi mavjud. Biroq ushbu tizim kengaytirilgan holda ham talqin etiladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari nafaqat zararni qoplash, neustoyka to'lash, balki musodara xarakteridagi choralar, shuningdek, alohida notipik xarakterdagi choralar ko'rinishida bo'lishi ham mumkin.

Notipik choralar jumlasiga, masalan, badnom qiluvchi ma'lumotlar bo'yicha raddiya berish, asarga haqiqiy muallif muallifligini inkor etgan huquqbuzar tomonidan muallifni e'tirof etish va shu kabilar kiradi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasi nihoyatda keng, demak ta'sir choralari doirasi nihoyatda keng bo'ladi.

Odatda, fuqarolik javobgarlik usullari bilan himoya usullari farqlanadi. Fuqarolik-huquqiy himoya usullari ko'p hollarda huquqbuzarlikni oldini olishga, huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq, ba'zi holatlarda fuqarolik huquqlarini himoya qilmish usuli va javobgarlik chorasi, shakli aynan bir xil bo'lishi mumkin.

Fuqarolik javobgarlik choralari FK, fuqarolik qonun hujjatlarida va boshqa normativ hujjatlarda, shuningdek, lokal normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan bo'lishi lozim. Sud tomonidan fuqarolik javobgarlik chorasini qo'llashda ushbu qoida imperativ xarakterga ega bo'ladi. Chunki FKning 5-moddasi 3-qismiga ko'ra, fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarni o'xshashlik bo'yicha qo'llanishga yo'l qo'yilmaydi.

Bunda normativ manbalarida ko'rsatilgan fuqarolik ta'sir choralari qat'iy yopiq ro'yxat asosida belgilab qo'yilgan degan xulosaga kelish o'rinli bo'lmagan bo'lur edi. Bu asosan ta'sir chorasi sud tomonidan emas taraflarning ixtiyoriy kelishuvi asosida qo'llanilishiga nisbatan taaluqlidir.

Amaldagi FKda belgilangan fuqarolik ta'sir choralari fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasining kengayishi bilan o'zini universal xarakterini zaiflashtirishi mumkin.

So'ngi vaqtlarda fuqarolik huquqi munosabatlari bilan tartibga solinadigan shaxsiy munosabatlar doirasi, turlari kengaymoqda. Muayyan shaxsiy huquqlarni vujudga kelishi, ularni amalga oshirish xususiyatlari doirasi va shartlari, qonun hujjatlarida belgilab qo'yish holatlari uchramoqda. Masalan, fuqaroning nomiga bo'lgan huquq va boshqalar.

Bundan tashqari fuqarolik munosabatlari doirasi kengayib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tashkiliy-huquqiy xarakterdagi korporativ

munosabatlar kirib kelmoqda. Umuman olganda hayotning rang barangligi va mudom rivojlanishda ekanligi, fuqarolik huquqida erk muxtoriyati va taraflarning tashabbuskorlik ustuvorligining mavjudligi javobgarlik choralarini normativ asosda qat'iy belgilanishini istisno etadi. Demak, kelgusida shaxsiy, mulkiy va tashkiliy munosabatlar bo'yicha, shu munosabatlarning xarakteridan kelib chiqib, taraflarni huquqiy munosabatda insofli bo'lishga, o'z majburiyatlarini o'z vaqtida tegishli tartibda bajarishini rag'batlantiradigan va majbur qiladigan huquqbuzar uchun noqulay va huquq egasi (jabrlanuvchi) uchun "taskin toptiruvchi", qo'shimcha imkoniyatlar vujudga keltiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lgan dispozitiv xarakterdagi javobgarlik choralari belgilanishi mumkin.

Zararni qoplash fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy shakli bo'lgan zararni qoplashni uchta turi bor. Birinchisi zarar (real va boy berilgan foyda)ni qoplash (FKning 14-moddasi) bo'lib, bu umumiy xususiyatga ega. Bundan tashqari zararni qoplash maxsus usuli sifatida, agar huquqbuzar huquqbuzarlik orqali ma'lum bir foyda ko'rgan bo'lsa, mazkur foydani zarar ko'rgan shaxs foydasiga undirish ham qo'llaniladi. Va nihoyat mualliflik huquq va turdosh huquqiy munosabatlarda zararlar yetkazilishidan qat'i nazar, huquqbuzarlik xususiyati va huquqbuzar aybi darajasidan kelib chiqib, ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zararni o'rnini qoplash evaziga to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lanishi (Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunning 65-moddasi) ham mavjud.

Moddiy zararni qoplashdan tashqari ma'naviy zararni qoplash ham fuqarolik-huquqiy javobgarlikning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning alohida turlari bo'lgan majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik va zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni qo'llash masalalari ushbu darslikning tegishli qismlarida bayon etilgan.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish

Umumiy qoida bo'yicha fuqarolik javobgarlikdan ozod qilish asoslaridan biri sifatida yengib bo'lmaydigan kuch va favqulodda vaziyatlar ya'ni fors-major holatlari e'tirof etiladi. Fors-major holatlari shartnomaviy majburiyatlari bo'yicha ham (FKning 333-moddasi 3-qismi)

va muayyan holatlar bo'yicha delikt majburiyatlar bo'yicha ham (999-moddaning 1-qismi) javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida qo'llaniladi. Fors-major holatlari ro'y bergan deb hisoblash uchun ushbu holatlar quyidagi ikki belgiga ega bo'lishlari lozim.

Birinchi, fuqarolik huquqiy munosabatning tegishli ishtirokchisi insofli va jonkuyarlik bilan harakat qilganda ham ushbu holatni oldini olishga, uni oqibatlarini bartaraf qilishga imkoniyati bo'lmasligi shart. Boshqacha aytganda fuqarolik huquqi munosabatlari subyekti uchun u yengib bo'lmaydigan, qarshi turib bo'lmaydigan kuch hisoblanadi. Ba'zi holatlarda esa ushbu kuch ta'sirida ro'y bergan vaziyat hisoblanadi. To'g'ri, muayyan holatlarda subyekt bunday kuchga qarshi turishi, oqibatlarini bartaraf etishi mumkin bo'ladi. Biroq, bu inson hayotini qurbon berish yoxud juda katta moddiy talafotlar yoki xarajatlar evaziga amalga oshirishi mumkin. Ham ahloqiy, ham huquqiy nuqtai nazardan olganda kuchni bartaraf etish say-harakatlari va xarajatlari hajmi bilan buning evaziga erishiladigan natija (majburiyatni ijro etilishi) o'rtasida juda kuchli nomutanosiblik ro'y berishi mumkin. Shu sababli ham subyektni bunday holatda yengib bo'lmas kuchga qarshi turishi maqsadga nomuvofiq hisoblanadi.

Ikkinchi, bunday holat kutilmaganda, to'satdan ro'y beradi. Fuqarolik munosabat ishtirokchilari bunday holat ro'y berishini oldindan ko'ra bilmagan, hisobga olmagan bo'ladilar.

Kundalik turmushda tavakkalchilik xavf-xatari bilan fors-major holatlari o'rtasida tafovutlar har doim ham hisobga olinavermaydi. Fors-major holatlari har doim umumiy normal holat doirasidan tashqarida bo'ladi. Tavakkalchilki xavf-hatari esa umumiy normal holat doirasida bo'ladi.

Biroq shuni ta'kidlash o'rinliki, fors-major holatlari FK 333-modda mazmuniga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning dispozitiv asosi hisoblanadi. Qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan holdagina fors-major holati qo'llanilishi mumkin. Taraflar shartnoma asosida o'z majburiyatlarini belgilashganda taraflardan biriga tavakkalchilki burchini kengaytirgan holda fors-major holatlari oqibatlari uchun mas'ul sifatida belgilashlari mumkin. Masalan, eksport-import kontrakti tuzilganda muayyan taraf uni davlat ro'yxatidan o'tkazdirish, bojxona taomillari va shu kabi masalalar bo'yicha tavakkalchilik burchini o'z zimmasiga olishi mumkin. Bunday holatda kontrakt davlat ro'yxatidan o'tkazdirmaslik, tovarni bojxonada ushlab qolish, garchi ular davlat hokimiyati idoralarining harakatlari orqali ro'y bergan bo'lsa ham fors-major holatlari

hisoblanmaydi. Odatda investorda, kreditorda mustahkam ishonch uyg'otish uchun muayyan holatlarda shartnomalarda fors-major oqibatlarini manfaatdor taraf o'z zimmasiga olishi mumkin.

Xalqaro tajriba bo'yicha fors-major holatlari sifatida quyidagilar tan olinadi:

- xarbiy harakatlar shu jumladan e'lon qilingan va e'lon qilinmagan urushlar, fuqarolar urushlari, va shu kabilar natijasida majburiyatni ijro etilmasligi;

- tabiiy ofatlar shu jumladan, zilzila, suv toshqini, sunami, ko'chkilar, qurg'oqchilik, do'l urushi va shu kabilar. Bu o'rinda shuni unutmaslik lozimki, ba'zi tabiiy ofatlar hozirgi zamon fan-texnikasi yutuqlari asosida bashorat qilinishi, qarshi turilishi mumkin. Yoxud bir holat muayyan vaziyatda fors-major holati, boshqa vaziyatda esa qarzdorni mas'uliyatsizligi sifatida qaralishi mumkin.

Masalan har bir korxonaning ko'chmas mulkida yashin qaytargichlar o'rnatilgan bo'lishi shart. Biroq qishloq xo'jaligiga tegishli ekin maydonlari, bog'larda yashin qaytargichlar o'rnatilishi talab etilmaydi. Binobarin korxonani yashin urib vayron qilishi fors-major holati hisoblanmaydi, biroq bog'ni yashin urib yonib ketishi fors-major holatlari hisoblanadi.

Jumladan:

-ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi nizolar, shu jumladan ish tashlashlar, lokautlar, ishlab chiqarishni sekinlashtirishlar va shu kabilar oqibatida majburiyatni bajarilmasligi;

-davlat hokimiyati va idora organlarini qonuniy yoki g'ayriqonuniy harakatlari sababli majburiyatni ijro etilmasligi (agarda taraflardan biri ushbu holatlar bo'yicha o'ziga tegishli majburiyat yoki tavakkalchilik burchini zimmasiga olmagan bo'lsa).

Mamlakatimizda fors-major holatlarini qo'llash bo'yicha muayyan amaliyot vujudga kelgan. *Masalan. Qishloq xo'jalik ekinlarini qurg'oqchilik, do'l urushi yoki suv toshqini oqibatida majburiyatni bajarmasligi tegishli mahalliy meteokuzatuv stansiyalari ma'lumotlari asosida tasdiqlanadi.*

Tashqi savdo bitimlari va xalqaro shartnomalar shartlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida boshlangan yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi mavjud. Mazkur tartib nizom asosida ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevraldagi 63-son qarori bilan tasdiqlangan "Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

Mazkur nizomga ko'ra yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Yengib bo'lmaydigan kuchlar oqibatida shartnoma tomoni majburiyatlarni bajarishi uchun imkoniyat bo'lmaganda shartnoma tomoni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari tasdig'ini olish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga murojaat qilishi mumkin.

Yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlarini tasdiqlash manfaatdor tomonning yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlari ko'rsatilgan yozma arizasi asosida vazirlik tomonidan tegishli sertifikat berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fors-major holatlari ro'y berganda qarzdor darhol kreditorni bu haqda xabardor qilishi va taraflar fors-major holatlari oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlik qilishlari shart. Fors-major holatlari oqibatida ro'y bergan moddiy zararlarga nisbatan status-kvo (qanday bo'lsa shunday qolsin) holati joriy etiladi, ya'ni kreditor qarzdordan majburiyatni ijro etilmasligi oqibatida yetkazilgan zararni qoplanishini talab eta olmaydi.

Majburiyatni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish (zarar yetkazganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish) asoslaridan biri bo'lib kreditorni (jabrlanuvchi)ning aybini mavjudligi hisoblanadi. Ularni qo'llash asoslari ushbu darslikning keyingi qismlarida batafsil ko'rib chiqilgan.

Mantiqan olganda majburiyatlarni ijro etilmasdan bekor bo'lish asoslari FKning 346, 348, 349, 350, 351, 352-moddalarida nazarda tutilgan bo'lib, ular shuningdek tadbirkorlik subyektining bankrotligi va belgilangan tartibda umidsiz qarz majburiyatlar bo'yicha ham javobgarlikdan ozod qilish holatlari mavjud. Bu haqda batafsil keyingi paragraflarda bayon etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xususiy va ommaviy huquqiy javobgarlik o'rtasidagi nisbatni tushuntirib bering. Aynan qanday xususiyatlari bilan fuqarolik huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlik tizimiga mansub sanaladi?

2. Fuqarolik huquqida imperativ me'yorlardan ko'ra, dispozitiv me'yorlarning kengroq qo'llanishi fuqarolik-huquqiy javobgarlik doirasiga qay tarzda ta'sir o'tkazadi. Fikringizni misollar orqali yoritib bering.

3. J.Mo'minov fuqaro A.Yo'lchiyevning hovlisiga o'g'rilikka tushib, 2 million so'm pulni o'g'irladi va o'z ehtiyojiga ishlatib yubordi. Bir necha oydan keyin uning jinoyati fosh bo'ldi va sud hukmi bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi. Jazoni o'tab kelgan J.Mo'minovdan, A.Yo'lchiev o'g'irlangan pulni foizlari bilan qaytarishini talab qildi. J.Mo'minov esa, qilmishi uchun jazo olganligini aytib, pulni foizlari bilan qaytarishni rad qildi.

Masalaga huquqiy baho bering.

4. Fuqaro Z.Isomov 2 yil davomida sigareta chekib yurdi. Vrachlar tibbiy tekshiruvda unda o'pka raki kasalligini aniqladi. Z.Isomov tamaki fabrikasiga da'vo bildirib o'pka rakini davolash xarajatlarini to'lashni talab qildi. Tamaki fabrikasi Z.Ismoilov o'z ixtiyori bilan sigareta chekkanligini, uning kasal bo'lishida aybi yo'qligini bildirdi.

Masalaga huquqiy baho bering.

5. A va B to'yda sovrin uchun kurash tushishadi va B qo'chqor va qo'y yutib oladi. Biroq to'y egasi sovrinni berishni rad etadi. B tanish yurist J.dan maslahat so'raydi. J ushbu holat mukofot to'lashni oshkora va'da qilish majburiyatini o'xshashlik bo'yicha qo'llash va bu asosda to'y egasini sovrinni to'lash bo'yicha fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish mumkin degan fikrni aytdi.

Ushbu fikr qonuniy asosga egami?

20-MAVZU. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Majburiyatlarning buzilishi va buning uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari. Qarzdorning zararni to'lash majburiyati. Qarzdorning javobgarlikdan ozod qilinishi asoslari. Majburiyatning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlarini.

Majburiyatlarning buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik mohiyati va ahamiyati

Ma'lumki, jamiyatimiz hayotining eng muhim tamoyillaridan biri qonun ustuvorligi hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, siyosiy ijtimoiy, eng avvalo iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi. Bozor mexanizmining eng asosiy xususiyatlaridan biri xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ularning iqtisodiy javobgarligi va to'liq iqtisodiy mustaqilligi asosida qonun va shartnomalar intizomiga qat'iy rioya qilish hisoblanadi. Qonun va shartnomalar mazmunida esa ko'p hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan majburiyatlar yotadi.

Majburiyat yuzasidan qarzdor bo'lgan shaxs uni butunlay bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, majburiyatni bajarish yuzasidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanib, bu hol majburiyat buzilganligidan dalolat beradi. Ya'ni majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi. *Masalan, sifatsiz mahsulot (tovar) yetkazib berilgan mahsulot sotuvchi tashkilot – qarzdor sifatida huquq normasini, ya'ni, FKning tegishli moddasida ko'rsatilgan qoidani buzish bilan mahsulot oluvchi korxonaning ya'ni kreditor tashkilot qarzdor tashkilotdan shartnomaga muvofiq, sifatli mahsulot (tovar)ning o'ziga topshirilishi bo'yicha huquqini ham buzadi.*

Qarzdorning harakatsizligi ham huquqqa xilof hisoblanishi mumkin. Bunday harakatsizlik qarzdorning shunday xatti-harakatidan iborat bo'lib ko'rinadiki, bunda qarzdor o'zi amalga oshirishi lozim bo'lgan harakatni qilmaydi. *Masalan, uy-joy ijarasi shartnomasi bo'yicha tashkilotning uyida yashovchi fuqaro belgilangan ijara haqini to'lamasligi bilan Uy-joy kodeksining 69-moddasida belgilangan qoidani buzadi. Shu bilan birga, shartnomaga muvofiq tarzda qarzdordan kvartira haqining o'z vaqtida to'lanishini talab qilish huquqiga*

ega bo'lgan tashkilotning – ijaraga beruvchining, ya'ni kreditorning subyektiv huquqi ham buziladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik bo'yicha qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi hollarida, qonun yoki shartnomada belgilangan sanksiyalar qo'llaniladi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatni bajarmagan qarzdor zimmasiga zararlarni, neustoykani kreditor foydasiga to'lash vazifasini yuklashdan iboratdir.

Birovga zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatlarda zarar yetkazuvchi jabrlangan shaxsga yetkazilgan zararining pul bilan hisoblangan miqdorini to'la ravishda to'laydi. Shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarning bajarilmasligi esa kreditorning ko'rgan zararlarni to'latish uchun ham, qarzdordan neustoykaning undirilishi uchun ham asos bo'ladi.

Qarzdorning majburiyatni lozim darajada bajarmasligi, ya'ni, majburiyatni shartnoma yoki qonunda ko'rsatilgan shartlarga muvofiq ravishda bajarmasligi; masalan, mahsulotning sifati, topshirish muddati, shartnomaning bajarilish joyi kabi shartlar buzilishidan iboratdir. Majburiyat qarzdor tomonidan butunlay bajarilmasa, kreditor sud orqali majburiyatning majburiy tartibda bajarilishini, birinchi navbatda, albatta real ravishda bajarilishini, agar majburiyat lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, uning qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq bajarilishini talab qilishga haqli.

Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari

Qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Buning uchun umumiy qoida sifatida faqat muayyan asoslar mavjud bo'lgandagina qarzdorning, ya'ni majburiyatni buzgan shaxsning mulkiy javobgarlikka tortilishi belgilanadi.

Yuridik javobgarlik shartlariga ko'ra odatda, majburiyatni buzganlik uchun qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun quyidagi to'rtta asos bo'lishi ko'rsatilgan:

birinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik;

ikkinchidan, zarar yetkazilishi;

uchinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik bilan sodir bo'lgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi;

to'rtinchidan, qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lishi.

Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, shartnomadan yoxud boshqa bir tomonlama bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlarda uning bajarilmasligi oqibatida boshqa shaxsga g'ayriqonuniy ravishda zarar yetkazish – barcha hollarda huquqqa xilof hisoblanadi. Mazkur hollarda qarzdor xatti-harakatining huquqqa xilof bo'lishini belgilashda qanday shartlar mavjud bo'lganida majburiyatni ijro etmaslik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning belgilanishini aniqlash zarur bo'ladi.

Zarar hamma vaqt ham qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan kelib chiqavermaydi. Ba'zi hollarda majburiyatning bajarilmasligi natijasida yuqorida aytganimizdek, mulkiy zarar bo'lmasligi ham mumkin. Ammo aksariyat hollarda zarar javobgarlikni belgilash uchun zarur asos bo'ladi.

Agar kreditorning talablari zararni undirishga qaratilgan bo'lsa, u holda, albatta, quyidagi asoslar: *zararning bo'lishi, qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning ko'rgan zarari o'rtasida sababiy bog'lanishlar bo'lishi va nihoyat, qarzdorning aybi bo'lishi talab etiladi.* Agar kreditorning talabi faqat *neustoyka, penya, jarimani undirishga qaratilgan bo'lsa, qarzdor faqat aybi bo'lgandagina mulkiy javobgarlikka tortiladi.*

Qarzdorga mulkiy javobgarlikni belgilashdan oldin, ya'ni kreditorga yetkazilgan zararning undan undirilishidan oldin sud har bir aniq holatda, mazkur zararlar qarzdorning o'z majburiyatlarini buzishidan vujudga kelgan-kelmaganligini aniqlashi, ya'ni qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan kreditorning ko'rgan zarari o'rtasida sababiy bog'lanishni aniqlashi lozim. *Masalan, agar temir yo'l transporti korxonasi yuk oluvchiga zararlangan yukni yetkazib bersa, sud kreditorga bunday zararni kim yetkazganligini, mahsulot yuboruvchi tashkilotmi yoki temir yo'l korxonasi tomonidan yetkazilganligini, bunday zararning sifatsiz tovar yuboruvchi tashkilotning aybi, huquqqa xilof harakati bilan bo'lish-bo'lmaganligini yoki tashish uchun qabul qilingan yukning yo'lda saqlanishini ta'minlamagan temir yo'l korxonasining huquqqa xilof harakatlaridan bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashi lozim.*

FKning 324-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart. Bunda shartnoma bilan belgilanadigan majburiyat munosabatlarida ham sababiy bog'lanish muammosini qo'yish va hal qilish zarurligi kelib chiqadi.

Muayyan bir natija qator sabablarning oqibati bo'lishi mumkinligi tufayli, kreditorning zarar ko'rishiga aloqasi bo'lgan qarzdorning har qanday harakati ham huquqiy ahamiyatga ega.

Qachonki natija, ya'ni kreditorga zarar yetkazilishi qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligidan bevosita vujudga kelganligi ma'lum bo'lsa, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa, u holda masalaning hal etilishi uncha qiyinchilik tug'dirmaydi.

Qarzdorning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi bilan sodir bo'lgan natija o'rtasidagi sababiy bog'lanish qarzdorning majburiyatni butunlay bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikka tortilishiga obyektiv asos bo'ladi. Shu bilan birga, qonun javobgarlikning subyektiv asosini ham, ya'ni qarzdorning aybini ham nazarda tutadi.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini belgilaydigan shart sifatida ko'riladigan ayb qonunda nazarda tutilgan. Jumladan, FKning 333-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki uni lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi.

Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz hisoblanadi. Aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi. Yuqorida yozilgan nazariy asosni quyidagicha izohlash o'rinlidir *Masalan, mebel fabrikasiga qarashli yuk kirakash avtopark mashinasida tashilishida yong'in bo'lib, fabrikaga mulkiy zarar yetkaziladi. Da'vo ishining sudda ko'rilishida avtopark yong'in bo'lishida aybi yo'qligini isbotlay olmadi. Binobarin, fabrikaning mashinadagi yong'in natijasida ko'rgan zararini to'lashga avtopark majbur qilinadi.*

Fuqarolik huquqi fanida, ayb qasd yoki ehtiyotsizlik (beparvolik) shaklida ifodalanadi.

Qasd shaklida ayb bo'lishida shaxs majburiyatni ongli ravishda, atayin bajarmaydi yoki lozim darajada bajarmaydi.

Fuqarolik muomalasida majburiyatni bajarishga nisbatan bunday munosabatda bo'lish faqat ayrim hollardagina uchraydi. Umumiy qoida sifatida tashkilotlar va fuqarolar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishga vijdonan munosabatda bo'ladilar.

Majburiyatlarning ayrim turlari bo'yicha qasd shaklida ayb qonunlarda bevosita nazarda tutiladi.


Tashkilotlar tomonidan majburiyatlarning qasddan bajarilmasligi ularning fuqarolik-huquqiy (mulkiy) javobgarlikka tortilishiga, ba'zi

hollarda mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka ham tortilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aybning navbatdagi shakli esa – beparvolikdir. Beparvolikda qarzdor majburiyatni bajarishga intilmaydi, harakat qilmaydi, buning uchun barcha kuch va qobiliyatini yetarli darajada safarbar qilmaydi, ishni bajarishda diqqatsizlikka, e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yadi. Beparvolik shaklidagi ayb ham FKning tegishli moddalarida belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolik kodeksida qo‘pol ehtiyotsizlik oddiy ehtiyotsizlik, oddiy beparvolikdan farqlanadi. Qonun ba’zi hollarda qarzdorga javobgarlik belgilash uchun oddiy ehtiyotsizlik (beparvolik) emas, balki qo‘pol ehtiyotsizlik bo‘lishini shart qilib qo‘yadi.

Agar majburiyat har ikki tarafning aybi bilan bajarilmagan bo‘lsa, u holda sud qarzdorning javobgarligini tegishlicha kamaytiradi.



Qarzdorning zararni to‘lash majburiyati

FKning 324-moddasida qarzdor majburiyatni butunlay bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shartligi normalangan.

Qarzdorning majburiyatni bajarmasligi natijasida vujudga kelgan va to‘lanishi lozim bo‘lgan kreditorning xarajatlari deganda, kreditor tomonidan mazkur majburiyat yuzasidan qilingan xarajatlar va qarzdorning o‘z vazifasini bajarmaganligi bilan bog‘liq xarajatlar tushuniladi. Chunonchi, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan mahsulotning belgilangan muddatlarda yetkazib berilmasligi tufayli mahsulot oluvchi korxonaning faoliyat ko‘rsatib turishi vaqtida qilingan xarajatlar to‘lanishi lozim.

Majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda va kreditor bunday hollarda mol-mulkni qarzdorga qaytarishga majbur bo'lganida kreditor xarajatlarni undirilishidan qat'i nazar, mol-mulk uchun to'langan pul summalarining o'ziga qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

Kreditor qarzdorning o'z vazifasini bajarmaganligi tufayli yo'qotgan mol-mulkining qiymatini yoki mol-mulkning zararlanishi natijasida uning qiymati kamayishidan kelgan summalarning to'lanishini talab qilishi mumkin. Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy narxlar amal qiladi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, ba'zi hollarda majburiyat vujudga kelgan paytdagi narx bilan zararni undirish vaqtidagi baholar o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Qonunda ushbu holatlar ham ko'zda tutiladi. FKning 324-moddasi 2-qismi mazmuniga ko'ra, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilmagan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Kreditor tomonidan olinmagan va to'lanilishini qarzdordan talab qilishga haqli bo'lgan daromadlar deganda, qarzdor o'z majburiyatini lozim darajada bajarmaganida kreditorning olishi mumkin bo'lgan daromadlar tushuniladi. Bu ayniqsa, pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashda yaqqol namoyon bo'ladi. FKning 337-moddasiga asosan boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jang'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida, sud kreditorning talabini da'vo qo'zg'atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilanmagan bo'lsa qo'llaniladi. Kreditorning pul mablag'laridan qonunsiz foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar yuqorida ko'rsatilgan foizlar summasidan oshib ketsa,

kreditor qarzdordan zararning bu summadan ortiqcha bo'lgan qismini to'lashni talab qilishga haqli.

Muayyan ishni bajarish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari 330-moddada belgilanganidek, majburiyatni real ravishda, aslicha bajarilishini ta'minlashga qaratiladi. FKning mazkur normasi qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmaganida shartnoma yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ishni, birinchi navbatda, o'zi bajarishi yoki bajarishni boshqa shaxsga topshirishi va mazkur ishni bajarish uchun zarur xarajatlarning to'lanishini qarzdor zimmasiga qo'yish huquqini beradi.

Qarzdorning javobgarlikdan ozod qilinishi asoslari

Qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uning aybisiz sodir bo'lganligi yoki bunday holat kreditorning aybi bilan bog'liq bo'lsa, umumiy qoida bo'yicha qarzdor javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Qarzdor tomonidan majburiyatning aniq bajarilishiga to'sqinlik qilgan yuqorida ko'rsatilgan yuridik faktlardan birining bo'lishi – majburiyat bajarilishi mumkin bo'lmasligi tushunchasini bildiradi.

Oddiy tasodifiy holat – yuridik ma'noda majburiyatning qarzdor tomonidan uning va kreditorning aybi bo'lmay turib bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligini sodir qilgan holat hisoblanadi. Bunday holatlar uchinchi shaxslarning, chunonchi, boshqa shaxslarning harakatlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, begona bir shaxsning harakatlari natijasida qarzdor yo'qligida u tomondan oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha kreditorga topshirilishi lozim bo'lgan uyga o't tushib, yonib ketishini ko'rsatish mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda tadbirkorlar uchun muhim kafolatni ko'zda tutadi. FKning 333-moddasi 3-qismiga asosan basharti, qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni, favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

FKning qoidasida majburiyatlarning qarzdor, shuningdek kreditor xatti-harakatlari tufayli bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi to'g'risida so'z boradi. Bunday hollarda qarzdorning javobgarligi hajmi ham kamaytirilishi mumkin.

Mazkur holda sud har ikki tarafning aybi darajasini belgilashi va qarzdorning javobgarligi miqdorini tegishli kamaytirishi, kreditor ko'rgan zararlarni qisman to'lashga majbur qilishi, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka summasini kamaytirishi lozim.

Modomiki, majburiyatlarni bajarishda har ikki taraf o'zi uchun foydali, tejamli samaraga erishishni ko'zlab harakat qilgan ekan, kreditor o'z aybi bilan zarar kamayishi uchun choralar ko'rmasa, o'z majburiyatini bajarmagan hisoblanadi. Majburiyatni bajarmaslikdagi aybi keyinchalik majburiyatni lozim darajada bajara olmagan qarzdorning javobgar bo'lish darajasini belgilashda e'tiborga olinadi.

Majburiyatni bajarmaslikda har ikki taraf teng darajada aybli bo'lsa, ko'rilgan zarar taraflar o'rtasida bab-baravar taqsimlanishi zararning faqat yarminigina to'lashga majbur qilinadi. Zararning ikkinchi yarmi esa kreditorga to'lanmay qoladi. Ammo bunday javobgarlik barcha hollarda ham bir xil bo'lmaydi. Chunonchi, sud qarorlarida har ikki tarafning aybini taqqoslab ko'rib, to'lanadigan zarar summasi birmuncha kamaytirilishi hollari ko'riladi.

Ba'zi hollarda qarzdor majburiyatni bajarish uchun barcha choralarni ko'rsa ham kreditor o'zining harakatsizligi va beparvoligi bilan majburiyatning bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Bunday holda sud qarzdorning majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik javobgarligidan ozod qiladi.

Majburiyatning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirilishi oqibatlari

FKning 337-339-moddalari majburiyatning bajarilishi qarzdor yoki kreditor tomonidan kechiktirilgani uchun javobgarlik to'g'risidagi masalani tartibga soladigan qoidalarni belgilaydi.

Ijroning qarzdor tomonidan kechiktirilishi deb, majburiyatning u tomonidan belgilangan muddatda bajarilmasligi tushuniladi.

Majburiyatning bajarilishini kechiktirgan qarzdor bunday kechiktirishi natijasida kreditorga yetkazilgan zararni to'lashga majbur bo'ladi. Mazkur zararning to'lanishini qarzdorni o'z majburiyatini asl holida bajarishidan ozod qilmaydi.

Qarzdorning aybi bilan majburiyatning ijro etilishining kechiktirilishi majburiyatning keyinchalik ijro etilishi imkoniyati bo'lmasligi uchun javobgarligini oshiradi.

Agar majburiyatning ijro etilishi kechiktirilgan davrda mazkur majburiyat qarzdorning aybidan qat'i nazar, ijro etilishi mumkin bo'lsa ham, u o'z aybi bilan majburiyatni ijro etmaganida qanday javobgarlikka tortiladigan bo'lsa, unga nisbatan xuddi shunday javobgarlik belgilanadi. Bunday hollarda javobgarlikni belgilash uchun qarzdor tomonidan kechiktirilishi asos qilib olinadi. Chunki qarzdor sotilgan narsani yoki ijaraga berilgan ashyoni o'z vaqtida topshirganida edi, ashyo tasodifan nobud bo'lmagan bo'lur edi, deb faraz qilinadi.

Agar majburiyatning bajarilishi qarzdor tomonidan kechiktirilganligi tufayli uning keyinchalik bajarilishiga zarurat qolmagan bo'lsa, kreditor FKning 337-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek, ijroni qabul qilishdan bosh tortishga va zararni to'lashni talab qilishga haqli.

Kreditorning kechiktirishi ham muhim huquqiy oqibatlar tug'diradi. Fuqarolik qonunchiligi yuqorida aytilganidek, majburiyatning bajarilishida qarzdorning ham, kreditorning ham manfaatlari bir bo'lishi zarurligini belgilaydi. Modomiki, taraflar majburiyatni bajarishda bir-biriga ko'maklashishlari lozim ekan, kreditor o'zining xatti-harakati bilan majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishiga to'sqinlik qilmasligi, ijroni og'irlashtirmasligi kerak.

Kreditorning kechiktirishi deganda, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida to'sqinlik qilishga yoki bunday ijroning qiyinlashtirilishiga qaratilgan harakat tushuniladi. Bunday harakatning oqibati uchun kreditor mulkiy javobgar bo'lishi, ya'ni bunday harakatning mulkiy oqibati kreditorning zimmasiga qo'yilishi kerak.

Kechiktirishning oqibatlari FKning 338-moddasida ko'rsatilgan. Bu moddada kreditorning shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi tufayli yetkazilgan zararni undirib olish huquqini berishi va keyinchalik majburiyatni ijro etish mumkin bo'lmay qolsa, uni javobgarlikdan ozod qilish, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo'pol ehtiyotsizlik qilish hollari bundan mustasno ekanligi, pul majburiyati bo'yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foizlar to'lashga majbur emasligi ko'rsatilgan.

Kreditorning kechiktirishi ikki turdagi xatti-harakatdan, birinchidan, kreditor o'ziga qarzdor tomonidan lozim darajadagi ijroni qabul qilmaslikdan, ikkinchidan, qarzdorning o'z majburiyatini bajarishga qadar kreditor tomonidan lozim bo'lgan harakatning u tomondan qilinmaganligidan iborat bo'lishi mumkin.

Chunonchi, agar mahsulot oluvchi mahsulotni topshirishga tayyor ekanligi to'g'risida xabardor qilingan bo'lsa-yu, uni belgilangan muddatda olib ketmasa majburiyatni kechiktirishga yo'l qo'ygan hisoblanadi.

Kreditor o'ziga yuklatilgan harakatlarni bajarmasa va bu harakatni bajarmasdan turib qarzdor majburiyatini ijro eta olmaydigan hollarda ham kreditor kechiktirgan hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo'yicha mahsulot uni oluvchiga bevosita yuborilmay, balki sotib oluvchining taqsimotiga (razkoryadka) muvofiq ravishda shartnomada qatnashmagan boshqa tashkilotlarga jo'natilishi lozim bo'lganida belgilangan muddatda taqsimotning berilmasligi kreditorning kechiktirishini anglatadi. Boshqa bir misol: qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha buyurtmachi pudrat shartnomalari to'g'risidagi qoidalar bo'yicha o'z zimmasidagi harakatlarni bajarmaganida ham kreditorning kechiktirishi ko'rinadi.

Kreditor majburiyatni kechiktirishda o'z aybi yoki o'ziga qarashli shaxslarning aybi yo'qligini isbotlay olmasa, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to'lashga majbur bo'ladi. Chunonchi, belgilangan muddatda olib ketilmagan mahsulotlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni to'lashi shart. Odatda, bunday hollarda neustoyka (penya, jarima) undiriladi.

Kreditorning kechiktirishi ko'pincha majburiyatning bajarmasligida aybli bo'lgan qarzdorning javobgarligi to'g'risida da'vo qo'zg'atilganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki bunday hollarda kreditorning ayblilik darajasi e'tiborga olinib, qarzdorning javobgarligi darajasi birmuncha kamaytirilishi mumkin.

Agar kechiktirish kreditorning o'z aybi yoki qonunga yoxud kreditorning topshirig'iga binoan ijroni qabul qilish yuklatilgani shaxslarning qasdi yoki qo'pol ehtiyotsizligidan emasligini kreditor isbotlasa, u kechiktirish bo'yicha javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida u tomondan berilgan tilxat yoki hujjatini kreditor qarzdorga qaytarib berishdan bosh tortganda ham kreditor kechiktirgan hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilishida unga ko'maklashishga majbur. Agar u o'zining bunday majburiyatini bajarmasa, oqibatlari uchun ham javobgar bo'ladi. Kreditorning majburiyatni kechiktirish oqibatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

birinchidan, majburiyatning kechiktirilishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni to'laydi; masalan, qarzdor majburiyatini bajarish

yuzasidan kerakli mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazgan bo'lsa-yu, kreditor bo'sh ombor binosining bo'lmasligini bahona qilib, mahsulotni qabul qilishdan bosh tortsa, qarzdor mahsulotning tashilishi va saqlanishi bilan bog'liq oshiqcha xarajatlardan kelgan zararlarni kreditordan undirishga haqli. Bu holda kreditor bunday kechiktirishning o'z qasdi yoki ehtiyotsizligi bilan bog'liq bo'lmaganligini yoki bunday kechiktirishda qonun yoxud kreditorning topshirig'i bo'yicha majburiyatni bajarishni o'z zimmasiga olgan boshqa shaxslarning qasd yoki ehtiyotsizligidan kelmaganligini isbotlasa, qarzdor ko'rgan zararlarni to'lashdan ozod qilinadi;

ikkinchidan, kreditorning kechiktirish vaqti uchun qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha foizlar to'lamaydi;

uchinchidan, agar kreditor qarzdorga uning bergan tilxatini yoki boshqa qarz hujjatini qaytarishdan, yoxud tilxatda qarz hujjatining qaytarilishi mumkin bo'lmasligini ko'rsatishdan bosh tortsa, qarzdor ijro etishni to'xtatishga haqli.

Bajarish mumkin bo'lmasligi tushunchasi ham ma'lum ahamiyatga ega. Bajarish mumkin bo'lmasligi, yuqorida aytib o'tilganidek, majburiyatning real tarzda, ya'ni asl holatda bajarish mumkin bo'lmasligini bildiradi. Bajarish mumkin bo'lmasligi to'g'risidagi masala har bir muayyan holatda sud tomonidan mazkur ishning xususiyatlari e'tiborga olinib hal etiladi.

Qarzdordan majburiyatning real tarzda bajarilishini ba'zi hollarda va ba'zi asoslar bo'yicha talab qilish mumkin bo'lmaydi. Bunga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) majburiyatning aslicha bajarilishi mumkin bo'lmasligi, ya'ni majburiyat narsasi xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyo bo'lib, uni aslicha topshirish mumkin bo'lmagan holatlarning mavjudligi yoki biror-bir holatning sodir bo'lishi sababli qarzdor majburiyatini ma'lum bir joyda bajara olmasligi kabi;

2) majburiyatning huquqiy jihatdan bajarilishi mumkin bo'lmasligi, ya'ni ba'zi hollarda majburiyatning bajarilishi bunday majburiyat vujudga kelgandan so'ng qabul qilingan qonun hujjatlariga xilof keladigan bo'lsa, majburiyat bajarilmasligi mumkin;

3) ba'zi hollarda majburiyatning real bajarilishi nihoyatda qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, shartnoma bo'yicha biror-bir majburiyatni shaxsan bajarishga majbur qarzdorning qattiq betob bo'lib qolishini ko'rsatish mumkin.

Majburiyatning bajarilishi mumkin bo'lmashligi qarzdorni kreditor oldida bo'lgan javobgarlikdan ozod qilmaydi. Qarzdor faqat majburiyatning bajarilishi mumkin bo'lmashligida o'z aybining yo'qligini isbot qilsagina, javobgarlikdan ozod bo'ladi. Masalan, xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar ijaraga oluvchining qo'lida bo'lgan vaqtda uning aybidan tashqari nobud bo'lsa, qarzdor kreditorga zarar yoki jarimani to'lashdan ozod bo'ladi.

Agar ashyolarning nobud bo'lishi qarzdorning mazkur ashyolarga beparvolik bilan, ehtiyotsizlik muomalasi tufayli bo'lsa, kreditorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ma'lumki, delikt bo'yicha fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilashda zararning mavjud bo'lish fakti asosiy omillardan biri sanaladi. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikda esa zarar faktining bo'lishi majburiy emasligi angalishiladi. Ushbu holatni muhokama qiling?

2. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning chorasi sifatida asosan neustoyka qo'llaniladi. Shu jihatdan zararni qoplashni fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi sifatida e'tirof etish va majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llash mumkin yoki mumkin emaslik holatini tahlil qiling?

3. A. pochta bo'limida xorijiy oylik ilmiy jurnaliga uyiga olib kelish sharti bilan obuna bo'ldi. Iyun-avgust oylarida u chet elga xizmat safariga ketdi. Qaytganidan keyin shu oylar uchun jurnal berilmaganligini bildi va obuna shartiga ko'ra kechiktirilgan davr uchun 60 ming so'm neustoyka to'lashni talab qildi. Pochta bo'limi A.ni yo'qligi uchun jurnali yetkazib bermaganligini, qolaversa jurnallar sentyabrda to'liq yetkazib berilganini va A.ga hech qanday zarar etmaganligini bildirib, neustoyka to'lashni rad etadi.

Kim haq? Agar A komondirovkaga ketmasdan uyda bo'lganda huquqiy echim o'zgaradimi?

4. Intensiv olma bog'lari parvarishi bilan shug'ullanuvchi "Qirmizi" fermer xo'jaligi konserva zavodi bilan 2015 yil iyun-avgust oyida 70 tonna olma yetkazib berishga shartnoma tuzadi. Biroq 25-26 mart kunlari kechasi havo -5° ga tushganligi sababli faqat 30 tonna olma yetkazib beradi. Fermer xo'jaligi konserva zavodiga o'z majburiyatining qisman bajarganligiga fors-major holatlari sabab bo'lganini asos qiladi va meteostanstiya ma'lumotnomasini ilova qiladi. Konserva zavodi qo'shni

fermer xo‘jaligi xuddi shunday sharoitda bog‘ga suv qo‘yib va kechasi tezak tutinlarini qoplab, hosilni saqlab qolganiini vaj qilib “Qirmizi” fermer xo‘jaligini shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikda aybdor hisoblaydi va neustoyka to‘lashni talab qiladi.

Fors-major holatiga tavsif bering. Majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik asosi sifatida ayb qanday namoyon bo‘ladi? Masalaga huquqiy baho bering.

21-MAVZU. MAJBURIYATLARNING BEKOR BO‘LISHI

Majburiyatlarning bekor bo‘lishi tushunchasi. Majburiyatlarning bajarilishi bilan bekor bo‘lishi. Majburiyatlarning hisobga o‘tkazish yo‘li bilan bekor bo‘lishi. Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida majburiyatning bekor bo‘lishi. Taraflarning kelishuvi bo‘yicha va qarzdorni qarzidan voz kechishi bo‘yicha majburiyatning bekor bo‘lishi. Bajarish mumkin bo‘lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo‘lishi. Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo‘lishi. Fuqaroning vafot etishi yoki yuridik shaxsning tugatilishi sababli majburiyatning bekor bo‘lishi.

Majburiyatlarning bekor bo‘lishi tushunchasi

Har qanday huquqiy munosabat kabi majburiyat ham muayyan asoslar, ya’ni, muayyan yuridik faktlar mavjud bo‘lgan vaqtda bekor bo‘ladi. Majburiyatning bekor bo‘lishi deganda vujudga kelgan yuridik fakt tufayli majburiyat ishtirokchilari huquq va burchlarining bekor bo‘lishi tushuniladi.

Majburiyatlarni bekor bo‘lish asoslari turkumlanganda ularning oqibatlarini bo‘yicha normal bekor bo‘lish asoslari (bunda majburiyat ijro etiladi yoxud kreditor manfaatlari muayyan tarzda qanoatlantiriladi – hisobga o‘tkazish, voz kechish haqini to‘lash, majburiyat yangilanishi bilan bekor bo‘lishi) va normal bo‘lmagan holatlar bo‘yicha majburiyatlarni bekor bo‘lishi asoslari (majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmaganligi munosabati bilan bekor bo‘lishi, fuqaroning vafot etishi, yuridik shaxs tugatilishi, tadbirkorlik subyektining bankrotligi orqali bekor bo‘lishi va umidsiz qarz sifatida baholanadigan boshqa holatlar bo‘yicha bekor bo‘lishi) farqlanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, majburiyat quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

- 1) majburiyatning bajarilishi bilan;

- 2) voz kechish haqini berish bilan;
- 3) hisobga o'tkazish bilan;
- 4) talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan;
- 5) qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolishi bilan;
- 6) majburiyat yangilanishi bilan;
- 7) qarzdan voz kechish bilan;
- 8) bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli;
- 9) davlat organi hujjati asosida;
- 10) fuqaroning vafot etishi bilan;
- 11) yuridik shaxs tugatilishi bilan.

Yuqorida ko'rsatilgan umumiy asoslardan tashqari majburiyatlarni bekor qiladigan yana ba'zi asoslar ham mavjud, ularning ayrim turlari FKning tegishli boblarida nazarda tutilgan. Jumladan, FKning 32-bobida mulkni ijaraga oluvchi shartnomani istagan vaqtida bir tomonlama bekor qila olishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Majburiyatlarning bajarilishi bilan bekor bo'lishi

FKning 341-moddasida ko'rsatilganidek, majburiyat qoida tariqasida uning lozim darajada bajarilishi bilan bekor bo'ladi.

Majburiyatlar bekor bo'lishining keng tarqalgan usullaridan biri – majburiyatni tegishli ravishda ijro etilishidir. Majburiyatlarning bekor bo'lishi uchun bajarish tegishli ravishda amalga oshirilmasa, majburiyatni bekor qilmay, balki uni buzganlik uchun mulkiy javobgarlik belgilanadi, ba'zi hollarda majburiyatni real ravishda bajarish vazifasi ham saqlanib qoladi.

Ayrim majburiyatlar tegishli ravishda bajarilishi bilan bekor bo'ladi, shu bilan birga, majburiyatni talab darajasida bajargan shaxsga shu shartnomani qayta tiklashda imtiyozli huquq beriladi. Masalan, biror mulkni ijaraga olgan shaxs o'z zimmasiga olgan majburiyatini, talab darajasida bajarsa, shu mulkni ijaraga olish uchun yangi shartnoma tuzishda boshqa shaxslarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

Kreditor ijroni qabul qila turib, qarzdorning talabi bo'yicha unga ijroning to'la yoki qisman qabul qilinganligi to'g'risida tilxat berishga majbur. Agar qarzdor majburiyatni tasdiqlash yuzasidan kreditorga qarz hujjati bergan bo'lsa, kreditor ijroni qabul qila turib, bu hujjatni qaytarishi, agar uni qaytarish mumkin bo'lmasa, bu to'g'rida o'zi bergan tilxatda ko'rsatishi lozim. Tilxat qaytarilayotgan qarz hujjatiga ustxat yozish bilan ham almashtirilishi mumkin.

Majburiyatning bajarilganligini isbotlovchi boshqa hujjatlar ham bo‘lishi mumkin. Sotilgan ashyolarni oluvchiga jo‘natish uchun transport tashkilotiga topshirilishi yoki oluvchiga yuborish uchun aloqa bo‘limiga berilishi to‘g‘risidagi hujjat shular sirasiga kiradi.

Qarz hujjatining qarzdor qo‘lida bo‘lishi, boshqa bir hol isbotlanmaguncha, majburiyatning bekor bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Kreditor tilxat berishdan, qarz hujjatini qaytarishdan yoki qaytarib berish imkoniyati yo‘qligini tilxatda ko‘rsatishdan bosh tortgan taqdirda, qarzdor ijroni to‘xtatib turishga haqli bo‘ladi. Bunday hollarda kreditor muddatni kechiktirgan hisoblanadi (FK 258-modda).

Qarz hujjatining qaytarilishi yoki uni qaytarish mumkin bo‘lmaganligi to‘g‘risidagi tilxat o‘rniga berilgan hujjat ustiga ijroning qabul qilinganligi haqida yozib berishi majburiyatning ijro etilganligini isbotlash hujjatlaridan biri hisoblanadi.

Qarz hujjati (tilxat) qarzdor tomonidan kreditorga beriladi. Bunday hujjat bilan ko‘pincha maishiy pudrat shartnomalaridan kelib chiqqan majburiyatlar guvohlantiriladi. Qarz hujjati kreditor qo‘lida bo‘lishi – majburiyatning mavjudligini isbotlovchi dalil hisoblanadi va unga majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqini, masalan, qarz pulining to‘lanishini, buyurtma qilingan narsaning berilishini talab qilish huquqini beradi.

Kreditor majburiyatning ijrosini qabul qila turib, qarzdorga qarz hujjatini qaytarishga majbur. Qarzdor esa majburiyatning bajarilganligini tasdiqlaydigan hujjatni o‘ziga berilishini kreditordan talab qilish huquqiga ega.

Ayrim hollarda majburiyatning bajarilganligi to‘g‘risida kreditordan alohida hujjat olmay, balki qarzdorning tilxati ustiga majburiyatning bajarilganligini, masalan, qarz pulining butunlay yoki qisman olinganligini yozish mumkin. O‘z xarakteriga ko‘ra qarz hujjati to majburiyat tegishli suratda bajarilgunga qadar kreditorda bo‘lishi kerak. Qarz hujjatining qarzdorga qaytarilishi majburiyatning bajarilganligini bildiradi. Shuning uchun qarz hujjatining qarzdor qo‘lida bo‘lishi boshqa bir hol isbotlanmaguncha, majburiyatning bajarilganligini va shu bilan uning bekor bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Basharti kreditor yo‘q bo‘lsa yoki u ijroni qabul qilishdan bosh tortsa, yoxud boshqa sabablarga ko‘ra qabul qilish muddatini o‘tkazib yuborsa, shuningdek muomala layoqatiga ega bo‘lmasa yoki muomala layoqati cheklangan bo‘lsa, ijroni qabul qilishga rozi bo‘lgan vakil pulni qimmatli qog‘ozni notarial idoraning depozitiga qo‘yishi mumkin. Bunday

hollarda pulni yoki qimmatli qog'ozni kreditor nomiga notarial idoraning depozitga qo'yish, majburiyatni lozim darajada bajarish bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda majburiyatning bajarilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Yuborilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan summani tasdiqlaydigan hisob-kitoblar yoki to'langanlik haqida ma'lumotnoma ana shunday hujjatlar hisoblanadi. Ular tashkilotlar mablag'lari hisobidan pul to'lovlari va boshqa xarajatlarning to'g'ri sarflanganligini tasdiqlash hamda tegishli nazorat olib borish imkonini beradi.

Majburiyatni ijro etilgan deb baholash uchun uni amalda ijro etilganlik faktining o'zi yetarli emas. Majburiyat amalda ijro etilgandan tashqari u qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda yuridik rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Masalan FKning 489-494-moddalarida korxonada oldi-sotdi shartnomasining ijrosini yuridik rasmiylashtirish asoslari va tartibi belgilangan. FKning 680-moddasida kapital qurilish bo'yicha pudrat shartnomasining yuridik rasmiylashtirish asoslari va tartibi o'z mujassamini topgan. Faqat ushbu shartlarga rioya qilingan hollardagi majburiyat ham amalda ham yuridik ijro qilingan hisoblanadi va u bekor bo'ladi.

Majburiyatlarning hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'lishi

Hisobga o'tkazish – bu majburiyatni bekor qiladigan shunday usulki, buning vositasida muddati to'lgan yoki qisman muddati ko'rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan muqobil o'xshash talab hisobga o'tkazilishi bilan majburiyat to'liq yoki qisman bekor bo'ladi (FKning 343-m) masalan, chunonchi, kim oshdi savdosida g'olib chiqqan shaxs bilan shartnoma tuzishda u to'lagan zakalat summasi tuzilgan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishda hisobga o'tkaziladi).

Hisobga o'tkazish o'z-o'zicha avtomatik ravishda amalga oshirilmaydi. Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan hisobga o'tkazish bir tomonlama bitim bo'lib ko'ringani tufayli bunga bir tomonning hisoblashish to'g'risidagi arizasi kifoya qiladi.

Hisobga o'tkazish–majburiyatlarning bajarilishini osonlashtiradi, chunki bu usul taraflarni bir-birlariga pul to'lash bilan bo'lgan oshiqcha harakatlarni qilishdan ozod qiladi va har ikki kreditorning o'zaro manfaatlarini ta'minlaydi.

Muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish fuqarolar ishtirok etgan munosabatlarda ham, tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarda ham

qo'llaniladi. Tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish, bank orqali hisoblashish shaklida amalga oshiriladi. Bank tashkilotlar ixtiyoridagi pul mablag'larining aylanishini tezlatish maqsadida naqd pulsiz o'zaro hisoblashishni amalga oshiradi.

Bank orqali hisobga o'tkazish FKning tegishli moddalaridan tashqari vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan maxsus hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Qonun muqobil (qarshi) talab hisobi yo'li bilan majburiyatlarning bekor bo'lishi uchun quyidagi uch talabni qo'yadi:

1) majburiyatlar qaytarma bo'lishi, ya'ni kreditorlar bir-biriga nisbatan qarzdor bo'lishi kerak. *Masalan, ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga ijara haqi uchun 200.000 so'm to'lashi kerak bo'lsa, ijaraga beruvchi undan 200.000 so'm qarz bo'lsa – muqobil talab hisobidir;*

2) qarama-qarshi talab bir xilda, talab qilinadigan narsaning alomatlari ham shu turda bo'lishi kerak. *Masalan, pulga pul, bug'doyga bug'doy kabi. Agar qarama-qarshi talabning narsasi bir xilda bo'lmasa, o'zaro muqobil talabni hisobga o'tkazish mumkin emas. Masalan, bir tomon bir ashyo yuzasidan vindikatsion da'vo qo'zg'atsa, ikkinchi tomon esa shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatni talab qilsa, bunday talablar o'zaro qarshi talabni hisobga o'tkazish yo'li bilan bekor bo'lmaydi, ya'ni muqobil (qarshi) talabni hisobga o'tkazish yo'li bilan hisoblashish mumkin emas;*

3) bir xildagi qarama-qarshi talabni hisobga o'tkazishda ularni bajarish muddatlari to'lgan bo'lishi kerak. Agar bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilish payti bilan belgilangan bo'lsa, majburiyatni bajarishning hisoblanishi har qachon talab etilishi mumkin. Shuning uchun bunday talabni o'zaro hisobga o'tkazishda bajarish muddati ahamiyatsizdir. Biroq kreditor bajarish muddati to'lmagan talabini shu kreditordan talab qilish muddati to'lgan qarzdorning talabiga qarshi o'zaro hisobga o'tkazishga haqli emas.


Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan taqdirda qarzdor o'zining dastlabki kreditoriga muqobil talabni yangi kreditorning talabiga qarshi hisobga o'tkazishga haqli.

Agar talab qarzdor bu talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgani to'g'risidagi bildirishni olgan paytgacha mavjud bo'lgan asosga ko'ra vujudga kelgan bo'lsa va talab qilish muddati ana shu bildirish olguncha kelgan bo'lsa yoki ushbu muddat ko'rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan bo'lsa, hisobga olish amalga oshiriladi (FK 345-modda).

Majburiyatlarni hisobga o'tkazishni bekor bo'lishining eng ko'p tarqalganlaridan biri kliring hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida birja huquqlari sifatida birja a'zolarining va ular mijozlarining o'zaro majburiyatlarini belgilashni, aniqlashtirishni hamda hisobga olishni (kliring), shuningdek bankda ochilgan maxsus hisobvaraqlar orqali ular o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi ham belgilangan. Kliringni amalga oshirish tartibi Birjalarning ichki tartib qoidalari orqali belgilanadi.

Birjadan tashqaridagi hisob-kitob munosabatlarida (uch va undan ortiq subyektlar o'rtasidagi) hisob-kitoblarda hisobga o'tkazish orqali majburiyatlarni bekor bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

1996 yil 9 avgust 1504-sonli "Budjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan uchinchi shaxslar uchun to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.



Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida majburiyatning bekor bo‘lishi

Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida majburiyat bekor bo‘ladi (FK 346-modda). Ma‘lumki, har qanday shaxs o‘ziga o‘zi ham qarzdor, ham kreditor bo‘lishi mumkin emas. Bunday kreditor va qarzdorning bir shaxs bo‘lib qolishi ko‘pincha meros olishda uchraydi. Masalan, meros oluvchi shaxs o‘z akasi yoki otasiga qarzdor bo‘lsa, keyinchalik meros ochilishi natijasida kreditorning (marhum aka yoki otaning) talab qilish huquqlarini o‘ziga oladi.

Qarzdor bilan kreditorning bir shaxs bo‘lib qolishi fuqarolar o‘rtasidagina emas, balki yuridik shaxslar o‘rtasida ham yuz berishi mumkin. Odatda, yuridik shaxslar qayta tashkil bo‘lishi–bir necha yuridik shaxs qo‘shilishi, qo‘shib olishi tufayli (universal huquqiy vorislik) qarzdor va kreditor bo‘lgan tashkilotlar bir yuridik shaxs bo‘lib qolishi – majburiyatni bekor qiladi (FKning 51-moddasida belgilangan tartibda). Agar bunda qo‘shilish keyinchalik bekor bo‘lsa, majburiyat yangidan paydo bo‘ladi. Chunonchi, bir-biriga qarzdor bo‘lgan ikki xo‘jalik qo‘shila turib, keyinchalik yana ajralsalar avvalgi qarzdor xo‘jaliklarning majburiyati yangidan paydo bo‘ladi.

Taraflarning kelishuvi bo‘yicha va qarzdorni qarzidan voz kechishi bo‘yicha majburiyatning bekor bo‘lishi

Taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyatlarning bekor qilinishida bunday kelishuv bajarilmagan majburiyatlarni kelgusida bajarishdan ozod qilishga qaratilgan bo‘ladi va har ikki taraf majburiyatni bajarishga hali kirishmagan vaqtda yoki majburiyatning bir qismi bajarilgan paytda yuz beradi. Taraflarning kelishuvlari turlicha mazmunda, chunonchi, qarzni to‘lashdan yoki biror-bir ishni bajarishdan ozod qilish to‘g‘risida bo‘lishi mumkin. FKning 342-moddasiga asosan taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyat uni bajarish o‘rniga voz kechish haqini berish (pul to‘lash, mol-mulk berish kabi) bilan bekor qilinishi mumkin. Voz kechish haqining miqdori, muddatlari va uni berish tartibini taraflar belgilaydilar.

Odatda voz kechish haqi bilan uni asosida bekor bo‘layotgan majburiyat qiymati o‘rtasida muayyan mutanosiblik bo‘lishi talab etiladi.

Kreditorning qarzdan voz kechishi ham majburiyatning bekor bo‘lishiga olib keladi. Bu bir taraflama bitim bo‘lib, unda taraflarning

kelishuvi ro'yi bermaydi. Biroq bunda kreditorning qarzdani voz kechishi boshqa shaxslarning kreditor mol-mulkiga nisbatan huquqlarini buzmasa, majburiyat bekor bo'ladi (FK 348-modda).

FKning 347-moddasida ko'rsatilganidek, taraflar o'z o'rtalaridagi dastlabki majburiyatni boshqa narsani yoki boshqacha ijro etish usulini nazarda tutuvchi yangi majburiyat bilan almashtirish (majburiyatni yangilash) haqida kelishib olsalar, majburiyat bekor bo'ladi. Chunonchi, biror-bir narsa nasiyaga olinganida oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqqan majburiyat taraflarning kelishuvi bilan qarz majburiyatiga aylantiriladi. Bunday holda taraflar o'rtasida qarz shartnomasi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Bir majburiyatning boshqa bir majburiyat bilan almashtirilishi uchun qator shartlar talab qilinadi. Bunda, birinchidan, taraflar o'rtasidagi bir majburiyatni bekor qilish uchun boshqa turdagi majburiyat bilan almashtirish haqidagi kelishuv bo'lishi; ikkinchidan, amalda bo'lgan, haqiqiy majburiyatning bo'lishi (agar dastlabki majburiyat haqiqiy bo'lmasa yoki bekor qilingan bo'lsa, u holda majburiyatni boshqa bir majburiyat bilan almashtirish to'g'risida kelishuv ham bo'lishi mumkin emas); uchinchidan, yangi majburiyat haqiqiy bo'lishi va eski majburiyatdan biror-bir farqi bo'lishi kerak.

Taraflarning bir turdagi majburiyatni boshqa bir turdagi majburiyat bilan almashtirish to'g'risidagi kelishuvi shartnoma sifatida ko'rsatilganligi tufayli kelishuv ham shartnomalarni tuzishga oid umumiy qoidalarga muvofiq bo'lishi lozim.

Dastlabki majburiyatning yangi majburiyat bilan almashtirilishida dastlabki majburiyatning bajarilishini ta'minlash uchun belgilangan kafolat, zakalat va boshqa usullar ham bekor bo'ladi.

Majburiyatlarning kelishuv yo'li bilan bekor qilinishi FKning 102-112-moddalariga rioya qilingan holda rasmiylashtirilishi lozim. Tashkilotlar o'rtasidagi majburiyatlarning kelishuvi faqat yozma shakldagina bekor qilinishi mumkin.

Qarzdani voz kechish bu FK talablariga asosan xadya sifatida baholanadi va odatda xususiy mulkka mansub subyektlar o'rtasida qo'llaniladi. Budjetdan ta'minlanuvchi hamda boshqa ommaviy subyektlar o'rtasida ushbu asosni qo'llash maxsus tartibda amalga oshiriladi.

Bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli majburiyatning bekor bo'lishi

Fuqarolik huquqida majburiyatni bajarish mumkin bo'lmashligi deb shunday vaziyat tushuniladiki, bunda qarzdorga majburiyat mazmunini tashkil etgan harakatlarni bajarish imkoniyati bo'lmay qoladi.

FKning 349-moddasida ko'rsatilishicha, agar taraflardan birortasi ham javob bermaydigan vaziyat tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmay qolsa, u bekor bo'ladi. Basharti, qarzdor majburiyatni kreditorning aybli harakatlari tufayli bajarishi mumkin bo'lmasa, kreditor o'zining majburiyat bo'yicha bajarganlarini qaytarib berishni talab qilishga haqli emas.

Bajarish mumkin bo'lmashlik tasodifiy holatlar tufayli bo'lishini bironing aybi bilan bog'liq bo'lishi holatidan ajratish kerak. Tasodifiy holat tufayli bajarish mumkin bo'lmashligi deb mazkur sharoitda, vaziyatda qaytara olmaydigan kuch, chunonchi, suv toshqini, zilzila, yong'in kabi tabiiy ofatlar tufayli bajarish mumkin bo'lmashligi tushuniladi.

Bajarishning mumkin bo'lmay qolishi qarzdor aybi bilan bo'lgan deb hisoblash uchun bajarish imkoniyatini bermagan holatlar qarzdor qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yo'l qo'ygan bo'lishi yoxud uning oldini olmagan bo'lishi kerak. Agar bajarishga imkoniyat bermaydigan holatlar qarzdorning aybi bilan sodir etilgan bo'lsa, u holda qarzdor majburiyatni bajarishdan ozod bo'lmaydi, bunday holda majburiyat bekor bo'lmay o'z kuchida qolib, faqat uning mazmuni yuz bergan holatga qarab o'zgarishi mumkin. Qarzdorning o'z aybi bilan ijro etib bo'lmaydigan holat sodir qilingan bo'lsa, majburiyat bajarilmasligi uchun neustoyka yoki zararni to'lash burchidan ozod qilinmaydi.

Qonun majburiyatni bajarish mumkin bo'lmashligi faktlarini turlarga bo'lib ko'rsatmaydi. Majburiyatni bajarib bo'lmashligi faktlari o'z xarakteriga ko'ra bir necha turga, chunonchi, jismiy, huquqiy va iqtisodiy faktlarga bo'linadi. Jismiy jihatdan bajarib bo'lmashlik deganda, bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat narsasining nobud bo'lishi natijasida bajarish mumkin bo'lmashligi tushuniladi. Masalan, ijaraga berilayotgan binoning yong'in tufayli yaroqsiz bo'lib qolganligi sababli majburiyat narsasini berib bo'lmaydi.

Huquqiy jihatdan bajarib bo'lmashlik deganda, majburiyat mazmunini tashkil etgan harakatni qilishni vakolatli organ tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjat bilan man qilinishi tushunilishi mumkin. *Masalan, farmastevtika zavodi dori yetkazib berish majburiyatini olsa, lekin tayyorlangan dorining zararli xususiyati ma'lum bo'lib qolib, vakolatli organ fuqarolik muomalasidan chiqarish to'g'risida buyruq bersa, huquqiy asos bo'yicha bajarib bo'lmaydigan holat ro'y beradi.*

Iqtisodiy jihatdan bajarib bo‘lmasligi shu bilan xarakterlanadiki, qarzdor majburiyatni bajarish jarayonida oshiqcha xarajatlar qilishi lozim bo‘lsa, bunday xarajatlar tufayli zarar yetkazilishi sababli bajarilmasligi mumkin.

Bundan tashqari, majburiyatni butunlay yoki qisman, shuningdek muttasil va vaqtincha bajarib bo‘lmaslikni bir-biridan farq qilmoq kerak.

Qisman ijro etib bo‘lmaslik, masalan, shartnomaga asosan topshiriladigan bir necha ashyoning biri yoki birmunchasining buzilishidan kelib chiqishi mumkin.

Butunlay ijro etib bo‘lmaslik esa, topshirilishi lozim bo‘lgan mulkning tasodifiy holat sababli iste‘molga yaroqsiz bo‘lib qolishi tushuniladi.

Vaqtincha bajarib bo‘lmaslikka vakolatli organ tomonidan berilgan buyruqqa asosan majburiyat bajarilishi kechiktirilishini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Vaqtincha ijro etib bo‘lmaslikda majburiyat butunlay bekor qilinmay, balki bajarilishi vaqtincha to‘xtatilib turiladi.

Muttasil ijro etib bo‘lmaslikda biror tasodifiy holat tufayli majburiyatni hech qachon bajarish mumkin bo‘lmaydi. Masalan, yong‘in tufayli vayron bo‘lgan muayyan binoni ijaraga berish majburiyati muttasil, hech qachon bajarilmasligi mumkin.

Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo‘lishi

FKning 350-moddasiga asosan agar davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to‘liq yoki qisman mumkin bo‘lmay qolsa, majburiyat to‘liq yoki uning tegishli qismi bekor bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistondagi mis kombinati xorijdagi korxonaga mis yetkazib berish haqidagi shartnoma bo‘yicha majburiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bordi-yu, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati xorijga mis eksport qilishni cheklash haqida qaror qabul qilguday bo‘lsa, ushbu majburiyat bekor bo‘ladi. Buning natijasida zarar ko‘rgan taraflar uni to‘lashni talab qilishga haqli emasdirlar.

Davlat organining majburiyat bekor bo‘lishiga asos bo‘lgan hujjati belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilganda, agar taraflarning kelishuvida yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib kelib chiqmasa va majburiyatni bajarish kreditor uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa, majburiyat tiklanadi.

Fuqaroning vafot etishi yoki yuridik shaxsning tugatilishi sababli majburiyatning bekor bo‘lishi

Majburiyat ishtirokchisi bo'lgan fuqaro vafot etishi tufayli majburiyatlar barcha hollarda ham tugatilmaydi, chunki qonun bilan belgilangan ba'zi hollarda marhumning huquq va burchlari uning vorislariga o'tadi. Jumladan, merosni qabul qilgan voris meros qoldiruvchining qarzlari yuzasidan o'ziga o'tgan meros mulkining haqiqiy qiymati doirasida javobgar bo'ladi. Meros mulki vorislar bo'lmagani uchun davlatga o'tgan bo'lsa, davlat ham shu tartibda marhumning qarzlari uchun javob beradi.

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsiy ishtirokisiz bajarish mumkin bo'lmasa yoki majburiyat boshqacha tarzda qarzdorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, qarzdor vafot etishi bilan bekor bo'ladi (FK 351-modda). Chunonchi, vakil vafot etsa, u tomondan olingan majburiyat ham bekor qilinadi, chunki vakillik shaxsiy ishonchga asoslanib belgilangan huquqiy munosabat hisoblanadi. Agar majburiyatni bajarish shaxsan kreditor uchun mo'ljallangan yoki majburiyat boshqacha tarzda kreditorning shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, kreditor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo'ladi. Chunonchi, sog'lig'iga shikast yetkazganligi tufayli zarar haqini olib turgan fuqaroning vafot etishi bilan unga nisbatan belgilangan majburiyatlar ham bekor bo'ladi va hokazo.

Majburiyat qarzdor yoki kreditor bo'lgan yuridik shaxs tugatilishi bilan ham agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa bekor bo'ladi. Yuridik shaxslarni tugatilishi hamma vaqt ham majburiyatlarni bekor bo'lishiga olib kelmaydi. *Masalan, MChJ, AJlarda muassislar qo'shgan xissasi doirasida javobgar bo'lishi belgilangan va ularda majburiyatlar jamiyat tugatilishi bilan bekor bo'ladi.*

Ba'zi hollarda ayrim yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlarida yoki qonun hujjatlarida yuridik shaxs tugatilgandan so'ng uning huquq va majburiyatlari mulkdori, ishtirokchisi yoki ta'sisчисiga o'tishi belgilanishi mumkin. *Masalan xususiy korxonalar, fermer xo'jaligi, to'liq shirkat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, davlat muassasalarida uning huquq va majburiyatlari mazkur korxonalar muassislari zimmasiga o'tishi mumkin.*

Yuridik shaxs bankrot bo'lgani sababli tugatilganda, uning majburiyatlari bekor bo'ladi. Ayrim majburiyatlar, masalan, yuridik shaxs fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazgani uchun to'lovlar bo'yicha majburiyatda qarzdor bo'lsa, bekor bo'lmaydi. Bunda FKning 247-moddasiga va bankrotlik haqidagi qonunchilikka asosan tugatilayotgan yuridik shaxs mablag'lari kapitallashtirilib qo'yiladi va majburiyatning ijrosi boshqa shaxs zimmasiga yuklanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan usullar majburiyatni bekor qiladigan umumiy asoslar bo'lib, ba'zi hollarda majburiyatlar boshqa asoslarda ham bekor bo'lishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Majburiyatni bekor bo'lishi haqida tushuncha bering, uning qanday ahamiyati bor?

2. Majburiyat bajarilganligini isbotlovchi qanday hujjatlar bor va ularning majburiyat bekor bo'lishiga aloqasi qanday?

3. A hovlisida B ijaraga turadi. Keyingi 6 oy davomida B ijara haqini to'lay olmaydi va a.dan 6 oy uchun to'lanishi lozim bo'lgan summani 1 yil muddatga 2 foizli qarz sifatida yangilashni taklif qiladi.

Ushbu holat ijara haqini keyingi 6 oy uchun to'lash majburiyati bekor qiladimi. Majburiyani yangilash asosida bekor bo'lishga tavsif bering.

4. Fuqaro J. 2014-yil yanvarda yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tdi. 2015-yil may oyida tijorat bankidan tadbirkorlik faoliyati uchun 1 yil muddatga 20 million so'm kredit oldi. Avgust oyida davolanishi uchun qo'shnisidan 5 million so'm qarz oldi. Oktyabr oyida sud uning xotinini da'vosiga ko'ra farzandlari uchun oylik ish haqining yarmi miqdorida aliment undirish to'g'risida qaror chiqardi. 2015-yil sentyabrda J. kreditni qaytara olmasligini bildirib, xo'jalik sudiga o'zini bankrot deb topishni so'radi. 2015-yil dekabrda u bankrot deb topildi.

Bankrotlik kreditni qaytarish majburiyatiga qanday ta'sir qiladi? J.ning qo'shnisiga qarzni qaytarish va aliment majburiyatlari bekor bo'ladimi?

22-MAVZU. SHARTNOMA TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Shartnoma tushunchasi va uning bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyati. Shartnomaning mazmuni. Shartnoma tuzish. Shartnomalarni o‘zgartirish va bekor qilish. Elektron shartnomalar mohiyati, tuzish hususiyatlari, mazmuni va ularni bajarish masalalari.

Shartnoma tushunchasi va uning bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyati

Iqtisodiy munosabatlar mulkchilikning turli shakllari, shu jumladan, xususiy mulk shakli negiziga qurilgan bo‘lib, tovar-pul munosabatlari tizimida boshqaruvning demokratik uslublari qo‘llaniladigan jamiyatda shartnoma o‘z tabiati, mazmuni va ko‘zlagan maqsadiga ko‘ra uning teng huquqli ishtirokchilari o‘rtasida qiymat, ekvivalentlilik va haq evaziga amalga oshirishga doir munosabatlarning yuridik tartibiga solish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shartnoma huquqiy tartibga solish vositalari ichida eng universal, demokratik vosita hisoblanadi. Shartnomalar orqali huquqiy munosabat tartibga solinganda, undagi barcha ishtirokchilarning manfaati eng ko‘p darajada ta‘minlangan bo‘ladi. Odatda har qanday shartnoma ixtiyoriylik asosda vujudga keladi va shartnomalarda huquq va majburiyatlarni belgilashda mulkiy manfaatlar va shaxsiy ne‘matlarni taqsimlashda o‘ziga xos muvozanat, uyg‘unlik o‘z mujassamini topadi. Garchi shartnomalar qadim-qadimdan fuqarolik huquqida, oila huquqida, mehnat huquqida va xalqaro huquqda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsa ham, bugungi kunda undan huquqni boshqa tarmoqlarida ham foydaydalanish holatlari kuzatilmoqda. Jumladan, jinoyat huquqida yarashuv, jinoyat protsessida sud bilan guvoh o‘rtasidagi, sud bilan sudlanuvchi o‘rtasidagi kelishuvlar buni yaqqol misoli hisoblanadi.

FKning 8-moddasi talabiga ko‘ra, shartnomalar taraflar o‘rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki shartnomalarda boshqa yuridik faktlarga qaraganda, taraflarning erki-irodasi to‘la ifodalanadi. Shartnomaga kirishuvchi shaxslar kim bilan, qancha, qachon shartnoma tuzishni u tufayli yetkazib berilishi lozim

bo‘lgan pul, tovar, ashyolarni qaysi muddatlarda, qanday transportlarda yetkazilishini, to‘lov amaldagi qanday shakllarda bo‘lishini mutlaqo o‘zlari, mustaqil hal qiladilar. Ular shartnomalar tuzishda erkindirlar, shartnoma tuzishga majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi¹.

Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Buning ma‘nosi shundan iboratki, hech kim ularni shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi. Shartnoma fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z xohishiga ko‘ra, o‘z erki irodasi bilan tuziladi. Albatta, ularni shartnoma tuzishga undovchi sabablar (motiv) turlicha bo‘lishi mumkin: o‘z ehtiyojlarini qanoatlantirish, foyda olishga intilish, ta‘sis hujjatlarida belgilab qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va h.k. Ba‘zan, boshqa uchinchi shaxslar shartnoma tuzish haqida talab, taklif yoxud iltimos qilishlari mumkin. Biroq har qanday holda ham shartnoma tuzish haqidagi qaror fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan mustaqil, o‘z erki-irodasi asosida qabul qilinadi. Shartnoma tuzish vaqtida fuqaro (yuridik shaxs rahbari, vakili) fikri tiniq, ruhiy holati normal, o‘zini o‘zi idora qila oladigan, o‘z harakatlarining oqibatlarini ko‘ra oladigan holda bo‘lishi lozim. Agar subyektning ichki ruhiy holatida, ongida ro‘y bergan buzilishlar, tashqi ta‘sirlar tufayli shartnoma tuzishga majbur etilsa, unday shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Bu shartnomalar erkinligini real ta‘minlashning o‘ziga xos yuridik kafolati hisoblanadi deb aytish mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, shartnomalar tuzishning erkinligi, undan taraflarning o‘zaro manfaatdorligi, shartnomada shartnoma intizomining mustahkamligi (ya‘ni, xalq tili bilan aytganda, “shartnomaning puldan qimmatligi”), unda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan javobgarlikdan ko‘ra, mulkiy javobgarlikning keng belgilanishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tobora ushbu huquqiy vositadan (shartnomadan) to‘laroq foydalanishga jalb qilmoqda. Shartnomalar to‘lov intizomini kuchaytiradi, taraflarning faoliyatini har tomonlama rag‘batlantiradi, o‘z navbatida taraflarning mas‘uliyatini oshiradi, xo‘jalikning debitorlik va kreditorlik holatini yaxshilaydi, pirovardida taraflarning barqarorligini ta‘minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda tovarlar, xizmatlar va kapitallarning mo‘l-ko‘lligiga garovdir.

Shartnoma erkinligi tamoyili nafaqat fuqarolik huquqini, balki milliy huquq tizimini yetakchi tamoyillaridan biri deb aytish mumkin. Shartnoma erkinligi tamoyili asosida quyidagi qoidalar yotadi:

¹ Masalan, avtotransport egalari qonunga ko‘ra o‘zlarining fuqarolik – huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash shartnomasini tuzishlari shart.

-fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar;

-shartnoma tuzishga hech kim majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, shartnoma tuzish burchi FK (358-modda), boshqa qonunda (Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun) yoki olingan majburiyatda (FK 361-moddasi) nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

-taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan istalgan shartnomalarni tuzishlari mumkin (distribyutorlik shartnomasi, volontyorlik shartnomasi, tansoqchi xizmati bo‘yicha fuqarolik shartnomasi, tolling (xom ashyoni qayta ishlash uchun topshirib, birlamchi, ikkilamchi tayyor mahsulotlarni o‘ziga qaytarib olish haqida shartnoma), agentlik shartnomasi, konsignastiya shartnomasi, notijorat hamkorligi shartnomasi va boshqalar);

-aralash shartnomalar tuzishga taraflar haqliligi;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imperativ shartlardan tashqari qolgan shartlar erkin belgilanadi..

Shu ma‘noda sohaning tezkor va ta‘sirchan huquqiy mexanizmini yaratish, shartnomalar tuzish va bajarishni ta‘minlash maqsadida mamlakatimizda 1998-yil 29-avgustda “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi, shartnomalarni tuzish va bajarish monitoringi yuritilmoqda. Bular, o‘z navbatida, tuzilgan shartnomalarni tezroq va realroq ishlashiga xizmat qilmoqda.

Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o‘zaro kelishuvidir.

Shartnoma atamasi uch ma‘noda: yuridik fakt; biror-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy manfaatlar to‘g‘risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) o‘zaro kelishuvini aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma‘nosida ishlatiladi. Bu o‘rinda u o‘zining birinchi ma‘nosi–yuridik fakt sifatida ko‘riladi va o‘rganiladi.

Yuridik harakatlar, o‘z navbatida. huquq yo‘l qo‘ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) dan iboratligi ko‘rsatilgan edi. Ikki tomonlama bitimlarning hammasi (oldi-sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi.

Shartnoma tushunchasidagi asosiy belgi va shart – taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o‘zaro kelishuvlaridir. Taraflarning har biri tomonidan shartnoma bo‘yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo‘lsa ham, ular oqibatida yagona huquqiy natija beradi, masalan,

biror-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o'tkaziladi yoki biror-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va h.k.

Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o'z oldilariga qo'yilgan asosiy maqsaddan ajratish kerak. *Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi, shart qilingan nav va markali po'latni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi. Bu yerda taraflar o'zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma'lum miqdorda po'lat yetkazib berish hisoblanadi. Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiy bo'lib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko'rsatkichlarini bajarishdan, pirovardida foyda (daromad) olishdan iborat bo'ladi. Binobarin, har ikki taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o'zlarining burchlari deb biladilar.*

Fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinosstenariyalar va boshqa shartnomalar uchun xarakterlidir.

Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarinigina, chunonchi, mualliflik haqi to'g'risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarliknigina belgilamay, balki shaxsiy-nomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o'z asarida nomini ko'rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asari matniga o'zgartirish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

Shartnomalarning turlari

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab *bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama* shartnomalarga bo'linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo'ladi. *Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o'z vaqtida qarz beruvchiga to'lash majburiyatiga va kreditor esa uni talab qilish huquqiga ega.*

Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo'ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma bo'yicha sotuvchi sotilgan ashyoning haqini talab qilish huquqiga ega bo'lib, sotilgan ashyoni

oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa –olayotgan ashyoning bahosini to‘lashi zarur bo‘lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

Fuqarolik muomalasida tuziladigan shartnomalarning ko‘pchiligi ikki tomonlama, (ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan oldi-sotdi shartnomasi kabi) shartnomalardan iborat bo‘ladi.

Ko‘p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo‘lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo‘ladi. Bunday shartlarda bir paytning o‘zida har bir tarafda muayyan huquq va majburiyatlar bo‘lishi xarakterlidir. Masalan, franshizing, lizing shartnomalari.

Shartnomalar *haq baravariga* va *tekinga* tuziladigan shartnomalarga bo‘linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalar bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan haq oladi. Masalan, bir taraf vaqtinchalik foydalanish uchun mulkni ijaraga oluvchi undan foydalangani uchun ijara haqi to‘lashga majbur bo‘ladi. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa ko‘plab shartnomalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Agar qonun hujjatlaridan boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnomaning mazmun-mohiyatidan o‘zgacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay, biror-bir mulkni topshirish, biror ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo‘yicha mulk egasi o‘z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Tekin foydalanish, foizsiz qarz shartnomalari ham bepul tuziladigan shartnomalarga kiradi.

Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab *konsensual* va *real* shartnomalarga bo‘linadi.

Konsensual shartnomalarda huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti tuzilgan hisoblanadi va taraflarda huquq va majburiyatlar vujudga keltiradi. Shu paytdan boshlab taraflar shartnoma ijrosini bir-biridan talab qilishga haqli. “Konsensual” so‘zi lotincha “konsensus”so‘zidan olingan bo‘lib, “kelishuv” ma’nosini bildiradi. *Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat ko‘pchilik shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.*

Real shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflar o'zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.

“Real” so'zi lotincha “res” so'zidan olingan bo'lib, “ashyo” ma'nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, tekin foydalanish shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo'yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi ham mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga misol qilib sug'urta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf hisoblanmaydi. Biroq, FKning 362-moddasida ko'rsatilganidek, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas. Shartnoma tuzgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan bo'lsa, bu haqda shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani tuzgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Shartnomalar, shuningdek ommaviy shartnoma, qo'shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma kabi turlarga ham bo'linadi.

Bundan tashqari shartnomalarni: birinchidan, *mulkni topshirishga qaratilgan*; ikkinchidan, *ishlarni bajarishga qaratilgan*; uchinchidan: *xizmatlar bajarishga qaratilgan*; to'rtinchidan, *turli xil tuzilmalarni ta'sis etishga yo'naltirilgan* to'rt guruhga bo'lish mumkin.

Zamonaviy fan texnika inson imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. Uning uchun barcha sohalarda qulay shart-sharoitlar vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda kishilik jamiyatini an'anaviy tasavurlari ham uning ta'sirida o'zgarib bormoqda. Jumladan, ilgari makon, moddiy borliq o'lchami sifatida yagona bo'lsa, bugungi kunda makonning o'zi ikki xil ko'rinish kasb etmoqda, ular real va virtual makondir.

Real makon moddiy, hajmiy makondagi subyektlar joylashuvi, voqea jarayonlar ro'y beradigan manzil hisoblanadi.

Virtual maydon esa elektron axborot maydoni bo'lib, bunda subyektlarning o'zi ham, voqealar jarayoni ham muayyan ketma-ketlikda, zichlikda joylashish qoidalari qo'llanilmaydi. Virtual maydon o'ziga xos cheksiz axborot resurslari, axborot subyektlari va axborotlarni joylashtirish, tarqatish, ayriboshlash maydoni hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday yuridik fakt, shu jumladan yuridik harakat uni sodir bo'lish jarayoni, amalga oshiruvchi subyektlar va uni huquqiy oqibatlarini bo'yicha (huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi oqibatlar bo'yicha) o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda olib qaraganda, virtual maydonda ham yuridik faktlarni sodir bo'lishi, yuridik harakatlarni amalga oshirilishi to'laqonli ravishda ro'y berishi istisno etilmaydi. Faqat bunda kelib chiqishi mumkin bo'lgan asosiy muammo yuridik harakatlarni kelib chiqish manbai, uning oqibatlarini izini barqaror ravishda mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Bugungi kunda virtual maydonni huquqiy ta'minlash bu borada muayyan ijobiy natijalarga olib keldi. Virtual maydonda bitimlar, shartnomalar tuzish va subyektlarni turli ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan harakatlarni sodir etishi odatdagi kundalik holga aylandi. Shuni unutmaslik lozimki, virtual maydondagi shartnomalar uni real maydon bilan bog'liqlik darajasiga qarab, turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi shartnomalar virtual maydonda tuzilib, real maydonda amalga oshiriladi. Misol uchun internet orqali muayyan tovarga buyurtma berish shartnoma tuzish jarayoni virtual maydonda bo'lsa shartnomani amalda ijrosi real maydonda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda esa buning aksi. Real maydonda tuzilgan shartnoma virtual maydonda amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda muayyan turdagi shartnomalar real maydonga ko'chmasdan faqat virtual maydonda tuzilishi, amalga oshirilishi mumkin. Masalan, haq evaziga muayyan axborotni tizimlashtirish va yetkazib berish. Bunda shartnomani tuzish, amalga oshirish va xatto unga haq to'lash to'liq virtual maydonda amalga oshiriladi. Shartnomani amalga oshirish va tuzish bilan bog'liq hech qanday harakatlar real maydonga ko'chirish talab etilmaydi.

Shartnomaning mazmuni

Shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlari) tashkil etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab

qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma shartlari (bandlari) muhim, odatdagi va tasodifiy shartlarga bo'linadi. Shartnomaning narsasi to'g'risidagi shartlar qonun hujjatlarida bunday turdagi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek, taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishib olinishi zarur bo'lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi. Ba'zi shartnomalar uchun xos muhim bandlar qonun bilan belgilanadi. Shuningdek, muhim shartlari matnda o'z ifodasini topishi shart.

Odatdagi shartlar muayyan majburiyatga oid munosabatni tartibga soladigan dispozitiv normalar bilan belgilanadigan shartlar hisoblanadi. Bunday shartlar odatdagidek nazarda tutiladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasida mulkni mayda (joriy) ta'mirlash shart qilib ko'rsatilsa ham, ko'rsatilmasa ham bo'ladi, chunki bu shart to'g'risida qonunchilikda (dipozitiv xarakterdagi) ko'rsatma berilgan. Odatdagi shartlar matnda ko'rsatilishi shart emas.

Tasodifiy shartlar umumiy huquq me'yorlari bilan tartibga solinmagan masalalar bo'yicha o'zaro kelishuv bo'lib ko'riladi. Chunonchi, ijaraga olingan mulkni ta'mirlash muddati to'g'risidagi masala tasodifiy shartlardan biri hisoblanadi. Bunday shart matnda ko'rsatilishi shart.

Shartnomada uning ayrim shartlari tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan namunaviy shartlar bilan belgilanishi nazarda tutilishi mumkin. Shartnomada namunaviy shartlarga havola qilinmagan hollarda, bunday namunaviy shartlar taraflarning munosabatlariga ish muomalasi odatlari sifatida qo'llaniladi (FK 359-modda).

Ijro etish jarayonida shartnomani shartlarining mazmuni bo'yicha taraflarda turlicha yondashuvlar, turlicha talqin qilishlar vujudga kelishi mumkin. FKning 363-moddasida shartnomani sharhlash masalalari o'z ifodasini topgan. Unga asosan, sud shartnoma shartlarini sharhlashda undagi so'z va iboralarning asl ma'nosini e'tiborga oladi. Shartnomaning sharti aniq bo'lmasa, uning asl ma'nosi uni boshqa shartlarga va butun shartnomaning ma'nosiga taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar yuqorida bayon etilgan qoidalar shartnomaning mazmunini aniqlash imkonini bermasa, taraflarning haqiqiy umumiy xohish-irodasi shartnomaning maqsadini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak. Bunda barcha tegishli holatlar, shu jumladan shartnoma tuzish oldidan olib

borilgan muzokaralar va yozishmalar, taraflarning o‘zaro munosabatlarida qaror topgan amaliyot, ish muomalasi odatlari, taraflarning keyinchalik o‘zlarini qanday tutganligi e‘tiborga olinadi.

Shartnoma tuzish

Shartnomaning tuzilishi FKning 354-moddasida ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi. Birinchi davr–shartnoma tuzishga taklif qilish davri; bu oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, offerent, deb ataladi.

Ikkinchi davr–shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni qabul qilish davri; bu aksept, taklifni qabul qiluvchi akseptant deb aytiladi.

Shartnoma tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364-381-moddalarida berilgan. Bu qoidalarda aytilishicha, agar shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlab qilingan bo‘lsa, bu holda shartnoma ikkinchi taraf (akseptant) tomonidan taklifning qabul qilinganligi to‘g‘risidagi javob shu muddat ichida taklif qiluvchi (offerent) tomonidan olingan holdagina tuzilgan hisoblanadi. Oferta yo‘llagan shaxs uning akseptini olgan paytdan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma tuzish haqidagi taklif (oferta) akseptantga bildirilgunicha chaqirib olinishi mumkin. Biroq u akseptant tomonidan qabul qilib olingan bo‘lsa, akseptlash uchun belgilangan muddat davomida chaqirib olinishi mumkin emas.

Oferta muayyan shaxsga ham, nomuayyan shaxslarga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin. *Masalan, mahsulotni reklama qilish, o‘z xizmatini taklif etib e‘lon berish–nomuayyan shaxslar doirasida yo‘llangan oferta hisoblanadi. Bunday ofertani, odatda, ommaviy oferta deb ham yuritiladi.*

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi. Aksept to‘liq va pisandasiz bo‘lmog‘i shart. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo‘yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma‘no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo‘lmaydi.

Agar shartnoma to‘g‘risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlanmasdan, og‘zaki ravishda qilingan bo‘lsa, ikkinchi taraf

(akseptant) bu taklifni qabul qilganligini darhol taklif qiluvchiga (offerentga) bildirgan holdagina shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar bunday taklif yozma ravishda qilingan bo'lsa, taklifni qabul qilganlik (aksept) to'g'risidagi javob uni olish uchun lozim bo'lgan normal vaqt davomida olingan taqdirdagina, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar shartnoma tuzishga rozi bo'lganlik to'g'risidagi kechiktirilib olingan javobdan uning o'z vaqtida yuborilganligi ma'lum bo'lsa, bu holda taklif qiluvchi shaxs (offerent javobning kechiktirilib olinganligi to'g'risida ikkinchi taraf (akseptant)ni darhol xabardor qilsagina javob kechiktirilgan hisoblanadi. Bu holda javob ayni paytda yangi taklif (oferta) hisoblanadi.

FKning 375-moddasida ko'rsatilganidek, ofertada taklif qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnoma tuzishga rozilik bildirish to'g'risidagi javob aksept hisoblanmaydi. Bunday javob akseptdan bosh tortish va ayni vaqtda yangi oferta hisoblanadi.

Odatda, shartnomada u tuzilgan joy ko'rsatib o'tilishi kerak. Agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko'rsatilmagan bo'lsa, shartnoma oferta yo'llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan yerida tuzilgan hisoblanadi (FK 376-modda).

Shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish

Umumiy qoida bo'yicha, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq, o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Agar shartnomada muayyan vaziyatda shartnoma shartlarini bir taraflama o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi shart mavjud bo'lsa, bu holda shunday vaziyat yuz bergan taqdirda shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Masalan, agar shartnoma bo'yicha to'lovlar muntazam kechiktirilsa, mahsulot yetkazib beruvchi akreditiv orqali hisob-kitoblar joriy etishga haqli deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, bu holda amalda sotib oluvchi tomonidan yetkazib berilgan tovarlar uchun to'lovni muntazam ravishda kechiktirilishi mahsulot yetkazib beruvchi uchun shartnoma shartlaini bir tomonlama o'zgartirishga asos bo'ladi yoki shartnomada muayyan muddat ichida buyurtmachiga xizmat ko'rsatmasligi shartnomani bekor bo'lishiga olib kelishi belgilab qo'yilgan bo'lsa, bu holda o'sha majburiyatni bajarmasligi tegishli tarafga shartnomani bir tomonlama bekor qilishga asos bo'ladi.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollardagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- 1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;
- 2) Fuqarolik kodeksi, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Garchi FKda belgilanmagan bo'lsa ham taraflardan tashqari vakolatli davlat idoralari (masalan, qonun talablariga rioya etilmagan taqdirda prokuratura organlari, g'irrom raqobat bo'yicha kelishuv mavjud bo'lsa raqobat qonunchiligiga ko'ra monopoliyaga qarshi organ, voyaga yetmaganlar manfaati qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa vasiylik va homiylik organi) amalda shartnoma shartlarini sud orqali o'zgartirish yoki bekor qilishni sud tartibida amalga oshirishlari mumkin.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, agar shartnoma shartlari uchinchi shaxslar manfaatlariga daxl qilsa, uchinchi shaxslar tomonidan ham shartnoma shartlarini o'zgartirish yo bekor qilish bo'yicha sudga talab qilinishi mumkin.

Taraflardan birining shartnoma buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishga umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Masalan, da'vogar V. javobgar M.ga nisbatan da'vo ariza bilan sudga murojaat qilib, unda 2011-yil 20-dekabrda o'zi bilan javobgar o'rtasida umrbod ta'minlash sharti bilan xonadonni begonalashtirish shartnomasi tuzilganligini, hozirda javobgar tomonidan shartnoma majburiyatlari tegishli tartibda bajarilmayotganligi sababli ushbu shartnomani bekor qilish niyatida ekanligini, qayd qilingan shartnomada javobgar amaldagi eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdoridan kelib chiqqan holda uni oziq-ovqat, kiyim-kechak va dori-darmon vositalari bilan ta'minlashi hamda uni parvarishlashi va boshqa yordamlarni ko'rsatishi lozimligi belgilanganligini, lekin unga aslida ushbu yordamlarni hozirda umuman boshqa odamlar ko'rsatib kelishini, javobgar o'tgan davr mobaynida unga faqat ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelganligini, dori-darmon va kiyim-kechaklarni esa olib kelmaganligini, bundan tashqari unga qo'pollik qilib uy o'ziga tegishli ekanligini aytib uni uydan haydab yuborishini aytib qo'rqitib kelishini, u shartnoma ko'rsatilgan barcha yordamlarni berib bo'lganligini, shuningdek, hozirda javobgar uning rozilgisiz uyga o'z qizini doimiy ro'yxatga qo'yganligini, javobgar unga uy hujjatlarini bermasligini bayon qilib, suddan umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga berish shartnomasini bekor qilishni so'ragan.

Yuqoridagi misolda taraf umid qilgan manfaatdan mahrum bo'lganligi uni shartnomani bekor qilish masalasini ko'tarishga sabab bo'lgan.

Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo'lgan vaziyatning jiddiy o'zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'ladi. Ushbu norma dispozitiv xarakterga ega.

Vaziyatning taraflar oldindan ko'ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo'lgan darajada o'zgarishi uning jiddiy o'zgarishi hisoblanadi. Binobarin vaziyatni jiddiy o'zgarishi o'ziga xos favqulodda xarakterga ega bo'ladi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o'zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo'lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi, yuqorida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra esa – o'zgartirilishi mumkin, agar ayni vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo'lsa:

1) shartnomani tuzish paytida taraflar vaziyatda bunday o'zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo'lsalar;

2) vaziyatning o'zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo'lganidan keyin manfaatdor taraf shartnomaning xususiyatiga va muomala shartlariga ko'ra o'zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyotkorlik qilgan bo'lishiga qaramay, bu sabablarni engi olmagan bo'lsa;

3) shartnomani uning shartlarini o'zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy manfaatlarining shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o'zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Vaziyatning jiddiy o'zgarishi oqibatida shartnoma bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq xarajatlarini ular o'rtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi.

Vaziyatning jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomaning o'zgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo'lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o'zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Vaziyatni jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilishni ba'zi huquqiy asoslari FKning tegishli normalarida o'z ifodasini topgan.

Masalan, FKning 506-moddasiga asosan, agar shartnoma tuzilgandan so'ng hadya qiluvchining moddiy ahvoli jiddiy yomonlashgan bo'lsa, u kelajakda hadya oluvchiga ashyoni yoki mulk huquqini berish yo

bo'lsa, uni mulkiy majburiyatdan ozod etish va'da qilingan shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

Bundan tashqari FKning 698-moddasida buyurtmachining majburiyatlari belgilangan bo'lib, ulardan biri kutilayotgan natijalarni olish mumkin emasligi yoki ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, bu haqda buyurtmachini darhol xabardor qilish hisoblanadi. Buyurtmachi ushbu axborotni olgandan so'ng yo shartnomani yangi shartlar asosida davom ettirish yoki bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.

Shuningdek, FKning 949-moddasida vaziyatni jiddiy o'zgarishi munosabati bilan sug'urta shartnomasini bekor qilish asoslari belgilangan.

Vaziyatni jiddiy o'zgarishi agar FKning 383-moddasida nazarda tutilgan holatlarga to'liq mos kelsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'i nazar shartnoma shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilishga asos bo'ladi.

Masalan, "Yog'du" firmasi an'anaviy lampochkalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va u uch yilga "Olim" firmasi bilan xom ashyo yetkazib berish haqida shartnoma tuzgan edi. Biroq, shartnomani muddatining ikkinchi yilida bozorga energiya tejimli arzon lampochkalar keng miqiyosda savdoga chiqdi. "Yog'du" firmasi mahsulotiga nisbatan talab yo'qoldi. Bu holda vaziyat o'zgarishi munosabati bilan shartnomani bekor qilish haqida talab bilan murojaat qilindi. Sud FKning 383-moddasi asosida da'vo talabini qanoatlantirdi.

Elektron shartnomalar mohiyati, tuzish hususiyatlari, mazmuni va ularni bajarish masalalari

Zamonaviy fan texnika inson imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. Uning uchun barcha sohalarda qulay shart-sharoitlar vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda kishilik jamiyatini an'anaviy tasavurlari ham uning ta'sirida o'zgarib bormoqda. Jumladan, ilgari makon, moddiy borliq o'lchami sifatida yagona bo'lsa, bugungi kunda makonning o'zi ikki xil ko'rinish kasb etmoqda, ular real va virtual makondir.

Real makon moddiy, hajmiy makondagi subyektlar joylashuvi, voqea jarayonlar ro'y beradigan manzil hisoblanadi.

Virtual maydon esa elektron axborot maydoni bo'lib, bunda subyektlarning o'zi ham voqealar jarayoni ham muayyan ketma-ketlikda, zichlikda joylashish qoidalari qo'llanilmaydi. Virtual maydon o'ziga xos cheksiz axborot resurslari, axborot subyektlari va axborotlarni joylashtirish, tarqatish, ayriboshlash maydoni hisoblanadi. Ma'lumki har

qanday yuridik fakt, shu jumladan, yuridik harakat uni sodir bo'lish jarayoni, amalga oshiruvchi subyektlar va uni huquqiy oqibatlari bo'yicha (huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi oqibatlar bo'yicha) o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda olib qaraganda, virtual maydonda ham yuridik faktlarni sodir bo'lishi, yuridik harakatlarni amalga oshirilishi to'laqonli ravishda ro'y berishi istisno etilmaydi. Faqat bunda kelib chiqishi mumkin bo'lgan asosiy muammo yuridik harakatlarni kelib chiqish manbai, uning oqibatlarini izini barqaror ravishda mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Bugungi kunda virtual maydonni huquqiy ta'minlash bu borada muayyan ijobiy natijalarga olib keldi. Virtual maydonda bitimlar tuzish, shartnomalar tuzish va subyektlarni turli ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan harakatlarni sodir etishi odatdagi kundalik holga aylandi. Shuni unutmash lozimki, virtual maydondagi shartnomalar uni real maydon bilan bog'liqlik darajasiga qarab, turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi shartnomalar virtual maydonda tuzilib, real maydonda amalga oshiriladi. Misol uchun internet orqali muayyan tovarga buyurtma berish shartnoma tuzish jarayoni virtual maydonda bo'lsa shartnomani amalda yetkazib berish real maydonda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda esa buning aksi. Real maydonda tuzilgan shartnoma virtual maydonda amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda muayyan turdagi shartnomalar real maydonga ko'chmasdan, faqat virtual maydonda tuzilishi, amalga oshirilishi mumkin. Masalan, haq evaziga muayyan axborotni tizimlashtirish va yetkazib berish. Bunda shartnomani tuzish, amalga oshirish va hatto unga haq to'lash to'liq virtual maydonda amalga oshiriladi. Shartnomani amalga oshirish va tuzish bilan bog'liq hech qanday harakatlarni real maydonga ko'chirish talab etilmaydi.

Hattoki to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron hamyon, elektron pullar, elektron to'lovlar tizimi ishlab chiqilgan va amal qilmoqda. Virtual maydon orqali shartnomalar tuzish bugungi tovarlar, ishlar va xizmatlarni globallasuvi, dunyoni yagona bozor, yagona huquqiy maydon tarzida namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekistondagi tadbirkorlik subyekti o'z uyida o'tirgan holda dunyoning istalgan nuqtasida, ya'ni Yaponiya, Avstraliya va boshqa joylardagi tegishli sheriklar bilan shartnomalar tuzib, uni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, elektron shartnomalarni virtual maydonda tuzish subyektlarni vaqti va mablag'larini tejashga imkon beradigan eng qulay usullardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda elektron shartnomalarni huquqiy negizlari yaratilgan. Ular ichida eng muhim hujjat bu Fuqarolik kodeksi hisoblanadi.

FKning 366-moddasiga asosan, yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Bu normadan ko‘rinib turibdiki virtual maydonda shartnomalar tuzishga asosiy talab, taraflarni bir birlari bilan ishonchli aloqalarni o‘rnatishi, ushbu maydonga boshqa shaxslarni noqonuniy kirib kelishi va chalg‘itishini oldini olish hisoblanadi.

Bundan tashqari mazkur sohada maxsus qonunchilik bazasi yaratilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan.

Virtual shartnomalarni ishonchli tarzda tuzilishini huquqiy kafolati bu elektron raqamli imzo sanaladi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo hisoblanadi.

Elektron imzoning ochiq va yopiq kalitlari mavjud. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti esa elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma‘lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi bo‘lsa, elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi hisoblanadi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishlilik va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligi tekshirilgandagi ijobiy natija bilan bog‘liq.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot hisoblanadi.

Elektron imzo ro'yxatga olish markazi tomonidan ro'yxatga kiritiladi. Bu organ maxsus vakolatli organda davlat ro'yxatidan o'tgan va amaldagiqonunchilikda nazarda tutilgan vazifalarni bajarayotgan yuridik shaxsdir.

Elektron raqamli imzo vositalari elektron hujjatda elektron raqamli imzo yaratilishini, elektron raqamli imzoning haqiqiyliги tasdiqlanishini, elektron raqamli imzoning yopiq va ochiq kalitlari yaratilishini ta'minlaydigan barcha texnikaviy va dasturiy vositalardan iborat bo'ladi. Elektron raqamli imzo vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashtirilishi lozim.

Muhr bilan tasdiqlangan va elektron hujjatga aylantirilgan qog'oz hujjatning mazmuni qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq ro'yxatga olish markazi vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosi bilan yoki elektron raqamli imzo yopiq kaliti egasining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi mumkin.

Virtual maydonda subyektlarni individuallashtirish vositalaridan biri bo'lib, domen nomlari hisoblanadi. Domen nomlari ham elektron maydonda firma nomi, tovar belgisi funksiyalarini bajaradi. Mamlakatimizda domen nomlarini berish va ro'yxatdan o'tkazishni huquqiy asoslari mavjud. Ba'zi holatlarda subyektlar domen nomlariga mo'ljal olgan holda shartnoma munosabatlariga kirishishlari ham mumkin.

Elektron shartnomalarni tuzish o'zgartirish va bekor qilish asoslari va tartibi. Elektron shartnomalar bilan bog'liq munosabatlarni O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni tartibga soladi.

Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir.

Elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek tegishli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchilaridir.

Elektron tijoratda axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin. Elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar axborot vositachilaridir. Elektron tijorat ishtirokchilari yuqoridagi qonun, boshqa qonun hujjatlarida, shuningdek tuzgan shartnomalarida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Elektron tijoratda ishtirok etish, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uning ishtirokchilariga nisbatan axborot tizimlaridan foydalanmasdan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik

faoliyatiga nisbatan qo‘shimcha talablar yoki cheklashlar belgilanishi uchun asos bo‘la olmaydi.

Qonun hujjatlarida elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs to‘g‘risidagi axborotga nisbatan boshqa talablar ham belgilanishi mumkin. Axborot vositachilarining xizmatlari shartnoma asosida ko‘rsatiladi.

Axborot vositachilari, agar elektron tijorat ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalarning shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, elektron hujjatlarning mazmunini yoki ulardan foydalanish tartibini o‘zgartirishga haqli emas.

Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu shartnomalar tovarlar, ishlar va xizmatlar turlariga qarab FKning tegishli normalariga shuningdek boshqa fuqarolik qonun hujjati talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Elektron tijoratdagi shartnoma unga hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo‘li bilan kiritiladigan alohida shartlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu holda elektron hujjatni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan muddat mobaynida undan erkin foydalanish imkoniyatini ta‘minlashi, bu muddat o‘tgandan keyin esa ushbu elektron hujjatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saqlanishini ta‘minlashi shart.

Elektron tijoratda shartnoma akseptni (taklif qabul qilinishini) o‘z ichiga olgan elektron hujjat elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qabul qilib olingan paytda yoxud ofertani o‘z ichiga olgan elektron hujjatda aksept uchun nazarda tutilgan harakatlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridori tomonidan amalga oshirilgan paytda tuzilgan deb e‘tirof etiladi.

Ofertani o‘z ichiga olgan elektron hujjat olinganligini oferta shartlariga rozilikni ko‘rsatmasdan tasdiqlash, xuddi shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridorining harakatsizligi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, aksept hisoblanmaydi.

Agar qonun hujjatlarida shartnoma bo‘yicha tarafning boshqa tarafga shartnomani tuzish yoki ijro etish bilan bog‘liq hujjatni taqdim etish majburiyati nazarda tutilgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan majburiyatni bajarish shartnomani tuzish usulidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

Elektron tijoratda shartnoma, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, faqat elektron hujjatlardan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Elektron tijoratda ofertaga taklif etish, shu jumladan taklif qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi reklama yoki boshqa ma'lumotlar maxsus bilimga ega bo'lmagan qabul qilib oluvchiga qabul qilib olingan axborotning elektron tijoratga taalluqliligini aniq belgilash va oferta jo'natuvchining huquqiy holati, uning tovarlari (ishlari, xizmatlari), bu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari va ularni olish shartlari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradigan shaklda taqdim etilishi kerak.

Elektron hujjatlardan bitim tuzilganligining disklar va qog'oz ko'rinishida dalil sifatida foydalanish mumkin. Taraflar elektron matni qog'oz matnga tegishli tarsza rasmiylashtirish (notarial tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish) istisno etilmaydi.

Elektron shartnomalarni tuzish va ijro etish jarayonida, shuningdek subyektlar o'rtasidagi boshqa fuqarolik shartnomalarda elektron hujjatlarni muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Elektron hujjat aylanishi elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish (shu jumladan, shartnomalar tuzish), hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin.

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak. Elektron hujjatning majburiy rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Elektron shartnomalar mohiyati, tuzish hususiyatlari, mazmuni va ularni bajarish masalalari. Zamonaviy fan texnika inson imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. Uning uchun barcha sohalarda qulay shart-sharoitlar vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda kishilik jamiyatini an'anaviy tasavvurlari ham uning ta'sirida o'zgarib bormoqda. Jumladan, ilgari makon, moddiy borliq o'lchami sifatida yagona bo'lsa, bugungi kunda makonning o'zi ikki xil ko'rinish kasb etmoqda, ular real va virtual makondir.

Real makon moddiy, hajmiy makondagi subyektlar joylashuvi, voqea jarayonlar ro'y beradigan manzil hisoblanadi. Virtual maydon esa elektron axborot maydoni bo'lib, bunda subyektlarning o'zi ham voqealar jarayoni ham muayyan ketma ketlikda, zichlikda joylashish qoidalari qo'llanilmaydi. Virtual maydon o'ziga xos cheksiz axborot resurslari, axborot subyektlari va axborotlarni joylashtirish, tarqatish, ayriboshlash maydoni hisoblanadi. Ma'lumki har qanday yuridik fakt, shu jumladan yuridik harakat uni sodir bo'lish jarayoni, amalga oshiruvchi subyektlar va uni huquqiy oqibatlar bo'yicha (huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi oqibatlar bo'yicha) o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda olib qaraganda, virtual maydonda ham yuridik faktlarni sodir bo'lishi, yuridik harakatlarni amalga oshirilishi to'laqonli ravishda ro'y berishi istisno etilmaydi. Faqat bunda kelib chiqishi mumkin bo'lgan asosiy muammo yuridik harakatlarni kelib chiqish manbai, uning oqibatlarini izini barqaror ravishda mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Bugungi kunda virtual maydonni huquqiy ta'minlash bu borada muayyan ijobiy natijalarga olib keldi. Virtual maydonda bitimlar tuzish, shartnomalar tuzish va subyektlarni turli ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan harakatlarni sodir etishi odatdagi kundalik holga aylandi. Shuni unutmaslik lozimki, virtual maydondagi shartnomalar uni real maydon bilan bog'liqlik darajasiga karab, turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi shartnomalar virtual maydonda tuzilib, real maydonda amalga oshiriladi. Misol uchun internet orqali muayyan tovarga buyurtma berish shartnoma tuzish jarayoni virtual maydonda bo'lsa shartnomani amalda yetkazib berish real maydonda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda esa buning aksi. Real maydonda tuzilgan shartnoma virtual maydonda amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda muayyan turdagi shartnomalar real maydonga ko'chmasdan faqat virtual maydonda tuzilishi, amalga oshirilishi mumkin. Masalan, haq evaziga muayyan axborotni tizimlashtirish va yetkazib berish. Bunda shartnomani tuzish, amalga oshirish va hatto, unga haq

to‘lash to‘liq virtual maydonda amalga oshiriladi. Shartnomani amalga oshirish va tuzish bilan bog‘liq hech qanday harakatlar va tuzish real maydonga ko‘chirish talab etilmaydi.

Hattoki to‘lovlarni amalga oshirish uchun elektron xamyon, elektron pullar, elektron to‘lovlar tizimi ishlab chiqilgan va amal qilmoqda. Virtual maydon orqali shartnomalar tuzish bugungi tovarlar, ishlar va xizmatlarni globallasuvi, dunyoni yagona bozor, yagona huquqiy maydon tarzida namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O‘zbekistondagi tadbirkorlik subyekti o‘z uyida o‘tirgan holda dunyoning istalgan nuqtasida ya’ni Yaponiya, Avstraliya va boshqa joylardagi tegishli sheriklar bilan shartnomalar tuzib, uni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, elektron shartnomalarni virtual maydonda tuzish subyektlarni vaqti va mablag‘larini tejashga imkon beradigan eng qulay usullardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda elektron shartnomalarni huquqiy negizlari yaratilgan. Ular ichida eng muhim hujjat bu FK hisoblanadi.

FKning 366-moddasiga asosan, yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Bu normadan ko‘rinib turibdiki virtual maydonda shartnomalar tuzishga asosiy talab, taraflarni bir-birlari bilan ishonchli aloqalarni o‘rnatishi, ushbu maydonga boshqa shaxslarni noqonuniy kirib kelishi va chalg‘itishini oldini olish hisoblanadi.

Bundan tashqari mazkur sohada maxsus qonunchilik bazasi yaratilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan.

Virtual shartnomalarni ishonchli tarzda tuzilishini huquqiy kafolati bu elektron raqamli imzo sanaladi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikastiya qilish imkoniyatini beradigan imzo hisoblanadi.

Elektron imzoning ochiq va yopiq kalitlari mavjud. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti esa elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan

holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi bo'lsa, elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi hisoblanadi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligi tekshirilgandagi ijobiy natija bilan bog'liq.

Ro'yxatga olish markazlari faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qog'oz hujjat shaklidagi elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Bunday sertifikatning har bir nusxasi ro'yxatga olish markazining vakolatli shaxsi tomonidan imzolanishi va ro'yxatga olish markazining muhri bilan tasdiqlanishi kerak. Elektron raqamli imzo kaliti sertifikatining bir nusxasi elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga beriladi, boshqa nusxasi esa ro'yxatga olish markazida saqlanadi.

Muhr bilan tasdiqlangan va elektron hujjatga aylantirilgan qog'oz hujjatning mazmuni qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq ro'yxatga olish markazi vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosi bilan yoki elektron raqamli imzo yopiq kaliti egasining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi mumkin.

Virtual maydonda subyektlarni individuallashtirish vositalaridan biri bo'lib, domen nomlari hisoblanadi. Domen nomlari ham elektron maydonda firma nomi, tovar belgisi funksiyalarini bajaradi. Mamlakatimizda domen nomlarini berish va ro'yxatdan o'tkazishni huquqiy asoslari mavjud. Ba'zi holatlarda subyektlar domen nomlariga mo'ljallangan holda shartnoma munosabatlariga kirishishlari ham mumkin.

Elektron tijoratda axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin. Elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar axborot vositachilaridir. Elektron tijorat ishtirokchilari yuqoridagi qonun, boshqa qonun hujjatlarida, shuningdek tuzgan shartnomalarida nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Elektron tijoratda ishtirok etish, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uning ishtirokchilariga nisbatan axborot tizimlaridan foydalanmasdan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan qo'shimcha talablar yoki cheklashlar belgilanishi uchun asos bo'la olmaydi.

Elektron tijoratdagi shartnoma shartlari qonun hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Bu shartnomalar tovarlar, ishlar va xizmatlar turlariga qarab FKning tegishli normalariga, shuningdek boshqa fuqarolik qonun hujjati talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Elektron tijoratdagi shartnoma unga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resursida joylashtirilgan elektron hujjatga havola qilish yo'li bilan kiritiladigan alohida shartlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu holda elektron hujjatni joylashtirgan elektron tijorat ishtirokchisi qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan muddat mobaynida undan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, bu muddat o'tgandan keyin esa ushbu elektron hujjatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda saqlanishini ta'minlashi shart.

Elektron tijoratda shartnoma akseptni (taklif qabul qilinishini) o'z ichiga olgan elektron hujjat elektron tijoratni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qabul qilib olingan paytda yoxud ofertani o'z ichiga olgan elektron hujjatda aksept uchun nazarda tutilgan harakatlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridori tomonidan amalga oshirilgan paytda tuzilgan deb e'tirof etiladi.


Ofertani o'z ichiga olgan elektron hujjat olinganligini oferta shartlariga rozilikni ko'rsatmasdan tasdiqlash, xuddi shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridorining harakatsizligi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, aksept hisoblanmaydi.

Agar qonun hujjatlarida shartnoma bo'yicha tarafning boshqa tarafga shartnomani tuzish yoki ijro etish bilan bog'liq hujjatni taqdim etish majburiyati nazarda tutilgan bo'lsa, ko'rsatilgan majburiyatni bajarish shartnomani tuzish usulidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Elektron tijoratda shartnoma, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat elektron hujjatlardan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Elektron tijoratda ofertaga taklif etish, shu jumladan, taklif qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi reklama yoki boshqa ma'lumotlar maxsus bilimga ega bo'lmagan qabul qilib oluvchiga qabul qilib olingan axborotning elektron tijoratga taalluqliligini aniq belgilash va

oferta jo‘natuvchining huquqiy holati, uning tovarlari (ishlari, xizmatlari), bu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) narxlari va ularni olish shartlari haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradigan shaklda taqdim etilishi kerak.



Jismoniy shaxs imzosining turlari. Elektron raqamli imzo

Axborotlar uzatishining hozirgi zamon tizimi obyektiv ravishda fuqarolik muomilasida hujjatlarni bitim tuzuvchi shaxslarning imzolari faksimil nusxalari, elektron imzolari va boshqa shunga o‘xshash imzolari bilan guvohlantirishga imkon berishga olib keldi. Bu bitimlarni tuzish jarayonlarini tezlashtirishga sabab bo‘ladi.

Bitimlar tuzishda mexanik vositalar yoki elektron-raqamli imzolarni yoxud jismoniy shaxs o‘z imzolarini boshqacha turlarini qo‘llashga qonunlarda, boshqa huquqiy hujjatlarda yoki taraflarning kelishuvlarida nazarda tutilgan asoslarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Hozirgi zamon sharoitlarida o‘z qo‘l imzolarini qo‘yish vositalarini (imzolarni muhrlash vositalarini ham deb aytish mumkin) qo‘llashdan foydalanish tartibi bitim ishtirokchilari o‘rtasida kelishuvda puxta belgilab quyilishi kerak, chunki qonunlarda o‘z ko‘p imzolarini muhrlash vositalaridan foydalanish masalalari batafsil tartibga solinmagan. Xorijiy davlatlarda, shu jumladan AQSH va Rossiyada elektron-raqamli imzolardan foydalanish tartibi to‘g‘risida normalar mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasining “Axborotlar, axborotlashtirish va axborotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi Qonuni”ning 9-moddasiga asosan avtomatlashtirilgan axborotlar tizimida imzolarni aynanligini (identifikatsiyasini) ta’minlaydigan dasturiy texnik

vositalar mavjud bo'lganda va ulardan foydalanishining belgilangan rejimiga rioya qilinganda elektron raqamli imzoning yuridik kuchi ta'minlanadi. Elektron huquqi litsenziya orqali amalga oshiriladi.

Elektron raqamli imzo, raqamli imzolar generatsiyalashtirish dasturi ishlarining natijasi hisoblanadi. Elektron raqamli imzo o'z qo'l imzosining analogi (muqobili) bo'lib ikki xil asosiy xususiyatlariga ega: u muayyan hujjat bilan uzviy ravishda bog'liq va faqat o'sha hujjat uchungina ahamiyatga ega. Elektron-raqamli imzo hujjat mazmuni va imzolovchining maxviy kalitini yagona yaxlitlik bilan qat'iy uyg'unlashtiradi, birlashtiradi va ushbu imzoni haqiqiylikni buzmasdan turib hujjatni o'zgartirishni istisno etadigan qiladi. Elektron-raqamli imzodan foydalanish protsedurasining mohiyati shundan iboratki dasturiy ta'minlashdan foydalanuvchi bir juft individum kalitlar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi: hujjat ostidagi imzoning raqamning muqobilligi shakllantirish uchun maxfiy kalit va uning jufti bo'lgan ochiq kalit – u ushbu maxfiy kalit yordamida hisoblab chiqarilib raqamli imzolarni xaqiqiylikni tekshirish uchun ishlatiladi.

Elektron raqamli imzo – bu o'z qo'l imzosining mustaqil muqobili bo'lib xisoblanadi. Uning yana bir turi mexanik yoki boshqacha nusxa ko'chirish vositalari yordamida imzolar faksimili hosil bo'lishi oqibatida vujudga keladi. Shunisi diqqatga sazovorki, faksimil imzo nusxasi FKning 107-moddasi 2-qismida o'zining xususiy asosiga ega. Unda ko'rsatilishicha, “agar qonun hujjatlariga yoki ishtirokchilardan birini talablariga zid bo'lmasa bitim tuzish chog'ida imzodan faksimil usulida nusxa ko'chirish vositalaridan foydalanishiga yo'l qo'yiladi”.

Elektron imzo inson tomonidan ko'rish orqali bevosita qabul qilinadigan u yoki bu belgi sifatida mavjud bo'lishi mumkin emas. Bunday imzo bilan mustahkamlangan bitim qatnashchilari o'rtasida imzolar elektron imzodan foydalanish tizimi ishtirokchilari o'rtasida kelishilgan holda asosida yoki qonun normalari asosida yoxud boshqa qonun hujjatlari asosida hal etilishi mumkin.¹

O'z qo'l imzosining u yoki bu muqobilidan foydalanish tartibi qanday (qonun tomonidan, boshqa huquqiy hujjatlar tomonidan yoxud bitim ishtirokchilarining kelishuvi orqali) belgilanganidan qat'i nazar ushbu tartib o'z qo'l imzosining muqobili bilan guvohlantirilgan hujjat bitim tuzgan shaxsniki ekanligini ishonchli ravishda aniqlashga, belgilashga imkon berishi lozim.

¹ Мельников Ю.В., Молчанов В.В., Шерстабинов А.В. Правовое регулирование электронного документооборота в банковской практике. //Гражданско-правовое регулирование банковской деятельности. М.1994. В.109-128.

Elektron raqamli imzo mohiyatini anglab yetish bilan bog‘liq muammolar elektron shaklda tuzilgan hujjatlarni yuridik anglab etish bilan bog‘liq tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. FKning 107-moddasi to‘rtinchi qismida ko‘rsatiladiki xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni ayirboshlash, agar qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitim bilan tenglashtiriladi. Yuqorida nazarda tutilgan vositalarning bir qismi elektron vositalar (masalan faks) hisoblanadi: elektron shakldagi hujjatni anglab yetish muammolari jihatlarini elektron raqamli imzoni anglab yetish muamollari bilan bir xildir. Bunda FKning 366-moddasi to‘rtinchi qismida belgilangan qoidani doim yodda tutish lozim, shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli su‘ratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yuli bilan tuzilishi mumkin”.

Bitim shakliga va uning rekvizitlariga nisbatan qo‘shimcha talablar

Bitimning yozma shakliga va ularning rekvizitlariga nisbatan umumiy talablar qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar va taraflarning kelishuvi bilan to‘ldirilishi mumkin. Masalan, taraflarning imzolarini muhr bosib tasdiqlanishi to‘g‘risidagi taraflar bitim ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilanadi, qalbakilashtirishidan muhofaza qilish maqsadida qimmatbaho qog‘ozlar blankalariga qo‘yiladigan talablar qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi. Bitimlarning yozma shakliga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar turli bo‘lishi mumkin, ularning qateiy doirasi belgilab qo‘yilmagan.

Qonun hujjatlarida, taraflarning kelishuvida qo‘shimcha talablarga rioya qilmaslik oqibatidari nazarda tutilishi mumkin. Agarda bunday oqibatlar nazarda tutilgan bo‘lmasa, FKning 109-moddasida belgilangan bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik oqibatlari qo‘llaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ko‘p hollarda bitim va shartnoma tushunchasi bir xil hisoblanadi hamda shartnoma tushunchasi o‘rniga bitim va bitim tushunchasi o‘rniga

bitim tushunchasi qo'llaniladi. Mazkur holatlarning qaysi bir huquqiy jihatdan asosli ekanligi muhokama qiling?

2. Shartnomalar tuzish erkinligi tamoyili va FKning 377-moddasida belgilangan majburiy tartibda shartnoma tuzish qoidalarining nisbatini tahlil qiling?

3. Fuqaro Qodirovdan Maqsudov 900.000 so'm miqdorida 10 kunlik muddat ichida qaytarish sharti bilan qarz oldi. Umumiy qoida bo'yicha Qodirov Maqsudovga shartnomani yozma ravishda ifodalab qo'yishlarini taklif qildi. Shu ondayoq Maqsudov: "ey, og'ayni, sen nima deb o'ylayapsan, men aytilgan kundayoq pulni qo'lingga tutqazaman", deb og'zaki roziligini olib, taraflar bunga kelishgandek bo'ldilar. Belgilangan kun o'tdi, ammo puldan darak bo'lmadi. Qodirov Maqsudovdan pulni talab qilganida, u bunga o'taketgan e'tiborsizlik bilan qaradi. Qodirov ushbu masala yuzasidan sudga murojaat qildi. Sud tergovida Maqsudov shartnoma tuzilayotganida og'zaki kelishishga o'zi rozi bo'lganligini xaspo'shlashga urindi.

Ish bo'yicha fikringiz qanday? Sukut saqlash aksept bo'la oladimi? Shartnomaning yozma shakli uning og'zaki shaklidan qanday afzalliklarga ega? Agar kelishuv yozma shaklda ifodalanganda jarayon qanday kechardi?

4. Fuqarolar E. Qurbanov va D. Xayrullaevalar xonadonni oldi-sotdi shartnomasini imzoladilar. Shartnoma qonunga muvofiq notarius tomonidan rasmiylashtirildi. Biroq xonadonni sotuvchi D. Xayrullayeva mulk huquqini E. Qurbanovga o'tganligini tasdiqlab, Texnik inventarizastiyalash mahkamasidan ro'yxatga o'tkazishni ayrim sabablarni ro'kach qilib kechiktirib kelgan. Sotib oluvchi fuqaro E. Qurbanov uyga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak. Shartnoma bunday vaziyatlarda qachon tuzilgan hisoblanadi.

5. Bozordagi dialog.

Sotuvchi: "Kep qolinglar yangi uzilgan qulpinay kilosi 5 000 so'm".

Xaridor: "Kilosiga 4 000 so'm beraman".

Sotuvchi: "2 kilosini 9 000 so'mga beraman"

Xaridor: "Unda 2 kg torting"

Ushbu dialogdagi oferta va akseptni farqlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Баратов М.Х. Давлат мулк ҳуқуқи. – Т.: ТДЮИ, 2008. -Б.320.
2. Баратов М.Х. Фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар субъекти сифатида давлат иштирокининг назарий ва амалий муаммолари: Юрид. фан. докт. дис... автореф. –Т.: 2008. -Б.48.
3. Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ, 2009. -Б.296.
4. Имомов Н. Ф. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. –Т.: 2012. -Б.270.
5. Имомов Н. Фуқаролик ҳуқуқида муддатлар ва даъво муддати. Монография. –Т.: ТДЮИ, 2005. -Б.123.
6. Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд. –Т.: Vektor-press, 2010. -Б.816.
7. Нуриддинова Ш. Юридик шахсларнинг бекор бўлиш усуллари. – Т.: ТДЮИ. 2007. -Б.80.
8. Оқюлов О. Интеллектуал мулкнинг ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. –Т.: ТДЮИ, 2004. -Б.431.
9. Раҳмонқулов Ҳ. Битимлар. –Т. ТДЮИ, 2010. -Б.122.
10. Раҳмонқулов Х. Мажбурият ҳуқуқи. –Т. : ТДЮИ. 2005. -Б.306.
11. Раҳмонқулов Ҳ. , Рўзиназаров Ш. , Оқюлов О. , Азизов Х. , Имомов Н. Хусусий мулк объектларининг ҳуқуқий мақоми. –Т. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти, 2007. -Б.220.
12. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари. –Т.: ТДЮИ. 2010. –Б.536.
13. Раҳмонқулов Ҳ. Р. Фуқаролик ҳуқуқининг предмети, методи ва тамойиллари. –Т.: ТДЮИ, 2003. –Б.49.
14. Раҳмонқулов Ҳ. Р. Фуқаролик ҳуқуқининг субъектлари. –Т.: О‘zbekiston, 2008. –Б.168.
15. Раҳмонқулов Ҳ. Фуқаролик ҳуқуқининг объектлари. –Т.: ТДЮИ. 2009. -Б.175.
16. Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истиқболлари. – Т.: ТДЮИ, 2009. –Б.239.
17. Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – юридик шахс сифатида. –Т.: 2005. –Б.320.

18. Юлдашев Ж.И. Топилдиев Б.Р. Абзалов А.А. Фуқаролик ҳуқуқи (Умумий қисм) 505 Саволлар ва жавоблар. –Т.: ТДЮИ, 2010. – Б.310.
19. Bridge M. G. Personal Property Law. 3rd ed. London, 2002. P. 28 – 29.
20. Ernest Joseph Schuster. The principles of German Civil law// Bibliolife, 2015, -754 p.
21. Henry Dyson. French property and inheritance law// Oxford [u.a.] Oxford University Press 2003, - 469 p.
22. Jon W. Bruce, James W. Ely, Jr. Cases and materials on modern property law. Thomson /West. St. Paul. – MN, 2007.
23. Joseph William Singer. Introduction to property. Aspen Publishers. – NY, 2005. -13-15,20-22 p.
24. Keenan and Riches, Business Law, Eleventh edition, 2013, p.75.
25. Mary Keenan, Sarah Riches and Vida Allen. Keenan and Riches' Business Law. Pearson Education Limited. 2011. p 431.
26. Nicolas Bouche. Intellectual property law in France// Alphen aan den Rijn : Kluwer Law International, cop. 2011, 300 p.
27. Steven Friedland. Teaching Property Law. Professor of Law, Nova Southeastern University Shepard Broad Law Center, Fort Lauderdale, Florida. – p 582-596.

FUQAROLIK HUQUQI

DARSLIK

I QISM

Мухаррир: *Ш.Асадов.*

Техник муҳаррир: *А.Юлдашев.*

Компьютерда саҳифаловчи:

Босишга рухсат этилди: 17.01.2017.

Ҳажми: 8 б.т. Адади: 100 та. Буюртма: № 376